



N.M.LATIPOVA, Q.N.KAYUMOV

IJTIMOIY ISHNING ETIK PRINSIPLARI VA QADRIYATLARI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

N.M.LATIPOVA Q.N.KAYUMOV

**IJTIMOIY ISHNING ETIK PRINSIPLARI
VA QADRIYATLARI**

DARSLIK

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO'K: 172(075.8)

KBK 87.7я73

L 56

N.M.Latipova, Q.N.Kayumov. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlar. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi». 2021. - 324 bet.

ISBN 978-9943-7686-2-8

«Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlar» darsligi ijtimoiy ish axloqining asoslarini muhokama qiladi, muhim professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Ushbu darslikni o'zlashtirish orqali professional ijtimoiy ish axloqiy asoslari bilan tanishish, ijtimoiy ish etikasining asoslantirilgan yondashuvlari, nazariyalarini o'rganish, ijtimoiy ish amaliyotida paydo bo'ladigan axloqiy muammolarni aniqlash va hal qilishni o'rgatish, insonlarni kamsitishga qarshi amaliyot asoslarini bilan tanishirish va mijozning yondashuvini o'rganish imkonini beradi.

Darslik o'qituvchilar, qayta tayyorlash va malaka osbirish dasturlari tinglovchilariga, ijtimoiy ish sohasiga ixtisoslashgan talabalar va doktorantlarga, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida faoliyat olib borayaotgan mutaxassislarga mo'ljalangan.

В учебнике «Этические принципы и ценности социальной работы» обсуждаются основы этики социальной работы и приводятся важные профессиональные знания и навыки. Благодаря изучению данного учебника студенты узнают основы профессиональной этики социальной работы, аргументированные подходы к этике социальной работы, теории, выявляют и решают этические проблемы, возникающие в практике социальной работы, а также основы антидискриминационных практик исследовать подход клиента.

Учебник предназначен для преподавателей, слушателей программ переподготовки и повышения квалификации, студентов и докторантов по специальности социальная работа, а также специалистов, работающих в сфере социальной защиты.

The Ethical Principles and Values of Social Work textbook discusses the basics of social work ethics and provides important professional knowledge and skills. Through the study of this textbook, students will learn the basics of professional ethics of social work, reasoned approaches to the ethics of social work, theories, identify and solve ethical problems that arise in the practice of social work, as well as the basics of anti-discrimination practices explore the client's approach.

The textbook is intended for teachers, students of retraining and advanced training programs, students and doctoral students in the specialty of social work, as well as specialists working in the field of social protection

UO'K: 172(075.8)

KBK 87.7я73

Mas'ul muharrir: D.G.Muxamedova – psixologiya fanlari doktori, professor

Taqribchilar:

M.X.Ganiyeva – O'zMU Ijtimoiy ish kafedrasi professori, sotsiologiya fanlari doktori.

M.M.Mahmudova – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, Ijtimoiy ish bo'lim boshlig'i psixologiya fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-7686-2-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

MUQADDIMA

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining eng muhim yo'nalishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishdan iborat¹.

Mamlakatda ijtimoiy himoyani ta'minlash mexanizmlariga, huquqiy me'yordarning har tomonlama asoslangan tizimi, ijtimoiy muhofaza, muhtojlarga moddiy va uyushgan yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan davlat va nodavlat organlari faoliyati, pensiya ta'minoti, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar kiradi. Bunda alohida e'tibor oilalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga qaratilgan.

Bugungi kunda, ijtimoiy ish ijtimoiy ishchilar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalariga va ijtimoiy munosabatlarga kiritilgan davlat va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bu fan aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi faoliyatning axloqiy me'yordari rasmiylashtirilishi, barcha ijtimoiy institutlar kabi ijtimoiy himoya va ijtimoiy ish instituti davlat va jamiyat uchun eng muhim vazifani, jamiyatni barqarorlashtirish va saqlash, mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlash va uyg'unlashtirish, uni yanada har tomonlama rivojlantirish uchun shart – sharoitlarni ta'minlash vazifasi bajarishini o'rgatadi.

Kasb uchun umumiy talablar orasidan siz har doim kasb va muayyan kasb uchun odamlar professional mansubligi aks etgan xarakterli xususiyatlarini topishingiz mumkin.

Bu tabiiydir, chunki, turli kasblar ular bilan shug'ullanadiganlar uchun muayyan talablarni o'z ichiga oladi – bu, odatda, nafaqat ishlab chiqarish, balki, birinchi navbatda, axloqiy talablardir. Ammo, bu dunyoda kasblar mavjud bo'lgan axloqning ko'p turlari mavjud degani emas. Professional axloq har doim ijtimoiy axloqning bir yoki bir nechta modifikatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi va odamlarning axloqiy ongi

¹ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi yig'ilishi, 2017 y., № 6, bet. 70. <http://www.lex.uz>

hamda ularning xatti-harakatlari muqarrar ravishda ish faoliyatining xususiyatlariga ta'sir qiladi.

So'nggi yillarda jamiyatimiz inson hayotining turli sohalarida, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat sohasida, axloqiy baholash mezonini joriy etishga tobora ko'proq intilmoqda. Shu bilan birga, kasbiy-axloqiy tizimlarni rivojlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa inson faoliyatining muhim sohalarida kasbiy xatti-harakatlar va harakatlarning axloqiy tartibga solinishiga, ham jamiyat, ham professional guruhning, mutaxassisning shaxsiy-axloqiy qiyofasiga bo'lgan talablarini oshirishga ehtiyojning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Kasbiy ijtimoiy ish xodim faoliyatida etika normalari bilan korrelatsiya masalasi ayniqsa muhim. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatları ma'ruzalar kursida ijtimoiy ishchining kasbiy faoliyatida ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy ishning axloqiy asoslarini aniqlashga harakat qiladi. Ushbu darslikda ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohaları bo'yicha) yo'nalishini tayyorlash bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq ijtimoiy ishning axloqiy prinsiplari va qadriyatlarini zamonaviy rivojlantirishning eng muhim nazariy-uslubiy masalalari ko'rib chiqildi.

«Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatları kursi», «ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohaları bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarni tayyorlashda uchinchi avlod davlat ta'lim standartidagi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu ijtimoiy ishchining faoliyatining axloqiy komponentining mohiyati, o'ziga xosligi haqidagi zamonaviy ilmiy g'oyalarni aks ettiradi, uning shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarni oqlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy ish alohida, o'ziga xos faoliyat turi, asosiy ma'nosi, mazmuni, yo'nalishi va maqsadlari ijtimoiy va individual ahamiyatga ega qadriyatlarini muvozanat va amalga oshirishni ta'minlashdan iborat. Ijtimoiy ishning axloqiy, kasbiy ahamiyatga ega qadriyatlarini o'rganish va asoslash professional faoliyatning nazariy asoslarini sezilarli darajada mustahkamlaydi, uning mazmunini tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy sivilizatsiyada inson ijtimoiy hodisaning qadriyati, axloqiy tartibga solishning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarni, uning ma'no shakllantiruvchi tarkibiy qismini belgilovchi eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Ushbu kurs talabalarni ijtimoiy ish amaliyoti asoslari bilan tanishtiradi va muhim professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Bu kasbning o'ziga xosligi nafaqat uning ezgu maqsadlari, balki jamiyatdagi professional ijtimoiy xodimlarning roli va vazifalari, umuminsoniy qadriyatlar va prinsiplarga rioya etilishini ta'minlash, ijtimoiyadolatsizlikning har qanday shaklini namoyon etishga to'sqinlik qilish, shuningdek, maxsus kasbiy axloqiy Kodeksning mavjudligi bilan ham tanishtiradi. Ushbu darslik ijtimoiy ishning axloqiy kodeksining yaratilish tarixi, shuningdek, ijtimoiy ishning bevosita va bilvosita amaliyotini amalga oshirishda, ijtimoiy ishchining kasbiy komponentligini shakllantirishda uning rolini batafsil o'rganishga bag'ishlangan. "Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatları" darsligi ijtimoiy ish yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun birinchi maxsus kurslardan biridir.

Ushbu darslikni o'rganish talabalarga professional ijtimoiy ishning axloqiy asoslari bilan tanishish, ijtimoiy ish axloqiga asoslangan yondashuvlar va nazariyalarni, ijtimoiy ish amaliyotida yuzaga keladigan axloqiy ikkilanishlarni aniqlash va hal qilishni, talabalarni kamsitishga qarshi amaliyot asoslari bilan tanishtirish, mijozlarga imkoniyat berish yondashuvi, mijozlarga nisbatan ijtimoiy ish xatti-harakati standartlarini o'rganish imkonini beradi.

Ushbu darslik shu fan orqali talabalarga ijtimoiy ish bo'yicha jahon amaliyotida ta'lif va amaliyot standartlari, litsenziyalash va sertifikatlash bo'yicha g'oyalarni shakllantirish imkonini beradi va ularning professional malakasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1-BOB. IJTIMOIY ISHDA ETIKA (AXLOQ)NING AHAMİYATI

1.1. Ijtimoiy ishda etika(axloq)ning roli.

1.2. Ijtimoiy ishning asosiy axloqiy prinsiplari.

1.3. Ijtimoiy ish etikasi mutaxassisning ma’naviy tafakkuri darajasi sifatida.

1.1. Ijtimoiy ishda axloq (etika) ning roli

Etika gumanitar fanlar sirasiga kiradi, chunki uning o‘rganish ob’ekti inson, uning xulqi va jamiyatga munosabati hisoblanadi. Etikaning asosiy masalasi – yaxshi xulq nima va jamiyatimizda xulqn to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini belgilab berishdan iborat. Jamiyat individlar xulqini ularning manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uzviy ravishda bog‘lashga intilgan holda tuzatishga harakat qiladi. Buning uchun tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin bo‘lgan xulqning ijtimoiy tartibga soluvchilari mavjud: axloq, huquq, an'analar, odob-axloq qoidalari (etiket).

Etika – bu gumanitar ta’limot bo‘lib, uning predmeti axloq, markaziy muammosi esa – yaxshilik va yomonlik nisbati muammosi hisoblanadi.

Etikaning axloq nazariyasi sifatidagi o‘ziga xos xususiyati uning predmeti, tadqiqot usullari, mavjud axloq qoidalari ifodalashdan iborat va boshqa gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liq.

Etikaning asosiy vazifalari: odob-axloq qoidalari izohlash, odob-axloq qoidalari ta’riflash, odob-axloq qoidalariiga o‘rgatish (mazkur vazifa eng bahsli masalalardan biri hisoblanadi).

Axloqiy mohiyatni ikki turga ajratish mumkin: gumanistik va avtoritar etika.

Gumanistik etikaning principial qarashlari uni qator jihatlarga ko‘ra avtoritar etika bilan o‘zaro taqqoslash imkonini beradi: ya’ni aynan,

«mualliflik» va «ijro» bo'yicha farqlash, maqsad va vazifalar bo'yicha tasniflash, tartibga solish usullari bo'yicha ajratish, axloqiy prinsiplarga ko'ra farqlash. Biroq, etikaning ushbu ikki turini bir-biriga qaramaqarshi qo'yish mumkin emas, aksincha, ushbu ikki etika bir biridan to'liq farq qilmaydi, balki etika fanining ikki ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi, deb hisoblash to'g'riroq bo'ladi.

Ular quyidagi jihatlariga ko'ra o'zaro bir-biri bilan bog'liq: aynan bir davrda ular birga mavjud bo'lishi va tartibga soluvchi sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin, aynan bir axloqiy ta'limot o'zida avtoritar kabi gumanistik ibtidolarni qamrab olishi mumkin, shuningdek, aynan bir inson xulqida turli vaqtlarda avtoritar kabi, gumanistik ibtido sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Jahonda ijtimoiy ish rivojlanishi zamonaviy bosqichining o'ziga xos xususiyati turli sohalarini axloqiy jihatdan baholash mezoni hisoblanadi. Ijtimoiy ishda mutaxassislar faoliyatining axloqiy reglamentatsiyasini kiritish masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki inson mutaxassis (mutaxassislar guruhi) tomonidan bevosita ta'sir ko'rsatish ob'ekti hisoblanadi. Ijtimoiy ishda mutaxassisning o'z mijozи bilan muloqoti bevosita amalga oshiriladi va asosan tibbiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa xizmatlarni iste'mol qilish bilan bog'liq. Mutaxassisning o'z mijozи bilan o'zaro munosabatlari natijasi xizmatlar iste'molchisi bo'lgan shaxsning hayoti va taqdiriga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli, ular yordamida jamiyat va ijtimoiy institutlar, shuningdek, ijtimoiy xodimlarning o'zлари ham mutaxassislarning faoliyatini nazorat qilishi va baholashi mumkin bo'lgan umumiy axloqiy me'yorlar va prinsiplar yetarli emasligi namoyon bo'lmoqda, chunki ijtimoiy axloq me'yorlari va prinsiplari asosan faoliyatning yakuniy natijasini ijtimoiy tafakkurning ma'naviy stereotiplariga muvofiq emasligini nazorat qilish va baholash imkonini beradi, biroq

mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayonida uni baholash imkonini bermaydi.

Ijtimoiy ish uning kasbiy faoliyat va ijtimoiy institut sifatidagi samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratuvchi mazmun-mohiyatini qo'llab-quvvatlash va saqlashni kafolatlovchi alohida axloqiy reglamentatsiyasini talab etadi. Axloqiy tizim mijoz va ijtimoiy xodimning huquqlarini, jamiyat manfaatlarini kafolatlashi, mutaxassisning zaruriy shaxsga oid-ma'naviy hamda professional qiyofasini shakllanirishga va u tomonidan kasbiy burchini bajarishiga, bu bilan jamiyatning insonparvarlik va ma'naviyat darajasiga ta'sir ko'rsatish imkonini yaratishi lozim.

Turli ijtimoiy va professional qatlamlar vakillariga nisbatan tabaqalashtirilgan yondashuvlar zarurating vujudga kelishi tezkor sur'atlarda kasbiy axloqning turli shakllarini izlashga kirishishga sabab bo'ldi. Mehnatning kasbiy taqsimoti odamlar faoliyatining u yoki bu turlari doirasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi me'yordalar tabiatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson faoliyati yetarli darajada xilma-xil, bu esa o'z navbatida odamlar va jamiyat o'rtasidagi professional etika deb nomalanuvchi o'ziga xos ma'naviy me'yordarda mujassamlantirilgan o'ziga xos munosabatlarning shakllanishini taqozo qiladi.

«Professional axloq kasb mohiyatini aks ettiruvchi ideallar va qadriyatlar, axloqiy prinsiplar hamda xulq me'yordulari sifatidagi professional axloq haqidagi fanni aks ettiradi. Shu bilan birga professional axloq – bu professional guruhning ma'naviy o'z-o'zini anglashi, uning psixologiyasi va mafkurasi demakdir»¹.

Kasbiy axloq tomonidan o'rganiluvchi predmetga oid sohasi quyidagilardan iborat:

- kasbiy axloq kasb ideallari va qadriyatları majmui sifatida;
- axloqiy prinsiplar, xulq me'yordulari, kodekslari;

¹Прокофьева Г.П. Этика: курс лекций. – Хабаровск: ДВГУПС, 2007. – С. 100.

- mutaxassisning kasbiy burchini bajarishi uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xislatlari;
- mutaxassislarining ma’naviy o‘zaro munosabatlari;
- kasbiy ta’lim va tarbiyaning maqsadlari hamda usullari.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti professional guruhlarning ajratilishi va kasbiy axloqning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy guruhlarning ajratib ko‘rsatilishi bilan mazkur guruhlar ichida odamlarning munosabatlarini tartibga solish ehtiyoji vujudga keladi. Jamiyat rivojlanishi bilan odamlar orasidagi o‘ziga xos o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga imkoniyat yaratuvchi yangi va yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Professionalarning o‘zaro bir-birlari bilan, ularning mehnati iste’molchilar bilan munosabatlari amaliyotlarda, ularning faoliyatini tartibga solish tajribalari asosida kasbiy axloqning odatiy ma’muriy-huquqiy tartibga soluvchi (me’yorlar, yo‘riqnomalar) asoslari shakllangan. Professional (kasbiy) munosabatlar kasbning nisbatan mustaqilligini, uning ma’naviy muhitini ifodalay boshladи, bu esa o‘z navbatida odamlar harakatlarining o‘ziga xos jihatlarini va ularning xulqlarining me’yorlarini belgilab berdi.

Shakllanib ulgurgan kasbiy munosabatlar sifatga oid barqarorlikka ega bo‘ladi, buning ortidan esa alohida o‘ziga xos ma’naviy qarashlar shakllanadi. Har bir tarixiy davr o‘ziga xos kasbiy me’yorlar, kasbiy odob-axloq me’yorlari majmuiga ega bo‘lgan. Mehnat sohasida odob-axloq qoidalari ijtimoiy tabiatga esa va kasbiy axloqning turli ko‘rinishlari: shifokorlar, menejer, ijtimoiy xodim, pedagog, jurnalist va boshqalarning axloq me’yorlari bilan bog‘lanadi.

Professional mehnat insonparvarlik mavzularining turli ko‘rinishdagi majmulariga bog‘liq, chunki, insonning salomatligi holati, ma’naviy dunyosi va jamiyatdagi o‘mi, uning huquqlarini hamda asosiy hayotiy qadriyatlarini himoya qilish aynan mehnat samaradorligiga bog‘liq. Bu kabi kasblar xodimlariga odatda yuqori professional talablar qo‘yiladi, chunki odamlar hayoti, ularning jismoniy va ijtimoiy salomatligi aynan ularga bog‘liq. Shu sababli,

yangi cheklovlar va taqiqlar, yangi asoslar, qadriyatlar va ideallarga zarurat vujudga keladi. Bularning bari yangi, nisbatan oliv va ko‘p qirrali ma’naviy javobgarlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Qator holatlarda bu alohida kodekslar, deklaratsiyalar, turli ko‘rinishdagi “qasamlar”ni ishlab chiqishni (so‘ngra ularni belgilab qo‘yishni) talab etgan. Ular bir tomonidan professionallarning kasbiy faoliyat “iste’molchilar”ning manfaatlari o‘z ifodasini topgan muayyan xulqiy standartlarga amal qilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Boshqa tomonidan esa ular “ulkan” jamiyatdagi professional uyushmalarning axloqiy nufuzi va obro‘-e’tiborini saqlash, ularga bo‘lgan ishonchni singdirish va bu bilan mazkur uyushmalar a’zolarining shaxsiy rivojlanishi uchun moddiy hamda ma’naviy-axloqiy asoslarni ta’minlashga qaratilgan. Tashqariga qaratilgan talablar bilan bir qatorda professional uyushmalar o‘z a’zolarini ham tartibga soluvchi ma’naviy me’yorlarni ishlab chiqish va mustahkamlashga intilganlar. Mazkur jihatdan G‘arbiy Yevropa shaharlariда ishlab chiqarish sexlarining faoliyatini belgilab beruvchi ustavlar muhim ahamiyatga ega.

Mutaxassis harakatlarini tartibga solishga yo‘naltirilgan dastlabki axloqiy talablar miloddan avvalgi uchming yillikka mansub bo‘lgan “Ptaxxettep shahar boshlig‘i va vazirning nasihatlari” manuskriptida, miloddan avvalgi 1750-yilga mansub bo‘lgan, shifokorlar faoliyati va tibbiy yordamga to‘lanidigan haqni tartibga soluvchi, tibbiy axloq asoslari bayon qilingan “Xammurapi qonunlari”da uchraydi. Rus xalqining axloqiy an’analalarining ildizlari qadimgi slavyan dunyoqarashlariga, provoslav ilohiyot mutaxassislari va dunyoviy faylasuflar asarlariga borib taqaladi. Yuz yillar davomida rivojlanib kelayotgan va provoslav ma’rifatchilar tomonidan keng yoyilgan xristian axloq an’analari aholining eng turli qatlamlari orasida o‘z ta’siriga ega bo‘lgan va natijada dunyoviy olimlarning falsafiy hamda axloqiy asarlariga, adabiyotchilarning ijodlariga ulkan ta’sir ko‘rsatdilar¹.

¹Медведева Г.П. Этика социальной работы. – Москва: Владос, 2002. – С. 40.

Ijtimoiy ish tizimiga cheklangan tarzda kiruvchi, ajralmas tarkibiy qism sifatidagi professional axloq o‘z shaxsiy maqsadlari va vazifalariga ega, muayyan vazifalarni, jumladan, ijtimoiy ishning jamiki turlarining mazmun mohiyatini nazorat qilish va tartibga solish vazifasini bajaradi. Ijtimoiy ish etikasining maqsad va vazifalari, uning qarashlari, prinsiplari va me’yorlari ijtimoiy ishning maqsad va vazifalariga zid emas, aksincha, ularning sifatli, samarali va ijodiy nuqtayi nazaridan bajarilishiga imkoniyat yaratadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib shuni tan olish lozimki, ijtimoiy ishning axloqiy tizimi jamiyatning axloqiy tizimi kabi, professional ijtimoiy ish tizimining ham nisbatan mustaqil tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning nisbatan mustaqilligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- uning tizim sifatidagi xususiyatlari uning alohida elementlari xususiyatlarining yig‘indisiga birlashtirilmaydi, balki integrallikka ega bo‘ladi;
- u o‘zini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning yangi xususiyatlari to‘g‘risida xabar berish, o‘ziga yangi xususiyatlarni qamrab olish, mavjud elementlarni ko‘rinishini o‘zgartirish va inkor qilish qobiliyatiga ega;
- tuzilmaga oid bir butunlikka ega bo‘lgan holda u boshqa tizimlarning tarmoq tizimi, ya’ni professional ijtimoiy ish tizimi va ijtimoiy axloq tizimi sifatida namoyon bo‘ladi;
- u ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar va professional faoliyat bilan qonuniy ravishda bog‘liq, biroq ularni faqatgina axloqiy qadriyatlar bilan ziddiyatga bormagan darajada aks ettiradi.

Ijtimoiy ish etikasini ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislarining professional axloq-odobi nazariyasi, ideallar va qadriyatlar tizimi, tegishli, axloqiy prinsiplar va xulq me’yorlari, mutaxassis shaxsiga qo‘yiladigan, kasbning mohiyati va o‘ziga xosligini aks ettiruvchi hamda odamlar orasidagi kasbiy faoliyati mohiyatidan kelib chiquvchi va ijtimoiy xodimning professional axloqiy kodeksida tizimlashtirilishi

mumkin bo‘lgan mehnat jarayonida shakllanuvchi munosabatlarni ta’minlovchi talablar sifatida ta’riflash mumkin. Shu bilan birga ijtimoiy ishning kasbiy axloqi – bu professional guruhning ma’naviy o‘z-o‘zini anglashi, uning psixologiyasi va mafkurasi demakdir.

Ijtimoiy ish etikasining o‘rganish ob’ekti sifatida umumiy falsafa va kasbiy axloqdagи kabi mutaxassislarning ijtimoiy voqelik, kasbiy faoliyat va mutaxassis, uning turmushi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi ta’siri ostida shakllanuvchi kasbiy axloqi namoyon bo‘ladi. Uning predmeti ijtimoiy xodimlar faoliyati jarayonida o‘zaro, mijozlar (mijozlar guruhi) bilan, turli organ va muassasalar vakillari hamda umuman jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek, mutaxassislarning ular tomonidan o‘z professional majburiyatlarini bajarish jarayonidagi axloqiy harakatlari va ularning axloqiy tajribasi hisoblanadi. Ijtimoiy ish etikasining maqsadi – professional faoliyatning ijtimoiy ma’qullangan mohiyati va maqsadlarini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlashdan iborat, uning asosiy vazifasi esa – professional guruhning alohida vakillari va ularning uyushmalarining munosabatlari, xulqi va harakatlarini me’yoriy jihatdan tartibga solish va nazorat qilish, mutaxassislarning tafakkuriga ta’sir ko‘rsatish va ularning ma’naviy qiyofasi, axloqiy tafakkuri hamda ehtiyojlarini shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy ishning professional axloqiy tizimining asosi – bu kasbiy faoliyatning ma’nosи, mazmun va mohiyati bilan bir qatorda barcha kasblar vakillari uchun umumiy bo‘lgan, uning ijtimoiy vazifalarida ifodalangan kasbiy axloq talablari hisoblanadi. Jamiyatda hozir ham mavjud va avval ham mavjud bo‘lgan kasb u yoki bu darajada muayyan mahsulotga ehtiyoji bo‘lgan jamiyat tomonidan talabga ega bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida jamiyatning muayyan ijtimoiy buyurtmasini bajaruvchi va shunga muvofiq ravishda muayyan vazifalarni bajaruvchi aniq maqsadli yo‘naltirilgan professional faoliyatning rivojlanishini taqozo qiladi. Demak, insонning hayotda muhim o‘rin tutgan, jamiyat taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi professional faoliyati axloqiy

me'yor va prinsiplarning kasbiy faoliyat mohiyatiga va bu jarayonda odamlar orasida vujudga keluvchi ishlab chiqarish munosabatlarida hamda ijtimoiy buyurtmani bajarish sohasida sotsium talablari va umidlari kabi talablarga javob beruvchi o'ziga xos va aniq tizimlarini ishlab chiqishni talab etadi.

1.2. Ijtimoiy ish etikasining asosiy prinsiplari

Ijtimoiy ish doimo murakkab kasb bo'lgan va bo'lib qolmoqda, chunki u turli (ijtimoiy, xususiy, mustaqil, ko'ngilli) bo'g'inlardagi faoliyatni qamrab oladi, turli yo'nalishlarda (institutsiyal muassasalarda faoliyat olib borish, ofis xizmati, qandaydir maqsadli guruuhlar uchun loyihalarni rivojlantirish) amalga oshirilishi mumkin, turli vazifalarni (parvarish qilish, nazorat, qandaydir faoliyatni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash va imkoniyat yaratish, baholashni amalga oshirish, boshqaruv) turli maqsadlarda (manbalarni ularga muhtoj bo'lganlar foydasiga qayta taqsimlash, ijtimoiy nazorat va turli xulqiy og'ishlarni reabilitatsiya qilish, ijtimoiy muammolarning vujudga kelish xavfining oldini olish va pasaytirish) amalga oshirayotgan xodimlarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur farqlar yoki ayrim mualliflar "fragmentatsiya" deb nomlayotgan mazkur hodisa oxirgi vaqtlargaga kelib kuchayib bormoqda. Biroq mijozning o'z-o'zini rivojlantirish prinsipi, ayblamaslik va maxfiylik prinsipi kabi o'xhash qadriyatlar tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, tibbiyot va maslahat berish amaliyotining asosi bo'lishiga qaramasdan mazkur qadriyatlar vazifa va yo'nalishlarning keng doirasini qamrab oladi, va aynan shu sababli "Ijtimoiy ish" nomi ostidagi yagona konseptual model nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi mumkin¹.

Ijtimoiy xodimning o'zgaruvchan roli. Ijtimoiy xodimlar an'naviy

¹Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы» Составители: Ганиева М.Х., Карамян М.Х. – Ташкент. 2008. – С.68-69.

ijtimoiy xodim yoki terapevt rolini emas, balki tobora ko‘proq manbalarni boshqarish, baholash va monitoring qilish bilan bog‘liq vazifalarni bajarmoqdalar. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar, ko‘rib turganimizdek, professional ta’limdan ko‘ra ko‘proq texnik malaka tushunchasiga asoslangan, buni esa o‘z navbatida Ijtimoiy ish sohasida ta’lim va kadrlar tayyorlash bo‘yicha Kengash tomonidan taqdim qilingan, ijtimoiy ish sohasidagi diplomda keltirilgan oxirgi o‘zgarishlarda ko‘rish mumkin¹. Bu esa professional ta’limning an’anaviy prinsiplariga katta xavf tug‘diradi².

Umuman etika kabi, ijtimoiy ish etikasi ham odamlar orasidagi falsafa, psixologiya, sotsiologiya va gumanitar sohaning boshqa tarmoqlariga asoslangan munosabatlarning murakkab sohasi hisoblanadi. Ijtimoiy ish etikasida predmetga oid bo‘lgan to‘rtta asosiy metodologik toifalar ajratib ko‘rsatiladi:

- axloqiy tafakkur;
- axloqiy munosabatlar;
- axloqiy harakatlari;
- professional burch.

Ijtimoiy ish etikasining barcha toifalari ma’naviy me’yorlarga asoslanadi (lotin tilidan norma – qoida, namuna; ma’naviy talabning eng sodda shakli hisoblanadi). Ma’naviy me’yorlar jamiyat tomonidan odamlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati va birga hayot kechirishining eng muhim boshqaruvchi va tartibga soluvchi vositalardan biri sifatida qabul qilinadi. Ular shuningdek, kasbning ijtimoiy ishning metodologik mohiyatining tarkibiy qismi bo‘lgan qadriyatlariga asoslanadilar. Ijtimoiy xodimning axloqiy tafakkuri – bu gumanistik mavjudlik va insoniyat uyushmalarining rivojlanishini, unda shaxsning munosib yashashini, uning erkin rivojlanishini va inson hayotining oliy mohiyatiga muvofiq ravishda o‘z-o‘zini namoyon qilishini ta’minlovchi, jamiyat tomonidan ma’qullanadigan axloq

¹ Склирова Т.В. Современные проблемы профессиональной этики социальной работы: Учеб. пособие. – Саратов: Сарат. гос. техн. ун-т, 2002. – С.17.

²Sarah Banks Professional Ethics in Social Work—What Future? Br. J. Social Wk. (1998) 28, – P.213-231.

prinsiplariga asoslangan to'liq anglangan borliq, qarashlar va harakatlar demakdir. Ijtimoiy xodimning axloqiy tafakkurining tarkibiy qismlari (bosqichlari):

- ma'naviy bilimlar;
- ma'naviy qarashlar;
- harakatga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj;
- ma'naviy harakat.

Kasbiy axloq ijtimoiy ishning o'zagi hisoblanadi. Mazkur kasbda uning asosiy qadriyatları, axloqiy prinsiplari va ma'naviy standartlari qat'iy belgilanishi talab etiladi. Milliy assotsiatsiyaning Axloq Kodeksi mazkur qadriyatlar, prinsiplar va standartlarni belgilab beradi. Mazkur Kodeks barcha ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy ish yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan barcha talabalarga, ularning professional vazifalari, ish muhiti va ular xizmat ko'rsatayotgan aholi qatlidan qat'i nazar yo'l- yo'riq ko'rsatuvchi yo'riqnomasi hisoblanadi. "Etika – bu inson harakatlarining muayyan sinfi yoki muayyan guruhiga nisbatan qabul qilingan axloqiy prinsiplar va qoidalar to'plamidir" (Webster's 1989). Etika shuningdek, harakatlarning "maqbul" yo'nalishini belgilab olish bilan bog'liq, yoki mazkur vaziyatning barcha jihatlarini e'tiborga olgan holda u yoki bu vaziyatdagi ma'naviy zarurat hisoblanadi¹.

Amaliyot turlari². Ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy xizmat xodimlari shuningdek, bevosita va bilvosita amaliyotni hamda klinik yoki klinik tekshiruvlarga qadar bo'lgan aralashuvlarni qamrab oluvchi xizmatlarning keng doirasini ifodalaydi. Mijozlar uchun kasbiy faoliyat tajribasi asosida maqsadga shaxsiy muloqot va xizmatlarni izlayotganlarning bevosita ta'siri ostida erishish mumkin. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan harakatlarning bilvosita kasbiy amaliyoti tezkor aralashuv yoki mijoz bilan shaxsiy muloqotga kirishish bilan bog'liq bo'lmagan holda ijtimoiy xodimlar uchun xizmat qiladi, klinik

¹Райкерт Э. Социальная работа и права человека. Хрестоматия «Основы социальной работы». Составители Ганиева М.Х., Карамян М.Х., Проект «Укрепление образования, практики и профессии «Социальная работа» в Узбекистане», РЦСАД – ТТИК – МБСО – МНО – ЮНИСЕФ Ташкент, 2011.

²Code of ethics and Standards of practice handbook second edition – 2008. Includes amendments to the standards of practice, effective October 1, 2010 and February 13, 2011. – P. 1-2.

amaliyotda professional amaliyot sirasiga kiritilishi mumkin. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati nazariyasini qo'llash davolash usullari va ijtimoiy buzilishlar, nogironlik yoki og'ishlarning oldini olish imkonini beradi, biroq bu bilan cheklanib qolmasdan hissiy yoki ruhiy kasalliklarni ham davolash imkoniyatini yaratadi. Kollej a'zolarining kasbiy xulqini tartibga solish va amaliyotni oshirish masalalarini hal etish imkonini beradi.

Asosiy qadriyatlar va Axloq Kodeks. Ayrim o'zgarishlar jarayonida Axloq Kodeksida mujassamlantirilgan asosiy qadriyatlar to'plamini saqlab qolish ijtimoiy ish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlovchi insonlar mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin. Ijtimoiy Xodimlar Xalqaro Federatsiyasi (TFSW) tomonidan tashkil etilgan Yevropa seminarida quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilgan va tavsiya qilingan: Yevropa darajasida ijtimoiy ishning Xalqaro Axloq Kodeksida ifodalangan kasbiy majburiyatlarini aks ettiruvchi qadriyatlarini ishlab chiqish. Mazkur Kodeks bugungi kunda va aynan shu yerda ijtimoiy ish va ijtimoiy faoliyat uchun yo'riqnomalar bo'lib xizmat qilishi lozim bo'lган qadriyatlarning eng to'g'ri majmui hisoblanadi¹.

Boshqa tomondan ta'kidlash mumkinki, bu kabi tarkibiy qismlarga ajratish davrida bir mamlakat doirasida ijtimoiy ishning yagona axloqiy g'oyasini saqlab qolish imkonini mavjud emas, xalqaro daraja to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Bu yerda sog'liqni saqlash sohasiga tegishli bo'lishi zarur bo'lган kodeksda keltirilganidek, kasbda ma'lum bir milliy birlik bo'lishi kerak, axloq kodekslari ham kasb, ham jamoat tomonidan qadriyatlar bo'yicha bir fikrga kelishlari talab etiladi.

Kasblarning bo'linishi va foydalanuvchilar xizmatlarni kasblar emas, balki, o'z qadriyatlari nuqtayi nazaridan ko'rsatilishini talab qilishlari kabi konsensus bormi, degan shubha mavjud. Endilikda uyushmalarda emas, balki ular orqali faoliyat olib borilishi kutilgan kasblar qaysi ekanligidan kelib chiqqan holda axloq kodekslari holati

¹ Международная Федерация социальных работников. <http://ssopir.ru/archive/IFSW.html>.

kasbiy hayot markazidan chetga qarab siljidi¹.

Axloq Kodeksi va ijtimoiy ish amaliyoti standartlari.

Ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy ta'minot tizimi ikkita kasbni boshqaradi – ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy ta'minot xodimlarini boshqaradi. Axloq Kodeksi ta'lim oluvchilar uchun quyidagilarni bayon qiladi:

1. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi mijoz manfaatlarini qo'llab-quvvatlashni asosiy kasbiy burch deb hisoblashlari lozim.
2. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi o'zlari xizmat ko'rsatayotgan odamlarga xos bo'lgan qadriyatlarni yoki ular bilan o'matiladigan professional munosabatlarni hurmat qilishi lozim.
3. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi o'zining kasbiy burch va majburiyatlarini to'liq va obyektiv ravishda bajarishlari lozim.
4. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi ijtimoiy ish mijoziga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida yuqori malakaga ega bo'lishi lozim.
5. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi mijoz bilan munosabatlardan shaxsiy manfaatlari, o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanmasliklari lozim.
6. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi kasbi ortidan egallangan ma'lumotlarning maxfiyligini himoya qilishni ta'minlashlari lozim. U bu kabi ma'lumotlarni faqatgina qonunan ruxsat etilganda yoki mijozning o'zi ushbu ma'lumotlarning ma'lum qilinishiga rozi bo'lganliklarida ochishi mumkin.
7. Boshqa kasb, mashg'ulotlarda, uyushma yoki jamoalarda ishtirok etuvchi ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi o'z faoliyati davomida mazkur tashqi qiziqishlarning ijtimoiy ishga yoki ijtimoiy ta'minot xodimining mijozlar bilan mehnat munosabatlariga ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashi zarur.
8. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi ijtimoiy ish,

¹Sarah Banks Professional Ethics in Social Work – What Future? Br. J. Social Wk. (1998) 28, – P. 213-231.


ijtimoiy ta'minot yoki ijtimoiy xizmat ko'rsatishni ijtimoiy ish kasbiga ziyon yetkazadigan usulda amalga oshirmsasliklari yoki jamoatning mazkur faoliyat yoki har qanday boshqa kasbga bo'lgan ishonchiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan tarzda amalga oshirmsasliklari talab etiladi.

9. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi Axloq Kodeksi va Ijtimoiy xodimlar amaliyot standartlariga muvofiq bo'lgan ishchi o'rni va siyosati shart-sharoitlarini himoya qilishi lozim.

10. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi o'z kasbiga ustun jihatlarni egallagan bo'lishlari lozim.

11. Ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy ta'minot xodimi mijoz manfaatlari yo'lidagi va jamiyat, ijtimoiy muhit va global uyushmalar foydasi yo'lida amalga oshiriladigan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashlari va himoya qilishlari lozim¹.

Ijtimoiy xodim kasbining vazifasi ildizlari ayrim asosiy qadriyatlarga borib taqaladi. Ijtimoiy xodimlar tomonidan kasbning butun tarixi davomida saqlanib kelinayotgan ushbu asosiy qadriyatlar ijtimoiy ishning o'ziga xos maqsadi va qarashlarining asosi hisoblanadi².



1-rasm. Ijtimoiy ish qadriyatlari.

Axloqiy prinsiplar.

Axloqiy prinsiplar ijtimoiy ishning asosiy qadriyatlariga

¹Code of ethics and Standards of practice hand book second edition – 2008. Includes amendments to the standards of practice, effective October 1, 2010 and February 13, 2011. – P. 1-2.

²NASW Code of Ethics, 1996. – P.1.

asoslangan: xizmat ko'rsatish, ijtimoiy adolat, inson nufuzi va qadri, insoniy o'zaro munosabatlarning muhimligi, vijdonlilik va layoqatlilik, ushbu prinsiplar ijtimoiy xodim intilishi zarur bo'lgan barkamollik timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyat: xizmat ko'rsatish.

Axloqiy prinsip ijtimoiy xodimning birinchi darajali maqsadi – muhtojlarga yordam ko'rsatish va ijtimoiy muammolarni hal etishga asoslangan. Ijtimoiy xodimlar boshqalarga xizmat ko'rsatishni shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadilar. Ijtimoiy xodimlar o'z shaxsiy bilimlari, qadriyat va ko'nikmalarini muhtojlarga yordam ko'rsatish va ijtimoiy muammolarni hal etishga safarbar qiladilar. Ijtimoiy xodimlar ularning qandaydir moliyaviy pul ko'rinishidagi mukofotni kutmasdan o'z kasbiy malakalarini ko'ngilli ravishda sarflashlarida (jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilish) to'liq qo'llab-quvvatlanadilar.

Qadriyat: Ijtimoiy adolat.

Axloqiy prinsip: Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chiqadilar, va ijtimoiy xodimlar avvalambor, qashshoqlik, ishsizlik, taqirlash va ijtimoiyadolatsizlikning boshqa shakllari muammolariga tegishli bo'lgan ijtimoiy, ijobjiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Ushbu harakatlar etnik xilma-xillikka va jamiyatda mavjud bosimni anglashga bo'lgan sezgirlikni oshiradi. Ijtimoiy xodimlar zarur axborot, xizmat va manbalardan foydalanish; teng imkoniyatlar; barcha odamlarning qaror qabul qilish jarayonida ishtiroy etish imkoniyatlarini kengaytirish uchun kurashadilar.

Qadriyat: Inson nufuzi va qadri.

Axloqiy prinsip: Ijtimoiy xodimlar shaxsning tug'ma nufuzi va qadrini hurmat qiladilar. Ijtimoiy xodimlar har bir kishiga nisbatan hurmat va e'tibor bilan, ularning individual farqlari va madaniy, etnik xilma-xilligini yoddan chiqarmagan holda munosabatda bo'ladilar. Ijtimoiy xodimlar mijozning o'z-o'zini anglashdagi ijtimoiy mas'uliyatining muhimligini ilgari suradi. Ijtimoiy xodimlar mijozning o'z hayotini o'zgartirish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish qobiliyati va

imkoniyatini yaxshilashga harakat qiladilar. Ijtimoiy xodimlar ularning mijoz va umuman jamiyat oldidagi ikki barobar yuqori mas'uliyatlarini anglaydilar. Ular mijozlar manfaatlari va jamiyat manfaatlari o'rtaсидаги низоларни касбнинг тегишли қадриятлари, ахлоқија принциплари ва ахлоқија стандартларига мос бўлган ижтимоий мас'улият нуқтayı нazaridan hal etishga intiladilar.

Qadriyat: Insoniy o'zaro munosabatlarning muhimligi.

Axloqiy prinsiplar: Ijtimoiy xodimlar insoniy o'zaro munosabatlarning o'ta muhimligini tan oladilar. Ijtimoiy xodimlar odamlar orasidagi munosabatlar o'zgarishlarning muhim quroli ekanligini to'liq anglaydilar. Ijtimoiy xodimlar yordam ko'rsatish jarayonida odamlarga o'z hamkorlari sifatida munosabatda bo'ladi. Ijtimoiy xodimlar o'z kasbiy faoliyatlari doirasidagi individlarning, oilalar, ijtimoiy guruhlar, tashkilot va jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash, qayta tiklash, saqlash va yaxshilashga urinishlar asosida odamlar orasidagi munosabatlarni mustahkamlashga intiladilar.

Qadriyat: Vijdonlilik.

Axloqiy prinsip: Ijtimoiy xodimlar har doim o'zlarini munosib tarzda tutadilar. Ijtimoiy xodimlar doimiy ravishda atrofdagilarga o'z kasb vazifalarini, uning qadriyatlari, axloqiy tamoyillarini, axloqiy standartlarini namoyon qilishlarini to'liq anglaydilar va kasbiy amaliyotni munosib ravishda amalga oshiradilar. Ijtimoiy xodimlar o'zları faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning axloqiy tajribasiga amal qilgan holda halol va mas'uliyat bilan yondashadilar.

Qadriyat: Layoqatlilik.

Axloqiy prinsip: Ijtimoiy xodimlar o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirgan va oshirib borgan holda o'z layoqatlari doirasida xizmat ko'rsatadilar.

Ijtimoiy xodimlar o'z bilimlarini tajribada ko'proq qo'llash uchun kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga intiladilar. Ijtimoiy xodimlar ularning bilimlari kasbni rivojlantirishga ahamiyatli hissa

qo'shishiga intilishlari zarur¹.

Ijtimoiy ishning maqsadlari va qadriyatlar².

Ijtimoiy xodimning birinchi navbatdagi vazifasi – mijoz farovonligini ta'minlash, insonga o'z ehtiyojlarini qondirishda yordam ko'rsatish, himoyaga muhtoj guruhlarga mansub bo'lgan, tahqirlashga duchor bo'lgan yoki qashshoqlikda yashovchi odamlarni imkoniyat va manbalar bilan ta'minlashdan iborat.

Mazkur qoidalar turli madaniyatlar, oilalar, guruqlar, tashkilotlar va uyushmalar vakillariga bir xilda qo'llanilishi mumkin.

Ijtimoiy ish etikasi ijtimoiy xodimlarga axloqiy qadriyatlarga tegishli bo'lgan muammolarga taalluqli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Axloq Kodeksning boshqa bir maqsadi – ijtimoiy xodimning o'zi axloqiy prinsiplar va xulq standartlarini buzganda sud qarorini qabul qilish uchun yo'l ochib berishdan iborat.

Axloq Kodeksi ijtimoiy xodimga mas'uliyat va kasbiy mahorat bilan yondashish hamda qabul qilingan qarorning to'g'riligiga qat'iy ishonish imkonini beradi³.

Ijtimoiy xodim Axloq Kodeksining maqsadi.

Kasbiy axloq (professional etika) ijtimoiy ishning asosi hisoblanadi. Mazkur kasb o'zining asosiy qadriyatları, axloqiy prinsipları va axloqiy standartlarini aniq belgilab olish majburiyatiga ega. IXMU (Ijtimoiy Xodimlar Milliy Uyushmasi)ning Axloqiy Kodeksi ushbu qadriyatlar, prinsiplar va standartlarni ijtimoiy xodimlar o'z faoliyatları davomida ulardan foydalanishlari uchun yo'riqnomal bo'lib xizmat qilishi uchun shakllantiradi. Mazkur Kodeks barcha ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy ish bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun, kasbiy majburiyatları, ular faoliyat olib borayotgan muhit va xizmat ko'rsatayotgan aholi guruhidan qat'iy nazar tegishli.

¹NASW Code of Ethics, 1996. – P.3-4.

²Уша ерда – Б. 2-4.

³ Этический кодекс Национальной Ассоциации Социальных Работников. Утвержден Делегатской Ассамблеей НАСР 1996 года и пересмотрен Делегатской Ассамблей НАСР 1999 года.

IXMUning Axloq Kodeksi quyidagi vazifalarni bajaradi:

Ijtimoiy ish vazifasining asosiy tayanchi bo‘lgan asosiy qadriyatlarni belgilab beradi. Mazkur kasbning asosiy qadriyatlarini aks ettiruvchi, va ijtimoiy xodimlar o‘z faoliyatları davomida amal qilishlari lozim bo‘lgan o‘ziga xos axloqiy standartlar to‘plamini belgilab beruvchi umumiyligi axloqiy prinsiplarni jamlaydi (umumlashtiradi).

Ijtimoiy xodimlarga kasbiy majburiyatlarida ixtiloflar kelib chiqqanda yoki u yoki bu harakatning axloq qoidalariga muvofiqligiga shubha tug‘ilganda to‘g‘ri yechimlarni topishda yordam beradi. Keng jamoatchilik ularga tayangan holda ijtimoiy ish kasbining mas’uliyati masalalarini o‘rganishi mumkin bo‘lgan axloqiy standartlarni taqdim qiladi.

Ijtimoiy ish amaliyotiga yangi kirib kelgan xodimlarga kasbning maqsadi, qadriyatlari, axloqiy prinsiplari va ma’naviy standartlarini yaxshiroq o‘zlashtirishda yordam beradi. Ularga amal qilgan holda kasb ichida u yoki bu xodim xulqining axloq qoidalariga mosligi yoki axloqsizlik ekanini aniqlash mumkin bo‘lgan standartlarni shakllantiradi. IXMU ichida uning a’zolarining faoliyati bo‘yicha shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun rasmiy tartib va ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan. Xodimlar mazkur Axloq Kodeksiga qo‘silar ekan, ular kodeksning bajarilishiga amal qilishlari, qarorlar qabul qilish bo‘yicha rasmiy qoidalarning ishlab chiqilishida ishtiroy etishlari, shuningdek, unga asoslangan barcha dissiplinar qoidalari yoki qarorlarga bo‘ysunishlari talab etiladi¹.

Bugungi kunda professional me’yorlar rivojlanadi va takomillashib boradi, ijtimoiy munosabatlar o‘zgarib boradi. Dunyoning mazkur yangi manzarasida tabiat va atrofdagi odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish har doimdagidan ham muhim, bu esa o‘z navbatida har qanday kasb vakillarining kasbiy axloqidagi asosiy ustunliklarni belgilab beradi.

Shunday qilib, kasbiy axloq etika kabi umuman ishlab chiqilmaydi,

¹NASW Code of Ethics, 1996. – P. 2-3.

balki sekin-astalik bilan odamlarning kundalik o'zaro hamkorlikdagi faoliyati jarayonida shakllanib boradi. Kasbiy axloq faoliyatning mazkur faoliyat turi uchun xos bo'lgan tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan tajribani tizimlashtiradi, umumlashtiradi va faoliyatning mazkur turini amalga oshirish davomida takomillashtirib boradi. Shu sababli kasbiy axloq faoliyatning turi va ko'rinishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos jihatlariga ega bo'lgan umumiy ma'naviyatning bir turi sifatida ifodalanishi mumkin, ya'ni kasbiy axloqni o'rganuvchi amaliy ilmiy fan hisoblanadi.

1.3. Ijtimoiy ish etikasi mutaxassisning ma'naviy tafakkuri darajasi sifatida

Ijtimoiy xodim etikasining nazariy mohiyati bazaviy axloqiy toifalar yordamida ochib beriladi. Ularga baxt, ezzulik,adolat kabi tushunchalar tegishli. Mazkur jihatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyatida alohida tarzda namoyon bo'ladi. Aynan shu sababli biz ijtimoiy xodim axloqini ma'naviy tafakkurning muayyan darajasi sifatida ifodalashimiz mumkin¹. U umuman ijtimoiy soha va jumladan ijtimoiy xizmatlar tizimidagi ma'naviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Ma'naviy tafakkur – ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy turmushning aksi bo'lgan boshqa shakllari kabi shakllaridan biri hisoblanadi. U axloqning subyektiv jihatlarini aks ettiruvchi tarixdan o'zgaruvchan ma'naviy munosabatlarni qamrab oladi. Ma'naviy tafakkur asosida ma'naviyat toifasi yotadi. Fanda ma'naviyat taomillar, urf-odatlar, amaliy harakatlar sifatida ifodalanadi, axloq esa – tafakkur shakli, deb hisoblanadi.

Axloqiy tafakkur axloqning suyektiv aksi hisoblanadi, chunki obyektiv ijtimoiy zarurat va ijtimoiy ehtiyojlar mutaxassis tafakkurida

¹ Багдасарьян Н.Г. Культурология: учеб. для студентов техн. вузов / под ред. Н.Г. Багдасарьяна. 3-е изд., испр. и доп. Москва: Вышш. шк., 2001. – 511 с.

tegishli xulq va harakatlar haqidagi g'oyalar sifatida ifodalandi. Ma'naviy tafakkur quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan murakkab tuzilmaga ega: ma'naviy oliv maqsad, ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy rag'bat va o'z-o'zini baholash, me'yorlar, qadriyatga oid yo'naltirilganlik, qarashlar, hissiyotlar¹.

Ma'naviy tafakkurda ikkita asosiy ibtidolarni ajratib ko'rsatish zarur: emotsiyal (hissiy) va intellektual (oqilona). Ularning har ikkisi ham o'zaro uzviy bog'liq, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy hodisalarni yaxshilik va yomonlik nuqtayi nazaridan to'liq va chuqur, aql va yurak bilan baholash hamda inson harakatlariga aynan shu nuqtayi nazardan ta'sir ko'rsatish imkonini beradi². Emotsional ibtido dunyoni his qilish va dunyoni idrok qilish ko'rinishida ifodalanadi, bu hayotning turli tomonlariga shaxsiy munosabatni aks ettiruvchi ma'naviy hissiyotlar demakdir. Intellektual ibtido axloqiy me'yorlar, prinsiplar, oliv maqsadlar, ehtiyojlarni, ezgulik, yomonlik,adolat, vijdon kabilarni dunyoni anglash nuqtayi nazaridan ifodalash ko'rinishida aks ettirilgan. Ushbu ibtidolarning ma'naviy tafakkurdagi o'zaro aloqasi va nisbati turli tarixiy davrlarda va turli odamlarning dunyoqarashlarida turlicha bo'lishi mumkin. Ma'naviy tafakkur ijtimoiy tafakkurning boshqa turlari bilan ham bog'liq, u ularga ta'sir ko'rsatadi, va bu kabi bog'liqlik avvalambor huquqiy, siyosiy, axloqiy tafakkur va din bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Ma'naviy tafakkur va huquqiy tafakkur ayniqsa uzviy ravishda o'zaro bog'liq. Huquq ham, axloq ham jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni boshqaradi. Biroq agar huquqiy prinsiplar qonunlarda belgilab qo'yilgan bo'lsa, va davlatning majburiy choralar sifatida namoyon bo'lsa, axloq me'yorlari jamoat fikri, an'ana va urf-odatlarga tayanadi. Ma'naviy ehtiyojlar e'tiqodlar kabi aql va yurak faoliyati natijasi bo'lgani holda ma'naviy tafakkurdan ma'naviy xulqqa o'tish mexanizmining muhim maqsadiga aylanadi³.

¹ Бойко, Ж.В. Этнические основы социальной работ: учеб. пособие / Ж.В. Бойко. – Хабаровск: ДВГУПС, 2012. – С.11-13.

² Профессиональная этика / под ред. Г.В. Дубова, А.В. Опалева. М., 1998.

³ Стригуненко Ю.В. Нравственные основы деятельности правоохранительных органов внутренних дел. Краснодар, 2011.

Ijtimoiy xodimning Axloqiy Kodeksi uning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy xodim etikasi qadriyatlar tizimi va uning boshqa odamlar, davlat va ijtimoiy tashkilotlar va umuman jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi axloq me’yorlari tomonidan belgilab beriladi. Ijtimoiy xodim etikasi asosida quyidagi asosiy prinsiplar va axloq me’yorlari yotadi:

- insonparvarlik va insonga nisbatan shubhasiz hurmat;
- kasbiy burch hissini kuchaytirish;
- ezgulik vaadolat hissini kuchaytirish;
- vijdonlilik va xushmuomalalik, bag‘rikenglik;
- halollik va nomuslilik.

Ijtimoiy xodimning amaliy etikasida ichki kabi tashqi ma’naviy madaniyat asosiy o‘rin tutadi:

- xodimning tashqi ko‘rinishi;
- binoning tashqi ko‘rinishi;
- tashrifchilar uchun qulayliklar;
- tashrifchiga nisbatan ishonchga asoslangan ruhiy muhitning yaratilganligi.

Ijtimoiy xodim etikasi ma’naviy huquq va majburiyatlar, erkinlik va mas’uliyat, ezgulik, shaxsiy iroda va ijtimoiy zarurat kabilarni dialektik muvofiqlashtirilishini aks ettiradi. Shunday qilib, ijtimoiy xodimning axloqiy faoliyati ijtimoiy xizmatlar mijozlarini ma’naviy tarbiyalash va mutaxassislarning o‘zlarini tomonidan xizmat majburiyatlarini to‘liq bajarish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy xodimning ma’naviy madaniyati o‘zaro bog‘liq elementlar tizimini ifodalaydi.

U quyidagilarni qamrab oladi:

- axloqiy tafakkur madaniyati;
- hissiyotlar madaniyati;
- xulq va muloqot, yoki etiket madaniyati.

Axloqiy tafakkur madaniyati kreativ (ijodiy) fikrlashni taqozo qiladi. Kreativlik (lotinchadan yaratuvchanlik) – insonning tafakkurda,

hissiyotlarda, munosabatlarda, faoliyatning u yoki bu turlarida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan, umuman shaxsni va yoki uning alohida tomonlarini, faoliyat mahsulini, ularni yaratish jarayonini ifodalashdagi ijodiy imkoniyatlari (qobiliyati) demakdir. Axloqiy tafakkur madaniyati nafaqat yangiliklarga mavjud tajriba nuqtayi nazaridan tanqidiy munosabat vositasida, balki yangi g‘oyalarni qabul qiluvchanlik qibiliyati bilan belgilanadi. Kreativ xulq va o‘z-o‘zini namoyon qilish, ijodiy harakatlarni modellashtirishning ayrim jihatlari va usullariga o‘qitish tajribasi kreativlikning ahamiyatli darajada o‘sishini, shuningdek, shaxsda mustaqillik, yangi tajribaga ochiqlik, muammolarga ta’sirchanlik, ijodga bo‘lgan yuqori ehtiyoj kabi xislatlarning paydo bo‘lishi va kuchayishini namoyon qiladi. Ijodiy tafakkur rivojlanishini rag‘batlantiruvchi shart-sharoitlar orasida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: tugallanmaganlik yoki qat’iy belgilangan va keskin nazorat qilinuvchi vaziyatlardan farq qiluvchi shaffoflik vaziyati; ko‘plab masalalarni hal etish va taqdirlash; mas’uliyat va mustaqillikni rag‘batlantirish; shaxsiy ishlanmalar, kuzatuvlar, hissiyotlar, umumiylar xulosalarga urg‘u berish; bolalar qiziqishlariga kattalar va tengdoshlari tomonidan e’tibor qaratish. Kreativlikning rivojlanishiga quyidagilar to’sqinlik qiladi: xavfdan qochish; har nima bo‘lganda ham muvaffaqiyatga intilish; tafakkur va xulqda qat’iy stereotiplar; konformlik (insonning boshqalarning fikri ta’siri ostida o‘z fikrini o‘zgartirishga moyilligi); tasavvur, xayol, tadqiqotlarga salbiy baho berish; nufuzlilar oldida bosh egish¹.

Axloqiy tafakkur madaniyati turli vaziyatlarda, ya’ni axloqiy ikkilanishlar vujudga kelgan holatlarda axloqiy qarorlarni qabul qilishda samarali intellektual vositalarning qo‘llanilishini taqozo qiladi. Hissiyotlar madaniyati ijtimoiy xodimning ma’naviy-axloqiy dunyosining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Hissiyotlar madaniyatini shakllantirish – ijtimoiy xizmat jamoasida

¹ Психологический словарь / под ред. В.П. Зинченко, Б.Г. Мещерякова. 2-е изд., перераб. и доп. Москва: Астрель; АСТ; Транзитъинга, 2004. 479 с.

sog‘lom axloqiy-psixologik iqlimi muhim omil hisoblanadi. Hissiyotlar madaniyatining mavjudligi ma’naviy yolg‘izlik bilan bog‘liq qiyinchiliklarning oldini oladi. Ma’naviy faoliyatining hissiy tomoni shaxsning hayotiy qarashlarini aks ettiradi. Xulq va muloqot madaniyat yoki etiket – mutaxassisning ma’naviy madaniyatining eng muhim tomoni hisoblanadi. Shaxslararo muloqotda qoidalar, xulq-atrof kasbiy mahorat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Xulqning tashqi shaklining uning haqiqiy ma’naviy mohiyati bilan mos kelishi – etiket (odob-axloq qoidalari)ning ajratib turuvchi tomonidir. Xushmuomalalik, mulo-yimlik, mijozni, suhbatdoshni tinglay bilish ko‘nikmasi, o‘zini tuta bilish, o‘z harakatlariga tanqidiy yondasha bilish – ijtimoiy xodim odob-axloq qoidalaring mohiyati hisoblanadi. Kasbga qo‘yilgan talablarni o‘rganish uchun professiografiya usullaridan foydalilanildi. Professiografiya usullari professional bilim, mahorat va ko‘nikmalarning mehnatning jamoat tomonidan qabul qilinuvchi sifatini ta’minlay oladigan darajasiga erishishga qaratilgan. Professiogrammaning tuzilishi – bu insoning shaxsiy fazilatlari, ruhiy o‘ziga xos xususiyatlari va psixologik imkoniyatlariga qo‘yiladigan talablarning ta’rifi demakdir¹.

Nazorat savollari:

1. Etika o‘zi nima?
2. Ijtimoiy ishda kasbiy axloq?
3. Ijtimoiy ish mutaxassislarning xulq prinsiplari va me’yorlari shakllanishi jarayonida vujudga kelgan oliy maqsadlar va qadriyatlarning o‘ziga xos majmuasiga ega bo‘lgan kasbiy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida.
4. Ijtimoiy ish etikasining obyekti va predmeti nimadan iborat?

¹ Психологический словарь / под ред. В.П. Зинченко, Б.Г. Мещерякова. 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Астель, АСТ; Транзит книга. 2004. – 479 с.

2-BOB. IJTIMOIY ISHDA ETIK PRINSIPLAR VA QADRIYATLAR

- 2.1. Ijtimoiy ishda qadriyatlar tushunchasi va tipologiyasi.
- 2.2. Zamonaviy ijtimoiy ishda qadriyatlar ierarxiyasi.
- 2.3. Professional ijtimoiy ishning o‘ziga xos qadriyatlari va oliv maqsadi.

2.1. Ijtimoiy ishda qadriyatlar tushunchasi va tipologiyasi

Qadriyatlar – bu atrof dunyo obyektlarining inson va jamiyat uchun ijobjiy yoki salbiy ahamiyatini ochib beruvchi o‘ziga xos ijtimoiy ta’riflari demakdir. Tashqi qadriyatlar predmet yoki fenomenning xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ladi, biroq qadriyat mazkur predmet yoki fenomenning asosiy ta’rifi hisoblanmaydi. Inson, uning turli-tuman ehtiyojlari bir tomondan va predmet yoki hodisaning mazkur ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yaratuvchi xususiyatlari boshqa tomondan natijasi o‘rganilayotgan predmet yoki hodisaga qadriyat maqomini taqdim qiluvchi qadriyatga oid munosabatni vujudga keltiradi. Shunday qilib, qadriyatlar – bu inson uchun ahamiyatli bo‘lgan ob’ektlar, qadriyat toifasi vositasida inson o‘zining ularga bo‘lgan munosabatini namoyon qiladi. Qadriyat – bu inson unga nisbatan befarq bo‘lmagan narsa demakdir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, qadr predmet yoki fenomenga tabiatdan taqdim qilingan emas, balki ularning inson turmushi sohasiga qamrab olinganligi sababli xos va qadriyat tushunchasi vositasida inson mazkur predmet yoki fenomenga nisbatan o‘z qarashlarini belgilab oladi.

“Qadriyat” atamasi kundalik so‘zlashuv tilida ko‘plab sinonimlarga ega: qadr-qimmat, foyda, erishilgan natija, ne’mat va boshq. U quyidagi so‘z birikmalari ko‘rinishida qo‘llaniladi: “qimmatbaho mulk”, “qimmatli kashfiyot”, “insondagi qadrli narsa” va boshq. Maxsus falsafiy adabiyotda qadriyat oddiygina atama (so‘z) emas, balki XIX

asrning 60-yillarida kiritilgan tushunchasi hisoblanadi. O'sha davrdan buyon ushbu atama aniq ma'no kasb etgan.

"Qadriyat" tushunchasi ostida inson uchun nimaningdir yoki kimningdir qadrli ekanligi tushuniladi. Qadriyat o'z-o'zidan mavjud bo'lган nimanidir emas, balki inson uchun qadrli bo'lган, u tomonidan qadrli ne'mat, foyda, huzur-halovat va boshqalar sifatida ifodalanuvchi narsalarni aks ettiradi. Qadriyatlar o'zaro bir-biridan mohiyatiga ko'ra farq qiladi: ma'naviy, estetik, diniy va boshqalar. Qadriyatlar tashuvchisiga ko'ra ham farqlanadi: shaxsga oid, sinfiy, kasbiy va boshq.

Ijtimoiy ishda kasbiy ahamiyatga ega bo'lган qadriyatlar – bu ijtimoiy ish qay tarzda amalga oshirilishi lozimligi to'g'risidagi benuqson tasavvurlardir. Ular ijtimoiy xodimlarning kasbiy faoliyatidagi maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Ko'pchilik mualliflar ijtimoiy ishning quyidagi qadriyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

1. Har bir mijoz shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
2. Inson tabiatini tushunish qobiliyati, mijoz qadr-qimmatini tan olish, ya'ni uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish;
3. Mijozning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hurmat qilish;
4. Maxfiylikka amal qilish;
5. Har bir mijozga individual yondashish;
6. Kasbiy rivojlanish;
7. Mijoz uchun ishlash majburiyati;
8. Empatiya;
9. Ijtimoiy adolatga intilish;
10. Tolerantlik.

Inson ijtimoiy ishning barcha bosqichlarida, barcha jihatlari va vaziyatlarida bevosita yoki bilvosita ifodalangan asosiy subyekti hisoblanadi va o'z navbatida jamiyatning integrativ ta'siriga duchor bo'lган holda u unga nisbatan o'zining javob ta'sirini namoyon qiladi. Insonning jamiyatga va jamiyatning insonga ta'sirining natijasi ushbu

insonning qanday ekanligi, ya'ni bir tomondan uning qadriyatga oid qarashlari, maqsadlari, ehtiyojlari va boshqalar, boshqa tomondan esa – uning imkoniyatlari va qobiliyatlar, huquq va majburiyatlariga bog'liq demak, bundan kelib chiqadiki, inson va jamiyatning munosabatlari, ularning o'zaro aloqalari holati va insonparvarlik oliy maqsadlarini amalga oshirish ham aynan mazkur holatlarga bog'liq bo'ladi. Obyektiv jihatdan ijobjiy bo'lgan va ijobjiy qadriyatlar sifatida anglanuvchi oliy maqsadlar, qarashlar va boshqalar ko'p holatlarda bir-biriga mos kelmasligi mumkin, buning natijasida esa ijtimoiy ishning asosiyo'nalishi va maqsadi, uning ichki mohiyati birinchi navbatda insonning hayot faoliyati va tafakkurining jamiyat va insonning o'zining farovonligi to'g'risidagi insonparvarlik tasavvurlariga mos bo'lgan va mazkur maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan faoliyatni belgilab beruvchi ijtimoiy ma'qullangan hamda obyektiv, qadriyatga oid shakllarini ishlab chiqishni ta'minlovchi shaxsiy xislatlarini shakllantirish maqsadida ta'sir ko'rsatishdan iborat. Demak, inson – jamiyatdagi ijtimoiy ishning eng muhim qadriyati va maqsadi demakdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy ishni amalgaga oshirishning har bir bosqichida, uning har qanday jihatlari va yo'nalishlaridagi asosiy qadriyatlar, garchi bu har doim ham to'liq anglanmasa-da, inson va jamiyat, ularning farovonligi, takomillashuv va rivojlanishidir. Mazkur qadriyatlar vaqtning har bir muayyan tarixiy bosqichlarida, muayyan jamiyatda mavjud inson va jamiyat hayot faoliyatini sharoitlari, holati va ijtimoiy hamda individual tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq ravishda turli shakl va muvofiqlikda ifodalanishi, turli mazmun taqdim qilinishi va muvofiq ravishda ijtimoiy va individual tafakkur tomonidan turlicha anglanishi va izohlanishi mumkin, chunki, ma'lumki, qadriyatlar turli sharoitlarda o'z-o'ziga ham mos bo'lmasligi mumkin.

Shubhasiz, ijtimoiy ish qadriyatlarini sanab tugatish mumkin emas. Bu nafaqat kasbning ko'p qirraliligi bilan, balki ularni tasniflash mumkin bo'lgan jihatlarni aniqlash zarurati bilan ham bog'liq

Oddiygina sanab o'tish nafaqat barcha qadriyatlarni aytib o'tish imkonidan mahrum qiladi, balki kasb mohiyati haqida barqaror tushuncha hosil qilishga ham to'sqinlik qiladi.

Ijtimoiy ishning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha qadriyatlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Kasbning mohiyatini aks ettiruvchi qadriyatlar (ijtimoiy adolat, insonparvarlik).

2. Ijtimoiy xodim faoliyatining mohiyati va yo'nalishini belgilab beruvchi qadriyatlar (ularni axloqiy prinsiplar, deb nomlaymiz): har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, kasbiy halollikka amal qilish, insonning o'z qarorini qabul qilish huquqini hurmat qilish, mijozning bama'ni qarashlarini hurmat qilish.

3. O'zaro munosabatlar va kasbiy faoliyatning tashqi shaklini ifodalovchi qadriyatlar (xizmatdagи odob-axloq qoidalari).

Ijtimoiy ish kasbining axloqiy qadriyatlarni o'rganish xayriya ma'nosidan boshlanadi, uning ildizlari Bibliya davri va dinga borib taqaladi. Dunyodagi barcha dinlar burch, o'zaro mas'uliyat, g'amxo'rlik, hamdardlik va boshqalarga g'amxo'rlik qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi va barcha xayriya harakatlari Olloh buyurgan ishlarni bajarishga yo'naltirilishi lozim, deya ta'kidlaydi.

1958-yildagi Elizaveta Qonunlari va 1601-yildagi birlashtirilgan farovonlik Qonunlari.

Tyudorlar davri qonunchiligi, ildizlari kambag'allarga cherkov tomonidan ko'rsatiladigan yordam tizimiga borib taqaladi.

Angliya cherkovi. O'n yettinchi asr o'zaro birgalikda Ma'rifat Davri, deb ataluvchi intellektual, madaniy va siyosiy hayot bilan bog'liq bo'lgan "zamonaviy qadriyatlar"ning paydo bo'lishining guvohiga aylandi.

Bu davrda sabr, erkinlik va oqillik kabi qadriyatlarga yuqori e'tibor qaratilgan. Dinga xos bo'lgan avtoritarizm matriarxatga bo'lgan hurmat sababli inkor qilingan, ya'ni oliy darajadagi ishonchhsizlik va taraqqiyotga, erkinlikka chiqishga ishonch va uning ilmiy anglanishi,

ayrimlarning fikriga ko‘ra ijtimoiy ish zamonaviy qadriyatlardan kelib chiqadi va quyidagi savoldan iborat bo‘lgan murojaatga bog‘liq: “To‘g‘ri qilish nima o‘zi?” yoki “Men qanday harakat qilishim lozim?”.

Djeremi Bentam va Djon Stuart Mill harakat va gedonizm oqibatlariga, shuningdek, etikaning asosi sifatidagi baxtni ilgari surishga asoslangan axloqiy tizimi ishlab chiqdilar. Odamlar doimo yanada ko‘proq odamlar baxtli bo‘lishi uchun harakat qilishlari lozim. Bu Bentam utilitarizmi shakli hisoblanadi.

1800-yillarda I.Kantning qarashlari ham yuqori o‘rin tutgan. Kantning murakkab falsafiy tizimi bizga xizmat majburiyatlarini bajarish, ma’naviy sabablar va oxir-oqibat boshqalarga hurmat ko‘rsatishga asoslangan etikani taqdim qiladi¹.

Garchi ma’naviy tarbiya XX asr islohotchilari dasturining bir qismi bo‘lishiga qaramasdan odamlar qiyinchiliklarning boshqa omillari sababli ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishlarini anglash darajasi ortib borgan. 1900-yilga kelib xayriyaning diniy asosi o‘z o‘rnini dunyoviy ijtimoiy ta’minot g‘oyalariga bo‘shatib berdi.

F.Rimer ijtimoiy yordam qadriyatları bazasining tarixdan shakllanishi haqida ma’lumot beradi. Qadriyatlar va etika ijtimoiy parvarishning eng asosiy vazifasi, tamal toshi bo‘lgan va axloqiy jihatlar nuqtayi nazaridan qilinishi lozim bo‘lgan harakatlarning me’yoriy jihatlarini jalb qilishga sabab bo‘lgan².

F.Rimerning fikricha, ijtimoiy qadriyatlar evolutsiyasi va ijtimoiy ish etikasida to‘rtta alohida bosqich bo‘lgan:

- axloq davri; mazmun-mohiyat davri;
- axloqiy nazariya va qarorlar qabul qilish davri;
- axloqiy standartlar davri;
- xavflarni boshqarish davri³.

¹Adam Barnard Values, ethics and professionalization: a social work history. Maidenhead: Open University Press. 2008. – P – 10.

² Reamer, F.G. (2006) Social Work Values and Ethics. New York: Columbia University Press. – P. 6.

³ Bisman, C. (2003) Social work values: the moral core of the profession, British Journal of Social Work, 34(1): – P. 112.

Axloq davri – ijtimoiy ish asosiy vazifasi e’tiborni amaliyotchining qadriga emas, balki mijozning axloqiga qaratishdan iborat bo’lgan kasbga aylangan davr. Xayriyada eng muhim jihatlar – bu mas’uliyat, mehr-muhabbat va burch, g’amxo’rlik hissi¹. Ushbu ma’naviy muammolar individual qadriyat, qadr-qimmat va insoniyatga xizmat qilish kabi jihatlarning muhimligini alohida ta’kidlagan holda ijtimoiy ishga asos qilib olindi².

XX asrning ilk davrlari muammolarning mijoz axloqidan jamiyatning yashash joyi, sog’liqni saqlash, sanitariya, bandlik va kambag’allik kabi muammolari tomon siljiganligiga guvoh bo’ldi. Buyuk Britaniyada bu holat 1942-yilda mazkur tuzilmaga oid muammolarni hal etish maqsadida “muhtojlikka” qarshi urush ochgan Beveridjning ma’ruzasida yakunlandi. Ijtimoiy ta’minot professionallarining endigina paydo bo’layotgan sinfi “an’anaviy ijtimoiy ish”, deb nomlash mumkin bo’lgan narsani ishlab chiqdilar. Ijtimoiy ish “an’anaviy tarzda” shaxsiy muammolar hamda tartibni saqlashning texnik menejmenti sifatida o’rganiladi va odatda professional qadriyatlar va odatda u amaliyot standartlariga tegishli bo’lgan g’oyalardan tuziladi.

1950-yillarda AQSHda Ijtimoiy xodimlarning milliy uyushmasi³ tomonidan ijtimoiy ishning quyidagi asosiy qadriyatlari sanab o’tilgan: “individual o’ziga xoslikni” ta’minlash maqsadida hurmat; “har bir individ imkoniyatlarini to’liq amalga oshirish”ga qaratilgan huquq; “alohida shaxslar o’tasida mavjud bo’lgan farqlarga” sabrlilik⁴.

2.2. Zamonaviy ijtimoiy ishda qadriyatlар ierarxiyasи

Ijtimoiy ish muhtoj odamlarga ularning hayotidagi o’zлari mustaqil ravishda hal etolmaydigan eng muhim muammolarini hal etishda

¹ Leiby, J. (1984) Charity organization reconsidered, Social Service Review, December


² Bisman, C. (2003) Social work values: the moral core of the profession, British Journal of Social Work, 34(1): – P. 112.

³ NASW (National Association of Social Workers) (1958) Working definitions of social work practice, Social Work, (April): – P. 5–9.

⁴ Adam Barnard Values, ethics and professionalization: a social work history. Maidenhead: Open University Press. 2008. – P. 11.

yordam ko'rsatadi. Ijtimoiy xodim faoliyati aniq maqsadli yo'naltirilgan, mijozning yangi, yaxshiroq holatga erishishga va hayot sifatining oshirilishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu sababli ijtimoiy ish natijasida ega bo'lingan yangi holat inson tomonidan istalgan bo'lishi va shu sababli inson tomonidan qadrlanishi zarur. Muhtojlarga yordam ko'rsatish uchun bu kabi insonparvarlikka yo'naltirilgan kasb mutaxassisini ijtimoiy xodim sifatida umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lovchi yuqori ma'naviyatli shaxs bo'lishi talab etiladi. Aynan qadriyatga oid qarashlar turli ijtimoiy hodisalarga nisbatan qadriyatga oid munosabatlar qurilgan asos hisoblanadi.

Ijtimoiy ishda quyidagi qadriyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:



2-rasm. Ijtimoiy ishda qadriyatlar.

Oliy maqsad (ideal) – bu bugungi kunda ijtimoiy ishda qay darajada amalga oshirilayotganligidan qat'i nazar talab, tegishli narsalarni ifodalash demakdir. Axloqiy oliy maqsad – bu ijtimoiy ishni tashkillashtirishda to'liq mukammallikka erishishdan iborat. Mazkur jihatdan oliy maqsadni ijtimoiy xodim oldida keng sarhadlarni ochib beruvchi, ezgulikka erishishiga ishonch taqdim qiluvchi oliy ijobiy qadriyat sifatida tushunilishi zarur. Ijtimoiy ishdagi axloqiy oliy maqsad ayni vaqtida amalga oshirilayotgan faoliyatni to'g'ri baholash, ijtimoiy

siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etish, ya’ni o‘z kasbining yaxshiroq kelajagini yaqinlashtirishga ishonch bilan yashash imkonini beradi.

Adolat. O.G.Drobnitskiy “oliy maqsad” va “adolat” tushunchasini o‘zaro qiyoslar ekan, adolat tushunchasi dunyo qanday yaralganligi to‘g‘risidagi fikrni qamrab olganligi sababli jamiyat oliy maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan falsafiy tartibning asosi ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Adolat muammosini o‘rgangan zamonaviy mualliflardan biri bo‘lgan Dj.Rolzning ta’kidlashicha, adolat ijtimoiy institutlarning “birlamchi ezgu vazifasi” hisoblanadi. Shu sababli, mazkur ezgu vazifaga asosiy urg‘u berishda ijtimoiy institutlar o‘rtasida yetakchi o‘rinni aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish instituti egallab turganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli.

Agar XX asr G‘arb mutafakkirlari adolat hodisasiga katta e’tibor qaratgan bo‘lsa, rus olimlar uchun barcha davrlarda adolat g‘oyasi markaziy muammo bo‘lib kelgan. G.Florovskiy rus mutafakkirlarining romantikaga da’volarini ta’riflar ekan (A.S.Xomyakov, I.V.Kireevskiy, V.S.Solovyov), ular xalq tafakkurining yovuzlik va ijtimoiy adolatsizlik begona bo‘lgan ma’naviy-diniy oliy maqsadni tanlash va himoya qilishda namoyon bo‘lgan butparastlikka intilishidan kelib chiqqanligini alohida ta’kidlab o‘tgan.

V.S.Solovyov rus mutafakkirlaridan birinchi bo‘lib davlat va ma’naviy idealining uzviy bog‘liqligini asoslab bergan. Uning fikriga ko‘ra, ma’naviyat va davlat hukumati alohida insonning ezgu hissiyotlari shaxsiy hayotining subyektiv sohasi bilan cheklanib qolmagan holatda bir-biriga zid bo‘lmasligi zarur. Ular mazkur chegaradan chiqqandan so‘ng jamlovchi inson hayoti bilan birlashib ketadi, va o‘z navbatida u yoki bu darajada muassasalar, qonunlar va shaxs hamda guruhlarning ommaviy faoliyati vositasida obyektiv ravishda amalga oshiriluvchi ijtimoiy ma’naviyatini yaratadi.

Ijtimoiy ish etikasida “adolat” tushunchasi markaziy tushuncha hisoblanadi. odamlar turli hayotiy manbalardan (moddiy ne’matlar, ish

bilan ta'minlanganlik, ta'lim olish imkoniyati va h.k.) foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Bu esa o'z navbatida odamlarga o'z insoniy imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Ijtimoiy himoya iqtisodiy sohadagi yetishmovchiliklar oqibatida qiyinchiliklarga duch kelganlarga yordam ko'rsatish mexanizmini amalga oshiradi. Biroq jamiyatdagi manbalarning cheklanganligi sababli adolatga intilish vaadolatsizlikni boshdan kechirish kuchli va ahamiyatli hodisaga aylanmoqda.

Ezgulik – bu oliy maqsadga yaqinlashtiruvchi narsadir. Oliy maqsad Xudo, baxt, huzur-halovat, foyda va boshqalar sifatida ifodalanishi mumkin. Agar mazkur nuqtayi nazarga amal qiladigan bo'lsak, u holda axloqiy volyuntarizmga (tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlari bilan hisoblashmay, o'zboshimchalik bilan ish tutish) kelib qolish mumkin: bugungi kunda men uchun ezgulik – huzur-halovatga erishish, ertaga esa – o'z va'dasini bajarish. Ezgulik "sof holda" – ma'naviy qarash, shaxsning strategik yo'nalishi, ma'naviy oliy maqsad.

Ezgulik odamlarning faoliyati tufayli haqiqatga aylanadi. Agar ezgulikka odamlar harakati haqiqiylik maqomini taqdim qilsa, u holda ezgulik yaxshilik kabi insoniy fazilatda namoyon bo'ladi. Inson shaxsining ushbu xislati ayniqsa, ijtimoiy xodim uchun muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy xodimda ezgulikni shakkantirish uchun nima asos bo'lib xizmat qiladi?

Ezgulik ijtimoiy xodimdan xayrixohlik, hurmat va yaqin insoniga bo'lgan mehr-muhabbat me'yorlariga, unga yordam ko'rsatish, uning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish kabilarga ongli ravishda va ixtiyoriy tarzda amal qilishni talab etadi.

Insonparvarlik barcha davrlarda ham prinsiplar vositasida sinovdan o'tkazilgan: inson – maqsadmi yoki vositami? Barcha davr insonparvarlari uchun inson mavjudlikning yagona maqsadi bo'lgan. Aynan inson – asosiy boylik demakdir. Axloqiy fikr tarixida E.Kant mazkur axloqiy-gumanistik prinsipning rivojlanishiga ulkan hissa

qo'shgan. Insonparvarlik mohiyati avval ta'kidlab o'tilganidek, qat'iy imperativda (ma'naviy qonun, yo'riqnomalar)da ifodalangan. E.Kant, insoniyatga o'z shaxsingiz va har qanday boshqa odam shaxsidan maqsad sifatida yondashing, va hech qachon vosita sifatida munosabatda bo'lmanq, deya ta'kidlagan.

Insonparvar (erkin)lik o'ziga xos qadriyat sifatida birinchi marotaba faylasuflar tomonidan kashf qilingan. E.Kantning fikriga ko'ra, "insonni o'z-o'zini erkinlikda anglashi, yoki erkinlikni anglash sifatida ta'riflanuvchi falsafa aynan shu kashfiyotdan boshlanadi"¹. Erkinlik o'zining falsafiy ta'rifiغا ko'ra – bu tashqi sabab yoki tashqi determinatsiyaning oqibati bo'lgan narsadan farq qiluvchi shaxsiy ichki sababi tufayli mavjud bo'la oluvchi (harakatlanuvchi, ilgarilovchi) barcha narsalardir. O'z-o'zini determinatsiya qilish, «causa sui» (o'zining paydo bo'lishiga sabab bo'lish) qobiliyatiga ega bo'lgan borliqni faylasuflar, uning ostida turli "materiyalarni" – tabiatni, Xudoni, aql, ruh yoki yana nimaornidir tushungan holda substansiya (asosiy sabab), deb nomalaganlar. Tashqaridan determinatsiya qilingan narsa vaqt davomida mavjud bo'ladi, ayni vaqtida substansiya vaqtga oid chegaralarga bo'ysunmaydi, qadimdan mavjud bo'lib kelmoqda. Barcha vaqtinchalik narsalar zarurat mantig'iga asosan yashaydi va rivojlanadi, ayni vaqtida faylasuflar esa erkinlikni vaqtning qaramaqarshi tomonidan, o'zgarmas va abadiy haqiqatlar sultanatidan izlaganlar. Kant tomonidan madaniyatga berilgan mashhur ta'rifda keltirilganidek, "har qanday maqsadga muvofiq ravishda (ya'ni, erkinlikda) harakat qilish qobiliyati – bu madaniyatdir". Demak, erkinlik – bu insonning har qanday maqsadga muvofiq tarzda harakat qilishidir².

Ijtimoiy ish etikasi muayyan darajada maqsad va vositalarning nisbati haqidagi muammolarni hal etadi. Aslida ijtimoiy xodimning faoliyati har safar uning maqsad va vositalari birligida, maqsadlar va

¹ Э.Кант: Критика чистого разума. – Рига. 1787.

² <https://www.alternativy.ru/ru/content/svoboda-kak-cennost>.

vositalarning nisbiy qadr-qimmati belgilanganda baholanadi. Maqsad vositalarni maqsad qanday, vositalar qanday, faoliyatning mazkur muayyan turida ularning aloqalari tabiatiga ko‘ra qanday ekanligiga bog‘liq ravishda oqlashi yoki oqlamasligi mumkin.

Alovida ijtimoiy xodimlar tomonidan turli insonparvarlik qadriyatlarini tushunish kasbga qo‘yilgan ma’naviy talablarga mos kelmasligi mumkin. Ijtimoiy xodim o‘z faoliyatida ezgulikni namoyon qilishni aniqlikning muayyan darajasi bilan izohlaydi, bunga sabab u manfaatlari va ma’naviy qiyofasi har doim ham yoqimli bo‘lмаган mijoz bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi.

Mutaxassis tayyorlash jarayonida nafaqat ma’naviy qadriyatlar haqida tasavvurga, balki ma’naviy hayotda ham ma’lum tajribaga ega bo‘lgan shaxsning axloqiy tafakkuriga kasbiy axloq ham “qo‘shilishi” muhim ahamiyatga ega. Adolat, ezgulik va yomonlikni noto‘g‘ri tushunish ijtimoiy ishni uning ma’naviy mohiyatidan mahrum qilishi mumkin.

Ijtimoiy ishning kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha qadriyatlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Kasb mohiyatini ifodalovchi qadriyatlar (ijtimoiy adolat, insonparvarlik).

2. Ijtimoiy xodim faoliyati mohiyati va yo‘nalishini belgilab beruvchi qadriyatlar (ularni axloqiy prinsiplar, deb ataymiz): har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, kasbiy vijdonlilikka amal qilish, insonning shaxsan qaror qabul qilish huquqini hurmat qilish, mijozning oqilona manfaatlarini himoya qilish.

3. kasbiy faoliyatda o‘zaro munosabatlarning tashqi shaklini (xizmatga oid odob-axloq qoidalari) ifodalovchi qadriyatlar.

Ijtimoiy ishning mohiyati o‘zida boshqalarning farovonligiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va boshqalarning baxtsizligiga hamdardlik, g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va bundan

tashvishlanish hissiyotlarini birlashtira olishdan iborat¹. Bugungi kunda ziyraklik hech bir zararsiz hissiy anglash, o'tkir fikr va tushunishni harakatga keltirish imkoniga ega. Ishonchlilik to'g'ri sabablar va tegishli axloqiy me'yorlar asosida harakat qilishning boshqa bir insonga bog'liqligi demakdir². Bir butunlik (yaxlitlik) oqillik, bir butunlik va ishonchlilikka, insonning hissiyotlari, bilimlarga intilishi nuqtayi nazaridan izchil anglanishidan iborat bo'lgan ma'naviy tabiatiga tegishli. Vijdanan yondashgan holda to'g'ri narsani qilish va buni amalga oshirish uchun tegishli harakatlarni amalga oshirish...³.

Boshqalarga zarar yetkazmaslik majburiyati altruizm, mehrmuhabbat hamda insoniylikni, shuningdek, ezgulik, rahm-shafqat va xayriya bilan bog'liq harakatlarni qamrab oladi⁴. Ijtimoiy xodimlar umuman jamiyat kabi, ular birga faoliyat olib borayotgan odamlarga nisbatan ham ijtimoiyadolat o'rnatilishi uchun harakat qiladilar. U tenglik va huquqlar bilan uzviy bog'liq. Qadriyatlarning ushbu klasteri kasbiy layoqatlilik va ekspansiv, o'rta chastotali va cheklangan qiymatlarni qamrab olgan axloqiy prinsiplar o'zagini qamrab oladi⁵.

Ijtimoiy ish axloqining oxirgi bosqichlaridan biri axloqiy muammolarning vujudga kelishi va amaliyotchining xulqini tartibga solish hamda uning kasbiy sovuqqonlik va mas'uliyat to'g'risidagi bilimlari darajasini oshirish hamda axloqiy me'yorlarni ahamiyatli darajada kengaytirishdan iborat.

Umumiy ijtimoiy xizmat Kengashining ijtimoiy yordam xodimlari xulqi bo'yicha kodeksi (General Social Care Council (2004) Codes of Practice. London: General Social Care Council) ijtimoiy xodimlarning ijtimoiy qadriyatları va amaliyotlarini tartibga solib turishi lozim bo'lgan oltita bayonnomani qamrab olgan:

¹ Хрестоматия «Основы социальной работы». Составители Ганиева М.Х., Караман М.Х. Проект «Укрепление образования, практики и профессии «Социальных работ» в Узбекистане». РЦСАД – ТИК – МВССО – МНО – ЮНИСЕФ. Ташкент, 2011.

² General Social Care Council (2004) Codes of Practice. London: General Social Care Council – P. 31.

³ Reamer, F.G. (2006) Social Work Values and Ethics, 2nd edn. New York. Columbia University Press.

⁴ Уша ерда – Б. 32.

⁵ Shardlow, S. (2002) Values, ethics and social work, in R. Adams, L. Dominelli and M. Payne (eds) (2002) Social Work: Themes, Issues and Critical Debates, 2nd edn. London: Palgrave

1. Xizmat iste'molchilarini va mutaxassislar huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash.
2. Xizmatlar foydalanuvchilarini va parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning ishonch va e'tiqodlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlashga intilish.
3. Xizmat foydalanuvchilarini imkon qadar xavf yoki zararlardan saqlagan holda ularning mustaqilligiga imkoniyat yaratish.
4. Xizmat foydalanuvchilarining xulqi o'ziga yoki boshqa odamlarga zarar yetkazmasligiga intilgan holda ularning huquqlarini himoya qilish.
5. Jamoatning ijtimoiy ishonchi va ijtimoiy yordam xizmatlaridan foydalanishlariga e'tiqodlarini qo'llab-quvvatlaydilar.
6. O'z faoliyati sifatiga mas'ul bo'lish va o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish va yaxshilash uchun mas'uliyatlarini o'z zimmasiga olish.

Shaxsiy javobgarlik. Ishonchlilik va mas'uliyat o'z uyidan boshlanadi. Agar Siz hali yetilib ulgurmagan bo'lsangiz, buni hozir amalga oshiring. Ahd qiling va o'zingizni quvvatlang. Mas'ul bo'lish so'f yashash muhitini saqlash va barcha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga mas'ul bo'lishni anglatadi. Bu esa o'z navbatida o'z kun tartibini yetarli vaqt uxlash va ish jarayonida to'laqonli faoliyat olib borish uchun mos rejalashtirishni anglatadi. Siz kirxonaga borish, idish yuvish, shuningdek, chiqindilarni o'z vaqtida chiqarib tashlash kabi mayda narsalarni amalga oshirgan holda nisbatan mas'uliyatli bo'lishingiz mumkin. Shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirish, shuningdek, boshqa kattaroq burchlar va ulardan keyingi katta ishlarni ham amalga oshirish mumkinligini anglatadi.

Moliyaviy javobgarlik. Garchi siz enaga bo'lib ishlab bir haftaga sakkiz dollar ishlab topgan bo'lsangiz ham yoki har haftalik nafaqa sifatida bir necha dollar topgan bo'lsangiz ham bu sizning budgetingiz. Siz o'z ixtiyorингизга ko'ra ijara haqi, oziq-ovqatga, ko'ngilochar tadbirlarga va sug'urtaga to'lovlarni qilasiz. Siz pullarni qo'lingizda

saqlab qolishga urinishigiz lozim. Agar buni bajarmasangiz bu sizning faoliyatizingizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Shaxsiy javobgarli¹. Sizning shaxsiy javobgarligingizning boshqa qismi sizning shaxsiy hayotiningizni tartiga solib turadi. Romantika, oilaviy munosabatlар, mojarolaringizni ofisga (ish joyingizga) olib kelmaysiz. To‘liq muvozanatlashtirilgan hayot bilan yashashga urinib ko‘ring. Ishdan chalg‘ishingiz uchun sevimli mashg‘ulotingiz (xobbi) bormi? Siz doimiy tarzda to‘g‘ri ovqatlanasizmi? Siz hayotning qancha ko‘p sohalarini boshqara olsangiz, bu shunchalik yaxshi.

Jamoa mas’uliyati (javobgarligi). Siz ishchi guruhning bir qismiga aylanganingizdan so‘ng sizning mas’uliyatingizga qo‘srimcha yuk tushadi. Siz jamoa o‘yinchisiga aylanishingiz zarur. Jamoadagi har bir inson o‘z zimmasiga jamoa munosabatlari mas’uliyatini olishi talab etiladi. Siz yaxshi bola bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq narsalarni amalga oshirishingiz lozim. Siz jamoaviy rivojlanish uchun mas’uliyatni ham o‘z zimmangizga olishingizga to‘g‘ri keladi.

Jamoaviy munosabat uchun mas’ul bo‘lish nima? Birinchidan, jamoada nizolarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik. Kelishib ishlash. Shaxslararo nizolarni hal etish uchun jamoa a’zolarini xotirjamlikka chaqiring. Jamoangiz a’zolarini hurmat qiling va qadrlang. Siz jamoa a’zosiga aylanganingizdan so‘ng sizning majburiyatlarining o‘zgaradi. Jamoaning muvaffaqiyati sizning shaxsiy muvaffaqiyatingizdan ko‘ra muhimroq masalaga aylanadi. Masalan, Siz A rejaning shubhasiz yaxshiroq ekanligini bilib turibsiz, biroq jamoangiz B rejani amalga oshirishni ma’qulladilar, siz nima qilgan bo‘lar edingiz? Agar jamoangiz B rejani muhokama qilish uchun to‘plansa va kompaniya rahbari sizning fikringizni so‘rasa, siz nima qilgan bo‘lar edingiz? Sizning yolg‘on uchun mas’uliyatingiz qayerda qoldi? Siz quyidagilardan qay birini amalga oshirar edingiz: o‘z jamoangiz fikrini o‘zgartirish imkoniyatidan foydalanasiz.

¹ Career Skills Library: Professional Ethics and Etiquette, Third Edition Copyright. ©1998, 2004, 2009 by Infobase Publishing.

Jamoada ishlash tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarning ko‘pchiligining fikriga ko‘ra beshinchi javob to‘g‘ri ekanligini ta‘kidlab o‘tishgan. Sizning jamoa o‘yinchisi sifatidagi birinchi majburiyatning sizning jamoadagi do‘srlaringiz bilan bog‘liq. O‘z fikrlaringizni jamoa uchrashuvlarida xushmuomalalik bilan va to‘liq bayon qiling. Biroq jamoangiz sizning harakat rejangizni emas, boshqa rejani qabul qilishi mumkin. B reja qabul qilingan uchrashuv tugagandan so‘ng sizning majburiyatning qabul qilingan rejani to‘liq qo‘llab-quvvatlash va uni amalga oshirishda jamoangizga yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi.

Shaxsiy tashabbus. Sizning majburiyatlariningizdan yana biri shaxsiy tashabbusga ko‘ra harakat qilishingizdan iborat. Har doim ham sizga kimdir nima qilishni aytishini kutmang. Maslahat so‘rang. Odamlardan bilim va tajriba o‘rganing. Biroq o‘z qobiliyatlariningizni ham chetga surib qo‘ymang. Agar mustaqil harakat qila olishingizga ishonsangiz harakat qiling. Siz o‘z bilganingizcha harakat qilganingizda xavf elementi ishga tushadi. Biroq xavf har doim ham albatta yomon holat degani emas. Juda kam hollarda muvaffaqiyatga xavf-xatar elementlariga duch kelmasdan erishish mumkin.

Jamoaviy axloq. Kerak – Kerak emas. Sizning birinchi majburiyatning jamoada bo‘lish. – Xudbin bo‘ling. Gapirishga va jamoaning kamgap a‘zolarini gapirtirishga harakat qiling. – O‘zingiz uchun zarur narsalarni eslab qolmang. Butun jamoa bilan halol munosabatda bo‘ling. Jamoani xavfda qoldirmaslik uchun harakat qiling. Jamoaning rivojlanib borishini nazorat qiling.

– Deylik, boshqa bir kishi vazifaning bajarilishi uchun boshqa birov javobgar.

- Siz adolatli bo‘ling va qunt bilan ishlang.
- Jamoaning dangasa a‘zolarini aldab, ularni ishga soling.
- Rahbarining buyurtma va talablarini diqqat bilan tinglang.

- Barcha vazifalarni o‘z bilganingizga ko‘ra amalga oshirishga harakat qiling¹.

2.3. . Professional ijtimoiy ishning o‘ziga xos qadriyatları va oliv maqsadi

Jamiyat qadriyati, shuningdek, ijtimoiy ishda ham namoyon bo‘ladi: ijtimoiy xodim bilan o‘zaro munosabatga kirishish jarayonida shaxs ijtimoiy munosabatlarga yangi ko‘rinishda kirishadi, o‘zi amalga oshira oladigan ijtimoiy majburiyatlar va rollarni bajaradi, jamiyat a‘zolariga ne’matlar va xizmatlardan, lavozim va imtiyozlardan foydalanish nuqtayi nazaridan imtiyozlarga ega dushman guruhlari vakillari sifatida emas, balki aslida to‘laqonli va to‘la huquqli sherik sifatida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan guruhlar sifatida qaragan holda mavjud imkoniyatlarni amalga oshiradi. Aynan shu holat hisobiga jamiyat o‘zlarini va jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan rol va vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy faol shaxslar bilan boyib boradi. Shu sababli, ijtimoiy ishning eng muhim natijalaridan biri nafaqat muayyan individning, balki umuman jamiyatning hayot faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish, umumiy maqsadlarga erishish uchun turli guruhlarni va aholining turli qatlamlarini bir butunga birlashtirish va qandaydir darajada jamiyatning o‘zini insonparvarlik asosida qayta yaratish, qayta tuzilmalashtirishdan iborat. Amalga oshirilishi ijtimoiy ishning samaradorligiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatuvchi professional ijtimoiy ishning o‘ziga xos qadriyatlarini ajratib ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy ishning o‘ziga xos qadriyatları kam darajada faoliyatning asosiy buyurtmachisi sifatidagi jamiyat uchun mustaqil ma’noga ega, biroq jamiyatning professional ijtimoiy ishga bevosita qamrab olingan qismi uchun, birinchi navbatda ijtimoiy xodimlarning professional

¹ Career Skills Library: Professional Ethics and Etiquette, Third Edition Copyright ©1998, 2004, 2009 by Infobase Publishing – P. 55-62.

guruhi vakillari va ularning bevosita mijozlari uchun mazkur qadriyatlarning ijtimoiy xodimlarning ijtimoiy va shaxsiy tafakkurlarida saqlanib qolishi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ishning o‘ziga xos qadriyatlari orasida birinchi navbatda inson va jamiyat farovonligi, inson huquqi va o‘ziga xosligi, kasbiy mahorat, faoliyatning insonparvarlik mohiyati, insonning ijtimoiy maqomi, uning yoshi, jinsi va hokazolar kabilarni ajratib ko‘rsatish lozim.

Ijtimoiy xodimlar o‘z kasblarining siyosiy jihatlarini ularga davlat tomonidan muayyan ma’naviy-axloqiy prinsiplar doirasida o‘z mijozlari manfaatlari yo‘lida zarur choralarni ko‘rish maqsadida yuklatilgan hukumat va boshqa vakolatlarining oqibati sifatida tushunadilar¹.

Ijtimoiy xodimlar – bu insonni, uning murakkab biopsixosotsial mavjudot sifatiga o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi biluvchi mutaxassisidir. Tabiat va hattoki insoniyat jamiyatining obyektiv manfaatlari nuqtayi nazaridan “oliv” va “quyi” jins mavjud emas: ularni bir-biri bilan qiyoslash va ularning birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin emas – dunyo uyg‘unligi buziladi, insoniyat tanazzulga yuz tutadi yoki hech bo‘limganda unga tuzatib bo‘lmash zarar yetadi. O‘xshash ravishda “yaxshi” va “yomon” yosh ham mavjud emas: har bir yoshga boshqa yoshdagi odamlarga xos bo‘limgan ustunliklar va kamchiliklar xos. Demak, obyektiv jins va yosh – ular qanday bo‘lmasin, shubhasiz qadriyat hisoblanadi. Boshqa tomonidan esa, aynan jins va yosh bilan maqtanmaslik lozim, chunki ular shaxsga bog‘liq emas, biroq inson jins va yosh bilan bog‘liq o‘ziga xos imkoniyatlarni o‘zining va insonning ijtimoiy farovonligi uchun sarflashi lozim. Ijtimoiy ish tomonidan o‘ziga xos, deb tan olingan, inson qadriyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan professional qadriyatlarni jins va yosh ijtimoiy ishning alohida, tahqirlashga qarshi, turli yoshga va jinsiga oid guruhlar vakillariga adolatli munosabatda bo‘lishdan iborat

¹ Общая декларация об этических принципах социальной работы (Международная Ассоциация Школ Социальной Работы)/

bo‘lgan yo‘nalishiga asos bo‘lishi mumkin. Adolat insonni uning yosh va jinsga oid tegishliligiga ko‘ra emas, balki uning yoshi va jinsining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda qadr-qimmati va xizmatlari, jinsi va yoshiga oid imkoniyatlarini o‘zining, o‘z oilasining va umuman jamiyatning farovonligi uchun sarflashi asosida baholashni talab etadi. Shu sababli, insonning jinsi va yoshi ijtimoiy xodim amalga oshirilishi uchun imkoniyat yaratishi lozim bo‘lgan qadriyatlar hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. “Adolat” tushunchasining etika fanining tushunchasi sifatidagi ma’nosi nimadan iborat?
2. “Adolat” tushunchasi quyidagi iboralar bilan qanday qiyoslanadi: “to‘g‘ri yashash kerak”, “haqiqat g‘alaba qozonadi”?
3. Ijtimoiy ishda ma’naviy yovuzlikning qanday ko‘rinishlari mavjud bo‘lishi mumkin?
4. Professional axloqiy tafakkurning tarkibiy qimlari nimadan iborat?

3-BOB. IJTIMOIY ISHCHINING KASBIY ETIKASI

3.1. Kasbiy axloqning zamonaviy jamiyatning ma'naviy munosabatlar umumiy tizimidagi o'rni va roli.

3.2. Ijtimoiy xodim kasbiy axloqining asosiy tushunchalari va prinsiplari.

3.3. Ijtimoiy xodimning Axloq Kodeksi.

3.1. Kasbiy axloqning zamonaviy jamiyatning ma'naviy munosabatlar umumiy tizimidagi o'rni va roli

Etikaning tadqiqot predmeti – axloq (ma'naviyat). Ma'naviy dunyoni anglashning alohida ma'naviy-amaliy, ya'ni aynan qadriyatga oid usuli; dunyoqarashga bog'liq bo'lgan faoliyat hisoblanadi. Ma'naviyat – inson xulqini qadriyatlar (oliy maqsadlar, prinsiplar, me'yorlar va h.k.) va majburiy narsalar (majburiyatlar, mas'uliyatlar va h.k.) kabilar to'g'risidagi tushunchalar yordamida belgilanadi. Ma'naviy tartibga solish shaxsning o'z-o'zini tartibga solish shakli hisoblanadi.

Ma'naviy hodisalar dunyosi xilma-xil. Tizimlashtirish maqsadida tuzilmaning eng sodda, qadimiy ko'rinishini ajratib ko'rsatish mumkin: tafakkur (ishonch, istaklar va hokazo), faoliyat (harakatlar), tafakkur va faoliyat o'rtaSIDAGI munosabatlar. Tartibga soluvchi ta'sirning murakkablik darajasi nuqtayi nazaridan axloq tuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Bu holatda ma'naviy me'yorlarni, insonning ma'naviy xislatlari (fazilatlari), ma'naviy prinsiplar (xudbinlik, altruizm xudbinlikning aksi), ma'naviy oliv maqsadlar (shaxsning rivojlanish maqsadi), oliv ma'naviy qadriyatlar (erkinlik, baxt va h.k.). odamlarning ma'naviy qarashlari tarixiy (jamiyat hayotiga, uning ayni vaqtdagi madaniyatiga bog'liq) va o'zgaruvchan (jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida o'zgarib turadi).

Ma'naviyat o'ziga xos xususiyatlar yoki xislatlar bilan ifodalanadi. Axloqning asosiy xususiyatlari quyidagilar kirdi:

- 1. Imperativlik.** Ma'naviyat me'yordi doimo buyruq maylida shakllantiriladi (masalan, "aldama", "o'ldirma" va h.k.)
- 2. Me'yoriylik.** Axloqning tartibga solish vazifasi me'yor orqali amalga oshiriladi (qoidalar, buyurilgan narsalar va h.k.)
- 3. Baholashga oidlik.** Axloqni baholash insonning o'z-o'zini baholashi (o'z harakatlari, g'am-tashvishlari, kechinmalarini baholash), inson xulqi, uning harakatlarining axloq me'yorlariga mos yoki mos emasligining boshqa odamlar va jamiyat tomonidan baholanishi
- 4. Universallik.** Ma'naviyat talablari inson hayotining har qanday sohalarida, na vaziyatga va na vaqtga oid tarzda o'zgarmas.
- 5. Umumbashariylik.** Ma'naviy qoidalar istisnosiz barcha odamlarga tegishli.
- 6. Anitinomiklik.** Masalan, "o'ldirma" talabi va bir vaqtning o'zida harbiy burch to'g'risidagi tushunchalar.
- 7. InstitutSIONALLIKdan tashqari.** Ma'naviyat ijtimoiy tafakkurning boshqa shakllaridan farqli ravishda ijtimoiy tuzilmalashtirilmagan.

Kasbiy muvaffaqiyat¹. Ijtimoiy va ma'naviy hayat hodisisi bo'lgan ma'naviyat qator muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, bu boshqarish va tartibga solish vazifasi. Ma'naviyat odamlar va umuman jamiyatni umumiy oliv maqsadlar, xulq prinsiplari va hokazolar vositasida tartibga soladi. Ikkinchidan, bu bilishga oid vazifa. Axloq insonning ichki dunyosini anglash vositasi hisoblanadi, insonga ma'naviy muammolarini hal etish, o'z xulqi va hissiyotlarini boshqarishga yordam beruvchi axloqiy bilimlar taqdim qiladi. Uchinchidan, tarbiyaviy. Ma'naviy bilim insonni shakllantirish, oliv qadriyatlar bilan tanishtirishning muhim sharti hisoblanadi. To'rtinchidan, baholovchi yoki qadriyatga oid yo'naltiruvchi. Axloq

¹ Career Skills Library: Professional Ethics and Etiquette, Third Edition Copyright ©1998, 2004, 2009 by InfoBase Publishing – P. 67-70.

shaxsning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, shaxsning ma’naviy yo‘nalishini belgilab beradi (“ezgulikka yo‘naltirilganlik”).

Beshinchidan, insonparvarlashtiruvchi, ya’ni insonni kundalik hayotdan ustunlikka olib chiqadi, unga hayotning asl ma’nosini ochib beradi. Oltinchidan, kommunikativ¹.

Axloqiy bilimlar ijtimoiy xodimlarning kasbiy amaliyoti uchun asosiy ahamiyatga ega. Ularning axloq qoidalariga amal qilgan holda harakat qilish qobiliyati va qo‘llab-quvvatlashi ijtimoiy xodimlar bilan o‘zaro munosabatga kirishuvchilar uchun taklif etiladigan xizmatlar sifatining muhim jihatni hisoblanadi. Inson huquqlarini hurmat qilish va ijtimoiy adolatni qo‘llab-quvvatlashga intilish butun dunyoda ijtimoiy ish asosida yotadi. Ijtimoiy ish insonparvarlik va demokratik g‘oyalardan kelib chiqqan va uning mohiyati tenglik, qadr-qimmat va barcha odamlarning qadr-qimmatiga asoslangan.

Bir asrdan ortiq vaqt davomida ijtimoiy ish inson ehtiyojlarini qondirishga va inson imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat ijtimoiy ishni amalga oshirishda rag‘batlantiruvchi kuch va qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Imkoniyati cheklangan va himoyaga muhtojlarga yordam ko‘rsatish ramzi sifatida mazkur kasb ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlash maqsadida qashshoqlikka qarshi kurashish hamda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va tahqirlangan odamlar bilan ishslashga intiladi.

Ijtimoiy ish kasbining ijtimoiy qadriyatları Milliy va Xalqaro axloq kodekslarida mujassamlashgan. Kodeksda inson huquqlari, ijtimoiy adolat va kasbiy halollikka oid qadriyatlar va axloq prinsiplari bayon qilingan va ular axloqiy prinsiplarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomalar bo‘lib xizmat qiladilar.

Amaliyot prinsiplari o‘zgarmas qilib belgilanmagan, chunki ayrim axloqiy muammolar va ijtimoiy xodimlar amaliyotda duch kelishlari mumkin bo‘lgan muammolar keng tarqalgan, va shu bilan birga

¹ Career Skills Library: Professional Ethics and Etiquette, Third Edition Copyright ©1998, 2004, 2009 by InfoBase Publishing. - P. 67-70.

faqatgina muayyan davlatlar va toifalarga xos bo‘lishi ham mumkin. Axloq kodeksi ijtimoiy xodimlar muayyan vaziyatlarda yoki amaliyotda o‘zlarini qanday tutishlari to‘g‘risidagi qoidalarning to‘liq to‘plamini qamrab olmagan. Aksincha, mazkur Kodeksdan maqsad umumiy axloqiy prinsiplarni bayon qilish yo‘li bilan butun Buyuk Britaniya bo‘ylab faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlar duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ikkilanishlarni namoyon qilish va har bir muayyan vaziyatda kasb mohiyatidan kelib chiqqan holda qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlar to‘g‘risida ma’lumot berishdan iborat¹.

Ijtimoiy xodim kasbi ijtimoiy o‘zgarishlarga, insonlararo munosabatlardagi muammolarni hal etishga, inson huquqlari doirasini kengaytirish va odamlarni qashshoqlikdan qutqarishga imkoniyat yaratadi. Inson xulqi nazariyasi va ijtimoiy tizimlardan foydalangan holda ijtimoiy ish odamlar o‘zlarini o‘rab turgan muhit bilan o‘zaro munosabatlarga kirishgan holatlarda faoliyat olib boradi. Inson huquqi prinsiplari va ijtimoiy adolat ijtimoiy ish uchun eng muhim ahamiyatiga ega. Ijtimoiy ish o‘zining turli shakllarida odamlar orasidagi va ularning atrof-muhiti o‘rtasidagi ko‘p turli, murakkab munosabatlariga murojaat qiladi. Uning asosiy vazifasi barcha odamlarga o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, o‘z hayotini boyitish va turli xil qiyinchiliklarni bartaraf qilish imkonini yaratishdan iborat.

Professional ijtimoiy ish muammolarni hal etish va odamlar hayot faoliyatini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan. Shunday qilib, ijtimoiy xodimlar jamiyat, alohida shaxslar, oilalar va jamoalar hayotidagi o‘zgarishlar agenti hisoblanadi va ularga xizmat qiladi. Ijtimoiy ish qadriyatlar, nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liq tizimidir².

Ishga bo‘lgan professional munosabatni belgilab olish murakkab masala, biroq mutaxassislar o‘z ish o‘rinlarida amal qilishlari lozim bo‘lgan muayyan munosabat mavjud. Bu kabi munosabat hamkasblar

¹The Code of Ethics for Social Work. Statement of Principles. Copyright © British Association of Social Workers.2012. – P. 6.

²Там же. – P. 6.

bilan hamkorlik qilish, ish joyida qay tarzda faoliyat olib borish, nimalarni olib kelish yoki nimalarni o'rganish, ish joyida o'zini qanday tutish bilan bog'liq. O'z ishingizni to'g'ri qiling va kasbiy mahorat egasi bo'ling.

Kasbiy halollik. Agar Siz halol bo'lmamasangiz, kasbiy halollikka erisha olmaysiz. Siz o'zingizni halol inson, deb hisoblaysizmi? Ko'pchiligidan bu savolga "Ha", deb javob beradi. Biroq bu holatda sizning halolligingiz juda yuqori darajada bo'lishi lozim. Siz doimo mukammal bo'lib qolishingiz zarur.

Mijozlarning halolligi. Halollikning yana bir o'rni bu mijozlar bilan munosabatda ko'rindi. Siz o'z mahsulotingizni taqdimotlar yordamida o'z mahsulotingizni o'tkazishingiz mumkin, biroq buning natijasida uzoq muddatli istiqbolni qo'ldan chiqarishingiz mumkin. Chunki mijoz oxir-oqibat haqiqatni bilib oladi, siz va u kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha savdolardan qutulib qolishingiz mumkin. Har doim, hattoki eng tor doiradagi muzokaralarda ham halollik bilan yondashishga harakat qiling.

Mijozlar bilan adolatli o'yin olib borish bo'yicha maslahatlar.

• *Doimo oldinda bo'ling. Agar siz biror narsani bilmasangiz, u holda to'g'risini aytинг.*

• *So'z o'yini qilmang. "Muammo" ni nazarda tutib gapirayotgan bo'lsangiz, "shubha" ga o'rin qoldirmang.*

• *So'zingizda turing. Telefonga javob bera olmasangiz albatta qaytib qo'ng'iroq qiling va har doim aytgan gapingizning ustidan chiqing.*

• *Har bir mijozga nisbatan muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatida munosabatda bo'ling.*

• *O'zingizni oglamang. Har bir xatoingiz uchun javobgarlikni o'z zimmangizga oling.*

Ijtimoiy ishning axloqiy tizimi ma'naviy qoidalarni – mutaxassisning ijtimoiy ish subyektlariga nisbatan faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi xulqiga va faoliyatiga qo'yiladigan aniq talablarni

qamrab oladi. Ma'naviy qoidalar juda moslashuvchan va harakatchan bo'lib, ular ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot dinamikasini, aholini himoya qilish ijtimoiy tizimining rivojlanishi, ijtimoiy xizmatlar mijozlari va umuman aholining hayot faoliyati sharoitlarining o'zgarishini aks ettiradi hamda doimiy ravishda yangi mazmun va mohiyat bilan to'lib boradi. Shu bilan birga ijtimoiy ish etikasi muayyan darajada o'zaro yordam, xayriya va professional ijtimoiy ishning ilk ko'rinishlarining shakllanish jarayonida tarixdan mavjud bo'lgan urfatlar va an'analarini aks ettiradi.

Ijtimoiy ishning eng muhim tarkibiy qismi mutaxassisning u yoki bu subyektiga nisbatan ijtimoiy ish jarayonida vujudga keluvchi xulqining asosiy yo'nalishlarini ifodalovchi eng umumiyl talablari tomonidan aks ettirilgan prinsiplar hisoblanadi.

Ijtimoiy xodim faoliyati nafaqat rasmiy, balki norasmiy vaziyatlarda, kasb va o'z hamkasblari, jamiyat, mijoz va uning ijtimoiy muhiti, shuningdek, o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida ham amalga oshirilar ekan, u quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilishi lozim; preventetsiya (ogohlantirish) o'z faoliyati doirasidagi vakolati; mijozning oqilonqa talablarini qondirish; mutaxassis harakatlarining mijoz va jamiyat uchun nomaqbul oqibatlari uchun shaxsiy javobgarligi; mijozning subyektivligini tan olish; sir saqlay bilish; xayrixohlik; beg'arazlik; halollik va ochiqlik; mijozlarga nisbatan xurofot va bid'atlarning mavjud emasligi va boshq.

Professional ijtimoiy ish etikasining barcha prinsiplari mutaxassisning kundalik amaliy faoliyatida muhim o'rinn tutadi, biroq bugungi kunda prinsiplar qatorida ijtimoiy vaziyat beqaror bo'lgan sharoitlarda ahamiyati ortib borayotgan preventatsiya (oldini oluvchi) prinsipi alohida o'rinn tutadi.

Ijtimoiy ish etikasi prinsiplari mutlaq tabiatga ega bo'lishi mumkin emas. Agar ular muayyan vaziyatda bir-biri bilan ziddiyatga kirishgan holatda nizoli vaziyat umumiyl etika prinsiplari asosida hal etilishi lozim. Ular mustaqil ma'noga ega bo'lmasligi lozim va ular muayyan

vaziyatlarda umumiy etika prinsiplari bilan ziddiyatga kirishgan muayyan holatlarda jamiyat manfaatlarining cheklab qo'yilishi obyektiv jihat bilan bog'liq. Mijoz kabi ijtimoiy xodim ham jamiyat a'zolari hisoblanadi, aynan shu sababli ular qonunlarga amal qilishlari joiz – butun jamiyat va uning har bir a'zosining harakatlari umuman jamiyat va uning har bir muayyan individi o'zlarini maksimal darajada qulay his qilishlari lozim, biroq bunda ular bir-birining huquqlarini cheklanmasligi talab etiladi. Masalan, agar jamiyat insonparvarlikka qarshi qonunlar asosida yashayotgan va ijtimoiy axloq qoidalari shubhasiz insoniyatga qarshi tabiatga ega bo'lsa, u holda nizo professional etika prinsiplari asosida insonparvarlik foydasiga hal etilishi mumkin. Professional etika me'yorlari va prinsiplarini butunlay e'tiborga olmaslik oxir-oqibat mutaxassis faoliyati o'zining insonparvarlik mohiyatini yo'qotishiga olib keladi va sotsiumning alohida individlarning hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha harakatlariga bo'lgan ehtiyoj nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lishi mumkin bo'lsa-da, rasmiy faoliyatga aylanib qolishiga olib keladi.

Umuman olganda, professional axloq umumiy, nazariy axloqning kasbiy faoliyatning muayyan turlariga ilova hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy ish etikasi axloq to'g'risidagi umumiy nazariyaning aniqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi va bir vaqtning o'zida – professional axloq to'g'risidagi ta'lilotning professional ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olgan holda aniqlashtirishdan iborat. Professional ijtimoiy ishning asosiy maqsad va vazifalari professional ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos turi sifatidagi ijtimoiy ishning maqsad va vazifalariga nafaqat zid emas, balki uning sifati va samaradorligining oshishiga, uning jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlikka yo'naltirilish darajasining ortishiga sabab bo'ladi.

Nazariya: Ijtimoiy ish metodologiyasi tizimli isbotlar majmui, tadqiqotlar natijasi va tajribalarni baholashga, tadqiqotlar davomida mahalliy va tub aholiga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlarni e'tiborga

olishga asoslangan. Ijtimoiy xodim kasbi murakkab vaziyatlarni hal etish va shaxsiy, tashkiliy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni tahlil qilishda inson rivojlanishi, uning xulqi va ijtimoiy tizimlarga tayanadi.

Ijtimoiy ish o'z faoliyati davomida jamiyatda mavjud bo'lgan to'siqlar, tengsizliklar vaadolatsizliklarni bartaraf qiladi. U o'z e'tiborini inqirozlar va favqulodda vaziyatlar, shuningdek, kundalik shaxsiy va ijtimoiy muammolarga qaratadi. Ijtimoiy ish o'z e'tiborini odamlar va ularning jamiyatga qaratishda turli ko'nikmalar, usullar va tadbirlardan foydalanadi. Ijtimoiy tadbirlar birinchi navbatda inson farovonligiga yo'naltirilgan psixojiymoiy jarayonlardan ijtimoiy siyosat, rejalashtirish va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga qadar o'zgarib turadi. Ushbu tadbirlar maslahat berish, klinik ijtimoiy ish, guruhga oid ish olib borish, ijtimoiy pedagogik ish, davolash, oilaviy terapiya, shuningdek, o'z kuchini odamlarga jamiyatdagi xizmat va manbalardan foydalanishga yordam ko'rsatishga yo'naltirish kabilarni qamrab oladi¹.

3.2. Ijtimoiy xodim kasbiy axloqining asosiy tushunchalari va prinsiplari

Insonlarga xos kasbiy faoliyatning har bir turiga o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan kasbiy axloq(professional etika)ning muayyan turlari mos:

- tibbiy etika;
- biotibbiy etika (“Gippokrat qasami”);
- jurnalistning professional etikasi;
- ishbilarmonlik (iqtisodiy) etikasi – bu tadbirkorning xulq me'yorlari majmui, madaniy jamiyat tomonidan uning ish uslubi, biznes ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot tabiatiga, ularning ijtimoiy qiyofasiga qo'yiladigan talablari majmuidir;

¹The Code Of Ethics for Social Work. Statement of Principles. Copyright © British Association of Social Workers.2012. – P. 7

– menejment etikasi, etikaning mazkur turi boshqaruv sohasida faoliyat olib borayotgan insonning harakatlari va xulqini, shuningdek, tashkilotning o‘z ichki va tashqi muhitiga nisbatan menejer va tashkilotning harakatlari umuminsoniy axloqiy talablar bilan qiyoslanishi jihatidan “menejerlar majmui” sifatidagi vazifasini o‘rganadi.

Kasbiy axloq odamlarning ishbilarmonlikka oid muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Kasbiy axloq zamirida kasbiy majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘sishimcha mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi lozim bo‘lgan muayyan prinsiplar va me’yorlar yotadi.

Me’yor – bu yuqori kasbiy mahorat (professionalizm) asosidir. Professional ma’naviy me’yorlar – bu boshqaruvchi ibtidolar, qoidalar, namunalar, andozalar, shaxsning o‘z ideallari asosida o‘zini ichki jihatdan tartibga solish tartibidir.

Xizmat axloqining ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish va turizm sohasining barcha xodimlariga, ularning ish joyi qayerda bo‘lishidan qat’i nazar xos bo‘lishi lozim bo‘lgan asosiy me’yorlari quyidagilardan iborat:

- e’tiborlilik, xushmuomalalik;
- vazminlik, matonat, o‘zini tuta bilish ko‘nikmasi;
- odob va nutq madaniyati;
- nizoli vaziyatlardan qochish, ular vujudga kelgan holda esa har ikki tomonning manfaatlarini himoya qilgan holda ularni muvaffaqiyatli tarzda hal etish qobiliyati;
- xushmuomalalik, iltifotlilik;
- samimiylilik, xayrixohlik;
- odoblilik, vazminlik;
- o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘la olish;
- bir vaqtning o‘zida diqqat markazida bir nechta insonlarni yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida amalga oshirilayotgan turli harakatlarni

e'tibor doirasida ushlab turgan holda tezkor sur'atlarda munosabat bildirishga tayyorlik;

- injiq mijozga xizmat ko'rsatgandan so'ng yoki og'ir navbatchilikdan so'ng o'zini tinch va xushmuomalalik bilan tutish ko'nikmasi;
- mijozlarning qoniqmasliklari va nizolardan qochish ko'nikmasi;
- har bir insonning dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqini hurmat qilish;
- kasbiy obro'sini saqlash;
- ichki va xalqaro turizmning rivojlanishiga hissa qo'shish;
- o'z faoliyatiga nisbatan keltirilgan adolatli tanqidlarni qabul qilish;
- odamlarning axloqiy qadriyatları va madaniy standartlarini hurmat qilish, insonning milliy, diniy yoki ma'naviy hissiyotlarini haqoratlovchi fikrlarning bayon qilinishining oldini olish.

Ijtimoiy ish axloqining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat, deb hisoblash mumkin:

- baholovchi – xodimlarning xulqi va harakatlarini axloqiy me'yorlar va prinsiplarga muvofiqlik nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi;
- tartibga soluvchi – turli rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ijtimoiy xodim xulqi va harakatlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi;
- tashkiliy – jarayon ishtirokchilaridan o'z majburiyatları va kasbiy burchini ijodiy yondashgan holda bajarishni talab etgan holda ijtimoiy ishni tashkillashtirishni yaxshilashga xizmat qiladi;
- boshqaruvchi – ijtimoiy xodim xulqi va harakatlarini, jarayon davomida faoliyat manfaatlarini ko'zlagan holda ijtimoiy boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- rag'batlantiruvchi – faoliyatning ijtimoiy va kasbiy jihatdan ma'qullanadigan sabablarini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi;

– menejment etikasi, etikaning mazkur turi boshqaruv sohasida faoliyat olib borayotgan insonning harakatlari va xulqini, shuningdek, tashkilotning o‘z ichki va tashqi muhitiga nisbatan menejer va tashkilotning harakatlari umuminsoniy axloqiy talablar bilan qiyoslanishi jihatidan “menejerlar majmui” sifatidagi vazifasini o‘rganadi.

Kasbiy axloq odamlarning ishbilarmonlikka oid muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Kasbiy axloq zamirida kasbiy majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘sishimcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi lozim bo‘lgan muayyan prinsiplar va me’yorlar yotadi.

Me’yor – bu yuqori kasbiy mahorat (professionalizm) asosidir. Professional ma’naviy me’yorlar – bu boshqaruvchi ibtidolar, qoidalar, namunalar, andozalar, shaxsning o‘z ideallari asosida o‘zini ichki jihatdan tartibga solish tartibidir.

Xizmat axloqining ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish va turizm sohasining barcha xodimlariiga, ularning ish joyi qayerda bo‘lishidan qat’i nazar xos bo‘lishi lozim bo‘lgan asosiy me’yorlari quyidagilardan iborat:

- e’tiborlilik, xushmuomalalik;
- vazminlik, matonat, o‘zini tuta bilish ko‘nikmasi;
- odob va nutq madaniyati;
- nizoli vaziyatlardan qochish, ular vujudga kelgan holda esa har ikki tomonning manfaatlarini himoya qilgan holda ularni muvaffaqiyatli tarzda hal etish qobiliyati;
- xushmuomalalik, iltifotlilik;
- samimiylilik, xayrixohlik;
- odoblilik, vazminlik;
- o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘la olish;
- bir vaqtning o‘zida diqqat markazida bir nechta insonlarni yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida amalga oshirilayotgan turli harakatlarni

e'tibor doirasida ushlab turgan holda tezkor sur'atlarda munosabat bildirishga tayyorlik;

- injiq mijozga xizmat ko'rsatgandan so'ng yoki og'ir navbatchilikdan so'ng o'zini tinch va xushmuomalalik bilan tutish ko'nikmasi;
- mijozlarning qoniqmasliklari va nizolardan qochish ko'nikmasi;
- har bir insonning dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqini hurmat qilish;
- kasbiy obro'sini saqlash;
- ichki va xalqaro turizmnинг rivojlanishiga hissa qo'shish;
- o'z faoliyatiga nisbatan keltirilgan adolatli tanqidlarni qabul qilish;
- odamlarning axloqiy qadriyatlari va madaniy standartlarini hurmat qilish, insonning milliy, diniy yoki ma'naviy hissiyotlarini haqoratlovchi fikrlarning bayon qilinishining oldini olish.

Ijtimoiy ish axloqining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat, deb hisoblash mumkin:

- baholovchi – xodimlarning xulqi va harakatlarini axloqiy me'yorlar va prinsiplarga muvofiqlik nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi;
- tartibga soluvchi – turli rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ijtimoiy xodim xulqi va harakatlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi;
- tashkiliy – jarayon ishtirokchilaridan o'z majburiyatlari va kasbiy burchini ijodiy yondashgan holda bajarishni talab etgan holda ijtimoiy ishni tashkillashtirishni yaxshilashga xizmat qiladi;
- boshqaruvchi – ijtimoiy xodim xulqi va harakatlarini, jarayon davomida faoliyat manfaatlarini ko'zlagan holda ijtimoiy boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- rag'batlantiruvchi – faoliyatning ijtimoiy va kasbiy jihatdan ma'qullanadigan sabablarini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi;

- muvofiqlashtiruvchi – mijozga ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilarining ishonch va o'zaro yordamga asoslangan hamkorligini ta'minlaydi;
- qat'iy belgilovchi – ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy xizmatni mijozga yordam ko'rsatishning maqsadi, usullari va vositasini tanlashga yo'naltiradi va belgilab beradi;
- qayta ishlab chiquvchi – ijtimoiy xodimlar harakatlari va ijtimoiy xodimlarning o'zaro va mijozlar bilan bo'lgan munosabatlarini axloq va ma'naviylik asosida qayta ishlab chiqish imkonini beradi;
- tarbiyaviy – ijtimoiy xodim kabi uning mijoz shaxsini, shuningdek, mijozning ijtimoiy muhitini tarbiyalash va takomillashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- kommunikativ – mutaxassislar va ularning mijozlari o'ttasidagi muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- maqbullashtiruvchi – ijtimoiy ish samaradorligi va sifatini, kasbning jamiyatdagи maqomini, uning ma'naviylik darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi;
- barqarorlashtiruvchi – ijtimoiy xodimlar o'ttasidagi, ijtimoiy xodimlar va ularning mijozlari hamda yaqinlari o'ttasidagi, ijtimoiy xodimlar va turli muassasalar vakillari o'ttasidagi munosabatlarning barqarorlashishiga imkoniyat yaratadi;
- ratsionallashtiruvchi – ijtimoiy xodim uchun ta'sir ko'rsatishning kasbiy axloq nuqtayi nazaridan eng samarali va qulay bo'lgan yechimlari, maqsadlari, usullari va vositalarini tanlashni osonlashtiradi;
- preventiv (ogohlantiruvchi) – ijtimoiy xodimni mijoz va jamiyatga zarar yetkazuvchi harakatlardan ogohlantiradi va saqlaydi;
- prognostik – alohida ijtimoiy xodimlar va ularning jamoalarining xulqi va harakatlari, ularning axloqiy rivojlanishini taxmin qilish imkonini beradi;
- axborotga oid – ijtimoiy xodimlarni ijtimoiy ish va kasbiy axloq qadriyatlarini tizimiga daxldorligini oshiradi;

– ijtimoiy – jamiyatda ijtimoiy ish olib borish uchun maqbul sharoitlarni yaratish imkonini beradi;

– ijtimoiylashtiruvchi – ijtimoiy xodimni jamiyatda hukmron bo‘lgan qadriyatlar va axloq tizimi bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy xodim kasbiy axloqi vazifalarining ko‘p turliligi uning ijtimoiy jihatdan yuqori ahamiyatga ega ekanligi bilan bog‘liq¹.

Yuqorida aytib o‘tilganlarga qaramasdan, amaliyotda ijtimoiy xodimlar o‘zlarining mijozlarga, hamkasblariga, o‘z kasblari va umuman jamiyatga nisbatan majburiyatlari oqibatida turli axloqiy muammolar va ikkilanishlarga duch kelishlariga to‘g‘ri keladi. Ko‘pincha ushbu muammolar noaniq, mujmal bo‘ladi va shu sababli ishonchszilikni, muammolarni ko‘rmaslik va ulardan qochishga intilishni keltirib chiqaradi. Monografiya va kitoblarda yozilgan oliy qadriyatlarga so‘zda amal qilish va o‘z mas’uliyatini namoyon qilish oson. Biroq yuqorida amal qilish uchun keltirilgan qoidalarni kundalik hayotga tatbiq qilish har doim ham oson kechmaydi².

3.3. Ijtimoiy xodimning axloq kodeksi

Masalani o‘rganishda yana bir muhim jihat ijtimoiy ishda axloq kodeksining o‘rniga tegishli, ya’ni axloq kodeksi nima va u qanday vazifalarni amalgalash oshirishini o‘rganish foydadan xoli bo‘lmaydi. Axloq Kodeksining qabul qilinishi ko‘pincha “kasb”ning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlari sifatida ifodalanadi hamda Britaniya ijtimoiy xodimlari uyushmasi faoliyati quyidagi fikr bilan boshlanadi: “Ijtimoiy ish kasbiy faoliyat hisoblanadi”. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy xodimning kasbiy mas’uliyatini taqozo qiluvchi axloqiy prinsiplarida belgilab berilgan. Axloq Kodeksining asosiy maqsadi – bu mijozlar va

¹Ярская-Смирнова Е. Профессиональная этика социальной работы: Учебник. Москва, 1998. – С. 42-44.

²Митрошенков О.А. Философия. Учебник. Этические дилеммы и ценностные противоречия в социальной работе. Москва Гардарики, 2002. – С.56.

jamiyatning boshqa a'zolarini himoya qilish maqsadida noaniq prinsiplarni aniqlashtirish demakdir¹.

O'z xizmatlarini taqdim etayotgan odamlar xizmat foydalanuvchilariga zarur bo'lgan yordamni ko'rsatish uchun yetarli darajada kasbiy mahorat va tajribaga ega bo'lislari hamda ularni aldamasliklari yoki ularning ishonchlarini suiste'mol qilmasliklari lozim².

Jamoatchilikni himoya qilish maqsadida ijtimoiy xodimlar mazkur Professional xulq va axloq kodeksiga amal qilishlari lozim. Undagi asosiy qoidalar quyidagilardan iborat:

- shaxslarning qadr-qimmati, ularning qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lisl;
- ijtimoiy adolatga intilish;
- kasbiy amaliyotning bir butunligi;
- kasbiy amaliyotda maxfiylikka amal qilish;
- ijtimoiy amaliyotdagи layoqatlilik³.

Ijtimoiy xodim o'z faoliyati davomida quyidagi prinsiplarga amal qilishi lozim:

- mijozning oqilona talablariga rioya qilish;
- ijtimoiy xodimning mijoz va jamiyat uchun nomaqbul oqibatlarga sabab bo'lувчи harakatlariga shaxsiy javobgarligi;
- o'zaro hamkorlikdagi harakatlarning har qanday bosqichida mijozning mustaqil qaror qabul qilish huquqini hurmat qilish;
- mijozni u qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish;
- maxfiylik;
- xushmuomalalik;
- xolislik;
- halollik va ochiqlik;
- mijozni ma'lumotlardan to'liq xabardor qilish;

¹ NASW (National Association of Social Workers) (1958) Working definitions of social work practice, Social Work, – P. 1.

² Sarah Banks. Professional Ethics in Social Work—What Future? Br. J. Social Wk. (1998) 28, - P. 216-218.

³Code of Professional Conduct and Ethics for Social Workers. – Dublin. – P 4.

- amaliyotni tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjalarga to'liq amal qilish;
- o'z majburiyatlarini kasbiy va axloqiy jihatdan mukammal amalga oshirish;
- axloqiy bilimlarni namoyon qilish;
- kasbiy mas'uliyatni namoyon qilish;
- qonunni xizmat foydalanuvchilar manfaatlarida qo'llash;
- foydalanuvchilar, tarbiyachilar va mutaxassislar o'rtaсидаги aloqalarni tartibga solish;
- ikki tomonlama kelishuvga erishish;
- salomatlik va xavfsizlikka oid xavflarni tegishli tarzda hal etish;
- talabalarni munosib tarzda boshqarish;
- talabalarni o'qitish va to'g'ri baholash;
- tadqiqotlarni axloqiy nuqtayi nazardan amalga oshirish;
- sizning reklamangiz ishonchli va aniq, chalg'itmaydigan va qonunga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qiling;
- shaxsiy xulqning yuqori standartlariga rioya qilish;
- salomatlikning faoliyat olib borishga yaroqliligi to'g'risidagi masalalarни muhokama qilish;
- o'z xulqingiz va malakangiz to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilish;
- kasbiy bilim, ko'nikma va tajribalar doirasidagi qonun;
- kasbiy bilim va ko'nikinalaringizni doimo faol holatda tutib turing¹.

Prinsiplar:

1. Inson nufuzi va farovonligini himoya qilish hamda targ'ib qilish. Ijtimoiy xodimlar har bir insonni hurmat qilishlari hamda farovonligini ta'minlashi, shuningdek, uni jismoniy, psixologik, hissiy va ma'nnaviy tahqirlashdan himoya qilishlari lozim. Ular alohida shaxslar, guruhlar va umuman jamiyatning eng oliy manfaatlarini

¹Code of Professional Conduct and Ethics for Social Workers. – Dublin. – P.4.

amalga oshirishni ta'minlash va ularga zarar yetishining oldini olish yo'nalishida faoliyat olib borishlari lozim.

2. O'z-o'zini anglash huquqiga hurmat bilan munosabatda bo'lish. Ijtimoiy xodimlar odamlarni hurmat qilishlari, ularni rag'batlantirishlari va ularning qadr-qimmatini qo'llab-quvvatlashlari, shuningdek, ularning qadriyatlari va hayotdagi tanlovlardan qat'i nazar, agar bu boshqa shaxslarning huquqi, xavfsizligi va qonuniy manfaatlariga xavf tug'dirmasa, ularga o'z shaxsiy tanlovini va qarorini amalga oshirish huquqini taqdim qilishlari lozim.

3. Ishtirok etish huquqining amalga oshirilishiga imkoniyat yaratish. Ijtimoiy xodimlar o'z xizmatlarini odamlarning hayotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha jabhalarida qaror qilish va harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lish imkoniyatini yaratishlari zarur.

4. Umuman har bir insonni davolash. Ijtimoiy xodimlar inson, oila, uyushma, ijtimoiy va tabiiy muhit ehtiyojlariga qiziqishlari va inson hayotining barcha jihatlarini tan olishga intilishlari zarur.

5. Kuchli tomonlarni aniqlash va ishlab chiqish. Ijtimoiy xodimlar o'z e'tiborini barcha alohida shaxslar, guruhlar va jamoalarning kuchli tomonlariga qaratishlari va bu bilan ularning huquq va imkoniyatlari doirasini kengaytirishga imkoniyat yaratishlari zarur¹.

Prinsiplar:

1. Tahqirlashga qarshi kurash. Ijtimoiy xodimlar odamlar oldida qobiliyat, yosh, madaniyat, jins, oilaviy ahvol, ijtimoiy-iqtisodiy maqom, siyosiy qarashlar, teri rangi, irqiy yoki boshqa jismoniy xususiyatlar, jinsiy yo'naltirilganlik yoki diniy e'tiqod kabi xususiyatlar asosida tahqirlashga qarshi kurashishda mas'uldir.

2. Xilma-xillikni tan olish. Ijtimoiy xodimlar ular amaliyot olib borayotgan jamiyatlarning turli-tumanligini individual, oilaviy, guruhga

¹The Code Of Ethics For Social Work. Statement of Principles. Copyright © British Association of Social Workers. 2012 – P. 7.

oid va ijtimoiy farqlarni e'tiborga olgan holda tan olishlari va hurmat qilishlari zarur.

3. Manbalarni taqsimlash. Ijtimoiy xodimlar o'z ixtiyorlaridagi manbalarni adolatli tarzda, zaruratga muvofiq ravishda taqsimlanishini kafolatlashlari lozim¹.

Prinsiplar.

1. Qadriyatlarni himoya qilish va kasb obro'si. Ijtimoiy xodimlar barcha vaqtarda kasbning qadriyatlari va prinsiplariga muvofiq ravishda harakat qilishlari va ularning xulqi o'z kasbiga shubhali nom olib kelmasligini ta'minlashlari lozim.

2. Ishonchli hamkor sifatida ijtimoiy xodimlar halol, ishonchli va ochiq bo'lishlari, o'z rollari, aralashuvi va qarorlarini aniq tushuntirishlari zarur, ularning xizmatlardidan foydalanayotgan odamlar, ularning hamkasbleri yoki ish beruvchilarni aldamasliklari lozim. Professional ravishda javobgar bo'lgan ijtimoiy xodimlar ularning xizmatlari iste'molchilari bo'lgan odamlar, ish beruvchilar va keng jamoatchilik oldida o'z qarorlari va xatti-harakatlarini asoslashga va bu harakatlar uchun javob berishga tayyor bo'lishlari lozim.

3. Inson huquqlari va inson qadriga hurmat bilan munosabatda bo'lish. Ijtimoiy xodim faoliyati hurmat hamda inson huquq va erkinliklarini tan olish, uning qadri hamda qadriyatlarini, o'zining hayot uchun munosib sharoitlar va farovonlikka bo'lgan imkoniyatlarini amalga oshirish qobiliyatidan foydalana olishiga ko'maklashishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mazkur qadriyat bilan bog'liq bo'lgan prinsiplar quyidagilarni anglatadi:

- Ijtimoiy xodim axloqning mazkur kodeksi asoslangan xalqaro bitimlarda bayon qilingan insonning asosiy huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

- Insonning mustaqil tanlovi va o'z-o'zini anglash huquqini tan olish. Ijtimoiy xodimlar insonni ijtimoiy qo'llab-quvvatlar ekan, uning

¹ The Code of Ethics for Social Work. Statement of Principles. Copyright © British Association of Social Workers. 2012. - P. 8.

shaxsiy qarorlar qabul qilish qobiliyati va boshqa odamlarning manfaatlariiga xavf tug'dirmagan holda o'z hayot yo'lini mustaqil belgilash qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadilar.

•Insonning ijtimoiy madaniy xususiyatlarini, ijtimoiy xodimning aholining turli konfessional va etnik guruuhlariga nisbatan tolerant munosabatini taqozo qiluvchi polietnik jamiyat kontekstida hurmat qilish. Alovida inson yoki o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turli shaxslar guruhi (guruhlari) ijtimoiy ish mijozlari bo'lishlari mumkin. Yordam ko'rsatish va qaror qabul qilish jarayonida inson yoki shaxslar guruhining barcha o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim.

Tahqirlashga qarshi harakatlarni amalga oshirish va insonni, yoshi, irqi va ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, diniy e'tiqodi, mafkurasi, millati, salomatligi holati yoki boshqa har qanday farqlaridan qat'i nazar uni shundayligicha qabul qilish.

Ijtimoiy xodimlar odamlarni o'z hayotlarining o'zgarishiga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish jarayoniga jalb qilinishi, inson, guruuhlar, jamoalarning kuchli tomonlari va manbalariga asoslangan holda ularga imkoniyatlar taqdim qilishga imkoniyat yaratadilar.

Odamlar qadrini himoya qilish, xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy farovonlikka erishishlarida yordam ko'rsatish ijtimoiy xodimlar tomonidan insonni uning individual, oilaviy, ijtimoiy jihatlari bilan birgalikda bir butun sifatida anglashdan kelib chiqqan holda, uning manfaatlari va ehtiyojlarini hurmat qilgan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiyadolat va insonparvarlik.

Ijtimoiyadolat va insonparvarlik ijtimoiy ishning asosiy prinsiplari va qadriyatlari hisoblanadi. Mazkur qadriyat bilan bog'liq bo'lgan prinsiplar quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy xodimning insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida teng huquq va imkoniyatlarni amalga oshirish hamda manbalarni adolatli va teng huquqli tarzda taqsimlash bo'yicha

faoliyati; davlat va ijtimoiy tashkilotlarning manbalaridan foydalanishning teng tarzda kafolatlangan imkoniyatlarini yaratish va foydalananish bo'yicha faoliyat.

• Ijtimoiy xodimlar odamlarning ijtimoiy nochorligiga sabab bo'lувчи ijtimoiy sharoitlar va qiyinchiliklarni aniqlaydilar, ijtimoiy siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish mexanizmlarini yaxshilashga ta'sir ko'rsatadilar.

• Ijtimoiy xodimlar tabqirlashning barcha turlariga, jumladan, jinsga oid, yoshga oid, u yoki bu madaniyatga tegishlilik, oilaviy ahvol, ijtimoiy-iqtisodiy maqom, etnik va diniy tegishlilik, jismoniy xususiyatlar va jinsiylar qarashlarga oid tahqirlashlarga qarshi kurashishlari lozim.

• Ijtimoiyadolat prinsipiga amal qilgan holda ijtimoiy xodimlar o'z faoliyati davomida odamlar orasidagi ijtimoiy-madaniy farqlarni hurmat qiladilar, tan oladilar va ularga e'tibor qiladilar.

• Ijtimoiy xodimlar faoliyati insonni sigmatizatsiyasi, izolatsiyasiga sabab bo'lувчи ijtimoiy sharoitlarni tekislashga, va ularni ijtimoiylashtirish jarayoniga jalb qilinishiga yo'naltirilishi lozim. Ijtimoiy xodimning amaliy faoliyati ijtimoiyadolat prinsiplariga amal qilish maqsadida o'z-o'zini ijobjiy jihatdan namoyon qilish, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

Sodiqlik va halollik.

Odamlarga xizmat qilish va halollik odamlarga yordam ko'rsatish, jamiyat e'tiborini ijtimoiy muammolarga ochiq va ishonzchli uslubda jalb qilishni taqozo etadi. Mazkur qadriyat bilan bog'liq prinsiplar quyidagilarni anglatadi:

• Ijtimoiy xodimlarning shaxsiy, moddiy yoki moliyaviy foya kutmasdan boshqa odamlar manfaatlarini himoya qilish va jamiyat farovonligiga erishish bo'yicha faoliyati.

• Mijoz va uning ijtimoiy muhitining manfaatlarini; mijoz va ijtimoiy xodimning shaxsiy manfaatlarini; mijoz, professional uyushma va umuman jamiyat manfaatlarini ijtimoiy xodimning vijdonliligi va

halolligi vositasida muvozanatlashtirish. Ba'zilarning manfaatlari boshqalarning manfaatlaridan ustun qo'yilmasligi, kimgadir zarar yetkazmasligi zarur.

• Ijtimoiy xodimlar tomonidan ijtimoiy ish vazifasini kasbiy faoliyat sifatida amalga oshirilishi, uning qadriyatlari va xulqning axloqiy standartlariga rioya qilinishi.

• Ijtimoiy xodimlar tomonidan mijoz bilan ishlashda maxfiylikka rioya qilish, maxfiylikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Mijozni unga taalluqli bo'lgan u yoki bu ma'lumotni boshqa tashkilotlar xodimlariga topshirilishi mumkinligi yoki shartligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirish. Maxfiylik mijoz yoki boshqa shaxslarning hayoti uchun xavf tug'ilgan sharoitda buzilishi mumkin.

• Ijtimoiy xodim tomonidan yordam so'rab murojaat qilgan mijozga uning manfaatlari yo'lida muammoni hal qilish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar to'g'risida to'liq va ochiq ma'lumotlar taqdim qilinishi.

• Ijtimoiy ishning axloqiy prinsiplariga rioya qilish adolatli va mas'uliyatli ravishda sharoit yaratishga oid faoliyat.

Kasbiy layoqatlilik. Ijtimoiy xodimning kasbiy layoqatliligi ijtimoiy ish qadriyati hisoblanadi va axloqiy prinsiplarga asoslangan holda ijtimoiy xodim tomonidan o'z majburiyatlarini samarali amalga oshirish, doimiy ravishda professional rivojlanish va professional o'sishdan iborat. Bu quyidagilarni anglatadi:

• Ijtimoiy xodimlarning o'z kasbiy majburiyatlarini sifatli bajarishlariga yo'naltirilgan munosib xulq-atvor.

• Ijtimoiy xodimlarning o'z kasbiy majburiyatlarini bajarish jarayonidagi xolisona qarashlari, kasbiy prinsiplar va standartlarga zid bo'limagan xulq.

• Mijozlar, tadqiqotlar ishtirokchilari, talabalar, hamkasblar bilan muloqot qilish jarayonida nizolar va birovdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish xavfini kamaytirish yoki bartaraf qilishning aniq professional chegaralarini belgilab olish.

• Ijtimoiy xodim tomonidan kasbiy chegaralarni buzishi mumkin bo'lgan harakatlarni sodir etish, jumladan, mijozlar, talabalar, tadqiqotlar ishtirokchilari yoki yuqori darajadagi vakolatlarga ega bo'lgan hamkasblari bilan ishqiy yoki jinsiy munosabatlarga kirish holatlaridan qochish.

• Ijtimoiy xodim tomonidan o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amaliy faoliyati davomida samarali tarzda qo'llanilishi.

• O'z kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borish, taqdim qilinayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va hajmini oshirish maqsadida faoliyat amaliyotiga doimiy ravishda yangi yondashuvlar va usullarni joriy qilish.

• Ijtimoiy nochorlik omillarini aniqlash va ijtimoiy muammolarni hal etish usullarini namoyon qilish maqsadida tadqiqotchilik faoliyatida ishtirok etish, olingan ilmiy natijalarni o'z hamkasblari orasida keng tarqatish, bilimlarini ommaviy axborot vositalari yordamida ommalashtirish.

• Talabalarni amaliy faoliyatga jalg qilish maqsadida OTMlarning ta'lif jarayonlarida ishtirok etish, maxfiylik prinsipiga amal qilgan holda mijozlarning ijtimoiy muammolarini yoki murakkab hayotiy vaziyatlarni hal etishdagi o'z tajribasini keng ommaga tarqatish.

• O'z bilimlari sarhadlarini tan olish va ish beruvchilari hamda mijozlarini xizmat ko'rsatish jarayoniga boshqa mutaxassislarini jalg qilish zarur ekanligi to'g'risida ogohlantirish.

Ijtimoiy xodimlar ayni davrda o'z mamlakatlarida mavjud axloq qoidalari va me'yorlariga muvofiq ravishda harakat qilishlari zarur. Ushbu qoida va me'yorlar ularni milliy kontekstda qo'llashni aniq belgilab beruvchi batafsil tavsiyalarni qamrab olishi talab etiladi. Quyida professional xulqning umumiyligi me'yorlari keltirilgan:

1. Ijtimoiy xodimlar o'z faoliyatini amalga oshirishlari uchun talab etiladigan kasbiy malaka va layoqatlarini rivojlantirishlari va oshirib borishlari zarur.

2. Ijtimoiy ish xodimlar o‘z malakalaridan g‘ayriinsoniy maqsadlarda foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasliklari lozim.

3. Ijtimoiy xodimlar vijdon bilan faoliyat olib borishlari zarur. Ularning xizmatidan foydalanuvchi odamlarning ishonchlarini suiiste’mol qilmasliklari, shaxsiy va kasbiy hayot o‘rtasidagi chegarani aniq anglashlari, shaxsiy foydasini yoki g‘arazli maqsadlarini ko‘zlab o‘z xizmat lavozimidan foydalanmasliklari talab etiladi.

4. Ijtimoiy xodimlar ularning xizmatlaridan foydalanayotgan odamlarga nisbatan rahm-shafqat, hamdardlik va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishlari lozim.

5. Ijtimoiy xodimlar ularning xizmatidan foydalanayotgan odamlarning ehtiyojlari va manfaatlarini shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlariga bog‘liq qilib qo‘ymasliklari zarur.

6. Ijtimoiy xodimlar mijozlarga tegishli xizmatlar ko‘rsatish imkonini ta‘minlash maqsadida, o‘z ish o‘rnida va jamiyatda o‘zlar to‘g‘risida qayg‘urishning professional va shaxsiy nuqtayi nazardan zarur choralarini amalga oshirishlari joiz.

7. Ijtimoiy xodimlar ularning xizmatlaridan foydalanayotgan odamlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarning sir saqlanishini ta‘minlashlari lozim. Faqatgina oliv axloqiy talablar bilan oqlangan (hayotni saqlab qolish kabi)holatlar bundan mustasno bo‘lishi mumkin.

8. Ijtimoiy xodimlar o‘z harakatlari uchun ularning xizmatlaridan foydalanayotgan, ular ish olib borayotgan odamlar oldida, o‘z hamkasblari va ish beruvchilari oldida, kasbiy uyushmalar va qonun oldida javobgar ekanliklarini va ushbu turli tomonlar oldidagi hisobdorlik nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkinligini to‘liq anglashlari lozim.

9. Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ishni o‘rganayotgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning yuqori sifatli amaliyat o‘tashlari va yangilangan amaliyat bilim olishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida ijtimoiy ish institutlari (maktablar, fakultetlar, bo‘limlar) bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘lishlari zarur.

10. Ijtimoiy xodimlar o‘z hamkasblari va ish beruvchilariga axloq masalalariga bag‘ishlangan debatlar o‘tkazilishida yordam ko‘rsatishlari,

mazkur debatlarda ishtirok etishlari, shuningdek, axloq masalalariga taalluqli ma'lumotlarga asoslangan holda qaror qabul qilishda mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari lozim.

11. Ijtimoiy xodimlar axloqiy mulohazalarga asoslangan holda o'z qarorlari sabablarini bayon qilishga tayyor bo'lishlari, hamda amalga oshirilgan tanlov hamda harakatlar uchun javob berishlari joiz.

12. Ijtimoiy xodimlar o'zлari faoliyat olib borayotgan tashkilotlarda va mazkur deklaratsiya prinsiplari hamda milliy me'yorlar joriy qilingan deklaratsiyalar prinsiplari muhokama qilinayotgan, baholanayotgan va qo'llab-quvvatlanayotgan o'z mamlakatlarida tegishli sharoitlarni yaratish maqsadida harakat qilishlari lozim¹.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy xodim shaxsining insonparvarlikka yo'naltirilganligi tushunchasi.
2. Ijtimoiy xodimning kasbiy axloqiy tafakkuri falsafiy, ijtimoiy-madaniy, professional, ijtimoiy-guruhga oid va individual tarkibiy qismlar majmui sifatida.
3. Ijtimoiy xodimning axloqiy-aksiologik tafakkurining ziddiyatli tabiatи.
4. Ijtimoiy xodimning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xislatlariga qo'yiladigan talablar.

4-BOB. ETIKA AXLOQ TO‘G‘RISIDAGI FAN. AXLOQNING KELIB CHIQISHI VA ASOSLANISHI MASALASI

- 4.1. Axloqning kelib chiqishi to‘g‘risidagi turli yondashuvlar.
- 4.2. Axloq manbalari va axloq tuzilmalari.
- 4.3. Axloqiy tizimlarni tasnifi.

4.1. Axloqning kelib chiqishi to‘g‘risidagi turli yondashuvlar

Axloq va etika atamalari ularning dastlabki ma’nosiga ko‘ra o‘zaro uzviy bog‘liq. Axloq (lotin tilidan moralis – to‘g‘ri, ibratli) odamlarning xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi, eng muhim obyektiv ijtimoiy institutni aks ettiradi. Bir vaqtning o‘zida axloq jamoat tafakkuri shaklini va ma’naviy aloqalar, deb nomlangan alohida ijtimoiy munosabatlar turini ifodalaydi. Axloq etikaning “urf-odat yoki turmush tarzi”ni ifodalovchi o‘rganish predmetini namoyon qiladi. Axloq atamasining bugungi kundagi ma’nosи o‘zini qanday tutishni o‘rganishga tegishli, etikaning (yoki axloq falsafasi) ma’nosи esa ma’naviy xulqni o‘rganishga xos. “Axloqiy akt” va “axloqiy kodeks” iboralari qandaydir standartga tegishlilikni anglatadi. Mazkur atama inson uchun ahamiyatga ega bo‘lgan yoki u talab etadigan qandaydir istalgan xislatlarni qondiruvchi narsalarni ifodalaydi. Normativ etika – biz yashashimiz lozim bo‘lgan prinsiplar bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa. Qadimgi yunonlar davridan buyon izohlash prinsiplari axloq nazariyalarida shakllantirilgan va bayon qilingan.

Aflatun ushbu prinsiplarning muhimligini ikki ming yil avval aytib bergen. Axloqiy mulohazalarni keltirib chiqarishda asosiy o‘rin egallagan qadriyatlar sifatida ko‘pincha me’yor, prinsiplar, oliy maqsadlar yoki standartlar ajratib ko‘rsatiladi. Masalan, ayrim faylasuflar tomonidan baxt, biz ma’naviyat to‘g‘risida hukm chiqarishimiz mumkin bo‘lgan oliy qadriyat sifatida ifodalanadi. Ushbu

me'yordan kelib chiqqan holda, baxtga mos bo'lgan, masalan, qoniqish kabi qo'shimcha prinsiplarni ishlab chiqish mumkin.

Axloqiy standartlar biz to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan axloqiy harakatlar to'g'risida hukm chiqarishimiz mumkin bo'lgan prinsiplar hisoblanadi; bunga qonun ustavi, diniy nufuz, jamoat fikri yoki vijdon kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur standartlar ko'pincha bir-biriga zid bo'ladi; biz axloqiy standartlarning turli ko'rinishlariga ega bo'lishimiz lozim¹.

"Axloq" tushunchasi insonning jamiyatda o'zini to'g'ri tutishi prinsiplari tizimini ifodalash uchun qo'llaniladi. Axloq tushunchasini madaniy hamjamiyat a'zolari tomonidan tan olingan, standartlar tizimidan tashkil topgan ijtimoiy institut sifatida ta'riflash mumkin. Axloq madaniy va institutsional doiralarda avloddan-avlodga, guruhdan guruhga, individdan-individga o'tib keladi va obyektiv maqomga ega.

Etika (axloqiy falsafa) ijtimoiy axloqni o'rganadi, axloq me'yorlari bilan tanishtiradi, odamlarni boshqa odamlarning manfaatlarini e'tiborga olishga va shu tarzda ijtimoiy standartlar talabiga javob berishga o'rgatadi.

Qadimgi yunon madaniyatida "axloq" so'zi vositasida inson hayotida mavjud hodisalar va xususiyatlarning keng doirasini belgilangan: fe'l-atvor, urf-odat, tabiat (xarakter), o'zini tutish, qonun, moda ko'rsatmalari va boshq. Natijada ushbu so'zdan boshqa bir so'z – moralis (tabiatga, urf-odatga tegishli) so'zi va nisbatan kechroq (IV asrda) moralitas (axloq) atamasi hosil qilingan. Demak, etimologik mohiyatiga ko'ra qadimgi yunon tilidagi "ethica" va lotin tilidagi "moralitas" so'zlar o'zaro bir-biriga mos keladi.

Bugungi kunda "axloq" so'zi o'zining dastlabki ma'nosini saqlab qolgan holda falsafiy fanni ifodalaydi, axloq tushunchasi ostida esa mazkur fan tomonidan o'rganiladigan real hodisalar va inson xususiyatlari tushuniladi.

Individual axloqiy tafakkur qadimgi yunon jamiyatining haqiqiy fe'l-atvoriga zid bo'lgan axloqiy me'yorlarning refleksiyasini ifodalagan. Ushbu me'yordan yetti donishmandlarga tegishli, deb hisoblangan ayrimlarini keltirib o'tish mumkin: "Kattalarni hurmat qil" (Xilon), "Ota-onangni rozi qilishga shoshil" (Fales), "Eski qonunlarga amal qil, biroq ovqatning yangisini afzal bil" (Periandr), "Me'yor – bu eng afzali" (Kleobul), "O'zboshimchalikni yong'indan ham tezroq o'chirish zarur" (Geraklit) va boshq. Etika aniq-tarixiy qadriyatga oid qarashlarga (u yoki bu tarixiy davrga tatbiq qilgan holda) ilk sinfiy sivilizatsiyalarning harakatlanish ehtiyojini ifodalovchi mavhum, umumiy shakl taqdim qilinganda paydo bo'la boshlaydi.

Ko'p asrlar davomida faylasuflar va mutafakkirlar ezgulik, burch, vijdon va ularning o'zaro aloqalari to'g'risida fikrlaganlar va yozganlar. Masalan, G.Gegelning fikriga ko'ra, yaxshilik o'z rivojlanishida uchta bosqichni bosib o'tadi ("obyektiv ruh"ning rivojlanishidagi uchta bosqich):

1. Huquq
2. Axloq
3. Ma'naviyat¹¹

G.Gegel g'oyasiga ko'ra, "huquq" pillapoyasida turar ekan, inson yomon harakatlar yoki jinoyatlarni sodir qilmaydi va faqatgina jazodan qo'rqqanligi sababli o'zini ijtimoiy maqbul tarzda tutadi (jismoniy jazo, jinoiy ta'qib va boshq). Ya'ni shunday odamlar borki, birovning narsasini olganida uning "qo'lidan tutib" olishlari va jazolashlaridan qo'rqqanligi sababli uni olmaydi. Va agar jazolashning aniq tahdidi mavjud bo'lmasa, inson osonlik bilan jinoyat qilish yoki qonunbuzarlik qilishga qodir. "Axloq" pillapoyasida turar ekan, inson yomon harakatlar/jinoyatlarni sodir etmaydi va ma'naviy ayblovlardan qo'rqqanligi sababli o'zini ijtimoiy maqbul tarzda tutadi.

¹¹Жижко, Е.В. Профессионально-этические основы социальной работы. Курс лекций: учеб. пособие / Е.В. Жижко. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2010. – С 16-17.

Etika bo'yicha mutaxassislar mazkur standartlarni "ma'naviy" axloq, deb nomlaydilar, chunki ular ko'plab odamlar hech bir nazariyasiz yoki nisbatan chuqurroq tahlil qilmasdan o'rghanishlari mumkin bo'lgan axloq me'yorlari hisoblanadi. Axloq sohasidagi ushu ma'naviy aqidalarning ayrimlari "siz o'zingizga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'ring", "adolatli bo'lish", "har doim zarur bo'lgan barcha ishlarni qiladilar" va shu kabilardir. Mazkur ma'naviy aqidalarning qay biridir baxt, halollik, adolat, rahm-shafqat, jasorat, bir butunlik, jamoaviylik, muhabbat, bilim va erkinlik kabilarni ham qamrab oladi.

Boshqa tomondan esa axloq nazariyasi – bu axloqqa oid ma'naviy aqidalarni asoslashga urinish yoki uning asosi hisoblanadi. Axloqiy nazariyalar jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini ta'riflaysidi, unifikatsiyalaydi va tanqid qiladi (Foks va Demarko, 1990). Biz axloq nazariyalarni ishlab chiqqanimizdan so'ng, ba'zi bir umumiylar ma'naviy aqidalarimizga qarshi kurashish uchun ushu nazariyadan foydalanishimiz mumkin; mazkur qarashlar nisbatan chuqurroq mulohazalar va tahlil nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi mumkin¹.

4.2. Axloq manbalari va axloq tuzilmasi

Axloq tuzilmasi bir nechta elementlardan shakllanadi. Arastu davridan buyon bu kabi tuzilmalar sifatida axloqiy tafakkur va ma'naviy harakatlar ajratib ko'rsatiladi. Zamonaviy axloq ular sirasiga yana ma'naviy munosabatlarni ham qo'shami. Shunday qilib, axloq tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- 1. Axloqiy tafakkur** – harakatlarni sodir etishga undovchi boshqaruvchi g'oyalar;

¹ David B. Resnik The ethics of science An Introduction. - London and New York. 2005. – P. 16.

2. Ma’naviy faoliyat – axloqiy asoslar (ma’naviy harakat tuzilmasi) natijasida paydo bo‘lgan darajada amalga oshirilgan harakatlar;

3. Ma’naviy munosabatlar – ma’naviy talablarni amalga oshirish darajasidagi har qanday munosabatlar (oilaga, mehnatga, Vatanga, tabiatga bo‘lgan munosabat; shuningdek, odamlar orasidagi ma’naviy me’yorlar mujassamlangan munosabatlar).

Axloqiy tafakkur uning tuzilmasini hosil qiluvchi tushuncha va toifalar bilan amaliyotlar bajaradi.

Ezgulik – bu ijobiy axloqiy qadriyatni anglatuvchi tushuncha, odatda axloq mohiyati bilan tenglashtiriladi. Mazkur ma’noda ezgulik mutlaq tushuncha, ya’ni ezgulik – bu yovuzlik emas, u hech qachon salbiy qadriyat bo‘la olmaydi. Turli odamlar ezgulik tushunchasini obyektlarga, ularga ijobiy qadriyat taqdim qilgan holda, turli ma’nolarda qo‘llaydi.

Burch – axloqning imperativligini, uning buyruqqa oid tabiatini ifodalovchi tushuncha (axloqiy talabning o‘ziga xos xususiyatlari “Axloq xususiyatlari” qismda keltirilgan). Rasmiy ravishda asosiy burch yaxshilik qilish majburiyatidan iborat. Rigoristik an’ana burchni ezgulik bilan qiyoslaganda asosiy tushuncha, deb hisoblagan, chunki unda ma’naviyat ezgulikka tartibsiz ravishda intilish emas, balki o‘z-o‘zini majburlash va majburiyat sifatida munosabatda bo‘lish sifatida ifodalangan.

Vijdon – shaxs tomonidan axloqiy talablarni ichki jihatdan boshdan kechirishni, “burchning boshqacha ko‘rinishi”ni ifodalovchi tushuncha. Vijdon axloqning nazoratga oid-imperativ mexanizmni aks ettiradi – ya’ni bizning axloqiy xulqimizni o‘zimizning ma’naviy qarashlarimizga muvofiqligi darajasini baholaydi (nazorat qiladi); o‘z ma’naviy qarashlarini amalga oshirish bo‘yicha harakatlarni sodir etishga undaydi; rivojlangan vijdon hech bir burch ularni bajarishga majburlay olmaydigan talablarni belgilab beradi (masalan, qahramonlik qilish).

Burch axloqiy talablarni tashqi (garchi shaxs tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa-da), ijtimoiy, tarixdan belgilangan, (o'g'illik burchi, vatanparvarlik tuyg'usi, kasbiy burch va boshq.) tabaqalashtirilgan, oqilona asoslangan hodisa sifatida ifodalaydi. Vijdon ham ichki, shaxsiy, o'zgarmas va obyektiv, universal va asoslanmagan axloqiy talablardan iborat.

Burchni bajarish va vijdon ovoziga qulqoq tutish shaxsning or-nomus va qadr-qimmat tushunchalari bilan ma'naviy qadriyatini belgilab beradi.

Or-nomus (iftixor) – shaxsni ijtimoiy guruh (harbiy, kasbiy, qizlar va hokazo) vakili sifatida ifodalash uchun qo'llaniladigan atama demakdir. Iftixorga mazkur guruh uchun xos bo'lgan burchni bajarish yo'li bilan erishiladi va u individning mazkur guruh bilan axloqiy aloqasini ifodalaydi. Iftixor inson xizmatlarining jamoat tomonidan baholanishi, uning jamoat tomonidan tan olinishi natijasi sifatida hosil bo'ladi. Jamoat fikrining salbiy ta'siri iftixor, or-nomusning yo'qotilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Qadr-qimmat – shaxsning ma'naviy qadrini belgilash uchun qo'llaniladigan atama. U insonga tug'ilishida ajralmas jihat sifatida taqdim qilinadi, uning axloqiy jihatdan insoniyatga tegishliligini ifodalaydi va shaxs tomonidan o'zining ma'naviy xizmatlarining baholanishi sifatida qabul qilinadi. Shaxsiy qadr-qimmat hissi o'z yutuqlarini boshqalarning yutuqlari bilan qiyoslashni emas, balki o'zini axloqli inson haqidagi ideal tasavvur bilan qiyoslashni taqozo qiladi. Agar atrofdagilarning jamoat oldidagi harakatlari insonni obro'sizlantirishi mumkin bo'lsa, inson o'z qadrini faqatgina o'zining past, nojo'ya harakatlari natijasida yo'qotishi mumkin.

An'anaviy ma'naviyatda or-nomus va qadr-qimmat hodisalarining nisbati biroz boshqacha: insonning or-nomusi uning individual xizmatlari oqibati emas, balki uning imtiyozga ega ijtimoiy guruhga mansub ekanligi natijasidir. Or-nomusga ega bo'lishiga harakat qilish shart emas, uni faqatgina individni mansabdorlar guruhi ayblagan holda

“yo‘qotib qo‘yish” mumkin. Qadr-qimmat esa ma’naviyatning mazkur tizimida – bu imtiyozli guruh ichida egallash va himoya qilish lozim bo‘lgan maqomdir.

Axloqiy tafakkur tuzilmasiga shuningdek, *ma’naviy hissiyotlar* (muhabbat, hamdardlik, uyat va h.k.) ham kiradi. Ular ruhiyatning nazorat qilish mumkin bo‘limgan ta’sirlaridan farq qiladi, ular bizga mas’uliyat sifatida yuklanadi, axloqiy tushunchalarning hissiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi (burch hissi, mas’uliyat hissi, shaxsiy qadr-qimmat hissi va boshq.). Ma’naviy harakatlar amalga oshirilganda ong quyi hissiyotlarni (jazava, ehtiros) nazorat qiladi, biroq oliv hissiyotlarga (vijdonga) quloq tutadi.

Axloqning vazifalari. Axloqning jamiyat va alohida shaxs hayotidagi roli ko‘p turli. Nima sababdan ma’naviyat mavjudligini izohlash mushkul, biroq u nima uchun mavjud va qanday vazifalarni bajarayotganligini ifodalash mumkin.

Insonparvarlik vazifasi. Ma’naviyat bizni bugungi kundagi shaxsiy cheklanganlikdan “ustun qo‘yadi”, insoniylikka tomon yo‘naltiradi. Ma’naviyatning mavjudligi bizning har birimiz yaxshiroq hayot kechirishga loyiq ekanligimizni anglatadi. Axloqiy xulq yordamida biz o‘zimizning nomukammal insoniy tabiatimizni yengib o‘tishimiz mumkin: majruh ham marhamatli ham bo‘lishi mumkin. Garchi dunyo, koinot o‘z-o‘zidan na marhamatli, na yovuz bo‘lmasligi mumkin ekan, u holda ma’naviyat ularga ham ezgulik tushunchasini singdirishga, dunyonи inson uchun marhamatli, insonga mos, mazmunli hayot kechirishiga qulay bo‘lishga intiladi.

Ma’naviyatning insonparvarlik vazifasi – dunyonи insonga xos va insonni o‘z nomiga xos qilishdan iborat. Hayotimiz davomida biz doimiy ravishda ijtimoiy rollarni bajaramiz, har bir vaziyatda biz tegishli vazifalarni bajargan holda faqatgina o‘z “men”imizning bir qismini namoyon qilamiz. Ma’naviyatda esa biz qismlar sarhadidan tashqarida – “umuman inson” sifatida namoyon bo‘lamiz. Ma’naviyat

insonga uning bir butunligini, to‘liq mavjudlikni qaytaradi, uning olihimmat insonparvarlik roli aynan shundan iborat.

Tartibga solish vazifasi. Ma’naviyat alohida shaxs kabi, jamiyatning xulqini ham tartibga soladi (mazkur tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari mazkur ma’ruzaning birinchi va ikkinchi masalasida ta’riflangan). Uning mohiyati shaxsning o‘z-o‘zini tartibga solishidan va umuman ijtimoiy muhitning o‘z-o‘zini tartibga solishidan iborat.

Qadriyatga oid-yo‘naltiruvchi vazifasi. Ma’naviy tartibga solishning mohiyati shundan iboratki, shaxs o‘zining hayotdagi yo‘lini ma’naviy qadriyatlar asosida mustaqil ravishda belgilab oladi. Ma’naviyat inson uchun muhim bo‘lgan, hayot mazmuni, insonning maqsadi, umuman insoniyat, insonparvarlik to‘g‘risidagi tasavvurlari kabi qarashlarni qamrab oladi. Va garchi ular bevosita amaliy ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, ular bizning kundalik hayotimizga oliy ma’no taqdim qilish, uning ideal istiqbollarini ta’minalash uchun zarur.

Bilishga oid vazifasi. Ma’naviy tafakkur dunyonи ezgulik va yovuzlik toifalarida aks ettiradi, bu bilan sodir bo‘layotgan voqealarni baholaydi. Bu dunyonи obyektiv-ilmiy tadqiqot qilish emas, balki hodisalarining insoniy mohiyatini anglash demakdir. Dunyo va odamlarga nisbatan ma’naviy qarashlar ularning istiqbolini baholash hamda o‘z hayotining maqsadi to‘g‘risidagi umumiy tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi.

Tarbiyaviy vazifasi. Ma’naviy tarbiya doimo asosiy jihat hisoblangan. Ma’naviyat qoidalar to‘plamiga amal qilishga o‘rgatmaydi, balki ideal me’yorlar va “oliy” g‘oyalarga amal qilish qobiliyatini tarbiyalaydi. O‘z-o‘zini anglashning bu kabi qobiliyati mavjud bo‘lsa, inson nafaqat xulqning tegishli yo‘nalishini tanlashi mumkin, balki muntazam ravishda uni rivojlantirishi, ya’ni takomillashtirib borishi mumkin. Biz ma’nan yetuk shaxsda topishimiz mumkin bo‘lgan barcha muayyan xislatlar uning munosib tarzda harakat qilish qobiliyatidan, o‘z mustaqilligini saqlab qolgan holda

qadriyatga oid qarashlardan kelib chiqib harakat qila olishidan kelib chiqadi.

Ma'naviyatning tuzilmaga oid-funksional tahlili tuzilmasining ma'naviy hayotni oddiygina o'z-o'zidan ma'lum narsa sifatida ta'riflash imkonini bermaydigan jamiki murakkabligini anglashga imkon yaratadi.

ham keng muhokama qilinadi. Mazkur muammolarni anglashga rassomlar va yozuvchilar, senaristlar va rejissyorlar ijodi ham bag‘ishlangan. Amaliy etika muammolarining muhim xususiyati – ularning muhokama qilishni taqozo qiluvchi shaffofligidir.

Ularning ayrimlari axloq jamiyat manfaatlariga zid bo‘lgan subyektiv manipulatorlik qarorlar uchun asos sifatida qo‘llanilishi mumkinligidan tashvishga tushadilar. Oxir-oqibat, umumiy qadriyatlar muqarrar ravishda bir xil yoki hattoki, o‘xshash harakatlarga olib kelmaydi. Inson hayoti qadriyati, masalan, ayollarning saylash huquqini qo‘llab-quvvatlovchilarga tayanadi.

Bu kabi kichik tartibsizliklar kasb domeni (mulki)ning ajralmas qismi hisoblanadi. Ma’naviy dunyo xilma-xil, haqiqat emas, balki ideallar dunyosi demakdir. Izohlanishicha “ma’naviy inson ambivalentlikni yenga olmaydi u buni anglashi va faqatgina u bilan birga yashashi mumkin. Ma’naviy inson bo‘lish, kasb qadriyatlari to‘liq amal qilish oson emas va ma’naviy o‘zak aniq chegaralarni belgilab bermaydi, biroq u amaliyotga, ta’lim olish, tadqiqotlarni amalga oshirishga ilhomlantirish, yo‘naltirish va asoslash uchun xizmat qilishi lozim¹”.

Amaliy etika muammolari quyidagi jihatlar bilan ifodalanadi:

- ular hayotning ommaviy sohalarida vujudga keladi va jamoat nozoratini talab etadi. Bu ularning hal etilishi jamiyat istagiga bog‘liq ma’muriy, huquqiy, kasbiy jihatdan boshqarishni talab etadi. Masalan, atmosferaga zararli moddalarning chiqarilishi mazkur zaharli moddalarni kamaytirish bo‘yicha takliflarning professional doiralarda muhokama qilinishini, tegishli qonun loyihibalarini taqdim qilish va tasdiqlashni (huquqiy daraja), ularning bajarilishini nazorat qilish mexanizmini (ma’muriy-huquqiy daraja) yaratishni taqozo qiluvchi murakkab mexanizm yordamida ta’minlanadi.
- mazkur muammolarni hal etish uchun faqatgina istak, ma’naviy


¹ Cynthia Bisman Social Work Values: The Moral Core of the Profession. // British Journal of Social Work (2004) 34, - P. 120.

jasoratning o‘zigina yetarli emas, bu yerda mulohazalarning professional qat’iyligi zaruriy jihat hisoblanadi. Bu nafaqat munozaralar predmetini aniq tushunishni, balki to‘liq professional bilimlarni ham talab etadi;

➤ mazkur masalalar bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasida va jamoat fikrida mohiyatiga ko‘ra bir-biriga zid bo‘lgan, biroq ijtimoiy maqomiga ko‘ra to‘g‘ri proporsional bo‘lgan fikrlar ustun turadi. Shunday qilib, sotsiumda evtanaziyani qo‘llashning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida yagona fikr mavjud emas. Ammo islam dini buni qat’iy qoralaydi. Evzantaniyani himoya qilish va unga qarshilik qilish fikrlari rahm-shafqat ko‘rsatishning ma’naviy talablaridan kelib chiqadi;

➤ mazkur muammolar ochiq hioblanadi, chunki har bir alohida holat uchun o‘ziga xos yechimni talab etadi va jamiyat tomonidan erkin ravishda muhokama qilinadi. Ochiq muammolarning ikki turi ajratib ko‘rsatiladi. Birinchisi ezgulikdan chekinish, axloqiy jihatdan oqlanishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar bilan bog‘liq. Masalan, terroristlarga pul ko‘rinishida to‘lov to‘lash. Ikkinchisi holatda yovuzlikning qo‘llanilishi axloqiy jihatdan oqlanadi, bunga misol qilib o‘ta xavfli jinoyatchini o‘lim jazosiga mahkum qilishni ko‘rsatish mumkin;

➤ Qarorlar qabul qilish usuliga ko‘ra ushbu muammolar ommaviy va protsessual jihatdan ifodalangan. Bunga bilimning turli sohalarida faoliyat olib boruvchi mutaxassislardan iborat bo‘lgan axloqiy qadriyatlar tufayli erishish mumkin. Va bu yerda Arastu tomonidan taklif qilingan, axloqiy jihatdan maqbul qarorlarni qabul qilishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi oqilona qiyoslash va sabablar kurashining shaxslararo mexanizmi faoliyat boshlaydi. Shunday qilib, quroq-yarog‘ savdosi muammosini hal etish uchun iqtisodchilar, huquqshunoslar, harbiylar, jurnalistlar, faylasuflar yo‘nalishdagi ijtimoiy tashkilotlarning o‘zaro hamkorlikdagi harakatlari talab etiladi.



4-rasm. Amaliy etika muammolari.

Amaliy etikaning asosiy muammolaridan biri – bu o‘lim jazosi. O‘lim jazosi insonni jazolash maqsadida uni hayotdan mahrum qilish. Bu jinoyatga oid qonuniy hukm. Zamонави rivojlangan jamiyatda o‘lim jazosi ko‘p yurisdiksiyalarda noqonuniy hisoblanadi, boshqa jamiyatlarda esa – o‘ta og‘ir darajadagi jinoyatlar uchun qonuniy jinoiy jazo hisoblanadi.

O‘lim jazosi – bu jazolashning eng qadimgi turlaridan biri hisoblanadi. Dastavval u talion (birovni joniga qasd qilish) prinsipini amalga oshirish davomida vujudga kelgan: “Qonga qon, jonga jon”. Mazkur prinsipga ko‘ra boshqa insonni o‘ldirganga o‘lim jazosi berish adolatli hisoblangan. Bundan tashqari, ko‘plab jamiyatlarda mavjud bo‘lgan, davlat tomonidan amalga oshiriladigan, o‘lim jazosining o‘rnini bosishi lozim bo‘lgan xun (qasos) olish odati muhim o‘rin tutgan.

O‘lim jazosi – individuumning sotsium uchun zarar keltiruvchi hayot faoliyatini to‘xtatishdan iborat.

O‘lim jazosining turlari:

- Otib o‘ldirish;

- Osib o'ldirish;
- Toshbo'ron qilish;
- Elektr stulga o'tqazish;
- Tanasini boshidan judo qilish;
- Gaz kamerasiga qamash.

O'lim jazosi bugungi kunda ham AQSHning ayrim shtatlarida, Yamanda, Pokistonda va boshqa mamlakatlarda ham faol qo'llanilib kelinmoqda. Zamonaviy dunyoda o'lim jazosi muammosining eng dahshatli jihatni voyaga yetmaganlar va bolalarning o'lim jazosidir. Bu kabi qatllar Eronda, Pokistonda, AQSHda amalgalarga oshirib kelinmoqda. Qasddan qotillik qilish darajasi ko'rsatkichi ko'pincha umuman jamiyatdagi zo'ravonlik ko'rsatkichi sifatida tushuniladi, vaholanki bu kabi o'zaro bog'liqlik har doim ham o'rinni bo'lmaydi. Turli davlatlar ushbu tushunchaga farzandkushlik, evtanaziya yoki o'z joniga qasd qilishga yordam ko'rsatish deb tushuniladi. Shuningdek, ayrim mamlakatlar qasddan o'ldirish statistikasiga birovning joniga qasd qilishga urinishni ham qo'shadilar, ayni vaqtida boshqa davlatlarda mazkur ko'rsatkich, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan o'lim vaziyatlari pasaytirib ko'rsatilishi yoki turli siyosiy sabablar tufayli umuman e'tiborga olinmasligi mumkin. Shu bilan birga mazkur ko'rsatkich u yoki bu mamlakatda jismoniy xavfsizlik darajasini yetarli darajada aniq ifodalaydi, shuningdek, ijtimoiy iqlim va umuman inson hayotiga bo'lgan munosabatni ahamiyatli darajada namoyon qiladi. Gonduras – 90,4%, Venesuela – 53,7%, Amerika – 52,6% Beliz – 44,7%, Salvador – 41,2%, Gvatemala – 39,9%, Yamayka – 39,9%¹.

Amnesty-international qonun himoyachilarining ma'lumotlariga ko'ra Xitoy bugungi kunda ham ijro qilingan o'lim hukmlari soni bo'yicha ro'yxatning eng cho'qqisida turadi. 2018-yilda Xitoyda bir necha ming kishi qatl qilingan. Ayni shu yilda Eronda 253 ta qatl, Saudiya Arabistonida – 149 ta, Vietnam va Iroqda esa – 85 qatl hukmi ijro qilingan. Oxirgillardan bo'lib Bruneyda o'lim jazosi kiritildi va bu bachchabozlik va nomusga tajovuz qilish hollarida toshbo'ron qilish yo'li bilan amalgalashdi.

¹ Рейтинг стран мира по уровню преднамеренных убийств. <https://gmarket.ru/ratings/homicide-rate/info>

oshiriladi. 2019-yil 28-mart kuni Bruneyda bachchabozlar va oilaviy hayotiga xiyonat qilgan zinokorlarni toshbo‘ron qilishni taqozo qiluvchi yangi jinoyat kodeksi qabul qilingan¹. Davlatga xiyonat, nikohsiz jinsiy aloqa va kufrlik. Bu turli mamlakatlarda o‘lim jazosiga mahkum qilishga asos bo‘lувчи jinoyatlar va bu qonun 56 mamlakatda amal qiladi. Qatl qilishning eng katta qismi O‘rta Sharq va Shimoliy-Afrika regioniga to‘g‘ri keladi. Bu hududlarda o‘lim jazosini jazo sifatida qo‘llash qator mamlakatlarda, ayniqsa Eron, Iroq, Pokiston va Saudiya Arabistonida qo‘llaniladi.

2007-yildan 2018-yilga qadar bo‘lgan davrda dunyoning turli mamlakatlarida 12 000 dan ortiq odamlar o‘lim jazosiga mahkum qilingan. Qatllarning katta qismi 2008-yilda amalga oshirilgan, ularning soni 2395 tadan ortiq. Eng kam qatl qilinganlar soni 2010-yilda kuzatilgan. Bu yilda 534 kishi qatl etilgan. Butun dunyo bo‘ylab o‘lim jazosini amalga oshirish soni 2018-yilga kelib 31%ga kamaydi va oxirgi o‘n yil ichida minimal darajaga tushdi: o‘tgan yilda jami 690 kishi qatl qilindi². Bularning bari o‘lim jazosi muammosi insonlarning elementar huquqiga amal qilishning eng keskin muammolaridan biri hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro fakt”ning 6-moddasida yashash huquqi har bir inson huquqining ajralmas qismi ekanligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur huquq qonun bilan himoyalanadi. Hech bir inson ixtiyoriy ravishda hayotdan mahrum qilinmaydi. O‘lim jazosi bekor qilinmagan mamlakatlarda qatl qilish hukmi faqatgina eng og‘ir jinoyatchilarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘lim jazosiga hukm qilingan har bir inson uni avf etishlarini yoki hukmni yengillashtirishlarini so‘rab murojaat qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi 2005-yil 1-avgustda Prezident Qarori bilan bekor qilingan. Mazkur Qarorda o‘lim jazosining bekor qilinishi insonning yashash huquqini e’lon qiluvchi va

¹ <https://tsn.ua/ru/svit/v-mire-stali-rezhe-kaznit-prestupnikov-amnesty-international-l326687.html>

² Численность казненных на 2018 год. <https://ru.sputniknews.kz/world/20190410/9779059/kazn-2018-mir.html>

mustahkamlovchi, shuningdek, kelgusida jinoiy jazolarni liberal-lashtiruvchi, jahonda tan olingan prinsiplar va xalqaro huquq me'yorlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida bekor qilinganligi bayon qilingan:

O'zbekiston Respublikasida 2008-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini jinoiy jazo sifatida bekor qilish va uning o'rniiga bir umrlik qamoq jazosi yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan o'zgartirilsin.

Quyidagilar belgilab qo'yilsin:

1. Bir umrlik qamoq jazosi yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazolar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar jinoiy ishlar bo'yicha sudlar, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan belgilanishi mumkin;
2. Jinoyat sodir etgani uchun bir umrlik qamoq jazosiga mahkum qilingan yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar jazoni alohida tartibda jazoni ijro qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'taydi¹.

Nazorat savollari:

1. Axloq tizimida ma'naviy ideal qanday o'rinn tutadi?
2. Ezgulik va yovuzlik mezoni asosi sifatidagi axloqiy idealning mohiyati nimadan iborat?
3. Inson ehtiyojlarini va manfaatlari uning qadriyatga oid qarashlarida qay tarzda namoyon bo'ladi?
4. Ezgulik va yovuzlikning ma'naviy idealga nisbatan qadriyat va qadriyat emasligiga bo'lgan munosabati nimadan iborat?

¹ Указ Президента Республики Узбекистан об отмене смертной казни в Республике Узбекистан. г. Ташкент, 1 августа 2005 г. № УП-3641.

7-BOB. ETIKANING KASBIY KODEKSLARI: XALQARO AMALIYOT

- 7.1. Axloqiy kodekslarni rivojlantirishda ijtimoiy xodimlarning xalqaro va milliy uyushmalarining roli.
- 7.2. Ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksi.
- 7.3. O‘zbekistonda ijtimoiy xodimning kasbiy va axloqiy kodeksini yaratish.

7.1. Axloqiy kodekslarni rivojlantirishda ijtimoiy xodimlarning xalqaro va milliy uyushmalarining roli

Professional kodeks (professional axloq kodeksi) – muayyan kasbga mansub bo‘lgan odamlarning qadriyatga oid va ma’naviy intilishlari tizimi to‘g‘risida, xulq me’yorlari haqida xabardor qilish qoidalardir.

Professional kodekslar professional hamjamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ko‘pincha professional axloqiy ikkilanishlar mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan “erkin kasblar” uchun o‘ta samarali.

Dastlabki professional axloqiy kodekslardan biri – Gippokrat qasami, shifokorlarning axloqiy kodeksi. Eng ahamiyatli axloqiy ikkilanishlar faoliyat mohiyati sababli belgilab beriladigan (marketo-loglar, reklamachilar, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassislar va boshq.) kasblarning axloqiy kodekslari keng ommaga ma‘lum.

Kodekslar mutaxassisning mazkur kasb uchun xos bo‘lgan murakkab axloqiy vaziyatlardagi xulqini tartibga soladilar, sotsiumdagi professional hamjamiyat maqomini oshiradi, mazkur kasb egalariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Kodeks kasbga tegishlilikning ahamiyatini kuchaytiradi, uning qabul qilinishi bilvosita initsiatsiya marosimi, “kasbga bag‘ishlash” harakati bo‘lib hisoblanadi. (masalan,

Gippokrat qasamini qabul qilish va shifokorlarda davolash ishlariga ruxsat berish).

Axloq kodekslari odatda professional tashkilotlarda ishlab chiqiladi. Ular tashkilotlar aynan ularni qo'llab-quvvatlash uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy vazifalarni sanab o'tadilar va mazkur vazifalar oliv ma'naviy me'yorlarga muvofiq ravishda bajariladi. Axloqning professional kodekslari ikkita ma'naviy vazifalarni bajaradilar – ular jamiyat uchun sifat kafolati bo'lib xizmat qiladi va xodimlarning mazkur kodekslari ishlab chiqilgan sohadagi faoliyati standartlari va chekllovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Kasbiy axloq qoidalari turli xil muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan:

- ✓ Ma'lum bir sohadagi mutaxassis uchun ushbu kasb a'zolari intilishi lozim bo'lgan va o'z amaliyotida ularni boshqarishi kerak bo'lgan ideal talablar majmuuni e'lon qilish.
- ✓ Kasb vakili amal qilishi lozim bo'lgan sharoitlar minimumini belgilash (intizomiy xususiyat).
- ✓ Kasb odob-axloq qoidalarini shakllantirish va boshqalar.

Professional axloq kodeksi mazkur kasb noprofessional jamoat nazorati avtonomiyasiga da'vo qilish imkonini beruvchi asos hisoblanadi (masalan, shifokorlar va huquqshunoslar) bu kabi kodeks quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Kodeks tartibga soluvchi, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Kodeksning bir qismi kasb ideallarini aks ettirishi, boshqa bir qismi esa dissiplinar tabiatga ega.
2. Kodeks ijtimoiy manfaatlarni va kasb xizmat ko'rsatuv-chilarning manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilgan.
3. Kodekslar aniq ifodalangan bo'lishi lozim. Professional kodekslarda ko'pincha mijoz yoki bemorga, tadbirkorlarga, aholi va kasbnинг o'ziga nisbatan majburiyatlari aniqlanadi.

4. Kodeks nazorat qilish vazifasiga ega bo‘lishi, shuningdek, professional hamjamiyatlar a’zolariga nazorat qilish imkoniyatini taqdim qilishi lozim.

Professional kodeksning buzilishi cheklangan intizomiy tadbirlarga va eng keskin jazo kasb tarkibidan o‘chirib tashlash, sodir etilgan xatoni ommaviy ma’lum qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha tanbeh berish usuli qo‘llaniladi.

Professional-axloqiy kodeks (lotin tilidan kodex – kitob) – bu ijtimoiy xodimlar mutaxassislari tomonidan bajarish uchun tavsiya etilgan va ularning professional uyushmasi tomonidan tegishli tartibda qabul qilingan professional-axloqiy me’yorlar majmui demakdir.

Professional-axloqiy kodeks haqiqatan ham “samarali” hujjatga aylanishi uchun uning asoslanishi, tuzilishi, legitimlanishi va ommalashtirilishi bo‘yicha dastlabki ish olib borilishi lozim. Amalda professional-axloqiy kodeksni professional faoliyatga joriy qilishning ikkita asosiy modeli mavjud. ularning biriga ko‘ra, kodeks uzoq vaqt davomida bir vaqtning o‘zida professional-axloqiy tizim bilan evolutsiyalanuvchi va uning aks ettirishi mumkin bo‘lgan me’yorlar majmui bo‘lishi mumkin. Ikkinchisi modelga ko‘ra, kodeksning vujudga kelishi professional-axloqiy tizimga nisbatan ilgarilovchi bo‘lishi va asosan professional guruh a’zolarining axloqiy jihatlariga asoslanishi mumkin, masalan, O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy ishning kasbiy-axloqiy tizimi kabi. Har ikki holatda ham kasbiy axloqiy kodeks kasbiy axloqiy tizimning u yoki bu darajadagi muvaffaqiyatli modeli bo‘lishi mumkin.

Kasbiy axloqiy kodeks kasbiy axloqiy tizimning ifodasi bo‘lishi mumkin, chunki axloqiy tizimning eng muhim tarkibiy qismlarini qamrab oladi, biroq shu bilan birga u kasbiy axloqiy tizimning o‘zi bilan teng emas. Undan kambag‘alroq bundan tashqari kabsiy axloqiy tizimning asosiy tarkibiy qismlarini ularni izohlamagan holda, imperativ shaklni ifodalaydi.

Professional-axloqiy kodeks obyekti professional guruh vakillarining individual va jamoaviy axloqiy tafakkur hisoblanadi, uning predmeti – axloqiy bilimlar va mutaxassislar ko'nikmalaridir.

Ijtimoiy ishning kasbiy axloqiy kodeksining asosiy maqsadi kasbiy faoliyat davomida va umuman jamiyatda gumanizm, ma'naviyat va ijtimoiy adolat ideallarini mutaxassislarning xulqi, munosabatlari va harakatlarida kasbiy axloqiy tizim mohiyatini predmetlashtirish vositasida amalga oshirishga imkoniyat yaratish hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi – professional guruh vakillari xulqini, munosabatlari va harakatlarini tartibga solish va nazorat qilishdan iborat.

Ijtimoiy xodimning axloqiy kodekslari muayyan vazifalarni bajaradi:

- kasbiy axloqiy tizimning professional amaliyot ehtiyojlariga moslashuvi;
- kasbning ijtimoiy vazifalarga mos bo'lgan kasbiy axloqiy reglamentatsiyasini ta'minlash;
- professional faoliyatning yagona axloqiy aksiologik asosini shakllantirishga imkoniyat yaratish;
- mutaxassislarning kasbiy faoliyatini bir yo'nalishligini ularga yagona kasbiy axloqiy talablar va qadriyatlarning yagona tizimi asosida unifikatsiya qilish va ta'minlash;
- mutaxassislarning kasbiy layoqatini aniqlash va ularning faoliyatini baholash uchun bazaviy axloqiy aksiologik mezonlarni tizimlashtirish;
- ijtimoiy ish nazariya va amaliyotida vujudga keluvchi axloqiy aksiologik nizolarni hal etishga ko'maklashish;
- ijtimoiy xodimlar, ularning jamoalarining me'yoriy xulqi, munosabatlari va harakatlarini kasbiy-axloqiy tizim doirasida ta'minlash;
- mijozlar huquqlarini amalga oshirishning kafolatlanishini ta'minlash;

- o‘zaro bir-birining o‘rnini bosish, ular harakatining vorisiyligi va izchilligini amalga oshirish imkoniyatlarini ta’minlash (alohida mutaxassislar kabi, ijtimoiy xizmat xodimlarining ham);
- kasbiy axloqiy tizim doirasida qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun harakatlarning muayyan erkinligini ta’minlash;
- shaxsning takomillashib borishi va rivojlanishiga, mutaxassislar – ijtimoiy xodimlarning, ularning mijozlarini va mijozlarning ijtimoiy muhitini umuman jamiyatning ma’naviyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratish;
- jamiyatda professional ijtimoiy ishning axloqiy nufuzini oshirishga imkoniyat yaratish;
- kasbning axloqiy sofligi kafolatlarini ta’minlash.

Kasbiy axloqiy kodeks, o‘zi amalga oshiradigan vazifalari tufayli professional ijtimoiy ish darajasi va sifatini oshirishning eng samarali vositalaridan biriga aylanishi, mijozlar huquqlarining kafolati bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Faoliyatning har qanday boshqa sohasidagi kabi ijtimoiy ishning kasbiy axloqiy tarkibiy qismi mazkur sohadagi ilmiy tadqiqotlar va to‘plangan tajribalar, insonlarni istakalari, talablari asosida rivojlanib takomillashishda davom etmoqda. Ijtimoiy ishdagi axloqiy me’yorlar uzoq vaqt davomida (90-yillarga qadar) aniq belgilanmagan, biroq uning hujjatlar asosida rasmiylashtirilishi va axloqiy kodeksdagi ma’lumotlar noldan boshlanmagan.

Birinchidan, zamnaviy insoniyat oliy bazaviy qadriyat sifatida uning jismoniy, kasbiy, ijtimoiy, moddiy maqomidan qat’i nazar insonni tan oladi. Har bir individ 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq inson uchun xos bo‘lgan munosib hayot, mehnat qilish, dam olish, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar bilan ta’minlanish huquqlariga ega. Yashash huquqi bilan bir qatorda ijtimoiy himoya huquqi ham eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi, chunki aholining alohida toifalari uchun ijtimoiy himoya tizimi mehnat, dam

olish, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, rivojlanish, o'z-o'zini namoyon qilish, baxtli bo'lish va boshqalar kabi huquqlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi asosiy shart va asosiy mexanizm hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirishga yordam beruvchi asosiy huquq esa – insonning rasmiy jismoniy mavjudligi yoki maqsadsiz hayot kechirishi emas, balki munosib hayot kechirish huquqidir.

Ikkinchidan, professional ijtimoiy ishning shakllanish davrida turli hududlarda rahmdillik va xayriya an'analariga ulkan qiziqish vujudga keldi. Ijtimoiy ishning tarixini tadqiqotchilar o'rganar ekan uning asosiy yo'naliishlari, maqsadlari, aholining turli qatlamlari vakillari faoliyati, odamlar bir-biriga imkoniyatlari doirasida yordam ko'rsatishiga e'tibor qaratganlar. Shu bilan birga xalq tomonidan noyob saqlanib kelayotgan va avloddan-avlodga yetkazib berilayotgan yordam va o'zaro yordamning asosiy shakllari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. An'analaraga hurmat, avlodlarning ijobiy tajribasi ijtimoiy ishni rivojlanib borishga imkoniyat yaratdi.

Uchinchidan, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qayd qilinayotgan, hayot faoliyati sharoitlarining tubdan o'zgarishi oqibatida zamонавијати ма'navијати и axloqiyligi darajasi tushib ketayotganligiga qaramasdan, milliylik – bu xalqning ming yillar davomida shakllanib kelgan (masalan, mentalitet va psixologiya bilan qiyoslaganda) eng kam o'zgarishlarga uchhragan xislati hisoblanadi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz ijtimoiy xodimlari o'zlarining ijtimoiy ish kasbiy faoliyatning o'ziga xos turi sifatidagi tasavvurlarini shakllantirgan holda xorijiy mamlakatlarning nafaqat mijozlarning turli toifalariga yordam ko'rsatishning aprobatsiya qilingan sxemalari bilan, balki ularning faoliyatini tartibga soluvchi tegishli axloqiy an'analar va standartlari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur axloqiy standartlar shakllangan va so'ngra turli mamlakatlarda mavjud, yordamning turli ko'rinishlaridagi muayyan an'analar va ehtiyojlariga ega bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy ishga muvofiq ravishda tartibga solingen.

Beshinchidan, ijtimoiy ish obyektiv jihatdan zarur, murakkab vaziyatlarga tushib qolgan fuqarolarga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan o'ziga xos ijtimoiy institut sifatida vujudga kelgan. Zamонави sharoitlarda ijtimoiy ishning asosiy vazifasi iqtisodiyot va jamiyatning radikal islohotlari davridagi murakkab ziddiyatli sharoitlarida insonparvarlik prinsipini amalga oshirishdan iborat, ya'ni buni nafaqat so'zlarda tan olish, balki uning farovonligini ijtimoiy rivojlanish maqsadi, deb hisoblash zarur.

Oltinchidan, ijtimoiy faoliyatga kirib keluvchi mutaxassislar o'z faoliyatlariga ijtimoiy voqelik, hayot tajribalari ta'siri ostida shakllangan shaxsiy qadriyatlar tizimini olib kiradilar. Bu to'laqonli ravishda kasbiy axloqiy muammolarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga ham tegishli. Ijtimoiy ishda inson omili muqarrar, chunki faoliyat jarayonida "inson-inson" turidagi muloqot sodir bo'ladi va har qanday harakat, muomala, munosabatni mutaxassis ongida ideal shaklda aks ettirgan holda o'zining ichidan "o'tkazadi". Demak, mutaxassislarning shaxsiy qadriyatları ham shuningdek, kasbiy axloqiy tizimlar va ularning tashqi ko'rinishlarini shakllantirishda muayyan o'rin tutadi.

Ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksi vazifalari. Axloqiy kodeks jamiyatdagi katta ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni amalgga oshirishga qaratilgan. Chunki, u mutaxassislarning aholining keng qatlami bilan munosabatlarini murakkab ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan turli ijtimoiy guruhlar orqali amalgga oshirilishini tartibga soladi. Ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: faoliyatning kasbga oid munosib axloqiy tartiblarini ta'minlash, kasbiy faoliyatning yagona axloqiy-ma'naviy asosini yaratish; mutaxassisning kasbiy layoqatlilagini aniqlash uchun mezon bo'lib xizmat qilishi; mutaxassislarning xulqini ularga qo'yilgan yagona axloqiy talablar asosida unifikatsiya qilish; harakatlarning bir tomoniga yo'naltirilganligini qadriyatlarning muayyan umumiyligi tizimi asosida ta'minlash; faoliyatga asos qilib olingan axloqiy me'yorlarning bir-

biriga zid bo‘lmasligini ta’minlash; mijozlarning huquqlarini amalga oshirishni tashqi emas, balki ichki sabablar asosida kafolatlash; xodimlarning o‘zaro bir-birini o‘rnini bosishini amalga oshirish imkoniyatini kafolatlash; alohida mutaxassislar kabi ijtimoiy xizmatlarning uzluksizligi; ijtimoiy xodimlarga qo‘yilgan vazifalarni hal etish maqsadida axloqiy me’yorlar va prinsiplar doirasida muayyan erkinliklarni taqdim qilish; ijtimoiy xodimlar, ularning mijozlarining va ijtimoiy muhiti, umuman jamiyatning ma’naviyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratish; mutaxassislarning doimiy ma’naviy takomillashib borish zaruratini asoslash; jamiyat orasida ijtimoiy ishning ma’naviy nufuzini oshirish; kasbning axloqiy sofligini kafolatlash. Ijtimoiy xodim axloqiy kodeksi vazifalarining bayon qilingan ro‘yxatida ijtimoiy xodimga tegishli bo‘lgan vazifalar keltirib o‘tilgan.

7.2. Ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksi

Ijtimoiy xodimning birinchi kodeksini ishlab chiqish 1915-yilda, Fleksner Report ijtimoiy ish o‘z Kodeksiga ega bo‘limguncha, kasb deb nomlanish huquqiga ega bo‘lmaydi, degan masalani ko‘targan davrdan boshlangan. Ijtimoiy ishda birinchi kodeksni yaratish imkoniyati Meri Richmondga nasib etgan. 1920-yilda u tomonidan xodimlar uchun eksperimental Kodeks ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy Xodimlar Amerika Uyushmasi Kodeksning birinchi variantini ishlab chiqdi. Mazkur tashkilot Ijtimoiy Xodimlar Milliy Uyushmasining ajdodi bo‘lgan. Milliy Uyushmaning 1960-yilda tasdiqlangan birinchi Kodeksi bir sahifadan iborat bo‘lgan va 14 ta umumiyl “proklamatsiya”ni qamrab olgan (Songress 1999). Masalan, mazkur hujjatning ayrim qoidalariga ko‘ra, har bir ijtimoiy xodimning burchi, kasbiy majburiyatlarning shaxsiy manfaatlardan ustunligi, mijozning shaxsiy hayotiga aralashmaslik prinsipiga amal qilish va tegishli professional xizmatlarni oshkora taqdim qilishni belgilab bergen.

1979-yilda Kodeksga mijozlar, hamkasblar, kasb va umuman jamiyat oldidagi mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgan tuzatishlar kiritilgan (L.Dolgoff, 1992). Shuningdek, ijtimoiy xodimlarga Kodeks va turli intizomga oid qoidalarning bandlarini bajarishda bir-birlari bilan hamkorlik qilishi to'g'risidagi talablar qo'yilgan (Songress, 1999). 1996-yildagi oxirgi tuzatishlar kiritish davomida Milliy Uyushma Kodeksi ijtimoiy xodimlarning axloqiy majburiyatlarini jamiyatning keng qatlamlariga tatbiq qilishga qadar kengaytirdi (NASW 1996). Aynan shu yildagi kodeks, "ijtimoiy xodimlar Qo'shma Shtatlar ichidagi madaniy va ijtimoiy farqlarga nisbatan global ko'lamda hurmatga amal qilinuvchi sharoitlarni yaratishga imkoniyat yaratishlari lozim" ekanligini belgilab bergen holda xalqaro istiqbolni ham qamrab oldi (NASW 1996:27).

Ijtimoiy xodimlarning Xalqaro Federatsiyasi (IIXF) va Ijtimoiy ish bo'yicha Maktablar Xalqaro Uyushmasi (IIMXU)ning ta'kidlanishicha, "Axloqiy xabardorlik" ijtimoiy xodimlarning professional amaliyotining eng muhim qismi hisoblanadi. Ularning axloqiy jihatdan to'g'ri harakat qilish qobiliyati va intilishi taqdim qilinayotgan xizmatlar sifatining asosiy jihatni hisoblanadi.

IIXF va IIMXUlarning faoliyatining etikaga oid asosiy maqsadi ijtimoiy ish bo'yicha tashkilotlar, ijtimoiy ish maktablari, shuningdek ijtimoiy ish yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar tomonidan axloqiy muammolarni muhokama qilish va tahlil etish jarayoniga imkoniyat yaratishdan iborat. Ijtimoiy xodimlar duch kelishi mumkin bo'lgan ayrim axloqiy muammolar ular faoliyat olib borayotgan hudud uchun o'ziga xos bo'lishi mumkin, boshqalari esa barcha mamlakatlar uchun bir xil bo'ladi. Umumiy prinsiplar darajasida qolgan holda IIXF va IIMXUlarning o'zaro birgalikdagi qoidalaridan maqsad butun dunyodagi ijtimoiy xodimlarni o'z faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ikkilanishlar to'g'risida fikr yuritishga rag'batlantirish, ular tomonidan qabul qilingan qarorlar axloqiy muammolar to'g'risidagi bilimga ega bo'lishga undashdan iborat.

Ijtimoiy ishning axloqiy tomonining muammoli sohalariga shuningdek, har ikki tomonga nisbatan xolislikni saqlagan holda, o'zaro nizolashuvchi manfaatlarni bartaraf qilish zarurati ham kiradi.

✓ Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy yordam berish faoliyatini olib borish bilan birga yordam ko'rsatish jarayonini ham nazorat qilib borishlari lozim.

✓ Ijtimoiy xodimlarning o'zlarini ish olib borayotgan odamlarning manfaatlarini himoya qilish va o'z faoliyatini jamiyatning xizmat ko'rsatish samaradorligi va maqsadga muvofiqligi bo'yicha talabini bilishi lozim.

✓ Jamiyat ixtiyorida bo'lgan manbalarning cheklanganligi¹.

Ijtimoiy xodimlarning Britaniya Uyushmasi – bu Birlashgan Qirollikda faoliyat olib boruvchi ijtimoiy xodimlarning professional uyushmasi. Uning majburiyatlariga uning a'zolari tomonidan imkon qadar axloqiy majburiyatlarni bajarish, xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni himoya qilish, huquqlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan professional huquqlarni taqdim qilishni ta'minlash kiradi. Uyushmaning Axloq Kodekslarining birlamchi maqsadi – ijtimoiy ishga xos bo'lgan qadriyatlar va prinsiplarni ifodalash, axloqiy tajriba uchun yo'riqnomalar taqdim qilishdan iborat. Kodeks Uyushmaning barcha a'zolari uchun majburiy hisoblanadi, shuningdek, ular Birlashgan Qirollikdagagi barcha ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy xodimlarning barcha ish beruvchilarining e'tiborini o'ziga tortadi².

Kasbiy axloq kodeks, odatda u yoki bu darajada aniq namoyon bo'lgan tuzilmaga ega va quyidagi asosiy bo'limdan iborat: preambula (kirish). Mazkur bo'limda kasbiy axloq kodeksni kiritish zaruriyatasi asoslاب berilgan. Bu yerda uning asosiy maqsadlari va vazifalari, qo'llanilish sohalari ochib beriladi, faoliyatning asosiy subyektlari va

¹ Этика социальной работы: утверждение принципов. Хрестоматия по курсу «Основы социальной работы». Составители: Ганиева М.Х., Карамян М.Х... Проект «Укрепление образования, практики и профессии «Социальная работа» в Узбекистане», РЦСАД – ТГИК – МВССО – МНО – ЮНИСЕФ., Ташкент, 2011.

² Этика социальной работы: утверждение принципов. Хрестоматия по курсу «Основы социальной работы». Составители: Ганиева М.Х., Карамян М.Х... Проект «Укрепление образования, практики и профессии «Социальная работа» в Узбекистане», РЦСАД – ТГИК – МВССО – МНО – ЮНИСЕФ., Ташкент, 2011.

obyektlari muhokama qilinadi, kodeksni kiritishning natijalari muhokama qilinadi.

Mutaxassis xulqi va harakatlariiga qo'yiladigan talablar (me'yorlar va prinsiplar). Mutaxassislarning xulqi, harakatlari mazkur bo'limda keltirilgan muayyan me'yorlar va prinsiplarga mos kelishi zarur. Odatda, barcha me'yor va prinsiplar ham kodeksda ko'rsatib o'tilmaydi, biroq ularning asosiyлари imperativ shaklda keltirib o'tilgan. Ular orasida maxfiylik, mas'uliyat, hamkorlik va ijtimoiy xodimning mijoz bilan o'zaro munosabatlari tabiatini belgilab beruvchi ayrim boshqa prinsiplar muhim o'rinn tutadi. Kodeksning mazkur bo'limida me'yor, prinsiplardan tashqari muhim axloqiy talablar va qoidalar ham aks ettirilgan bo'lishi mumkin.

Mutaxassisning kasbiy burchi va majburiyatları. Bu yerda odatda, ijtimoiy xodimning jamiyat va davlat, kasb, kasbiy guruh, mijozlar va ularning yaqinlari bilan o'rnatishi lozim bo'lgan munosabatlarining asosiy turlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu bo'limda ko'p hollarda ijtimoiy xodimning ustuvor munosabatlari aks ettiriladi.

Mutaxassisning shaxsiy xislatlariga qo'yiladigan talablar. Kodeksning mazkur bo'limida mutaxassisning shaxsga oid-ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar ifodalangan, ular orasida odatda altruizm va shaxsnинг insonparvarlikka yo'naltirilganligi muhim o'rinn tutadi. Alovida e'tibor halollik, vijdonlilik, ochiqlik, rahmdillik va hokazolarga qaratiladi. Ular esa o'z navbatida mutaxassis va mijoz o'rtasida muvaffaqiyatli muloqot o'rnatish, keyinchalik o'zaro samarali munosabatlarga kirishishga katta ta'sir ko'rsatadi. Mazkur bo'limda shuningdek, professional mutaxassislarni tanlab olishning asosiy yondashuvlari aks ettirilishi mumkin. Boshqalar bilan bir qatorda professional va shaxsiy takomillashish talabi ham aks ettirilganligi muhim ahamiyatga ega.

Sanksiya(jazo, jarima)lar tizimi. Mazkur bo'lim o'ta zarur hisoblanadi, chunki ijtimoiy xodimni kasbiy axloqiy tizim mazmuni bilan tanishtirishning o'zi yetarli emas. Ayrim hollarda uni

mutaxassisning axloqiy jihatdan nojo‘ya xatti-harakatlari oqibatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan javobgarlik to‘g‘risida ham ogohlantirish zarur bo‘ladi. Mazkur bo‘lim mutaxassisning shaxsiy xislatlari, uning fidokorona faoliyati rag‘batlantirishni talab etgan hollarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ijobjiy sanksiyalarini ham qamrab olishi mumkin. Mazkur bo‘limda sanksiyalar kiritish mexanizmi to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar keltirilishi mumkin¹.

Ijtimoiy xodim kasbining birlamchi maqsadi – insonning farovonligini yaxshilash va barcha odamlarning ehtiyojlarini, ayniqsa kambag‘allar, barcha narsalardan mahrum bo‘lganlar va haydalgalarning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Ijtimoiy ishning tarixiy jihatni kasbning o‘z e’tiborini individning ijtimoiy kontekstdagi farovonligi va umuman jamiyatning farovonligiga qaratishdan iborat. Mijozning hayotiy muammolarini keltirib chiqaruvchi va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy muhit kuchlariga e’tibor qaratish ham ijtimoiy ishning asoslaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy xodimlar shuningdek, tashkilotlar, uyushmalar va boshqa ijtimoiy institutlarning individlarning ijtimoiy muammolari va ehtiyojlarini hal etish jarayonida ishtirok etishlarini ta’minlashga intiladilar.

Ijtimoiy ish kasbining missiyasining ildizlari ayrim kalit qadriyatlarga borib taqaladi. Kasbning butun tarixi davomida ijtimoiy xodimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan mazkur kalit (assosi) qadriyatlar ijtimoiy ishning o‘ziga xos maqsadi va qarashlari uchun asos bo‘lib hisoblanadi:

- xizmat ko‘rsatish;
- ijtimoiyadolat;
- inson qadr-qimmati va ahamiyati;
- insonlar o‘zaro munosabatlarining muhimligi;
- halollik;
- layoqatlilik.

¹ Code of Ethics of the National Association of Social Workers. 1996.

Asosiy (kalit) qadriyatlarning mazkur to‘plami, ijtimoiy xodim kasbining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ulardan kelib chiquvchi asosiy qadriyat, prinsiplar inson tajribasi kontekstida va murakkabligida muvozanatlashtirilgan bo‘lishi lozim.

IXMA Axloq Kodeksining maqsadi.

Kasbiy axloq ijtimoiy ishning o‘zagi hisoblanadi. Kasbning vazifasi uning asosiy qadriyatlari, axloqiy prinsiplari va axloqiy standartlarini hayotga tatbiq qilish majburiyatidan iborat. IXMA Axloq Kodeksi mazkur qadriyatlар, prinsiplar va standartlarni ijtimoiy xodimlar xulqini tartibga solish uchun yo‘riqnomalarda taqdim qilish maqsadida ta’riflab o‘tadi.

Kodeks barcha ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy ish yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun, ularning kasbiy vazifalari, ular faoliyat olib borayotgan sharoitlar va ular xizmat ko‘rsatayotgan aholi sonidan qat’i nazar mos keladi.

IXMA Kodeksi oltita maqsadga xizmat qiladi:

Kodeks ijtimoiy xodim vazifasi asoslangan asosiy qadriyatlarni belgilab beradi.

Kodeks kasbning asosiy qadriyatlarni aks ettiruvchi keng axloqiy prinsiplarini birlashtiradi, ijtimoiy ish amaliyotini olib borish davomida qo‘llash lozim bo‘lgan alohida axloqiy standartlar to‘plamini belgilab beradi.

Kodeks ijtimoiy xodimlarga kasbiy majburiylarda qaramaqshilik sodir bo‘lganda yoki axloqiy noaniqlik vujudga kelganda o‘rganish lozim bo‘lgan qoidalarni belgilab olishda yordam berish uchun ishlab chiqilgan.

Kodeks mijozlar ijtimoiy xodimlarni javobgarlikka tortish uchun murojaat qilishlari mumkin bo‘lgan axloqiy standartlarni ta’minlaydi.

Kodeks ijtimoiy xodim kasbida faoliyatini endigina boshlagan amaliyotchilarni ijtimoiylashtiradi, ularga qadriyatlар, axloqiy prinsiplar va axloqiy standartlarni singdiradi.

Kodeks ijtimoiy xodim kasbi o‘z xodimlarini axloqsiz xulqlarini baholashda qo‘llashi mumkin bo‘lgan standartlarni belgilab beradi. IXMUda Uyushma a‘zolari ustidan qilingan axloqiy shikoyatlar bo‘yicha hukm chiqarish bo‘yicha belgilangan jarayonlar mavjud. Kodeks ostiga imzo qo‘yar ekan, ijtimoiy xodimlar undan foydalanishi, IXMUning sud jarayonlarida qatnashishi va IXMU chiqargan intizomiy choralar yoki jarimalarga amal qilishi talab etiladi.

Kodeks axloqiy yechimlarni to‘pish va axloqiy muammolar vujudga kelganda o‘z-o‘zini idora qilish uchun qadriyatlar, prinsiplar va standartlar to‘plamini taklif qiladi. U ijtimoiy xodimga o‘zini barcha vaziyatlarda to‘g‘ri tutish uchun yordam beruvchi qoidalar to‘plamini taqdim qiladi. Kodeksni o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishi shuningdek, u o‘rganilayotgan kontekstni, hamda Kodeks qadriyatlari, prinsiplari va standartlari o‘rtasidagi nizolar vujudga kelish imkoniyatini ham nazarda tutishi lozim. Axloqiy mas’uliyat insonlar o‘rtasidagi barcha o‘zaro munosabatlarda vujudga keladi: shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va professional.

IXMU axloq Kodeksi nizoli vaziyatlarda aynan qanday qadriyatlar, prinsiplar, standartlar eng muhim va ularning qaysilari salmoqli ekanligini belgilab beradi. Ijtimoiy xodimlarning nizoli vaziyatlarda muhimligi bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqishi mumkin bo‘lgan prinsiplar, qadriyatlar va standartlarni qabul qilishlari o‘rtasida fikrlar farqi mavjud bo‘lishi lozim. Nizoli vaziyatda axloqiy qaror qabul qilish individual ijtimoiy xodimning mulohazalari, kasbning axloqiy standartlarini qo‘llashni qamrab oluvchi muammolarni muhokama qilish jarayonida xodimning hamkasblarida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan fikrlarni ham e‘tiborga olishi lozim.

Qarorlarni axloqiy jihadan qabul qilish – bu jarayon demakdir. Ijtimoiy ishda oddiy javoblar murakkab axloqiy muammolarni hal etishga yordam berolmaydigan ko‘plab holatlar bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy xodimlar o‘zları duch kelgan vaziyatga tegishli bo‘lgan qadriyatlar, prinsiplar va standartlarni e‘tiborga olishlari lozim, bu

holatda axloqiy mulohazalar kafolatlanadi. Ijtimoiy xodimlarning qarorlari va harakatlari ruhiyat kabi Kodeks bandlariga ham mos bo‘lishi kerak.

IXMUNing Axloq Kodeksi IXMUNing o‘zi va uni yechimlar uchun namuna sifatida qabul qiluvchi va qo‘llovchi individlar, agentliklar, tashkilotlar va organlar (masalan, litsenziyalovchi yoki tartibga soluvchi organlar, professional sug‘urta agentliklari, sud, agentlik direktorlar Kengashi, davlat organlari va boshqa professional guruhlari) tomonidan qo‘llaniladi. Mazkur Kodeks standartlarining buzilishi qonunni buzish holatlardagi kabi avtomatik tarzda javobgarlikni nazarda tutmaydi. Bu kabi javobgarlikni kimningdir zimmasiga yuklash faqatgina gap huquqiy yoki sud jarayonlari haqida borganda bo‘lishi mumkin. Kodeksning buzilishiga yo‘l qo‘ylgan holatlar hamkasblar darajasida muhokama qilinishi mumkin. Bu kabi jarayonlar odatda ma’muriy yoki huquqiy jarayonlardan farqli ravishda alohida amalga oshiriladi, bundan maqsad ijtimoiy xodimlar uchun kasb ichida o‘zgarishlar va intizomiy qoidalarni shaxsan amalga oshirishni ta’minlashdan iborat.

“Qadriyat”, “prinsipler”, “standartlari” tushunchalari

Axloq kodeksi axloqiy xulqni kafolatlash imkoniga ega emas. Bundan tashqari, axloq kodeksi muammolar va kelishmovchiliklarni hal eta olmaydi, yoki jamiyatda axloqiy muammolarni yechishda kurash olib borishning keng ko‘lamli va murakkab holatlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Axloq kodeksi faqatgina professionallar o‘z harakatlari to‘g‘risida mulohaza qilishlari mumkin bo‘lgan qadriyatlar, prinsipler va standartlarni taqdim qiladi. Ijtimoiy xodimlarning axloqiy xulqi ularning aynan axloqiy amaliyotda ishtirok etishlari haqidagi shaxsiy tashabbuslari natijasi bo‘lishi lozim. IXMUNing axloq kodeksi barcha ijtimoiy xodimlarni kasb qadriyatlariga amal qilish va axloqiy jihatdan to‘g‘ri harakat qilishga sodiq bo‘lishlari zarur ekanligini ifodalaydi. Prinsipler va standartlar ijobjiy tabiatga ega bo‘lgan, ma’naviy

masalalarni to‘g‘ri anglovchi va adolatli axloqiy yechimlarni izlovchi individlar tomonidan qo‘llanilishi lozim¹.

Rossiyada ijtimoiy ishning kasbiy axloqiy kodeksi asosida oltita asosiy manba yotadi:

- umuminsoniy qadriyatlar;
- xayriyaning axloqiy an‘analari;
- zamonaviy Rossiya jamiyati qadriyatları;
- xorijiy davlatlar axloqiy me‘yorlari;
- zamonaviy Rossiya ijtimoiy ishining o‘ziga xos qadriyatları;
- mutaxassislarning shaxsiy qadriyatları va ideallari.

Professional guruhda barqaror faoliyat olib borish va yetarli darajada nufuzga ega bo‘lish uchun kasbiy axloqiy kodeks muayyan talablarga muvofiq bo‘lishi zarur. U quyidagicha bo‘lishi lozim:

- ✓ ijtimoiy ish sohasidagi amaliy faoliyatda erishilgan barcha tajriba, fundamental yutuqlari va amaliy fanni e’tiborga olgan holda ishlab chiqilishi;
- ✓ umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimini ularga zid bo‘lмаган holda rivojlantirish va kengaytirish lozim;
- ✓ kasbiy faoliyatining mohiyati va mazmunini to‘laqonli ravishda aks ettiruvchi muayyan prinsiplarga asoslanish;
- ✓ ijtimoiy ishda, uning barcha ko‘rinishlari va darajalarida vujudga keluvchi o‘zaro aloqalar va munosabatlarining barcha turlariga ta’tbiq qilish mumkin bo‘lgan holda ko‘p vazifali bo‘lish;
- ✓ turli professional guruhlar vakillari, jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida o‘zaro harakatlarni amalga oshirish davomida vujudga keluvchi nizolarni konstruktiv hal etish imkoniyatini ta’minlash (ya’ni, ijtimoiy ish ma’naviyatning eng umumiyligi elementlariga zid bo‘lmasligi);
- ✓ o‘zlashtirish va bajarish uchun oson bo‘lishi lozim.

Kasbiy axloqiy kodeksda umumiyligi kasbiy guruhning o‘ziga xos ma’naviyati ham sxemalashtirilgan. Mazkur kodeks doirasida kasbiy

axloq o‘zaro kelishilgan talablar, mutaxassis xulqi va faoliyatiga oid yo‘riqnomalar, uning shaxsiy jihatlarining tartibga soluvchi, ya‘ni uning kasbiy burchi mohiyati bilan belgilab berilgan muayyan umumiy tizim sifatida mavjud bo‘ladi.

Kodeksning ta’sir sharoitlari va legitim(qonun)lashtirish. Mazkur bo‘lim kasbiy axloqiy kodeks qachon va kim tomonidan qabul qilinganligi, u qanday holatlarda va qanday asosda qo‘llanilishi mumkinligi, uning ta’siri qanday sharoitlarda to‘xtatilishi yoki bekor qilinishi mumkinligi haqidagi ma’lumotlardan iborat bo‘ladi.

Shubhasiz, kasbiy axloqiy kodeks tuzilmasi asosan kasbiy axloqiy tizim tuzilmasini takrorlaydi. Bu muqarrar, chunki kasbiy axloqiy kodeks kasbiy axloqiy tizimning to‘g‘ri ifodasi bo‘lishi lozim. Biroq kasbiy axloqiy kodekslar boshqa bo‘limlarni ham qamrab olishi mumkin. Ayrim hollarda asosiy muammoli sohalarni, kasbiy axloqiy nizolar sohalari va mazkur nizolarni hal etishning eng umumiy usullarini taklif etuvchi bo‘limning kiritilishi ham maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Ba’zan, kasbiy axloqiy kodekslarga kasbiy axloqning amal qilinishi faoliyatning samaradorligi va sifatiga ahamiyatli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim qoidalar ham kiritiladi.

Alovida bo‘lim kasbiy uyushmalar yoki guruhning boshqa kasbiy uyushmalar, ijtimoiy xodimlarning milliy uyushmalar, davlat va ijtimoiy organlar hamda tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan hamkorlik qilish muammolariga, teng huquqli ravishda bo‘ysunish munosabatlariiga asoslanishi mumkin. Kasbiy axloqiy kodeks pullik ijtimoiy xizmatlarni, xizmati uchun to‘lov olish masalalariga bag‘ishlangan yana bir bo‘lim mavjud bo‘lishi lozim. Umuman olganda, kasbiy axloqiy kodeksga u yoki bu qo‘sishmcha bo‘limlarning kiritilishi asosan uyushma faoliyati va rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi rahbariyat qarashlariga bog‘liq¹. Kasbiy axloqiy kodekslarda mijozlarga pullik xizmatlar ko‘rsatish muammosi alovida ko‘rsatib o‘tilishi mumkin. Masalan, Rossiyada ko‘plab munosabatlар shartli va

¹ Code of Ethics of the National Association of Social Workers. 1996.

soddalashtirilgan tarzda sotuvchi va xaridor sifatida ifodalanishi mumkin bo‘lgan bozor iqtisodiyoti yo‘lidan borayotganligiga qaramasdan, professional ijtimoiy ishda bu kabi munosabatlар jiddiy muammo ko‘rinishida mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Xizmatlar uchun to‘lovlar.

- To‘lov miqdorini belgilashda ijtimoiy xodimlar to‘lov adolatli, oqilona va taqdim qilingan xizmatlarga mos bo‘lishiga amal qilishlari lozim. Shuningdek, mijozning to‘lov qobiliyati ham e’tiborga olinishi talab etiladi.

- Ijtimoiy xodimlar mijozlardan kasbiy xizmatlari uchun to‘lov sifatida mahsulotlar va xizmatlardan foydalanishdan qochishlari lozim. Barter kelishuvlar, ayniqsa xizmatlarga oid bitimlar manfaatlar, ekspluatatsiya nizolariga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga ijtimoiy xodim va mijozning munosabatlarini noto‘g‘ri chegaralarga olib kelish ehtimoli mavjud. Ijtimoiy xodimlar bartyerda faqat bir marotaba juda kam holatlarda ishtirok etishlari mumkin: agar bu kabi amaliyat mazkur o‘lka professionallari tomonidan qabul qilinishi aniq bo‘lsa, bu xizmatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lsa, shartnomalar majburiy ravishda imzolansa, tashabbus mijozning to‘liq roziligi asosida, u tomonidan namoyon qilinsa. Kasb xizmatlarini taqdim qilish bo‘yicha barter kelishuvlarda ishtirok etishga rozi bo‘lgan ijtimoiy xodimlar bu kabi bitimlar kasbiy munosabatlarga to‘sqinlik qilmasligi va mijozga zarar yetkazmasligini isbotlash uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga oladilar.

- Ijtimoiy xodimlar agar mijoz xodimning ish beruvchisi yoki agentlik orqali kelgan bo‘lsa, mijozga ko‘rsatilgan xizmat uchun shaxsiy daromad yoki alohida mukofot talab qilmasliklari lozim¹.

Birinchidan, avval aytib o‘tilganidek, agar inson to‘lov to‘lasa, demak u qonunan sotilishi mumkin bo‘lgan narsani sotib olishi mumkin, hattoki bu mahsulot ortiqcha, keraksiz, ayrim hollarda esa zararli bo‘lsa ham xaridor unga bu narsa nima uchun kerak, uni nima qilmoqchi

¹ Ўша ерда – Б. 10-11.

ekanligini ham hech kimga tushuntirib o'tirishi shart emas. Bu narsa uchun mas'uliyatni to'laqonli ravishda o'z zimmasiga oladi. Mijoz bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladigan faoliyatining natijalari uchun o'z javobgarligini his qilgan holda ijtimoiy xodim mijoz muammosini hal etish usuli to'g'risidagi o'z mulohazalarini bayon qilgan holda e'tibordan chetda qolib ketishi ham mumkin. Shubhasiz, ijtimoiy xodim faoliyatining samaradorligi muqarrar tarzda tushib ketadi, chunki mijozda mazkur muammoni hal etish uchun zarur tajriba mavjud emas, bundan tashqari u ijtimoiy xizmatning barcha imkoniyatlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emas.

Ikkinchidan, mijoz aynan nimaga haq to'layotganligini aniqlab olish lozim. Ijtimoiy ish juda ko'p hollarda shartli ravishda xizmat hamda hamdardlik sifatida ifodalanadi. U holda nima uchun haq to'lanadi? Agar faqatgina xizmat bo'lsa, preyskurstangta kiritilmagan "bepul hamdardlik" sekin-asta oddiy rasmiyatchilikka aylanib qoladi, biroq u rasmiyatchilik bo'lib qolmasligi lozim, chunki mijoz ko'pincha xizmat uchun emas, balki aynan hamdardlik, tushunish, xayrixohlik istab murojaat qiladi. Agar hamdardlik uchun ham haq to'lanishi lozim bo'lsa, u holda uning narxini va xizmatga qo'shimcha tarzda taqdim qilinishi lozim bo'lgan hamdardlikning minimal miqdorini qay tarzda belgilash mumkin? Mazkur savolga beriladigan har qanday javob savolning o'zi kabi noo'rindir. Demak, mazkur nuqtayi nazardan ham ijtimoiy ishning pullik xizmatga aylantirilishi unga ham, mijozlarga ham va umuman jamiyatga ham ziyon keltirishi mumkin.

Uchinchidan, xizmatlar uchun to'lov qanday bo'lishi lozim? Masalan Rossiya Federatsiyasi Ijtimoiy xizmatlar xodimlari uyushmasi tomonidan qabul qilingan Kasbiy axloqiy kodeksda¹ uncha katta bo'Imagan bo'lim mavjud va bu yerda gonorarlar masalasi keltirib o'tilgan. Unda aytishicha, gonorarlar "adolatli, oqilona va ko'rsatilayotgan yordam hamda mijozning to'lash qobiliyatiga

¹ Профессионально-этический кодекс социального работника России. Принят Межрегиональной Ассоциацией работников социальных служб. 22.05.94 г.

muvofig” bo‘lishi zarur. Mazkur ta’rif, uning jamiki jozibadorligiga qaramasdan, o‘zida bir qancha ziddiyatlari jihatlarni qamrab olgan. Asosiy ziddiyat shundan iboratki, qimmat xizmatlarga muhtoj mijoz har doim ham to‘lov qobiliyatiga ega emas. Shu sababli, yuqorida aytib o‘tilganlarni inobatga olgan holda xizmatlar uchun to‘lov mijozning to‘lov qobiliyati asosida yoki xizmatning haqiqiy narxiga asoslangan holda belgilanishi mumkin. Biroq har ikki yondashuv ham ijtimoiy adolat masalasining ilgari surilishiga sabab bo‘ladi. Va nihoyat, aynan qanday to‘lov summasini “adolatli, oqilona va asoslangan”, deb hisoblash mumkin? Xizmat narxini aks ettiruvchi summanimi, yoki mijoz to‘lay oladigan va yoki hamkasblar o‘xhash harakatlari uchun oladigan summanimi? Masalan, agar hamkasblardan o‘rnak olinsa (masalan, nodavlat ijtimoiy xizmat xodimlaridan), u holda tez muddat oralig‘ida xizmatlar uchun to‘lovlar oshib ketadi, chunki ishning sifati, uning ahamiyati, uning samaradorligi va hokazolar qiyoslana boshlaydi. Teng sifat, miqdor va faoliyat natijalari uchun teng to‘lov summasini olish o‘rinli hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy ishning faoliyatning badavlat mijozlar uchun mo‘ljallangan demokratik faoliyat turidan elitar faoliyat turiga aylanishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy ish yuqorida keltirilgan ehtimoliy jihatlarning har biri bo‘yicha tahqirlashni tubdan yo‘qotish o‘rniga iqtisodiy jihatga ko‘ra tahqirlash manbaiga aylanib qolishi mumkin¹.

Kasbiy axloqiy kodeksga hayot va professional amaliyotning barcha holatlari uchun tayyor yo‘riqnomalar to‘plami sifatida munosabatda bo‘imaslik lozim, biroq bu undan foydalanish mumkinmas degani emas. Ma’naviyat – shaxsning individual xislati ekanligiga qaramasdan professional guruhlar vakillari, umuman professional faoliyat uchun ham o‘zaro birgalikda asosiy faoliyatlarni determinatsiya qiluvchi o‘ziga xos “chegaralar” rolini o‘ynovchi prinsipler, ma’naviy me’yorlar va qoidalar mavjud. Ijtimoiy ishning

¹ Профессионально-этический кодекс социального работника России. Принят Межрегиональной Ассоциацией работников социальных служб. 22.05.94г.

kasbiy axloqiy kodekslari aynan shunday tabiatga ega – ular mutaxassislar o‘z faoliyatini tashkil etuvchi o‘ziga xos axloqiy-aksiologik “sarhadlar”ni belgilab beradi. Kodeks qoidalarida u yoki bu holatda qanday harakat qilish lozim ekanligi to‘g‘risida qat’iy va bir turli tavsiyalar berilmagan, ya’ni ijtimoiy xodim qarorlarni qabul qilish, ularni hayotga tatbiq qilish davomida o‘z harakatlarini axloqiy kodeks bilan qiyoslaydi, shu bilan birga tanlovdagi mustaqillik va erkinlikni saqlab qoladi. Boshqa tomonidan, axloq kodeksining mavjudligi ijtimoiy xodimni mustaqil ravishda qaror qabul qilish va qabul qilingan qaror bilan bog‘liq bo‘lgan yakuniy natija uchun mas’uliyatdan ozod qilmaydi. Ijtimoiy xodimning erkinligi va mustaqilligi hamjamiyat tomonidan kasbiy axloqiy kodeks ko‘rinishida qabul qilingan me’yoriy asoslardan voz kechishdan emas, balki qarorlar qabul qilish va ular asosida harakat qilishdan iborat.

Kasbiy axloqiy tizim, uning vaqtning muayyan lahzasining aksi sifatida kasbiy axloqiy kodeks muayyan vaqtida yaratilgan va shundayligicha qotib qolgan narsa bo‘lishi mumkin emas. U barcha uchun ahamiyatga ega va mutlaq bo‘lishga, ya’ni vaqtning har qanday davrida, har qanday vaziyat va holatlarda foydalilikka da’vo qilishi mumkin emas. Kasbiy axloqiy tizimdagи o‘zgarishlarga, odamlarning hayot faoliyati sharoitlari, bevosita kasbiy faoliyat mohiyati, maqsadlari va vazifalariga muvofiq u vaqtı-vaqtı bilan qayta ko‘rib chiqilishi, hamda katta yoki kichik o‘zgarishlar kiritilishi lozim. Kasbiy axloqiy kodeks jamiyat va kasbiy guruhlар ehtiyojlariغا muvofiq bo‘lishi va doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Biroq o‘z ta’sir doirasida kasbiy axloqiy kodeks kundalik professional faoliyat davomida amal qilish uchun majburiy bo‘lgan hujjatni aks ettiradi. Xuddi shu kabi, masalan, IXMA tomonidan qabul qilingan Axloqiy kodeksda mazkur kodeks ijtimoiy vaziyatlardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda, zaruriyat tug‘ilganda takomillashtirilishi mumkin degan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma mavjud.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy xodimning kasbiy axloqiy kodeksi, uning barcha narsalarni qamrab olishi va umumiyligi bilan bir qatorda yopiq tizim ham deb hisoblanmaydi. U ochiq va rivojlanuvchan, bu esa kodeksning o‘zida ham aks ettirilgan. Kodeksda aks ettirilgan axloqiy prinsiplar, me’yorlar, qoidalar va talablar o‘zgarmas. Nafaqat jamiyatdagi o‘zgarishlarni, uning rivojlanish dinamikasini, alohida ijtimoiy guruhlar va individlarning maqomidagi o‘zgarishlarni, balki, kasbiy faoliyat, uning mazmuni va mohiyati, shakllari va usullarida doimiy ravishda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ham aks ettirishlari talab etiladi. Ushbu o‘zgarishlar kasbiy axloqiy kodeksda belgilangan me’yorlar va prinsiplarning mohiyati o‘zgarishida, unga yangilarini kiritilishida, ushbu me’yor va qoidalarni asoslashda o‘z aksini topishi hamda ijtimoiy ishning har qanday darajasidagi kundalik kasbiy faoliyatda ularni amaliy qo‘llash usullarida bilvosita amalga oshirilishi lozim.

Ijtimoiy xodim tomonidan kasbiy axloqiy kodeks talablariga amal qilish bu rasmiyatchilik emas, balki uning kundalik amaliy faoliyatining samaradorligi va natijadoriligining zaruriy sharti, uning ijtimoiy ahamiyati va qadriyatining mezonidir. Har bir ijtimoiy xodim tomonidan kasbiy axloqiy kodeks talablariga amal qilish bugungi kunda kasbning jamiyatda tan olinishi va o‘z o‘mini mustahkamlashining zaruriy shartiga, uning vakillarining nufuzi, hurmatini oshirishga, mutaxassis shaxsining kasbiy guruh va jamiyatda hurmat qozonishi, o‘zini namoyon qilishining zaruriy shartiga aylanib bormoqda.

Kodeksda hamkasblar va ularning mijozlari bilan o‘zaro munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Hamkasblar bilan munosabatlar hurmat, o‘zaro ishonch,adolat kabilar asosiga qurilishi zarur ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Agar hamkasbi o‘rniga ishlab turish zarur bo‘lgan holatlarda, mutaxassis mijoz almashinuv natijasida zarar ko‘rmasligini ta’milagan holda harakat qilishi talab etiladi. Boshqaruvchi tashkilotning majburiyatlari, ma’lumotlari so‘zsiz bajarilishi zarur.

Kodeksga muvofiq har bir mutaxassis har bir muayyan vaziyatda o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi talab etiladi. Ayni vaqtda ijtimoiy xodim o‘zini kasbiy uyushma a’zosi, o‘ziga xos noyob kasb egasi sifatida anglaydi, bu bilan bog‘liq ravishda u ma’lum ma’noda o‘z hamkasblari faoliyati va kasbiy guruh majmui uchun ham javobgar.

Umuman olganda, MDH davlatlaridan bo‘lgan Rossiyada faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimning kasbiy axloqiy kodeksi professional ijtimoiy ish samaradorligini oshirish, mutaxassisning shaxsiy qiyofasini shakllantirish, kasbning jamiyatdagi ma’naviy nufuzini oshirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ijtimoiy xodimlarning Xalqaro federatsiyasi tomonidan qabul qilingan va “Ijtimoiy ish etikasi: prinsiplar va standartlar”¹ nomli ijtimoiy axloqiy kodeks yuqorida keltirilgan mamlakatimiz kodeksidan ahamiyatli ravishda farq qiladi. Mazkur hujjat yaxshi tuzilmalashtirilgan. Unda kasbiy axloqiy kodeksni kiritish maqsadi belgilangan, mazkur hujjatni kiritish, uni ijtimoiy xodimlarning milliy uyushmalari tomonidan qo’llanilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar taqdim qilingan.

Kodeks ikkita hujjatdan iborat: “Ijtimoiy ishning axloqiy prinsiplari xalqaro deklaratsiyasi” va “Ijtimoiy xodimlarning xalqaro axloqiy standartlari”. Hujjatlarning birinchesida ijtimoiy ishning asosiy axloqiy prinsiplari keltirilgan: insonning noyobligi va qadriyatini qayd qilish, jamiyat farovonligi haqida qayg‘urish, ijtimoiyadolatlilik, tenglik, tahqirlashni taqiqlash, shaxsiy daxlsizlikni hurmat qilish va boshqalar. Ijtimoiy xodim mijoz farovonligi uchun harakat qilishi, biroq boshqalarga zarar yetkazmasligi lozimligi qayd qilingan. Shu bilan birga bir shaxs o‘z-o‘zini namoyon qilish huquqididan foydalanish davomida boshqa odamlarning huquqini poymol qilmasligi zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. Alovida bo‘limda axloqiy nizolarning jamoa bo‘lib

¹ Профессионально-этический кодекс социального работника России. Принят Межрегиональной Ассоциацией работников социальных служб. 22.05.94 г.

o‘rganilishi va hal etilishi mumkin bo‘lgan asosiy muammoli sohalari ifodalangan.

Ikkinchи hujjatda – “Ijtimoiy xodimlarning xalqaro axloqiy standartlari”da – ijtimoiy ish ko‘p jihatdan insonparvarlik ideallardan kelib chiqishi, shaxs va jamiyatning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, inson imkoniyatlarini rivojlantirish davomida vujudga keluvchi insoniy ehtiyojlarni qondirishning universal imkoniyati hisoblanadi. Mazkur hujjat ijtimoiy xodimning mijozlar, agentliklar va tashkilotlar, hamkasblar, kasbga nisbatan asosiy qoidalari va standartlarini qamrab olgan. Ushbu hujjatlarga muvofiq ijtimoiy ish xodimi odamlarning ko‘p qismi maksimal darajada munosib hayotga erishishini ta’minalash uchun harakat qilishi lozim. O‘z faoliyati davomida mutaxassis o‘z shaxsiy va hamkasbleri bilimlariga, ko‘nikmalariga, mijoz imkoniyatlariga, tashkilot va agentliklar imkoniyatlariga tayanishi lozim. O‘z faoliyati uchun shaxsan javobgar bo‘lishi zarur. Bunda kasbni himoya qilish, takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha faoliyat muhim hisoblanadi.

Kasbiy axloqiy kodeksni ishlab chiqishda quyidagilardan kelib chiqish talab etiladi:

1. Kasbiy axloqiy kodeksning zarurligi. Kodeks har qanday soha, har qanday kasb uchun ishlab chiqilishi mumkin, biroq, yuqorida aytib o‘tganimizdek, har qanday kasbiy faoliyat ham qo‘srimcha axloqiy yo‘riqnomani qat’iy talab etmaydi. Ayrim kasblarda kasb vakillari o‘rtasidagi faoliyat samaradorligini ta’minalash uchun yetarli bo‘lgan munosabatlarni ta’minalashda faqatgina umumiyligi axloqiy tamoyillar va me’yorlarning qo’llanilishining o‘zi yetarli bo‘lishi mumkin. Asoslanmagan tarzda, faqat rasmiyatchilik uchun ishlab chiqilgan va kiritilgan kasbiy axloqiy kodeks faqatgina ishlab chiquvchilarining o‘zigagina ma’lum bo‘lgan yana bir rasmiy hujjat bo‘lib qolishi mumkin.

2. Kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish. Kasbiy faoliyatning aynan o‘ziga xos xususiyatlari kasbiy axloqiy yo‘riqnomalarning shakllari, usullari va yo‘nalishlarini, shuningdek,

uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Shu sababli kasbiy axloqiy kodeks kundalik kasbiy faoliyatda uzviy va zarur bo'lib qoldi va u ixtisoslashtirilishi lozim.

3. Umuman axloq qoidalarini va xususan kasbiy axloqni bilish. Kasbiy axloqiy kodeksda, u oddiy xodimlar uchun tushunarli va amal qilish oson bo'lishi bilan bir qatorda umumiy falsafiy axloq g'oyalari, tushunchalari va toifalari ham qo'llanilgan. Ayni vaqtida ma'lumki, falsafiy axloqning eng umumiy toifalari nafaqat professional, balki kundalik nutqda ham qo'llaniladi, shu bilan birga ularning odatiy ma'nosi har doim ham ilmiy ta'rifi bilan mos kelmaydi. Xuddi shu kabi masalan, kundalik hayotda etika va axloq – deyarli bir narsa, ayni vaqtida ilmiy tilda esa ular bir-biridan farq qiladi. Kodeks ishlab chiquvchisidan kasbiy axloqiy kodeks uning ilmiyligi to'g'risidagi tasavvurlarga mos bo'lishi uchun nafaqat axloqiy kategorial apparatni, balki asosiy g'oyalar, qonunlarni ham bilishni talab etiladi.

4. Eng muhim milliy urf-odatlar va an'analar bilan chuqur tanishish. Urf-odatlar va an'analar ijtimoiy mavjudlikning ajralmas qismi bo'lish bilan bir qatorda, garchi ularni qayd qilishning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar mavjud bo'lmasa-da, konseptual tarzda kasbiy axloqiy kodeksda aks ettiriladi.

5. Jarayonga oid masalalarni bilish va hal etish imkoniyatlari. Avval aytib o'tganimizdek, kasbiy axloqiy kodeks qonuniylashtirilishi zarur; aks holda u faqat birgina ishlab chiquvchining mulkiga aylanib qoladi.

Odatda, kasbiy axloqiy kodeksining ishlab chiqish ishlab chiqaruvchilar guruhi tomonidan tashabbus asosida yoki kasbiy uyushma topshirig'iga asosan amalga oshiriladi. Kodeks qismlari (bo'limlari)ni ishlab chiqish ketma-ketligi turlicha bo'lishi mumkin, biroq yuqorida keltirilgan izchillikka amal qilish maqsadga muvofiq, chunki u mantiqan to'g'ri. Masalan, dastavval kasbiy axloqiy tartibga solishning o'rni va rolini, uning maqsad va vazifalarini aniqlab olish,

shundan so‘nggina uning usullariga o‘tish va buning asosida – kasb talablariga javob beruvchi mutaxassisning ideal obraziga o‘tish lozim.

Kodeks loyihasi tayyorlagandan so‘ng yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy kamchiliklar, qarama-qarshiliklar va boshqalarni istisno qilish maqsadida uni ekspertizadan o‘tkazish maqsadga muvofiq va tegishli o‘zgartirishlarni kiritgandan so‘ng, kodeksni muhokama qilish va qabul qilish jarayoniga o‘tish mumkin bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida kasbiy axloqiy kodeks haqiqatan ham muhim va kundalik foydalanish uchun zarur hujjat bo‘lishi uchun kodeksni ommalashtirish, uni har bir mutaxassis e’tiboriga yetkazish taktikasini ham ishlab chiqish zarur.

“Kasbiy axloq ijtimoiy ishning o‘zagi hisoblanadi. Mazkur kasbda uning asosiy qadriyatları, axloqiy prinsiplari va axloqiy standartlari aniq belgilab olinishi lozim. Milliy Uyushmaning axloqiy Kodeksi mazkur qadriyatlar, tamoyillar va standartlarni belgilab beradi. Mazkur kodeks barcha ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy ish yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun ularning kasbiy vazifalari, hamkasblari va ular xizmat ko‘rsatayotgan aholidan qat’i nazar, yo‘naltiruvchi qo‘llanma hisoblanadi”¹.

Ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksining vazifalari, ijtimoiy ish amaliyoti uchun bazaviy hisoblangan qadriyatlar vositasida axloqiy kodeks vazifalarini belgilab beruvchi AQSH Ijtimoiy xodimlar Milliy Uyushmasi kodeksida ham aks ettirilgan:

- xizmat ko‘rsatish
- ijtimoiy adolat
- inson qadr-qimmati va ahamiyati
- insonlar o‘zaro munosabatlarining muhimligi
- halollik
- layoqatlilik.

¹ Этика социальной работы: утверждение принципов. Хрестоматия по курсу «Основы социальной работы». Составители: Гапиева М.Х., Карамян М.Х., Проект «Укрепление образования, практики и профессии «Социальная работа» в Узбекистане», РЦСАД – ТТИК – МВССО – МНО – ЮНИСЕФ, Ташкент, 2011.

Axloqiy kodeksning AQSH Ijtimoiy Xodimlar Milliy Uyushmasi tomonidan sanab o‘tilgan vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy ish vazifasi asoslanuvchi asosiy qadriyatlar belgilab beradi.

2. Mazkur kasbning asosiy qadriyatlarni aks ettiruvchi umumiy axloqiy tamoyillarni jamlaydi va ijtimoiy xodimlar o‘z amaliy faoliyatida amal qilishlari lozim bo‘lgan o‘ziga xos axloqiy standartlar to‘plamini belgilab beradi.

3. Ijtimoiy xodimlarga ularning kasbiy majburiyatlariga bog‘liq nizoli vaziyatlar vujudga kelganda yoki u yoki bu harakatning axloqiyligi to‘g‘risida shubhalar paydo bo‘lganida to‘g‘ri qarorlarni topishga yordam beradi.

4. Ularga amal qilgan holda keng jamoatchilik ijtimoiy ish kasbining javobgarligini nazorat qilishi mumkin bo‘lgan axloqiy standartlarni taqdim qiladi.

5. Yangi amaliyotchi ijtimoiy xodimlarga kasbning vazifasi, qadriyatlari, axloqiy prinsiplari va ma’naviy standartlarini yaxshiroq o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

6. Ularga amal qilgan holda kasb doirasida u yoki bu xodim xulqining axloqiyligi yoki axloqsizligini aniqlash imkonini beruvchi standartlarni shakllantiradi¹.

3. Ijtimoiy ishning asosiy prinsiplari

Shuni yodda saqlash lozimki, ijtimoiy ish qadriyatlari professionallar tomonidan amaliyotda qo‘llaniladigan prinsiplarda ifodalanadi. Qadriyat va prinsiplarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi jadval misolida ko‘rsatib berilgan².

¹ Этический кодекс Национальной Ассоциации Социальных Работников. Утвержден Делегатской Ассамблей НАСР 1996 года и пересмотрен Делегатской Ассамблей НАСР 1999 года.

² Материалы тренинга «Теория и практика социальной работы с детьми и семьями» для сотрудников программы по Укреплению Семьи SOS – Детских Деревень Узбекистана, Киргизстана, Казахстана и Азербайджана. Составитель Ким Л.Э., Ташкент – 2010.

**Axloqiy qadriyatlar va prinsiplar
(Amerika ijtimoiy ishchilar uyushmasi)**

Qadriyat	Axloqiy prinsip
Xizmat ko'rsatish	Ijtimoiy xodimning asosiy maqsadi – muhtoj insonlarga yordam ko'rsatish va jamiyat e'tiborini ijtimoiy muammolarga jalb qilish
Ijtimoiy adolat	Ijtimoiy ishchilar ijtimoiy adolatsizlikka qarshi
Har bir inson qadr-qimmati va qadriyati	Ijtimoiy xodimlar har bir insonning qadr-qimmati va qadriyatini hurmat qiladilar
Inson munosabatlarining muhimligi	Ijtimoiy xodimlar inson munosabatlarining markaziy ahamiyatini tan oladilar
Halollik	Ijtimoiy xodimlar o'zlarini ishonzhli tarzda tutadilar
Layoqatlilik	Ijtimoiy xodimlar o'z layoqatliligi doirasida harakat qiladilar va doimiy ravishda o'z kasbiy malakalarini oshirib boradilar

Xulqning axloqiy standartlarida ijtimoiy xodimning o'z mijozlari, hamkasblari, tashkilotlar va boshqalarga nisbatan majburiyatları aks ettiriladi. Bu kabi xulq standartlarining namunalari quyida keltirilgan.

Xulqning axloqiy standartları (AQSH Ijtimoiy xodimlar Milliy Uyushmasi, NASW):

1. Ijtimoiy xodimlarning o'z mijozlari oldidagi axloqiy majburiyatları;
2. Ijtimoiy xodimlarning o'z hamkasblari oldidagi axloqiy majburiyatları;
3. Ijtimoiy xodimlarning o'z amaliy muhiti oldidagi axloqiy majburiyatları;
4. Ijtimoiy xodimlarning professional sifatidagi axloqiy majburiyatları;

5. Ijtimoiy xodimlarning o‘z kasbi oldidagi axloqiy majburiyatları;
6. Ijtimoiy xodimlarning jamiyat oldidagi axloqiy majburiyatları.

Ijtimoiy xodimlarning professionallar sifatidagi axloqiy majburiyatları Layoqatilik.

Ijtimoiy xodimlar vakolatga ega bo‘lgan holatlarida yoki zarur vakolatga ega bo‘lishni xohlasalargina mas’uliyatni yoki taklif qilinayotgan ishni o‘z zimmalariga olishlari lozim.

Ijtimoiy xodimlar o‘z kasbiy amaliyotida yetuk mutaxassis bo‘lish va mutaxassis bo‘lib qolishga, shuningdek, kasbiy vazifalarni tegishli tarzda amalga oshirishga intiladilar. Ijtimoiy xodimlar o‘zlarini tanqidiy baholashlari va ijtimoiy ish bo‘yicha yangi bilimlarni o‘rganishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar doimiy ravishda kasbiy adabiyotlar bilan tanishish va ijtimoiy ishning amaliyoti va etikasi bo‘yicha ta‘lim olish jarayonini davom ettirishda ishtirok etishi lozim.

Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ish va ijtimoiy ish etikasiga tegishli bo‘lgan empirik bilimlarga hamda amaliyotni tan olingen bilimlarga asoslashlari lozim.

Tahqirlash.

Ijtimoiy xodimlar irq, etnos, millat, teri rangi, jinsi, jinsiy qarashlari, yoshi, ijtimoiy maqomi, siyosiy qarashlari, dini, aqliy yoki jismoniy nuqsonlari kabi mezonlarga ko‘ra tahqirlashning qandaydir shakllarida hech bir tarzda ishtirok etmasligi lozim.

Shaxsiy xulq (xatti-harakatlar).

Ijtimoiy xodimlar shaxsiy xatti-harakatlarining kasbiy faoliyatlarini bajarish qobiliyatlariga xalal berishiga imkon bermasliklari lozim.

Vijdonsizlik, qalloblik va alдов.

Ijtimoiy xodimlar har qanday holatda ham vijdonsizlik qilmasliklari, qalloblik va aldovga yo‘l qo‘ymasliklari lozim. Ular adolatsizlikka, aldrovlarga yoki qalloblikka yo‘l bermasliklari va bu kabi illatlarga bog‘lanib qolmasliklari lozim.

Imkonsizlik.

✓ Ijtimoiy xodimlar o‘z shaxsiy muammolari, ruhiy bosimlar, mol-mulkidan ajralib qolish yoki aqliy muammolari samarali faoliyat olib borish,

kasbiy mulohazalarga yo'l qo'ymasligi yoki o'zlar mas'ul bo'lgan mijozlar manfaatlarini imkonsizlik tufayli xavfga qo'ymasligi lozim.

✓ Shaxsiy muammolari, ruhiy bosim, mol-mulkini yo'qotish yoki aqliy muammolari samarali amaliyat, professional darajada fikrlashga yoki mijoz manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xodimlar maslahatidan o'tishlari va kasbiy yordam olish uchun tegishli choralar ko'rishlari, mijozlar va boshqalarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish jadvalini qayta ko'rib chiqishlari, zarur bo'lganda faoliyatni vaqtinchalik to'xtatishlari lozim.

Noto'g'ri taqdimot.

✓ Ijtimoiy xodimlar oddiy odamlar sifatida amalga oshiradigan harakatlari va bayon qiladigan fikrlarini, ular ijtimoiy ish kasbi, ijtimoiy ish bilan shug'ullanuvchi professional tashkilot yoki ijtimoiy ish agentligi vakili sifatidagi harakatlar va fikrlardan farqlay bilishlari lozim.

✓ Ijtimoiy ish kasbi vakillari sifatida fikr bildiruvchi ijtimoiy xodimlar tashkilotning qarashlarini aniq va ehtiyojkorlik bilan ifodalashlari lozim.

✓ Ijtimoiy xodimlar o'z kasbiy malakasi, mutaxassisligi, xizmatlari yoki mijozlar bilan olib borgan ishlari natijalarini agentliklar va jamiyatga aniqlik va ehtiyojkorlik bilan taqdim qilishga intilishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar nafaqat ular haqiqatan ham ega bo'lgan kasbiy xususiyatlarini namoyon qilishlari, balki ularning xususiyatlarini boshqalar tomonidan noto'g'ri tushunilishini oldini olishga ham harakat qilishlari lozim.

Tazyiq.

✓ Ijtimoiy xodimlar noto'g'ri ta'sir, boshqarish yoki majburlashga ta'sirchan bo'lgan mijozlarga nisbatan tazyiq o'tkazishda ishtirok etmasliklari lozim.

✓ Ijtimoiy xodimlar o'z mijozlari yoki o'zlar tushib qolgan noodditiy vaziyatlar tufayli noto'g'ri ta'sirga beriluvchan bo'lib qolgan insonlarni guvohlik beruvchi ma'lumotlarni taqdim qilishga (jumladan, mijoz tomonidan aytilganlarni guvohlik ko'rsatmalari sifatida qo'llanilishiga rozilik olish uchun unga tayziq o'tkazmaslik) undamasliklari zarur.

Xizmatlarning tan olinishi.

- ✓ Ijtimoiy xodimlar faqatgina haqiqatan ham o'zlariga tegishli bo'lgan mualliflik huquqi kabilar (masalan, ular amalga oshirgan ishlari uchun) mas'uliyatnigina o'z zimmalariga olishlari lozim;
- ✓ Ijtimoiy xodimlar boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar va qo'shgan hissasini vijdonan tan olishlari lozim¹;
- ✓ Kasbdagi halollik;
- ✓ Ijtimoiy xodimlar amaliyotning yuqori standartlarini saqlash va ilgari surishni maqsad qilgan holda faoliyat olib borishlari lozim;
- ✓ Ijtimoiy xodimlar kasb qadriyatlari, axloqiy bilimlari va vazifalarini qo'llab-quvvatlashlari lozim. Ijtimoiy xodimlar kasb adolatlilikini tegishli o'rganish va tadqiqotlar, faol munozaralar va kasbning konstruktiv tanqidi vositasida himoya qilishlari, qo'llab-quvvatlashlari, yaxshilashlari talab etiladi.

Ijtimoiy farovonlik.

Ijtimoiy xodimlar global darajalar, odamlar, o'z jamiyatlari va o'z muhitlaridan foydalangan holda jamiyatning umumiy farovonligini ilgari surishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar asosiy insoniy ehtiyojlarni qondirishga mos bo'lgan hayotiy sharoitlarni ta'minlashlari, shuningdek, ijtimoiy adolatni amalga oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy qadriyatlар va institutlarni ilgari surishlari zarur².

7.3. O'zbekiston ijtimoiy xodimining kasbiy va axloqiy kodeksini yaratish

2003-yildan boshlab O'zbekistonda O'zbekiston Milliy universiteti, A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat va sa'nat instituti professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari va amaliyotchilarni qamrab olgan Ijtimoiy ish bo'yicha milliy jamoa nomli tashabbuskor guruh O'zbekistonda "Ijtimoiy ish" kasbini rivojlantirish va qator sabablarga ko'ra chop etilmay qolgan, oliy ta'lif muassasalari uchun birinchi qo'llanmani tayyorlash bo'yicha ish boshlagan. O'zbekistonda 2005-yilda

¹ Code of Ethics of the National Association of Social Workers. 1996. – P. 18-19.

² Tan xe – P. 20-21.

boshlangan hamda BMTning YUNISEF Bolalar jamg‘armasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan deinstitutsionallashtirish (mijozlarni kattaroq g‘amxo‘rlik muassasalariga ko‘chirish) dasturi doirasida ijtimoiy ishning rivojlanish jarayoni yangi sur’atlarda rivojlana boshladи. Bolalarni himoya qilish sohasida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, bolalar masalalari, mazkur mutaxassislik bo‘yicha talabalar tayyorlaydigan OTMlarni boshqaruvchi, yetakchi vazirliklar va idoralar hamda O‘zbekistondagi BMT Bolalar jamg‘armasi bilan hamkorlikda qator loyihalar amalgalashirila boshladи.

O‘zbekistonda Ijtimoiy ishni rivojlantirishning akademik yo‘nalishi ijtimoiy ish sohasida dastlabki ta’lim standartlarini yaratish bilan bog‘liq. 2004-yilda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat va sa‘nat instituti jamoasi tomonidan birinchi marotaba ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi (2004) ochilgan. “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi talabalarining amaliyotini xalqaro standartlarga muvofiq amalgalashirish standartlarini qayta ko‘rib chiqilgan. 2005-yildan boshlab “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi shuningdek, Farg‘ona va Samarqand davlat universitetlarida ochildi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 2010-yildan boshlab “sotsiologiya” kafedrasini qoshida “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi ochildi, 2017-yilda esa “Ijtimoiy ish” kafedrasini tashkil etildi. Buguni kunda Namangan davlat universiteti va Guliston Davlat universitetida ham Ijtimoiy ish yo‘nalishlari ochilgan va mutaxassislarini tayyorlash boshlangan.

2021–2022-o‘quv yilidan boshlab Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari uchun sirtqi ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tizimi joriy etilishi bo‘yicha “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qarori (3-sod, 03.01.2021 y.) qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab pedagogika va moliya-iqtisod sohalaridagi oliy ta’lim muassasalarida “5520100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari uchun sirtqi ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tizimi joriy etiladi.

Mazkur sirtqi ta'lim shakli doirasida:
o'qitish to'lov-kontrakt asosida tashkil etiladi:
kadrlar tayyorlash bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlarini ishlab chiqish uchun O'zbekiston Milliy universiteti tayanch OTM hisoblanadi;

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan berilgan tavsyanomaga ega bo'lgan hamda kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlari talabalikka tavsiya etilish nazarda tutilgan.

2007-yildan boshlab BMTning YUNISEF Bolalar jamg'armasi tomonidan taqdim etilgan xalqaro maslahatchilar yordami va ishtirokida ijtimoiy ish bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus treninglar o'tkazildi. Mazkur treninglardan maqsad OTMlarning kadrlarga oid imkoniyatlarini mustahkamlashdan iborat. Keyinchalik mazkur maqsad O'zbekistonning ijtimoiy ish yo'nalishi mavjud OTMlarning o'qituvchilarini ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etishga jalb qilish vositasida amalga oshirilgan.

Ijtimoiy ishni rivojlantirishning amaliy yo'nalishi ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlash dasturini rivojlantirish vositasida amalga oshirilgan va uning birinchi bosqichi 2007-yilda bo'lib o'tgan. O'sha davrda va 2007-yildan 2009-yilga qadar bo'lgan davrda mazkur o'quv kurslarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Guliston, Farg'ona va Farg'ona vodiysi bolalar muassasalarining xodimlari qayta tayyorlovdan o'tdilar. Mazkur kurslar shuningdek, deinstitusionallashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan. Ularning maqsadi bolalar muassasalari xodimlarini ijtimoiy yetimlikning oldini olish maqsadida oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishdan iborat bo'lgan.

Mazkur islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri ijtimoiy ishning bolalarni himoya qilish tizimida oilaning parchalanishi va bolani vasiyliksiz qoldirish holatlarini bartaraf qilish maqsadida oilalarga yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kasb sifatida rivojlantirishdan iborat bo'lgan.

OTMlarda ijtimoiy ish sohasida mutaxassislarini tayyorlashni ta'minlovchi akademik yo'nalishlardan tashqari bugungi kunda bolalar muassasalarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar – pedagoglar, psixologlar, tarbiyachilar, defektologlarni qayta tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilingan. 2007-yildan boshlab Toshkent davlat madaniyat institutining kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markazi bazasida Bolalarni ijtimoiy moslashtirish Respublika Markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan o'zaro hamkorlikda, O'zbekistondagi YUNISEF Bolalar jamg'armasi qo'llab-quvvatlashi asosida Milliy jamoa tomonidan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi amaliyotchilari uchun qayta tayyorlash kurslari amalga oshirildi.

Shu holat bilan parallel ravishda aynan shu davrda oila va bolalarni qo'llab-quvvatlashning yangi xizmatlari rivojlanishni boshlagan. Mazkur xizmatlar tarkibiga bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi xodimlaridan 5 nafar ijtimoiy xodimlar – bolalikni himoya qilish bo'yicha inspektor, hokimlarning ayollar masalalari bo'yicha o'rinnbosarlari, tibbiyot xodimlari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektorlar kiradi.

Ijtimoiy xodimlarning yangi shakllangan kasbiy hamjamiyati uchun ular tomonidan amalga oshirilayotgan tajribalarida yo'riqnomalar bo'lishi uchun kasbiy hujjatlar zarur bo'lgan. Mamlakatimizdagi ijtimoiy ish tizimi endigina shakllanayotganligi, ijtimoiy xodimning kasbiy va axloqiy kodeksi faqatgina loyiha ekanligiga qaramasdan mazkur kasbning O'zbekistonda kelgusida rivojlanishi uchun asosli baza yaratib beradi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy xodimlarning xalqaro va milliy uyushmalarining axloqiy kodekslari rivojlantirishdagi roli?
2. Axloqiy Kodeks o'zi nima?
3. Turli mamlakatlar ijtimoiy xodimlarining axloqiy kodekslari.
4. Ijtimoiy ish sohasi qadriyatlari va prinsiplarini professional-larning xulqiy standartlari bilan qiyoslash.

8-BOB. IJTIMOIY ISHNING DEONTOLOGIK ASOSLARI

8.1. Professional ijtimoiy ish axloqiy tizimida deontologiyaning o'rni va roli.

8.2. Kasbiy burch va professional mas'uliyat tushunchalari, ularning mazmuni va mohiyati.

8.1. Professional ijtimoiy ish axloqiy tizimida deontologiyaning o'rni va roli

Deontologiya majburiyatlar va axloqiy qoidalar nuqtayi nazaridan harakat qilish huquqini belgilab beruvchi axloqiy yoki ma'naviy nazariyalarning umumiy toifasiga kiradi. Deontologiya o'z e'tiborini harakatning natijasiga emas, balki uning to'g'riligiga e'tibor qaratadi. To'g'ri harakat mijoz uchun maqbul yoki nomaqbul bo'lishi mumkin, boshqalar tomonidan ma'qullanishi yoki qoralanishi mumkin va qoniqish, boylik, og'riq olib kelishi, hattoki sezilmasdan qolib ketishi mumkin. Mazkur nuqtayi nazardan eng muhim bo'lgan holat – bu to'g'ri harakat talab etiladi va ma'naviy xulq maqsadi faqatgina uning amalga oshirilishi demakdir.

Deontologiyaning katta qismining shiori, huquq yaxshi narsalarga bog'liq emasligidir. Demak deontologiya konsekvensializ yoki teologik nazariyalarga qarshi turadi.

Ma'naviy xulq maqsadi o'zi yoki boshqalar uchun maqbul va ijobiy holatga erishishdan iborat. Deontologiya uchun ma'naviy harakatning yakuni, uning unumдорлиги hisoblanadi. Konsekvensialistlar uchun ma'naviy harakat kelgusidagi qandaydir yakun vositasi hisoblanadi. Etikaning har qanday deontologik nazariyalariga javob berishi lozim bo'lgan uchta asosiy masalalar mavjud.

Birinchidan, burchning mohiyati nimadan iborat? Qaysi qoidalar bizni ma'naviy jihatdan to'g'ri harakatlarga yo'naltiradi? Ikkinchidan, nima sababdan biz boshqa emas, aynan belgilangan majburiyatlar va

qoidalarga amal qilishimiz lozim? Ya’ni, ularni axloqiy talablar sifatida tekshirish uchun qanday asoslar mavjud? Uchinchidan, mazkur majburiyatlar yoki qoidalarning mantig‘i nimadan iborat¹?

“Deontologiya” atamasi (grek tilidan, deontoxs – bo‘lishi lozim bo‘lgan) ilmiy leksikonga XVIII asrda ingliz faylasuf-utilitaristi Ieremiy Bentam (1748-1832 yy.) tomonidan burch va munosib xulq, harakatlar, ularning turlari haqidagi ta’limotni belgilash uchun kiritilgan. Insonlar jamiyatida axloqning o‘rnini va rolini tadqiq qilar ekan, I.Bentam, u xuddi qonunchilik kabi ko‘p sonli odamlarning baxti, farovonligi va foydalarini ta’milash maqsadida inson xulqini tartibga solish imkoniyati hisoblanadi, degan xulosaga kelgan².

Dastavval I.Bentam “deontologiya” tushunchasiga avvalambor diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishining Alloh, din, diniy uyushma oldidagi burchi va majburiyatlarini nazarda tutgan holda tor ma’noni joylagan biroq keyinchalik uni umuman axloq nazariyasini belgilash uchun qo‘llagan. Tez orada “deontologiya” birmuncha o‘zgacha ma’noda qo‘llanila boshladi – u faqatgina diniy e’tiqodli kishining o‘z diniy majburiyatlariga nisbatan xulqini emas, balki har qanday shaxs yoki guruhning munosib xulqi, faoliyati va harakatlari haqidagi ta’limotni belgilash uchun qo‘llanila boshladi.

Deontologiya lug‘aviy jihatdan “majburiyatlar haqidagi fan” degan ma’noni anglatadi. Bu har qanday axloqiy nazariyalarga tegishli va ayrim harakatlar ularning yoqimli yoki og‘riqli oqibatlariga qaramasdan majburiy hisoblanadi. Deontologiya – bu o‘zing qanday qilsang, shunday ta’sir ko‘rsatuvchi axloqdir. Masalan, qotillik yomon harakat hisoblanadi, chunki qotillik harakati natijadan qat’i nazar noto‘g‘ri harakat hisoblanadi³.

¹Powers, TM (2014). Deontology. // Carl MitchamThe Encyclopedia of Science, Technology, and Ethics, ed. Carl Mitcham, Gale Group Publishing Detroit [Mich.]: Macmillan Reference USA, 2005. (Fragment). – P.1.

²Бегум И. Введение в основы этики и законодательства. – Спб: 1867. Деонтология, или наука о морали. Т. 1, 2. – Москва: Инфра-М, 1997.

³Hasna A. Begum Medical ethics for G Practees. Workbook

Shaxsiy ma'naviyat mohiyatiga ko'ra deontologiya hech qachon bizdan yolg'on so'zlash yoki o'g'irlash, xayriya qilish, odamlar va hayvonlarga zarar yetkazmaslikni talab eta olmaydi. Ushbu qoidalalar ko'pchiligidan tomonimizdan o'zlashtirilgan diniy, ijtimoiy va fuqarolik institutlar tomonidan, shuningdek, ayrim holatlarda shaxsiy ma'naviyat vositasida qo'llab-quvvatlanadi.

Biroq ochiq dastlabki kodga ega bo'lган dasturiy ta'minotni qo'llab-quvvatlash, nano texnologiyalarni inkor qilish, inson uchun mahsulotlar tayyorlash maqsadida hayvonlar ustidan tajribalar o'tkazishdan qochish majburiyati mavjud. Qoidalarning qanday ro'yxati axloqiy qoidalarga bog'liq. Klonlashtirishning yoki ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash murakkab qoidalarmi? Bizning fan va texnika sohasidagi majburiyatlarimiz va amaliyotimiz o'rta sidagi aloqani anglash murakkab ekanligiga qaramasdan, deontologiya bu kabi tajribani baholashda muhim o'rinni tutishi mumkin va zarur. Faoliyat oqibatlarining mazkur sohalarga ta'siri oqibati haqidagi hisobotni kutish xavfli hisoblanadi, chunki ushbu oqibatlarni ko'pincha avvaldan ko'ra bilish imkonini mavjud emas va ularni tuzatish juda qiyin¹.

Bugungi kunda "deontologiya" atamasi professional etikada ham mutaxassisning o'z kasbiy majburiyatlarini bajarish jarayonidagi burchi va munosib xulqi to'g'risidagi nazariyani belgilash uchun yetarli darajada keng qo'llanilmoqda.

U ijtimoiy ish kasbiy axloqida aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Umuman olganda mohiyatiga ko'ra deontologiya ijtimoiy xodim, ijtimoiy xizmat, kasbiy guruhning jamiyat, davlat, kasbiy ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos turi va alohida ijtimoiy institut sifatidagi ijtimoiy ish, hamkasblar, mijozlar va o'z oldidagi burchi haqidagi ma'nolar, tushunchalar, me'yorlar, qarashlar va yo'riqnomalar tizimini aks ettiradi.

¹Powers, TM (2014). Deontology. // Carl MitchamThe Encyclopedia of Science, Technology, and Ethics, cd. Carl Mitcham, Gale Group Publishing Detroit [Mich.]: Macmillan Reference USA, 2005. (Fragment). – P.2.

Shaxsiy kasbiy axloqiy tizimini shakllantirgan va kodlashtirgan deyarli har bir kasb bir vaqtning o‘zida mutaxassisning kasbiy burchi mohiyatini tafakkur qiladi, biroq ko‘pincha mazkur jarayon davomida deontologiyaning kasbiy axloqiy ta’limot, burch va majburiyatlarni qiyoslash muammolaridagi o‘rni va roliga ta’sir ko‘rsatmaydi. Mazkur muammo – deontologiyaning kasbiy axloqiy ta’limotdagi o‘mi muammosi – kasbiy axloq doirasida hal etilishi lozim, chunki qarorning mohiyati mutaxassis mustaqilligining ruxsat etilgan darjasи, uning faoliyatini nazorat qilish usullari, mutaxassis va ularning mijozlarining o‘zaro ishonchi bilan belgilanadi. Deontologiyaning har qanday axloqiy ta’limot, jumladan, kasbiy axloqiy ta’limotdagi o‘mi va roli inson mohiyatidan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Agar inson marhamatli, ezgulikka intiluvchan, yaxshilik qilishga moyil bo‘lsa, u holda axloqiy ta’limot yo‘riqnomasi, “yo‘l ko‘rsatuvi”, axloqiy bilimlar manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Inson o‘zining tabiatan ezgulikka intilishidan kelib chiqqan holda, axloqiy bilimlari bilan quronlanadi va o‘zini munosib tarzda tutishni ta’minalash uchun yetarli hisoblanadi. Faqatgina tahlil uchun murakkab bo‘lgan alohida holatlardagina, xulqning tanlovi va oqibatlarini ko‘ra bilish va shaxsning zarur harakatlarini belgilab berish murakkab holatlarda inson nima qilishi kerakligi to‘g‘risida aniq yo‘riqnomalar talab etiladi. Mazkur jihatdan axloqning tartibga soluvchi salohiyati shaxsning shubhasiz ma’naviyligiga tayangan bilimlarda, tahlillarda deya taxmin qilinadi. Munosib xulqni determinatsiya qilish maqsadida deontologiyaga murojaat qilish zarurati kamdan-kam hollarda uchrab turadi. Chunki, deontologiya va burch shaxsga nisbatan tashqi nimadir sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holatda birini ikkinchisidan ajratib turuvchi “axloq va deontologiya” so‘z birikmasi haqqoniy ravishda ko‘p qo‘llaniladigan so‘z birikmasi hisoblanadi. Deontologiya axloqdan farqli ravishda bilimlardagi kamchiliklarni, shaxs tajribasini to‘ldirmaydi, balki imperativ ravishda zarur harakatlarni ta’milagan holda bevosita ko‘rsatmalarni taqdim qiladi.

Agar inson avval boshdanoq yovuzlikka moyil, “gunohkor” bo‘lsa va o‘z tabiatiga ko‘ra mas’uliyatni his etgan holda ijtimoiy qadriyatga ega bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lmasa – uning xudbin harakatlari faqatgina tasodifiy tarzda jamiyat farovonligiga olib kelishi mumkin – aks holda uning xulqini tartibga solish boshqacha bo‘lishi mumkin. Bu holatda vaziyat va uning oqibatlarini shaxs tomonidan amalga oshirilgan mustaqil axloqiy-aksiologik tahlil natijalariga ishonish mumkin emas: ular avval boshdanoq jamiyat uchun salbiy natija olib kelishi mumkin. Bu holatda deontologiya axloqni yutib yuboradi (“Deontologiya, yoki axloq to‘g‘risidagi fan”, I.Bentam) va insonni o‘z shaxsiy qarashlariga qarshi, biroq jamiyat farovonligi uchun harakat qilishga majbur qiladi.

Inson tabiatan marhamatli ham emas, yovuz ham emas, aniqrog‘i u bir vaqtning o‘zida ham marhamatli, ham yovuz bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda u yaxshilik va yomonlikni yetarli tajriba bilan ajrata oladi, ayrim holatlarda esa – xato qarashlarni tanlashi mumkin. Bundan tashqari, har bir inson shaxs sifatida muayyan jamiyatda shakllangan va bu jarayonda u yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi tasavvurlarni o‘zlashtiradi. Muayyan xulqiy stereotiplarni o‘ziga singdiradi. Jamiyatda inson xulqi tartibga soluvchisi sifatida nafaqat ijtimoiy, guruhgaga oid va individual axloq mavjud – shuningdek, qonunchilik, diniy me’yorlar, urf-odatlar, an’analar ham mavjud. Inson ijtimoiy qadrga ega bo‘lgan harakatlarni shaxsiy fikrlari yoki mazkur tartibga soluvchilarga ergashgan holda, o‘z tabiatiga qarshi chiqmagan ravishda sodir etishi mumkin. Ayni vaqtda u o‘z shaxsiy fikrlariga ergashgan holda, ijtimoiy foydaga qarshi chiqqan, shaxsiy foydasini ko‘zlagan holda axloq qoidalariga xilof ravishda harakat qilishi mumkin.

I.Kantning axloq nazariyasi g‘arb falsafasida falsafaning eng muhim qisimi bo‘lgan deontologik etika sifatida ifodalanadi. Olimlar I.Kantni faqatgina majburiyatlarni aniqlash jarayoni sifatida majburiyatlar ro‘yxatini keltirmagan holatdagina ma’qullaydilar. Kantning deontologik nazariyasi axloqiy nazariyalarga bag‘ishlangan

zamonaviy munosabatlarda ham qiziqishlarga sabab bo'lib kelmoqda va eng muhimi, biotibbiy axloqda ko'p sonli dalillarning asosiy tuzilmasini tashkil etadi.

Birinchidan, I.Kant, xatti-harakat o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida yoki uning real oqibatlari natijasida emas, balki burchdan kelib chiqqan holda (ya'ni, agar uni ma'naviy majburiyat, deb anglaganliklari sababli) amalga oshirilgandagina maqtovga loyiq bo'ladi, deya ta'kidlagan.

Ikkinchidan, uning fikriga ko'ra, xatti-harakat universal tarzda ta'sir ko'rsatuvchi va shu sababli oqilona hisoblangan qoidada nazarda tutilgan holdagini ma'naviy majburiyat hisoblanadi. Masalan, va'dani buzish har doim noto'g'ri harakat, deb hisoblangan, chunki agar barcha odamlar va'dalarni buzish mumkin, deb hisoblaydigan bo'lsalar, hech bir inson va'dalarni jiddiy qabul qilmagan va bu bilan va'dalarni bajarishning butun institutini yo'q qilgan bo'lar edi. Ushbu fikrni boshqacha ifodalash mumkin: harakat I.Kant tomonidan "sen har doim irodangning barcha uchun taalluqli bo'lishini istagan yuqorisiga ko'ra harakat qil", degan qat'iy imperativ, deb nomlangan qoidaga muvofiq ravishda amalga oshirilganda to'g'ri hisoblanadi. U prinsipni "gipotetik" imperativlardan farqlash maqsadida "qat'iy" deb nomlaydi. "Gipotetik" imperativlar bizga baxt kabi muayyan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirishni aytib turadi. Mazkur prinsip "imperativ" hisoblanadi, chunki u buyruq (majburlash) demakdir.

Aytaylik, masalan, shifokor bemorga garchi bunday emasligini bilsa-da, u jiddiy kasal ekanligini aytadi. Bu uning uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki davolash va soxta sog'ayish uning daromadini va nufuzini oshiradi. Uning harakatlari yuqori darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin: "Har safar qabulimga sog'lom bemor kelganida men unga yolg'on gapiraman va unga jiddiy kasal ekanligini aytaman".

I.Kantning fikriga ko'ra, bu kabi mulohazalar har doim yolg'on gapirish noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Yolg'on biz istagan narsalarga zid holatlarni keltirib chiqaradi. Bir tomonidan biz odamlar biz gapirgan

narsalarga ishonishlarini istaymiz, bunga sabab ular bizning va'dalarimiz va fikrlarimizni qabul qilishlari. Boshqa tomondan biz odamlar yolg'on so'z va yolg'on va'dalar berishda erkin bo'lishlarini istaymiz. Yolg'on o'z-o'zini yo'q qiluvchi kuchga ega.

Tibbiy davolashga tegishli bo'lgan muammolarni o'rganishda va tadqiq qilishda axloqning I.Kant tomonidan keltirilgan to'rtta o'ziga xos jihatlari muhim ahamiyatga ega:

➤ Oqibatlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, yolg'on gapirish har doim noto'g'ri;

➤ Biz har doim odamlarga maqsad sifatida munosabatda bo'lishimiz va hech qachon vosita sifatida qaramasligimiz lozim;

➤ Xatti-harakat qat'iy imperativni qondirganda to'g'ri hisoblanadi;

➤ Amalga oshirilgan va oshirilmagan ma'naviy majburiyatlar muayyan huquqlar tan olinishi lozim, degan da'veoni ilgari surishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur jihatlar axloqiy muammolarni hal etishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ikkita misol keltiramiz.

Tibbiyot tadqiqotchilar bemorlarga ularni tibbiy tadqiqotlarning bir qismiga aylantirmoqchi ekanliklarini aytishlari lozim bo'limganda, ularning vazifalari birmuncha yengilroq bo'lar edi. Bu holatda bemorlar bu haqda bilmagan holda obyektlarga aylanar va ular uchun xavf darajasi eng kam miqdorda bo'lar edi.

I.Kant prinsiplariga ko'ra, mazkur jarayon, garchi u ochiqdan-ochiq yolg'ondan iborat bo'lmasa ham, noto'g'ri bo'lar edi. Hattoki eng yaxshi oqibatlar ham mazkur harakatni ma'naviy jihatdan oqlay olmaydi. Shunday qilib, bemor tibbiy tajriba obyektiga aylanish uchun ixtiyor va to'liq ma'lumotga ega bo'lgan holda rozilik berishi lozim.

I.Kant etikasini tibbiy jihatdan qo'llashning ikkinchi turi bemorlar hamda tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga tegishli. Masalan, shifokor insonni bemor deb tan olish kabi nomukammal burchga ega. U kasallarni davolash uchun o'z amaliy bilimlari va

ko'nikmalaridan foydalanish burchiga ega, biroq bemor qonuniy jihatdan benefitsiar bo'lishni talab qila olmaydi. Shifokor o'z burchini qanday bajarishi uning qarori hisoblanadi.

Biroq, agar inson bemor deb tan olinsa, u ayrim huquqlarini da'vo qilishi mumkin. Unga ma'nosiz ravishda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hech bir ish qilinmasligini talab qilishi mumkin. Bundan tashqari u unga yolg'on gapirmasligi yoki umuman uni aldamasliklarini talab qilishi mumkin.

Masalan, bemorga platsebo (zararsiz, biroq hech bir ta'sir ko'rsatmaydigan dori vositasi) berishdi va bu kuchli ta'sir ko'rsatuvchi va samarali dori vositasi, deb aytdilar. Yoki, aytaylik, biopsiya, bemorda saratonning jarrohlik yo'li bilan ham tuzatish imkonи bo'limgan shakli mavjud ekanligini ko'rsatmoqda, biroq shifokor unga: "Sizda hech bir jiddiy kasallik yo'q", deb aytadi.

Har ikki holatda ham bemor shifokor "mening shaxsiy foydam uchun" meni aldayapti, deb hisoblashi mumkin. Biroq, agar bemor aldansa, u holda uning ajralmas maqomi – qadr-qimmati inkor qilingan bo'ladi. Yolg'on bemorni avtonomlikdan, qaror qabul qilish va shaxsiy fikrini shakllantirish imkoniyatidan mahrum qiladi. Natijada bu kabi yolg'on bemorni insonparvarlikdan uzoqlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan misollar I.Kant etikasi tibbiy tajriba va amaliyotda yuz berishi mumkin bo'lgan ayrim axloqiy ziddiyatlarni hal etish imkoniyatini yaratadi. Kant axloqi bizni shubhalar va jur'atsizlikdan himoya qiladi: biz bilamizki, buning natijasida qanday yaxshilik kelishidan qat'i nazar, biz hech qachon yolg'on gapirmasligimiz lozim. I.Kantning qat'i (kategorik) imperativi adolatga ayrimlarni boshqalar farovonligi yo'lida qonuniy ravishda ekspluatatsiya qilish imkoniyatini to'laqonli ravishda inkor qiluvchi huquq ustuvorligini alohida ta'kidlagan va unga teng erkinlik prinsipi

ko‘rinishini taqdim qilgan holdaadolat prinsipini yaxshiroq asoslab beradi¹.

Shubhasiz, inson tabiatining bu kabi ikki turliligini e’tiborga olgan holda etika va deontologiyani bir-biridan ajratish mumkin emas, xuddi ularni birlashtirish va analog deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lgani kabi. Xulqning ijobji, ijtimoiy ma’qullangan narsalar haqidagi fikrlarga mos kelishi, ushbu ijtimoiy farovonlik individual farovonlikka mos keladimi yoki yo‘q ekanligidan qat’i nazar, uni tahsil qilish va ijtimoiy farovonlik mezonlari bilan qiyoslash asosida belgilanadi. Inson xulqi va faoliyat qanchalik yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmashin, xulq me’yorlari kafolatlari shunchalik ishonchli bo‘lishi lozim. Shu sababli deontologiya – bu har qanday axloqiy tizim o‘zagi hisoblanadi, chunki munosib xulq shaxsga nisbatan qo‘yiladigan tashqi talablarni, ular shaxsning individual talablari tomonidan ma’qullanganmi yoki yo‘qligidan qat’i nazar, bajarilishini kafolatlaydi.

Deontologiya shuningdek, kasbiy axloqiy tizimda ham markaziy o‘rinni egallab turadi, biroq kasbiy faoliyat turi, mohiyatiga ko‘ra rasmiy muqarrarlik “ulushi” turlicha bo‘lishi mumkin. Kasbiy faoliyatning natijalari qanchalik yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy faoliyatning jamiyat hamda aniq shaxslarning taqdiri, farovonligiga ta’siri qanchalik yuqori bo‘lsa, mutaxassis xulqi, munosabatlari va faoliyatining shunchalik ko‘p qismi deontologik prinsiplar yordamida tartibga solinishi mumkin. Shu bilan birga, yuqorida keltirilganlar, faoliyatining deontologiya tomonidan tartibga solinishi mumkin bo‘lgan qismi yoki umuman faoliyat har doim shaxsning manfaatlari, intilishlariga zid bo‘ladi, degani emas. Ular bir-biriga mos kelishi va munosib xulq nafaqat o‘zining yakuni, balki jarayonning o‘zi bilan ham shaxsga qoniqish hissini taqdim qilishi mumkin.

¹ Powers, TM (2014). Deontology. // Carl Mitcham The Encyclopedia of Science, Technology, and Ethics, ed. Carl Mitcham, Gale Group Publishing Detroit [Mich.]: Macmillan Reference USA, 2005. (Fragment). – P.2-5.

8.2. Kasbiy burch va kasbiy mas'uliyat tushunchalari, ularning mazmuni va mohiyati

Deontologiyaning asosiy toifasi burch (yunon tilida deon) hisoblanadi. Birinchi marotaba burch tushunchasi urf-odat, odatiy xulqqa amal qilish zarurati sifatida ifodalagan Arastu tomonidan o'rGANILGAN.

Bugungi kunda burch – bu eng muhim axloqiy toifa hisoblanadi. U ichki kechinmalar sifatida namoyon bo'lувчи hamda axloqiy qadriyatlardan va o'z turmushini mazkur talablarga muvofiq ravishda qurishdan kelib chiquvchi talablarga muvofiq ravishda harakat qilishga majburlashni ifodalaydi¹. To'g'ri tartibga solishni har doim ham amalga oshirish imkoniyati mavjud emas, buni faqatgina inson xulqi, xatti-harakatlar, munosabatlarining turli ko'rinishlari o'rtasida tanlash imkoniyati mavjud bo'lgandagina amalga oshirish mumkin. Burch shaxsning bevosita xatti-harakatni tanlash, shuningdek, insonni ijtimoiy va individual ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga yo'naltirish jarayonidagi axloqiy tafakkurini qamrab oluvchi mexanizmini ifodalaydi.

Burch talablarida u yoki bu guruh yoki shaxsning manfaatlari o'z aksini topadi. Mazkur manfaatlarni anglash va boshdan kechirish, ularni individning shaxsiy manfaatlarini umumiyl manfaatlardan ajratib olish burch hissining paydo bo'lishi va anglanishiga olib keladi. Darhaqiqat, tafakkur va burch tuyg'usi insonning jamiyatga, guruhga bog'liq ekanligini ifodalaydi, chunki burchning mohiyati, odatda, shaxs tabiatiga nisbatan tashqi tabiatga ega bo'ladi. Shu sababli burch inson xulqini jamiyat yoki guruh tomonidan tartibga solish shakli, uning xulqi va faoliyatini axloqiy jihatdan baholash shakli sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu shaxs uchun munosib xulq odatiy bo'lib qolishi, uning moyilliklari, qarashlari va hokazolarga muvofiq bo'lishi mumkin.

¹ См.: Философский энциклопедический словарь. Ред.-сост. Губкин Е.Ф., Кораблева Г.В., Лутченко В.А. – Москва: ИНФРА-М, 2000. – С. 143.

Axloqiy burch mohiyati ideal tasavvur sifatida obyektiv oqillik, ayrim hollarda shaxsning hissiy moyilliklari, uning hissiyotlariga zid ravishda shakllanadi. U o‘z-o‘zini majburlashni qamrab oladi, chunki u obyektiv, axloq qonunlaridan kelib chiqadi, har doim ham shaxs qarashlari va uning moyilliklariga mos kelavermaydi. Munosib xulq, ya’ni deontologik prinsiplarga muvofiq xulq shaxs o‘z shaxsiy subyektiv ehtiyojlarini obyektiv zarurat bilan qiyoslagan holda oxirgisini tanlagan va burchini bajarish uchun o‘z faolligini amalgalashirgan holda o‘rinli bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsga nisbatan tashqi, obyektiv zaruratga asoslangan holda munosib xulq oxir-oqibat ichki sabablar asosida determinatsiya qilinadi. Boshqa so‘zlar bilan aytadigan bo‘lsak, burch obyektiv zarurat va insonning subyektiv faolligining dialektiv birligini qamrab oladi. Shu sababli xulqni deontik yoki deontologik tartibga solish axloqiy ehtiyojlarni emas, balki axloqiy tafakkurning teran qatlamlarini ifodalaydi.

O‘z-o‘zini majburlash munosib xulqni amalgalashirish mexanizmi sifatida munosib xulq har doim ham faqatgina shaxsning salbiy hissiyotlari yoki boshqa salbiy tuyg‘ulari bilan birga kechadi, degani emas. I.Bentamga ko‘ra, burchni bajarish, o‘zini qurban qilish jarayonining haqiqiy foydaliligi sifatida namoyon bo‘lish nuqtayi nazaridan lazzatlanishning manbalaridan biriga aylanishi mumkin.

Shaxsning o‘z faoliyati natijalari uchun biror kimsa oldidagi (jumladan, o‘z oldidagi) mas’uliyati faoliyatning o‘zi davomida, unga ijtimoiy, professional va guruhga oid qadriyatlarning taqdim qilinishi natijasida shakllanadi. Mas’uliyat shaxsning axloqiy faoliyatining uning imkoniyatlari nuqtayi nazaridan uning burchiga mos ekanligini ifodalaydi. U faoliyatning kechishini, jarayon yoki hodisaning holatini zamонавија jihatdan tuzatish maqsadida aralashuvni ta’minlash maqsadida rasmiy va norasmiy tarzda nazoratni amalgalashirishda namoyon bo‘ladi. Shaxsning faoliyat jarayonining kechishini tashqi, rasmiy nazorat qilishi asosan jarayonning zarur mezonlariga amal qilishga yo‘naltirilgan, ayni vaqtida ichki, norasmiy nazorat asosan o‘z

faoliyatini burch hissiga muvofiq ravishda tartibga solishdan iborat. Shaxsning o‘z-o‘zini faoliyatning faol subyekti sifatida identifikatsiya qilinishi faoliyatning yakuniy natijasi uning individual faolligiga bog‘liq ekanligini hal etuvchi subyektiv tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida shaxsni qo‘yilgan maqsadga erishishi uchun qo‘srimcha vositalardan foydalanishga, ayrim hollarda sog‘lom fikrga zid ravishda qo‘srimcha sharoitlar yaratishga undaydi.

Britaniyalik faylasuf Rossning (Ser Devid) so‘zlariga ko‘ra, bizning ma’naviy majburiyatlarimiz universal emas va universal amaliy idrokni muqarrar ravishda cheklamaydi. Aksincha, ular shartli yoki oraliq ravishda, biz boshqalar: qo‘sni, do‘sni, ota-oni, qarzdor, ham fuqaro va shu kabilar bilan kirishishimiz mumkin bo‘lgan turli munosabatlardan kelib chiqqan holda harakat qilishimiz lozim. Biz bu majburiyatlarni o‘z tabiatimizda mavjud munosabat, yoqtirish kabilarga asoslangan holda, ma’naviy refleksiya orqali qabul qilamiz. Rossning fikriga ko‘ra, ma’naviy va ma’naviyatsiz munosabatlar o‘rtasida yengib bo‘lmas farq mavjud. Faqatgina ikkita ma’naviy xususiyatlar – to‘g‘rilik va ezhulik mavjud va bu xususiyatlarning o‘rnini bosish, yoki boshqa xususiyatlar atamalari yordamida ifodalash imkoniyati mavjud emas. Xatti-harakat “to‘g‘ri” ekanligini aytish, utilitarizm taklif qilganidek, “u qoniqishga sabab bo‘ladi” yoki “baxtiyorlik darajasini oshiradi”, degani emas.

Biroq Ross ma’naviyilik va ma’naviyatsizlik xususiyatlari o‘rtasida aloqa mavjud ekanligini ham inkor qilmaydi. U inkor qiladigan narsa – bu ular bir-biriga aynan teng bo‘lishi mumkinligi imkoniyatidir. Kimningdir azoblarini yengillashtirish to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq to‘g‘rilik har doim ham azobni yengillashtiradi degani emas. Ross shuningdek, biz ko‘pincha vaziyat haqida to‘g‘ri ma’naviy mulo-hazalarni aytishimizdan avval, u haqidagi ko‘plab ma’naviyatsiz ma’lumotlarni bilishimiz mumkin ekanligini ham inkor qilmaydi. Agar men kimadir dori yuborayotgan shifokorni ko‘rib turgan bo‘lsam, men u qanday dori yuborayotganligini bilmasdan turib, u to‘g‘ri yoki

noto'g'ri harakat qilayotganligini ayta olmayman. To'g'rilik qisman vaziyatni ifodalovchi ma'naviyatsiz xususiyatlarga bog'liq ekanlik xususiyatidir. Men qanday ma'naviyatsiz xususiyatlar mavjud ekanligini aniqlamasdan turib, shifokorning xatti-harakatlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ayta olmayman.

Ross biz to'g'rilik yoki ezgulik xususiyati mavjudmi yoki yo'qmi ekanligi to'g'risidagi haqqoniy shubhalarga ega bo'limgan vaziyatlarning mavjud ekanligini inkor qilmaydi. Dunyo shafqatsizlik, yolg'on va xudbinlikka to'la va bu holatlarda biz to'g'rilik yoki ezgulikning mavjud emasligini to'liq anglaymiz. Biroq shu bilan birga dunyo to'g'rilik va ezgulik aniq mavjud bo'lgan hamdardlik, vafodorlik va oljanoblik kabi xislatlar bilan ham bog'liq. Rossning ta'kidlashicha, bizning bu kabi vaziyatlarga oid tajribamiz, xuddi uchburchak uchta burchakka ega degan matematik haqiqatni anglashimiz kabi anqlik va ishonchilik darajasida to'g'rilik va ezgulikni ham bilish imkoniyatini taqdim qiladi. Bundan tashqari, bizning ko'plab individual vaziyatlarga nisbatan to'plangan tajribamiz bizni "keraksiz og'riq yetkazilishiga sabab bo'lish noto'g'ri", kabi umumiy fikrning to'g'ri ekanligini anglash imkoniyatiga ega qiladi.

Bizning axloqiy intuitsiyalarimiz bizni umumiy tabiatga ega bo'lgan ma'naviy qoidalari bilan ta'minlashi mumkin. Biroq Ross ushbu qoidalarni mutlaq, deb tan olishni inkor qiladi. Ular Ross uchun faqatgina bizga nima qilishimiz lozim ekanligini hal etishimizda yordam beruvchi namunalar sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan holatlardir. Oxir-oqibat, har bir alohida vaziyatda biz nafaqat qoidalarga, balki aql va bizning vaziyatni anglashimizga asoslanishimiz lozim.

O'lim yoqasida turgan bemorga uning ahvoli to'g'risida yolg'on ma'lumot berish to'g'rimi, degan muammoni ko'rib chiqamiz. Biz, agar unga yolg'on gapiradigan bo'lsak, uning azoblarining qandaydir qismini yengillatishimiz mumkin ekanligini taxmin qilishimiz mumkin. Biroq, boshqa tomondan, biz unga haqiqatni aytgan holda axloqiy

jihatdan to‘g‘ri harakatni amalga oshirsak, biz uning bizga bo‘lgan ishonchini yo‘qotamiz.

Bu kabi vaziyatlarda biz axloqiy majburiyatlarimiz bilan ziddiyatlarga kirishishimiz mumkindek, bo‘lib ko‘rinadi. Nizolarning bu kabi odatiy turlari natijasida Ross “doimo rost gapir” va “doimo ortiqcha azoblarni bartaraf qil” kabi qoidalalar mutlaq, invariant qoidalarni tadqiq qilish imkoniyatini inkor qiladi. Yuqoridagi holatlar kabi vaziyatlarda biz har ikki qoida ham o‘z-o‘ziga zid bo‘limgan holda mutlaq bo‘lishi mumkin, deb taxmin qilishimiz mumkin emas. Rossning ta‘kidlashicha: biz har qanday qoidalarda istisno bo‘lishi va ayrim vaziyatlarda ular bekor qilinishi lozimligini to‘liq anglashimiz zarur¹.

Burch ijtimoiy ish deontologiyasining asosiy toifasi hisoblanadi. Mutaxassis burchining mazmuni va mohiyati, deontologiyaning ijtimoiy ishning kasbiy axloqiy tizimdagи o‘rnи va roli mazkur sohadagi asosiy yo‘nalishlardan birini tashkil etadi. Mutaxassisning xulqi va harakatlarida ma’naviy va kasbiy tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi aynan deontologiyada yorqin ifodalangan.

Ijtimoiy ishda kasbiy burch tushunchasini kiritish juda zarur, chunki uning mijozining taqdiri, hamkasblari, kasbining muvaffaqiyati, shuningdek, bilvosita jamiyat va davlat taqdiri ko‘p jihatdan mutaxassis faoliyatiga bog‘liq. Bundan tashqari, ijtimoiy xodimning barcha majburiyatları ham uning uchun maqbul bo‘lmasisligi mumkin. Mutaxassis vaziyatga oid ravishda faoliyatining u yoki bu turini bajarishga u yoki bu mijoz bilan muloqot qilishga moyil bo‘lishi mumkin va hokazo. Shunday qilib, mijoz kasb hamkasblar mutaxassisning bu kabi xususiyatlariga, uning moyilliklariga, kayfiyatiga bog‘lanib qolmasliklari lozim. Yuqorida keltirilgan bu kabi sabablardan qat‘i nazar, mijoz bilan o‘zaro munosabatlar sifatli va professional darajada tashkil etilishi lozim. Demak, ma’lum

¹Powers, TM (2014). Deontology. // Carl MitchamThe Encyclopedia of Science, Technology, and Ethics, ed. Carl Mitcham, Gale Group Publishing Detroit [Mich.]: Macmillan Reference USA, 2005. (Fragment). – P.5-6.

vaziyatlarda mutaxassis o'zini mazkur faoliyatni amalga oshirishga majburlashi zarur.

Mutaxassisning o'z-o'zini majburlashining ichki kechinmalari sifatida namoyon bo'luvchi, hamda uni kasbiy axloqiy tizim talablariga ko'ra harakat qilishga va o'z kasbiy faoliyati, munosabatlari va harakatlarini mazkur talablarga muvofiq ravishda qurishga yo'naltiruvchi burch me'yoriy xulqni ta'minlash imkoniyatiga ega. Tegishli tarzda tartibga solish har doim ham emas, balki faqatgina mutaxassis xulqi, harakatlar, munosabatlarning turli variantlari o'rtasidan tanlashi lozim bo'lgan holatda turganidagina o'rinni bo'lishi mumkin. Masalan, hissiyotlar, moyillik, manfaatlari ko'proq darajadagi lazzatlanish yoki kamroq darajadagi individual hissiy kechinmalarni va'da qiluvchi nome'yoriy xulq variantini taklif etadi, ayni vaqtida faoliyat manfaatlari mutaxassis to'laqonli ravishda burch talablariga bo'ysunishini talab etadi. Mazkur jihatdan burch mutaxassisning axloqiy tafakkurini bevosita xatti-harakatlarni tanlash jarayoniga qamrab oluvchi va ijtimoiy hamda individual ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishish nuqtayi nazaridan maqbul bo'lgan qarorni belgilab beruvchi mexanizmni aks ettiradi.

Nazorat savollari:

1. Burch va munosib xulq to'g'risidagi ta'limot sifatidagi deontologiya.
2. Professional ijtimoiy ish axloqiy qadriyatlarida deontologianing o'rni va roli.
3. Deontologiyaning asosiy toifalari.
4. Burch va vijdon o'zi nima?

9-BOB. ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI VA KONSYUMERIZM

- 9.1. Iste'molchilar huquqlari: amaliyot kodekslari va konsyumerizm (iste'mol).
- 9.2. Ijtimoiy ish mijozlari shaxs, fuqaro va xizmatlar iste'molchilari sifatida.
- 9.3. Advokatlik qilish. Mijozni imkoniyatlar bilan ta'minlash.

9.1. Iste'molchilar huquqlari: amaliyot kodekslari va konsyumerizm (iste'mol)

Iste'molchi – bu har qanday mahsulotlarni pulini to'liq to'lash yoki qisman to'lash yoki va'da qilish orqali sotib oluvchi, yoki kechiktirilgan to'lov tizimi yordamida sotib oluvchi har qanday shaxsdir, biroq bu kabi mahsulotlarni olib sotish yoki har qanday tijorat maqsadlari uchun sotib oluvchi shaxs iste'molchi hisoblanmaydi¹.

Individga tegishli huquq. Kant falsafasidan kelib chiqadigan bo'lsak, agar biz shaxsga nisbatan hurmatni namoyon qilsak, u holda biz uning huquqlarini tan olgan hisoblanamiz. Huquqning turli ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin – salbiy huquqlar va ijobjiy huquqlar. Salbiy huquq – bu nimanidir hech bir cheklovlarsiz, erkin tarzda bajarish (masalan, so'z erkinligi). Ijobjiy huquq – bu kimgadir qarshi nimanidir amalga oshirish talabi demakdir (masalan, tibbiy aralashuv). Bundan tashqari, qonuniy huquqni, ya'ni kodeksda belgilan huquqni (masalan, ovoz berish huquqi) va ma'naviy huquqni – axloqiy kodeks bilan belgilangan huquq (masalan, vijdonan ko'rsatilgan xizmatdan foydalanish huquqi).

Ayrim mualliflar iste'molarning ijtimoiy ishda o'rab turuvchi huquqlarining barcha tomonidan qabul qilingan ro'yxatini ajratib ko'rsatadilar.

¹ Consumer Protection - Problems and Prospects.pdf Electronic copy available at: <http://ssrn.com>. – P. 1.

Masalan, mijozning qaydlar, qarorlar qabul qilish jarayoni, shikoyat qilish kabilardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlovchi axloqiy kodeks va jarayonlarning rivojlantirilishidan maqsad mijozga imkoniyatlar taqdim qilishdan iborat. Biroq jarayonlarning o'zi tanlov huquqiga ega bo'lgan mijozga nisbatan teng huquqli fuqaro yoki xizmat iste'molchisi sifatida hurmat ko'rsatilishini kafolatlamaydi – bu ijtimoiy xodimning mijozga ta'lif berish va uni zarur manbalar bilan ta'minlashdan iborat.

Iste'molchi sifatida siz vaqtı-vaqtı bilan mahsulotlar va xizmatlardan foydalanib turishingiz lozim. Ayrim holatlarda yetkazib beruvchilar o'ta past sifatli mahsulotlar va xizmatlarni taqdim qilishlari mumkin. Bu kabi holatlarni har qanday iste'molchi bir o'zi to'xtatish imkoniyatiga ega emas. Agar iste'molchilar bir-birlari bilan xabarlashgan holda bu kabi holatlarga qarshi chiqsalar, bu kabi noqulayliklarni cheklash imkoniyati paydo bo'ladi. Iste'molchi huquqlarini himoya qilish uchun iste'molchilar mustaqil harakat qilishlari lozim.

Iste'molchilik deganda ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, dillerlar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan iste'molchilarga nisbatan adolatlì va halol (axloqiy) harakatlarni ta'minlash tushuniladi. Bu harakatni alohida iste'molchilarning individual faolligi sifatida va iste'molchilar uyushmalarining iste'molchilarning noqonuniy bozor faoliyatidan xabardorligini ta'minlash hamda o'z manfaatlarini himoya qilish yo'llari va vositalarini topishga urinish sifatida ifodalash mumkin.

Bugungi kunda iste'molchilar bozordagi raqobat, noto'g'ri reklama, tovar va xizmatlar darajasining pastligi va boshqalar sababli turli xil muammolarga duch kelmoqdalar, shuning uchun iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hukumat hamda davlat hokimiyati organlari uchun jiddiy muammoga aylanmoqda. Bu iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilishdir, hukumat iste'molchilarning ma'lum huquqlarini tan olgan. Iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida hukumat iste'molchilarning muayyan huquqlarini tan olgan.

Boshqa so‘zlar bilan aytadigan bo‘lsak, agar iste’molchilar o‘zlarini ekspluatatsiya qilish yoki aldanishdan himoya qilmoqchi bo‘lsalar, ular o‘zlarining muayyan huquqlaridan foydalangan holda tovar sotuvchilari va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar ular bilan munosib muomalada bo‘lishlarini ta’minlashlari zarur. Iste’molchilar huquqlaridan biri – bu tanlash huquqidir.

➤ Xavfsizlik huquqi. Iste’molchilar o‘zlarini sog‘liq va hayot uchun zararli mahsulotlarni sotib olishdan himoya qilish huquqiga ega. Agar siz iste’molchi sifatida ushbu huquqni bilsangiz, zararlanishning oldini olish uchun ehtiyyot choralarini ko‘rishingiz mumkin, biroq ehtiyyot choralariga qaramay zarar yetkazilsa, siz dilerga qarshi shikoyat arizasi yozishingiz va hatto tovon puli talab qilishingiz ham mumkin. Masalan, siz biron bir dori sotib olgan bo‘lsangiz, dorixona uni sotadi va agar dori zararli bo‘lsa, dorixona buning uchun javobgar bo‘lishi mumkin. Xuddi shu kabi, agar gaz baloni ovqat pishirish uchun qo‘llanilsa, undan foydalanish davomida siz undan gaz sizib chiqmayotganligini tekshirib ko‘rishingiz zarur. Agar gaz haqiqatan ham sizib chiqayotgan bo‘lsa va bu holat yong‘in yoki kimningdir jarohatlanishi yoki o‘limiga sabab bo‘lsa, u holda gaz yetkazib beruvchi badal to‘lashga majbur bo‘ladi.

➤ Ma’lumot olish huquqi. Iste’molchilar, shuningdek, har qanday mahsulot yoki xizmatni sotib olishdan avval to‘g‘ri tanlov qilishlari uchun tovarlarning miqdori, sifati, tozaligi, standarti yoki navi va narxi to‘g‘risida ma’lumot olish huquqiga ega. Bundan tashqari, agar zarur bo‘lsa, iste’molchiga mahsulotdan foydalanish davrida jarohat olishi yoki shikastlanishining oldini olish maqsadida uchun mahsulotdan foydalanish jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan ehtiyyot choralarini to‘g‘risida ma’lumot berish zarur. Yuqoridagi kabi, gaz balonni misol qilib keltiradigan bo‘lsak, yetkazib beruvchi foydalanuvchiga gazdan foydalanilmaganda gaz oqimini regulator yordamida to‘xtatish lozim ekanligidan xabardor qilishi lozim.

➤ Tanlash huquqi.

➤ Tinglanish huquqi. Ushbu huquqning uchta izohi mavjud. Qo'pol qilib aytganda, bu huquq iste'molchilar o'z manfaatlariga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qilinishida hukumat va davlat organlariga maslahat berish hamda iste'molchilarning manfaatlariga oid siyosatni yoqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, iste'molchilar nima ishlab chiqarilayotgani, dilerlar va reklama beruvchilar nimalarni reklama qilayotganlari, ishlab chiqarish va marketing qarorlari to'g'risida xabardor bo'lish, o'z fikrlarini bayon qilish huquqiga ega. Uchinchidan, iste'molchilar shikoyatlar bilan ishlash bo'yicha sud eshituvlarida, shuningdek, sud jarayonlarida tinglanish huquqiga ega.

➤ Zararni qoplashni talab qilish huquqi. Har qanday iste'molchidaadolatsiz savdo, narxlarning balandligi, sifatsiz va zararli mahsulotlarni sotish, xizmatlarni taqdim qilishda uzviylikning mavjud emasligi, soxta nuqsonli mahsulotlarni sotish bo'yicha shikoyat yoki da'volari mavjud bo'lsa u huquqiy himoya vositalaridan foydalanishni talab qilishi mumkin.

➤ Iste'molchilarning ta'lim olish huquqi. Iste'molchilar huquqlarini suiste'mol qilish va ekspulatatsiya qilishning oldini olish maqsadida iste'molchilarga ma'lumot taqdim qilish va ularni o'z huquqlari haqida ta'lim berish talab etiladi. Mazkur maqsadda iste'molchilar uyushmalari, ta'lim muassasalari va hukumat siyosiy organlari iste'molchilarga ma'lumot olish vaadolatsiz savdo amaliyotlarini bartaraf qilishga qaratilgan tegishli qonunlardan xabardor bo'lishlari uchun imkoniyat yaratadilar. Ko'plab iste'molchilar organlari tomonidan iste'molchilarni risolalar, jurnallar va plakatlar orqali xabardor qilish uchun dastlabki qadamlar ancha avval qo'yilgan. Ushbu muammoni hal etishda televizion dasturlar ham samarali rol o'ynaydi¹.

9.2.. Ijtimoiy ish mijozlari shaxs, fuqaro va xizmatlar iste'molchisi sifatida

Zamonaviy ijtimoiy ishda yangi professionalizm ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasida muvozanatni mijoz huquqlarini birlashtirish, mijozning uning hayotiga oid bo'lgan barcha qarorlarning qabul qilinishidagi ishtirokini oshirish yo'li bilan o'rnatish sifatida tushuniladi. Yangi professionalizm xizmatlarning passiv iste'moli g'oyasini mijoz ishtiroki va huquqlari g'oyasiga qarshi qo'yadi.

Konsyumerizm – maqsadi iste'molchilarini samarali himoya qilishdan iborat bo'lgan jamoa harakati. AQSHda 60-yillarda keng tarqalgan mazkur harakatning asoschisi va tashkilotchisi R.Neyder bo'lgan. Yangi konsyumerizm ijtimoiy xodimni baholash, qo'llab-quvvatlash rejasini qandaydir standartlar va mezonlarga muvofiq ravishda tuzishni qamrab oluvchi xizmatlar "prodyuseri" sifatida ifodalaydi. Amaliyotda yangi professionalizmni yangi konsyumerizmdan ajratish murakkab. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik muammolari orasida aholining sifatli hayotiy ne'matlarni iste'mol qilishni ta'minlash bo'yicha huquqlarini ta'minlash muammosi asosiy va jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Uning amaliy yechimi ko'p jihatdan hayot sifatini, fuqarolarning real farovonligi darajasini oshirishni belgilab beradi va davlatning ijtimoiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tomonidan inson huquqlarini, jumladan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish muammosi uzoq tarixga ega. Iste'molchi iqtisodiy va bozor munosabatlari tizimida muhim bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqaruvchisi (yetkazib beruvchi, sotuvchi) va iste'molchi o'rtasida doimo ziddiyatlar mavjud bo'lgan, ularni uchinchi tomon – davlat tartibga solishga uringan. Ushbu urinishlar mahsulot va xizmatlar sifati hamda xavfsizligini qonunlarni ishlab chiqish yo'li bilan tartibga solishga urinishdan iborat bo'lgan.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdan maqsad, birinchidan, iste'molchilarni iste'mol bozorida mavjud bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar haqida xabardor qilish, ikkinchidan, huquqlari cheklangan holatda iste'molchini bu haqda ogohlantirishdan iborat. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"¹gi Qonunida iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega ekanliklari ko'rsatib o'tilgan:

mahsulot (faoliyat, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqidagi aniq va to'liq ma'lumot olish;

erkin tanlov va mahsulot (faoliyat, xizmat)ning tegishli sifati;

mahsulot (faoliyat, xizmat)ning xavfsizligi;

nugsonli mahsulotlar (faoliyat, xizmat), shuningdek, mahsulot ishlab chiqaruvchisi (ijrochi, sotuvchi)ning noto'g'ri harakati (harakatsizligi) tufayli hayot, salomatlik va mol-mulkka yetkazilgan ma'naviy zarar, moddiy ziyonning o'rmini to'laqonli ravishda to'ldirish;

sud, boshqa vakolatli davlat organlariga buzilgan huquqlar yoki qonun bilan himoyalangan manfaatlarni himoya qilish maqsadida murojaat qilish;

iste'molchilarning ijtimoiy uyushmasini yaratish.

Iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga kiritilgan alohida guruhlari uchun qonunchilik tomonidan savdo, maishiy va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari sohasida imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Zamonaviy "konsyumerizm" tushunchasi jamoatchilik va davlat organlarining iste'molchilarning mahsulotlar, faoliyat, xizmat ishlab chiquvchilari va yetkazib beruvchilari bilan o'zaro munosabatlaridagi huquq va imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash butunjahon harakatini anglatadi. Iste'molchilik huquqlarini himoya qilish – bu inson huquqlarini himoya qilishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

¹ Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей». №221-І от 26.04.1996.
<https://www.lex.uz/acts/14643>

Konsyumerizm – bu yakuniy iste'molchilarining o'z huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan faoliyat. Bu tushuncha “iste'molchi mustaqilligi” tushunchasining o'rniga kelgan holda 60-yillarda o'rtafiga kelib paydo bo'lgan. Konsyumerizmni ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotidan iste'molchilar iqtisodiyotiga o'ziga xos o'tishi, deb nomlash mumkin.

Konsyumerizmni ijtimoiy harakat sifatida 3ta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Birinchi navbatda iste'molchilarga yo'naltirilgan, iste'molchilar tafakkurini oshirishdan manfaatdor va ularga o'z tanlovlарини ongli ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni yetkazuvchi guruhlar;
2. Qonunchilikka amal qilgan holda faoliyat olib boruvchi davlat va mahalliy hukumat;
3. Raqobat va o'z-o'zini boshqarish sharoitlarida iste'molchilar talablarini qondirishga yo'naltirilgan biznes.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, zamonaviy korxonalarining samarali biznes mafkurasi etika, oliy ma'naviy standartlar va ezgulik ideallari asosida shakllantirilishi lozim.

9.3. Advokatlik qilish. Mijozga imkoniyatlar taqdim qilish

Konsyumerizm AQSHda vujudga keldi va shakllandi, so'ngra butun dunyo bo'ylab tarqalib ketdi. Bunga sifatsiz mahsulotlar va monopoliyaga qarshi siyosat bilan kurashdan boshlandi va so'ngra bu umuman barcha mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalarining sifati uchun kurash darajasiga yetdi. Keyinchalik konsyumerizm adolatsiz reklama, noto'g'ri ma'lumot yoki tamg'aga aylanib ketdi.

Konsyumerizm marketingning ajralmas qismi hisoblanadi. Har qanday kompaniyaning marketingga oid faoliyati iste'molchilar huquqlarini e'tiborga olishga va mazkur huquqlar buzilgan holatlarda

mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarur. Iste'molchi xavfsizlik, ma'lumotga egalik, tanlash va tinglanish huquqlariga ega. Mazkur huquqlar xalqaro darajada tan olingan.

Buning uchun mutlaqo barcha kompaniyalar quyidagi qoidalarga amal qilishlari zarur:

1. Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish ularning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishning yuqori darajasiga erishgan holda kechishi lozim;

2. Ishlab chiqaruvchi xizmat ko'rsatishning yuqori darajasi iste'molchilar sonining ortib borishida namoyon bo'luvchi munosib mukofot, shuningdek, daromad olib kelishi hamda kompaniya imidjining o'sishiga olib kelishini to'liq anglashi lozim;

3. Kompaniya malakasi doimiy ravishda munosib raqobatni amalgalash uchun doimiy ravishda oshib borishi zarur;

4. Advokatlik qilish mijozlarni o'z ehtiyojlarini o'z huquqlari hurmat qilinish maqsadida ifodalash va ovozlashtirishga asoslangan. Mijozlar manfaatlariga advokatlik qilish loyihalari Britaniyada 1990-yilda rivojlana boshlagan.

Advokatlik qilishning turli ko'rinishlari quyidagilarni qamrab oladi: fuqarolarga mijozlar bilan uzoq vaqt davomida individual faoliyat olib boruvchi volontyorlar uchun treninglar taqdim qiluvchi advokatlik qilish; mijozlarga qaror qabul qilishda yordam beruvchi ixtisoslashtirilgan bilim va ko'nikmalar asosida nisbatan qisqa vaqt davomida professional advokatlik qilish; mijozlarni o'z shaxsiy manfaatlarini qanday himoya qilishga o'rgatuvchi o'z-o'ziga advokatlik qilish.

Mijozlarning hamjamiyat hayotiga jalb qilinganligi. Mijozlarni hamjamiyat hayotiga jalb qilish bo'yicha loyihalar ancha avval, 1980-yillarda boshlangan va xizmatlarni demokratizatsiya qilish ularni mijozlarga yaqinroq qilish, odamlarni xizmatlarni loyihalashtirishga qamrab olish, ehtiyojlarini qondirish uchun mas'uliyatiroq bo'lishga moyilligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan. Ko'pincha ijtimoiy ishning

bu turi muhim hisoblanadi va xizmatlarni markazlashmagan tarzda amalga oshirish va xizmatlarning demokratizatsiyalashtirish imkonini beradi.

Mijozga ijtimoiy ishda radikal yondashuvni namoyon qilish imkoniyatini taqdim qilish tahqirlashga qarshi amaliyotning bir qismi hisoblanadi. Mazkur yondashuv ijtimoiy ish amaliyotini shaxsga nisbatan sensitiv qilishga, mijozlarga mustaqil qaror qabul qilishda dadil harakat qilishga intilishni uyg'otishga chaqiradi. Tompson (Tompson, 1993), masalan, imkoniyat taqdim qilish mijozni nazorat qilish va vaziyatlarni yengib o'tish imkoniyati bilan ta'minlashga qaratilgan maksimal harakatlar, deb ifodalashni taklif qilgan¹.

Axloqiy konsumerizmning uchta turi.

Axloqiy ehtiyojlarni ilk iste'molchilik harakati evolutsiyasi deb ifodalash mumkin. Lang va Xaynes (Lang va Xaynes, 1993) iste'molchilikning uchta to'lqinini ajratib ko'rsatadi:

Iste'molchilik harakatining birinchi to'lqini pul qiymati, mahsulot haqidagi asosiy ma'lumot, markirovka (mahsulot nima va qanday) va iste'molchilar tanloviga e'tibor qaratadi.

Ikkinchisi to'lqin mahsulot xavfsizligini o'rghanishning ilk darakchisi bo'lgan, va jamoaviy hisobdorlikning nisbatan keng masalalari bilan bog'liq bo'lgan.

Axloqiy konsumerizm tadqiqotlarida qo'llaniluvchi ta'riflar noaniqlikdan ("axloqiylik" iste'molchi tomonidan belgilanadi) aniqlik (so'rov o'tkazayotgan yaxshi narsalarning muayyan toifalari bilan qiziqadi, masalan, adolatli savdo mahsulotlari yoki tabiiy mahsulotlar) tomon harakatlanadi.

Ilk tadqiqotlarning ayrimlari ekologik qadriyatlarga, "yashil iste'molchi" qadriyatiga va oxirgi yillarda birinchi o'ringa chiqqan bolalar mehnati yoki keng ko'lamlı ijtimoiy masalalar kabi axloqiy masalalarni inkor qilishga e'tibor qaratgan. Ushbu tadqiqotlar beshta

¹Адаптировано из Sarah Banks. Ethics and Values in Social Work, BASW, New York, Second edition, 2001. – P.133.

muammoli sohalarni ajratib ko'rsatadi. Sog'lom ovqatlanish (organik mahsulotlarga urg'u bergan holda), hamjamiyatni rivojlantirish (mahalliy yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlash), adolatli savdo-sotiqlari (rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng yaxshi kelishuv).

Shu sababli axloqiy iste'molchilar ijtimoiy va yoki ekologik mas'uliyatni namoyon qilishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlardan foydalanish yoki qo'llashga intiladi. Axloqiy savdo-sotiqlarning tabiiy manbalar bo'linmasi adolatli savdo-sotiqlari, organik mahsulotlar bilan savdo qilish, o'rmon mahsulotlari kabi barqaror boshqariluvchi manbalar sirasidan bo'lgan mahsulotlar bilan savdo qilish kabilarni qamrab oladi.

Uchinchi to'lqin envayronmentalizm va fuqarolik ittifoqi sifatida ta'riflanadi (Lang va Xines, 1993).

Iste'molchilikning uchinchi to'lqini – axloqiy iste'mol uchta asosiy tarkibiy qismiga ega: (a) hayvonlar xavfsizligi; (b) atrof-muhit (s) inson huquqlari/mehnat va adolatli savdo. Mazkur uchta tarkibiy qismlarning har biri ijobjiy va salbiy tomonlarga ega. O'z kuchida qolgan va o'zgarmagan hamda afsus va rad qilishga sabab bo'lgan mahsulotlar va usullar.

Axloqiy iste'molchilik va barqaror iste'molning kelajakdagi rivojlanishi aynan shu to'lqinga bog'liq bo'lgan. Barqaror iste'mol amaliyoti potensialini o'rganish bo'yicha tashabbuslar, ya'ni talabni tushunish va keyinchalik boshqarish uchun ma'lum bir tovar mahsulotlarini iste'mol qilishdan tashqariga chiqish lozim. Bu esa o'z navbatida ko'plab siyosatchilar barqaror bo'limgan amaliyotlarni va iste'molchilarni yoki ishlab chiqaruvchilarni subsidiyalashda davom etayotgan sharoitga qaramasdan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarga erishish imkoniyatini yaratishga sabab bo'ladi hamda iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilar iste'mol qilishning to'liq atrof-muhit xarajatlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Barqaror iste'mol qilish siyosatini ishlab chiqish muammosi barqaror

rivojlanishda muhim o‘rin tutadi, biroq asosiy e’tibor axloqiy iste’molchi qanday bo‘lishini anglashga qaratilgan¹.

Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis oiladagi zo‘ravonlik qurbanlariga yordam berishda turli xil tuzilmalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishda muhim o‘rin tutadi va aynan shu sababli ushbu mutaxassislarga talab yuqori. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis o‘z mijoziga professional yordam ko‘rsatish bilan bir qatorda tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasida ham nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishi shart. Ijtimoiy ish mutaxassisi faoliyati muammoga aralashuvning kamida uchta turli yondashuv vositasida tavsiflanadi, bu ularning kasbiy vazifalaridagi o‘zgarishlarni belgilaydi.

Mazkur yondashuvlar tarbiyalash, yordam ko‘rsatish (yengillashtirish), himoyalash sifatida belgilanadi. Ta’lim yondashuvi ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisiga o‘qituvchi, maslahatchi, ekspert vazifasini bajarishga, maslahat berishga, o‘qitishga imkon beradi. Fasilitativ (yengillashtiruvchi) yondashuvda u muammoni bartaraf etishdagi sherik yoki yordamchi, qo‘llab-quvvatlovchi yoki vositachi rolini bajaradi, vaziyatni tushuntiradi va imkon qadar mijozning ichki resurslarini muammoni hal etishga safarbar qiladi. Himoyalashga oid yondashuv ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis muayyan mijoz nomidan himoyalovchi vazifalarini bajarganda amalga oshiriladi. Vaziyatni asoslash, izohlashda, hujjalarga asoslangan ayblovlarni to‘plashda yordam ko‘rsatadi.

Oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha yashirin bo‘lishi mumkin. Nafaqat zo‘ravon, balki jabrlanuvchi ham sharmandalik, qo‘rvuv, ojizlik hissi, biron-bir narsani yaxshi tomonga o‘zgartira olmaslik, ba’zan esa jaholat tufayli ham zo‘ravonlik sodir bo‘lgan holatni yashirishga harakat qiladi. Shu sababli, oiladagi zo‘ravonlik holatlari va sabablarini aniqlash hamda vaziyatni o‘zgartirishga qaratilgan faol munosabatni shakllantirish muammosi – bu yuqori malakali mutaxassislardan aloqa

¹Anne Tallontire, Erdenechimeg Rentsendorj and Mick Blowfield Ethical consumers and ethical trade: A review of current literature. Natural Resources Institute University of Greenwich 2001. – P. 9-12.

o'matish va xavfsizlik, ishonch muhitini yaratish qobiliyatini talab etuvchi murakkab va muhim kasbiy vazifadir. Ko'pincha hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy vazifa – bu vaziyatni tashxislash, ya'ni to'g'ri baholash hisoblanadi.

Shuningdek, oiladagi zo'ravonlik holatida ijtimoiy ish mutaxassislari o'zlariga mos usullardan foydalangan holda kamida quyidagi vazifalarni hal etishlari lozim:

➤ ta'limga oid; diagnostika (tashxislash); terapevtik; maslahatga oid; tashkiliy;

➤ ma'muriy;

➤ o'z-o'zini psixologik himoya qilishni ta'minlash, bu jihat mutaxassisiga mijozlar tomonidan manipulyasiya obyekti bo'lib qolmaslik va kasbiy kuyishning oldini olish imkonini beradi, chunki oiladagi zo'ravonlik holatlari hissiy jihatdan yuqori darajada bosim o'tkazishi mumkin.

Oila va bolalar uchun ijtimoiy va reabilitatsiya markazlari ayollarga turli xil vaziyatlarda va har xil usullar yordamida ko'maklashish imkoniyatini yaratadi: shaxsiy hayotiga ko'proq e'tibor qilish imkonini yaratuvchi individual maslahat; qo'llab-quvvatlash guruhlari; o'ziga ishonch, xavfsiz xulq, o'zini himoya qilishga qaratilgan mashqlar; ishonch telefoni va boshqalar. Markazlar mutaxassislari nafaqat reabilitatsiya ishlarini, balki ayollarga nisbatan zo'ravonlik muammosini har tomonlama hal etish imkonini beruvchi profilaktika ishlari va ijtimoiy homiylikni ham amalga oshirib kelmoqdalar.

Nazorat savollari:

1. Iste'molchi huquqi nima?
2. Amaliyot kodekslari va konsyumerizm (iste'mol).
3. Ijtimoiy ish mijozи shaxs, fuqaro va xizmatlar iste'molchisi sifatida.
4. Ijtimoiy ishda himoyalash asoslari.

10-BOB. KASBIY LAYOQATLILIK VA IJTIMOIY XODIMNING XULQ STANDARTLARI

10.1. Ijtimoiy xodimning kasbiy layoqatliligi.

10.2. Ijtimoiy xodim ko'nikmalari.

10.1. Ijtimoiy xodimning kasbiy layoqatliligi

Har qanday kasb, u mavjud bo'lar ekan, muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi. Mazkur kasb vakillari jamiyatda o'z o'rni, vazifalari va maqsadlariga ega. U yoki bu kasb odamlar buni istaydilarmi yoki yo'qmi, ularning xulqida o'z izini qoldiruvchi, o'ziga xos muloqot muhitini belgilab beradi. Har bir kasbiy guruh ichida odamlarning o'ziga xos aloqalari va munosabatlari shakllanadi. Mehnat obyekti, mehnat qurollari, foydalilanligan texnikalar va hal etilishi lozim bo'lgan vazifalaridan kelib chiqqan holda insondan muayyan harakat turlarini, usullarini, psixologik ta'sirlarni talab etuvchi o'ziga xos, betakror vaziyatlar, qiyinchiliklar va hattoki xavflar ham vujudga keladi. Har bir kasbda o'z axloqiy "og'ishlar", axloqiy "jasoratlar" va "yo'qotishlari" mavjud. Muayyan ziddiyatlar paydo bo'ladi, ularni hal etishning o'ziga xos usullari ishlab chiqiladi. Inson kasbiy faoliyatga o'z hissiyotlarining subyektiv dunyosi, kechinmalari, intilishlari, ma'naviy baholari, o'ziga xos tafakkuri bilan birgalikda qamrab olinadi. Kasbiy munosabatlardagi ko'p turli vaziyatlar orasida kasbning nisbatan mustaqilligini, uning axloqiy muhitini ifodalovchi eng odatiylari namoyon bo'lishni boshlaydi. Bu esa o'z navbatida, odamlar xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari, xulq me'yorlarining o'ziga xosligini ifodalaydi.

Kasbiy munosabatlar, sifatga oid barqarorlikka ega bo'lishi bilan bu holat mehnat tabiatiga mos bo'lgan alohida ma'naviy qarashlarning shakllanishiga, ya'ni kasbiy axloqning uning dastlabki zarrasi – kasbiy guruh a'zolari o'rtasidagi kabi, guruhning o'zining jamiyat bilan

bo‘lgan o‘zaro munosabatlarining muayyan shakllarining amaliy maqsadga muvofiqligining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Layoqatlilik – muayyan inson bilim va tajribaga ega bo‘lgan muammolar doirasi, faoliyat sohasi; mansabdor shaxs, ijtimoiy tashkilotning vakolatlari, huquq va majburiyatlar majmui; xodimlarni boshqarish, tashkilot xodimlarini tanlash, rag‘batlantirish va ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini boshqarishdan iborat.

“Layoqat” (kasbiy layoqatlilik) atamasining hosilasi sifatida “asosiy ko‘nikmalar” tushunchasi namoyon bo‘ladi.

Asosiy (kasbiy) layoqatlilik – bu keng ko‘lamda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, muayyan universallikka ega bo‘lgan, barcha kasblar va mutaxassisliklar uchun umumiyligi bo‘lgan ko‘nikmalar demakdir.

Asosiy ko‘nikmalar sifatida, birinchidan jamiyatning har bir a’zosi ega bo‘lishi lozim bo‘lgan va ikkinchidan uni eng turli vaziyatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan ko‘nikmalarni sanab o‘tish mumkin.

Turli adabiyotlarda doimiy ravishda ijtimoiy xodimlarning kasbiy-axloqiy xususiyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish, mutaxassis shaxsi tipologiyasini hosil qilishga urinishlar amalga oshiriladi.

Bernda bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996-yil 27–30-mart) Yevropa Ittifoqi Ijtimoiy ishda shakllanishi uchun alohida e’tibor qaratilgan asosiy ko‘nikmalarning beshta guruhi belgilab berilgan:

➤ siyosiy va ijtimoiy ko‘nikmalar – mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati, boshqalar bilan birgalikda qarorlar qabul qilish va ularning amalga oshirilishida ishtiroy etish, turli etnomadaniyatlar, dirlarga nisbatan tolerantlik, shaxsiy manfaatlarning korxona, jamiyat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashuvining namoyon bo‘lishi, demokratik institutlarning faoliyatida ishtiroy etish;

➤ turli millat, madaniyat va dinka mansub odamlarning o‘zaro ijobjiy munosabatlariga, bir-birlarini tushunish va hurmat qilishlariga imkoniyat yaratuvchi madaniyatlararo ko‘nikmalar;

- turli tillarda, jumladan kompyuter dasturlash, Internet orqali muloqot qilish kabi og‘zaki va yozma muloqot texnologiyalarini bilish darajasini belgilab beruvchi kommunikativ ko‘nikmalar;
- axborot texnologiyalardan foydalana olish va OAV tomonidan tarqatilayotgan ijtimoiy ma‘lumotlarga tanqidiy munosabatda bo‘lishni ifodalovchi ijtimoiy-axborot ko‘nikmasi;
- shaxsiy ko‘nikma – ta’lim darajasini doimiy ravishda oshirib borishga tayyorlik, o‘z shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirish va amalga oshirishga bo‘lgan talab, mustaqil ravishda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish qobiliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyat.

Shaxs va faoliyatning birligini, faoliyatning ijtimoiy muhit mutaxassisining kasbiy-shaxsga oid rivojlanishining eng muhim asosi sifatida o‘rganishda uning “kasbiy layoqatlilik” va “kasbiy mahorat” kabi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni e’tiborga olish lozim.

Kasbiy layoqatlilik ostida ta’lim olish va mustaqil ta’lim jarayonida shakllangan, kasbiy vazifalarni hal etish sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ilmiy-amaliy bilim va ko‘nikmalar, hamda odamlar bilan ularning hayotiy muammolarini hal etish jarayonida ishga oid va hamkorlik aloqalarida namoyon bo‘luvchi shaxsiy-kasbiy xususiyatlar tushuniladi¹.

Ijtimoiy muhit xodimining kasbiy layoqatliligin ikkita turga ajratish mumkin:

- boshqaruvi layoqati: xodimning muayyan mijozlar kabi, inson huquqlarini ijtimoiy himoya qilish tashkiloti bilan ishlash uchun ham zarur bo‘lgan nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini (ijtimoiy tajriba) qamrab oladi. Layoqatning mazkur turini tegishli davlat tuzilmalarini tashkillashtirishning ilmiy asoslarini bilish tashkil etadi. Ijtimoiy muhitda faoliyat olib borish texnologiyalarini, boshqaruvni tashkillashtirish nazariyalarining asoslarini, jumladan, rahbar mehnati,

¹. Оганян, К. М. Социальные технологии. Учебник и практикум для академического бакалавриата / К. М. Оганян. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Юрайт, 2017. – С.55.

axloq, rahbariyat psixologiyasi, nutq madaniyati va bilim ham shular jumlasiga kiradi;

– psixologik-pedagogik layoqatlilik psixologiya va pedagogika sohalaridagi bilimlar hisobiga shakllantiriladi. Ijtimoiy xodimning psixologik layoqatliligi yuqori darajada bo‘lishi lozim, chunki faoliyat jarayoni davomida u umumpsixologik, differensial-psixologik, ijtimoiy-psixologik, audio-psixologik va boshqa muammolarni hal etishiga to‘g‘ri keladi.

“Professionalizm” tushunchasi hozircha ko‘plab lug‘atlar va ensiklopediyalarda mavjud emas. Biroq qator olimlar “professionalizm” – bu kasbiy faoliyatdagi eng yuqori samaradorlikka erishish imkonini beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarning yuqori, barqaror darajasidir. Bu nafaqat qobiliyatlarning yorqin rivoji, balki mazkur professionalizm namoyon bo‘lувчи faoliyat sohasidagi chuqur va teran bilimlar, shuningdek, mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga nostandart egalik ham demak (A.A.Bodalev). Professionalizm shuningdek, faoliyat subyekti zimmasiga muayyan majburiyatlarni yuklovchi xulq va faoliyatni tartibga solishning o‘ziga xos me’yori sifatida ifodalanadi. U faoliyatning shaxsiy uslubi, shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilishi bilan bog‘liq, bu esa o‘z navbatida yuqori natijalarga erishishga undovchi yuqori darajadagi sabablarning mavjudligini nazarda tutadi¹.

Professionalizm kasbiy faoliyatning yuqori standarti sifatida, avvalambor, faoliyatning barqarorligi va samaradorligida namoyon bo‘ladi hamda faoliyatning individual uslubi bilan bog‘liq². Mazkur muammoga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish shaxs professionalizmi va ijtimoiy xodim faoliyatini ko‘rsatkichlarining quyidagi guruhini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi:

- obyektiv va subyektiv xususiyat ko‘rsatkichlari;
- protsessual-natijaga oid ko‘rsatkichlar;

¹ А Деркач, В. Зазыкин. Акмеология. Учебное пособие. 2003. – С. 101.

² Шмелева Н.Б. Формирование и развитие личности социального работника как профессионала. Москва: Дашков и К, 2004. – С. 45.

- me'yoriy-axloqiy ko'rsatkichlar;
- naqd pul ko'rsatkichlari;
- tashxislovchi ko'rsatkichlar;
- kasbiy ta'lif ko'rsatkichlari;
- ijtimoiy faollik va jamiyatda kasbning raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari;
- texnologik ko'rsatkichlar;
- innovatsion tabiatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar.

Yuqorida aytib o'tilgan professionalizm ko'rsatkichlarining barcha guruhlari bir-birini to'ldiradi.

Ijtimoiy ish quyidagi oltita bo'limlarga asoslangan:

- muloqot qilish va shug'ullanish;
- rag'batlantirish va qamrab olish;
- rejalashtirish;
- aralashuv va xizmatlar taqdim qilish;
- tashkilotlarda faoliyat olib borish;
- kasbiy layoqatlilikni rivojlantirish.

Layoqatlilikka asoslangan yondashuvning asosiy afzalligi uning natijalarga urg'u berishida va ijtimoiy xodimlarning amaliyotga oid malakalarini aniq maqsadli yo'naltirish va samaradorligini namoyish eta olishidagi ahamiyatiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida talabalar va ijtimoiy xodimlar o'z qonunlari bilan tanishgan bo'lishlari va bu amaliyot bilan qanday bog'liq ekanligini bilishlarini taqozo qiluvchi talablarni, hamda amaliyot o'tayotganlar ularning kasbiy malakaga ega bo'lishlari uchun "ta'lif olish va rivojlanishlari uchun mas'uliyat"ni o'z zimmalariga olishlari lozim ekanligini to'liq anglashlarini qamrab oladi (CCETSW 1991:1)¹. Talabalar muayyan bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyon qilishga urg'u berish ijobiy tajribalar

¹ CCETSW, DipSW Rules and Requirements for the Diploma in Social work: Paper 30? 2 nd edn (London CCETSW 1991).

orttirishda muhim ahamiyatga ega. Layoqatlilikning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini sarhisob qilish foydalidir¹.

Ijtimoiy xodimning kasbiy layoqatliligi, professionalizmi va kasbiy mahorati: xususiyatlari va tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi.

Ijtimoiy xodimning kasbiy layoqati – bu individning muayyan kasbiy, muhim shaxsiy jihatlari, bilimlari, mahorati, ko‘nikmalari va qadriyatga oid qarashlari asosida ijtimoiy ishning muayyan turlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos qobiliyati.

Ijtimoiy xodim faoliyatidagi muvaffaqiyatlar, yutuqlar yoki muvaffaqiyatsizliklar ahamiyatli darajada uning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Professional va maxsus ko‘nikmalar kasbiy mahoratni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy xodimning kasbiy mahorati uning malakasi darajasini, bilim va ko‘nikmalari, aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari majmuini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tayyorlik va qobiliyat kabilarni aks ettiruvchi xususiyatlari to‘plamini ifodalaydi.

Ijtimoiy ishda professionalizmni rivojlantirish mohiyati va an’analari iqtisodiy, ijtimoiy kabi psixologik, axloqiy, madaniy va boshqa omillar yordamida belgilanadi. Professionalizm ijtimoiy ishning jamiyatda, mamlakatdagi salbiy o‘zgarishlarga javob ta’siri sifatida qabul qilinuvchi rolini to‘laqonli ravishdagi o‘zgarishlarini ifodalaydi.

Ma’lumki, kasb – bu insonning ijtimoiy dunyosini o‘zgartirib yuboruvchi har bir insonning imkoniyatlarini, eng murakkab muammolarni hal etish, jamiyat va shaxsiy hayotidagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri qabul qilishga maksimal darajada safarbar qiluvchi ijtimoiy-maqsadli faoliyatni bajarishga tayyorlik hisoblanadi.

Ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyati mohiyati uning qonunlar, qonunosti hujjatlar va albatta, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi mehnat taqsimotiga, umuman, jamiyatning ijtimoiy muhitiga muvofiq ravishda bajaruvchi vazifalari bilan belgilanadi. Ijtimoiy xodimning

¹ Социальная работа навыки. Практика Пособие. Памела Тревизик. Open University Press Букингемский Филадельфия. – Р.21.

kasbiy faoliyati o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi shaxsga, vazifaga oid hamda moddiylashtirilgan, narsalarga oid tarkibiy qismlardan iborat.

Ijtimoiy ishda professionalizm – bu mutaxassisning odamlar, ularning hayotiy muammolarini hal etishda, faoliyati davomida yuqori natijalarga erishishda malakali yordam ko‘rsatishni ta‘minlovchi bilim, malaka va ko‘nikmalarni sekin-astalik bilan yuqori darajaga olib chiqish va shu holatda saqlab turish demakdir.

Ijtimoiy xodim professionalizmi (kasbiy mahorati) unda quyidagi jihatlarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- ✓ kasbga oid qismat;
- ✓ faoliyatni amalga oshirish uchun kuchli sabablar;
- ✓ axloqiy-ma’naviy xususiyatlar, odamlar bilan ishlashga ijtimoiy-genetik moyillik;
- ✓ kasbiy mahorat;
- ✓ o‘z faoliyatiga nisbatan obyektiv-tanqidiy munosabat;
- ✓ kasbiy bilim va kasbiy mahorat;
- ✓ umr davomida o‘rganish va o‘z-o‘zini namoyon qilishga erishish qobiliyati;
- ✓ shaxsning ijtimoiy-psixologik holati sifatidagi kasbiy g‘urur.

Ijtimoiy ish o‘zida fanni ham, kasbni ham mujassamlashtiradi. Shu sababli professionalizm mazkur tarkibiy qismlarning uyg‘unlashish darajasi, ularning bir butunligi va tizimliligi bilan o‘lchanishi mumkin.

Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning kasbiy-shaxsga oid shakllanishi va rivojlanishi kasbiy taqdirning shakllanishi, ixtisoslik bo‘yicha ta’lim olish, kasbiy mahoratni shakllantirish va ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni, shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish va takomillashtirish xususiyatlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Kasbiy mahorat ijtimoiy ishda kasbiy mahoratning tarkibiy qismi sifatida mutaxassisning malaka darajasi, aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha tadbirlar majmuini amalga oshirishdagi bilim va ko‘nikmalari darajasini aks ettiruvchi xususiyatlari majmuini ifodalaydi:

ixtisoslashtirilgan tayyorgarlikdan o'tgan va ta'lim olgan, aholining turli toifalari bilan ishslash sohasida barqaror ko'nikmalarga ega bo'lgan, ijtimoiy ish sohasidagi zamonaviy texnologiyalarni amalda samarali tarzda qo'llovchi xodimning yuqori malakasi;

yuqori malaka va harakatlarning ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi davlat standartlari talablariga mosligi;

ijtimoiy ish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini individual qobiliyatlar bilan birlashtirgan holda maksimal darajada qo'llash;

ishonchlilik va mas'uliyat, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga to'g'ri javob ta'sirini namoyon qilish;

sotsiumdagi munosabatlarni uyg'unlashtirish maqsadida ijtimoiy fanlar va ijtimoiy texnologiyalar yutuqlaridan mohirona foydalanish;

mijozlar va mutaxassislarning ishonchini qozonish ko'nikmasi, rahmdillik, odamlarga ta'sir o'tkazish, mijozga va uning muammolariga reflektiv yondashish.

Boshqa so'zlar bilan aytganda, kasbiy mahorat – bu individ tomonidan o'z mutaxassisligi, o'z kasbini egallaganlik darjasи. Bu ijtimoiy xizmat xodimining ijtimoiy ishdagi professionalizmga jalb etilganligi darjasи.

Shunday qilib, ijtimoiy xodim va mijozning o'zaro munosabatlari quyidagi asosiy prinsiplarni e'tiborga olgan holda shakllanadi – har bir inson e'tiborga olinishi va hurmat ko'rsatilishi lozim bo'lган xislatlari tufayli qadrli; har bir inson o'zini namoyon qilish huquqiga ega; ijtimoiy xodimlar ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiqlar; ijtimoiy xodimlar o'zlarining barcha bilim va ko'nikmalarini alohida odamlarga, guruhlarga, jamoalarga ularni rivojlantirish, shaxs va ijtimoiy muhit o'rtaсидagi nizolarni hal etishda yordam ko'rsatish maqsadida qo'llaydilar.

Ijtimoiy xodimlar ulardan yordam va maslahat so'rab murojaat qilgan har bir shaxsga uning jinsi, yoshi, jismoniy yoki aqliy nuqsonlarining mavjudligidan, ijtimoiy va irqiy mansubligidan, diniy

e'tiqodi, tili, siyosiy qarashlari, jinsiy qarashlaridan qat'i nazar, ularning barchasiga yordam ko'rsatadilar.

Ijtimoiy xodimlar individ va guruhlarning asosiy huquqlarini BMTning Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi va mazkur Deklaratsiya asosida yaratilgan boshqa xalqaro konvensiyalarga muvofiq ravishda hurmat qildilar. Ijtimoiy xodimlar shaxsiy daxlsizlik, maxfiylik va o'z faoliyati davomida ma'lumotlarni mas'uliyat bilan qo'llash prinsiplariga amal qildilar. Ijtimoiy xodimlar hattoki, mamlakat qonunchiligi mazkur talablarga zid bo'lgan holatlarda ham oqlangan maxfiylikka amal qildilar. Ijtimoiy xodimlar o'z mijozlarining farovonligi uchun ular bilan yaqin hamkorlikda, biroq boshqalarga zarar yetkazmagan holda ish olib boradilar. Ijtimoiy ish odamlarni tahqirlashga yo'naltirilgan terrorizm, qiyonoqlar yoki boshqa harakatlardan foydalanuvchi individlar, guruhlar, kuch tuzilmalariga qat'ian qarshi bo'lishi lozim.

O'zining butun tarixi davomida ijtimoiy ish amaliyotini ta'minlashning inson xizmatlari sohasidagi narxlar bilan bog'liq axloqiy muammolarga duch kelgan. Mazkur muammolarni hal etishda yordam ko'rsatish maqsadida ijtimoiy xodimlar amaliyotchining kasbiy va ijtimoiy maqbul xulqini ta'minlashning muayyan prinsiplariga amal qilishlari lozim. Ijtimoiy ish doimo qadriyatlarga asoslangan kasb bo'lganligi sababli, bugungi kunda butun dunyodagi ijtimoiy ish ta'limi va amaliyoti uchun dunyo bo'ylab allaqachon axloq kodekslarga muhtoj. Mamlakatlar o'z Ijtimoiy ish axloqiy kodekslarida umumiyligi jihatlar va ko'plab farqlarga ega. 20 ta mamlakat axloq kodekslarining tuzilmasi va mohiyatini tahlil qilish bayon etilgan qadriyatlar va prinsiplarda yuqori darajadagi muvofiqlikni ko'rish imkonini berdi, biroq ularni amaliyotda qo'llashda farqlar ham mavjud ekanligini namoyon qildi.

Ijtimoiy xodimlarning xalqaro federatsiyasi (IXXF) ijtimoiy ish bo'yicha eng yirik tashkiliy element bo'lib, uning tarkibiga ijtimoiy xodimlar uchun axloqiy standartlar ishlab chiqilgan kontinent va 80 dan

ortiq mamlakatlarning 470 000 dan ortiq ijtimoiy xodimlarini qamrab olgan¹.

Ularning qisqacha tasnifini keltirib o'tamiz.

Obyektiv va subyektiv tabiatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar. Obyektiv ko'rsatkichlar: inson kasb talablariga qanchalik mos keladi, uning ijtimoiy amaliyatga qo'shgan hissasi. Ijtimoiy muhitda faoliyat olib borish davomida obyektiv mezonlar sifatida quyidagilar namoyon bo'lishi lozim: mijoz muammolarini hal etish va yechim topish, yordam ko'rsatish, aholining turli toifalarini reabilitatsiya qilish; mijoz va davlat tuzilmalari o'rtaida vositachilik vazifasini amalga oshirishga imkoniyat yaratuvchi, mijozni himoya qilishning tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi, texnologi bo'lish, jamiyat, regiondagi ijtimoiy siyosatga ta'sir ko'rsatish, uni tashxislash imkonini beruvchi kasbiy bilim va malakalar.

Subyektiv ko'rsatkichlar: kasb shaxsning talablari, uning intilishlariga qanchalik mos, inson o'z kasbiy faoliyatidan qanchalik qoniqish hosil qildi. Ijtimoiy xodim mehnati sohasida kasbiy mahoratning subyektiv ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: barqaror kasbiy-gumanistik yo'naltirilganlik, kasb ahamiyatini, uning shaxsning kasbiy muhim xususiyatlari uchun zarur bo'lgan qadriyatga oid qarashlarini anglash, o'ziga nisbatan professional kabi ijobjiy munosabat, shaxsiy buzilishlarning mavjud emasligini anglash.

Ijtimoiy muhitning professional xodimini kasbda faoliyat olib borishning ichki istagi bilan birgalikdagi mehnatning yuqori samaradorligini ifodalaydi.

Amerikalik olimlar Djun G.Xopps va Eleyn B.Pinderxyuslar turli darajadagi ijtimoiy xodimlarning kasbiy-nazariy tayyorgarligi tuzilmasini taklif etar ekanlar, amaliy faoliyatning malaka me'yorlari ro'yxatini taqdim qiladilar, mutaxassisning axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ish standartlari nuqtayi nazaridan kasbiy mas'uliyatining

¹ Elaine Congress and Donna McAuliffe Social work ethics Professional codes in Australia and the United States// International Social Work 49(2). – P. 151.

ahamiyatini ta'kidlab o'tadilar. Ularning fikriga ko'ra, o'zgarib borayotgan ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy xodimlardan murakkab vaziyatlarga nisbatan to'g'ri javob qaytara olishni talab etadi, shu sababli ijtimoiy ish xodimlar qatorlarini tanqidiy fikrlash, yordam so'rab murojaat qilganlarga javob berish imkoniyatiga ega bo'lgan, odamlar bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan iste'dodli insonlar to'ldirishlari lozim.

Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Finlandiya, Isroil va boshqa mamlakatlar mutaxassislari tomonidan taqdim qilingan, ijtimoiy xodimning kasbiy-shaxsga oid xususiyatlari kasbning mohiyatini va unga qo'yilgan zamonaviy talablarni chuqur anglash imkonini beradi.

Ijtimoiy xodimlarning xalqaro federatsiyasi tomonidan 1994-yilning oktabrda qabul qilingan "Ijtimoiy ish etikasi: prinsiplar va standartlar" hujjatida ijtimoiy xodimning kasbiy layoqatliligi va axloqiy mas'uliyati me'yorlari alohida e'tiborga molik. Mazkur hujjatda bayon qilingan ijtimoiy-axloqiy qarashlar ijtimoiy xodimga qo'yiladigan talablar tizimini belgilab beradi, mutaxassislarning shaxsiy qadriyatlarini alohida ta'kidlab o'tadi: "Axloqiy bilimlar – ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyatining zarur qismi. Uning axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda faoliyat olib borish qobiliyati mijozlarga taqdim qilinayotgan xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi". Mutaxassis axloqiy xulqining asosiy standartlari aslida ijtimoiy xodimning ma'naviy-axloqiy xususiyatlarining gipotetik modeli hisoblanadi.

Tadqiqotchilar amerikalik ijtimoiy xodimlarning asosiy huquqlarni hurmat qilish, ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi, shaxsiy erkinlikka sodiqlik (ijtimoiy adolat) va o'z taqdirini belgilash xislatlarini qo'llab-quvvatlashga oid qadriyatlarini o'rganishdi. Ebbott (1999-yil) dunyoning turli to'rt qismidagi ijtimoiy xodimlarning kasbiy qadriyatlarini o'rganib chiqdi, mazkur tarkibga kirgan mamlakatlardan biri Avstraliya, Yangi Zelandiya edi. Ijtimoiy ish axloqshunosligida ba'zi bir umumiy qadriyatlar, ya'ni aynan asosiy huquqlarga hurmat

bilan munosabatda bo‘lishni qo‘llab-quvvatlash va o‘z taqdirini belgilash kabilar kiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asosiy qadriyatlar sirasiga shuningdek, ijtimoiy mas’uliyat yoki individual erkinlikka sodiqlik ham kiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Avstraliya, Yangi Zelandiyada ijtimoiy xodimlarning xulq namunalari, garchi uncha yuqori darajada bo‘lmasa-da, qadriyatlarning barcha to‘rt sohasiga, asosiy huquqlarga hurmat, ijtimoiy ma’suliyat hissi, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy adolatga intilish hamda boshqa guruhlari (Shimoliy Amerika, Osiyo va Yevropa) bilan qiyoslaganda o‘zini namoyon qilishni qo‘llab-quvvatlashga yuqori darajadagi sodiqligini namoyon qildi.

Ijtimoiy xodimlar o‘zlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotida (Jayaratne va boshq. 1997) yoki ma’muriy amaliyotda (Kongress va Hammer, 1997) axloq kodeksidan foydalanadilarmi yoki yo‘qmi, degan munozaralar davom etmoqda. Kongress (1992) ko‘pchilik ijtimoiy xodimlar ko‘pincha axloq kodeksiga e’tibor bermasdan tezkor qarorlar qabul qilishidan xavotirda bo‘lganliklariga qaramasdan, ijtimoiy xodimlar axloq qoidalari va uning axloqiy qarorlarda qo‘llanilishi to‘g‘risida xabardor, deb ta’kidlaydi.

Aniqlanishicha, ijtimoiy xodimlar ehtimol kodeksning asosiy qoidalari (masalan, mijozlar bilan ish olib borish davomida ular bilan jinsiy aloqalardan qochishlari lozim) to‘g‘risida xabardor bo‘lishlari mumkin, biroq ular ko‘pincha sobiq mijozlari bilan ikki tomonlama nojinsiy munosabatlar kabi bahsli masalalarni hal etishda kodeks qoidalariiga tayanish mumkinligi haqida kamroq ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin¹.

Axloq kodeksi (NASW) oltita asosiy qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu asosiy qadriyatlar ijtimoiy xodimlar bilan kasbning butun tarixi davomida birga bo‘lgan, hamda ijtimoiy ishning o‘ziga xos maqsadlari

¹ Elaine Congress and Donna McAuliffe Social work ethics Professional codes in Australia and the United States// International Social Work 49(2). – P. 153.

va istiqbollarining poydevori hisoblanadi (NASW, 2003,)» preambula 3-band).

Qadriyatlar bu kabi xizmatlardan, ijtimoiy adolatdan, insonning qadr-qimmati va nufuzidan, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyatidan, yaxlitligi va layoqatidan foydalanishi mumkin. Qadriyatlar axloqiy prinsiplarga olib keladi. Masalan, xizmat narxi "Ijtimoiy xodimlarning asosiy maqsadi muhtojlarga yordam berish va ijtimoiy muammolarni hal qilishdir", degan prinsipning kelib chiqishiga olib keladi (NACW, 2003, «Axloqiy prinsiplar», 3-band)¹.

Ijtimoiy xodimlarning kasbiy-axloqiy xislatlari, vazifalari va roli IXXF Axloq kodeksida batafsil ko'rib chiqilgan².

Ijtimoiy xodimlarning professional sifatidagi axloqiy mas'uliyati.

Layoqatlilik.

✓ Ijtimoiy xodimlar faqatgina layoqatga ega bo'lgan hollarida yoki zarur layoqatga ega bo'lishni xohlagan vaqtlaridagina mas'uliyatni yoki taklif etilayotgan ishni o'z zimmalariga olishlari zarur.

✓ Ijtimoiy xodimlar o'zlarining professional amaliyotlari doirasida mutaxassis bo'lishga va shunday bo'lib qolishga, shuningdek, kasbiy vazifalarini munosib tarzda amalga oshirishga intiladilar. Ijtimoiy xodimlar o'z faoliyatlarini tanqidiy baholashlari hamda ijtimoiy ish bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar doimiy ravishda kasblariga oid adabiyotlar bilan tanishib borishlari va ijtimoiy ish amaliyoti va axloqi bo'yicha ta'lif jarayonini davom ettirishda ishtiroy etishlari lozim.

✓ Ijtimoiy xodimlar amaliyotni ijtimoiy ishga tegishli empirik bilimlarni hamda ijtimoiy ish etikasini ham qamrab olgan holda tan olingan bilimlarga asoslangan holda amalga oshirishlari lozim.

Kasbda vijdonlilik.

¹ David A. Hardcastle Patricia R. Powers Stanley Wenocur Community Practice: Theories and Skills for Social Workers, Second Edition. – Oxford New York OXFORD UNIVERSITY PRESS/ 2004. – P 21.

² Code of Ethics of the National Association of Social Workers Code of Ethics of the National Association of Social Workers Approved by the 1996 NASW Delegate Assembly and revised by the 1999 NASW Delegate Assembly. – P. 18-21.

- ✓ Ijtimoiy xodimlar amaliyotning yuqori darajali standartlarini saqlagan va ilgari surgan holda faoliyat olib borishlari lozim.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar kasbning qadriyatlari, etikasi, bilim va vazifalarini qo'llab-quvvatlashlari va ilgari surishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar kasbiy adolatni tegishli tadqiqotlar va izlanishlar orqali, faol munozaralar va kasbni konstruktiv tanqid qilish orqali himoya qilishlari, qo'llab-quvvatlash, yaxshilashlari lozim.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy xodim kasbining qadriyatlari, qadr-qimmati va vakolatlarini targ'ib qilish ishlariga o'z hissasini qo'shishlari lozim. Bular shuningdek, ta'lif olish, tadqiqot, maslahat, sudda guvohlik berishni, tumanda taqdimotlar o'tkazish va o'z tashkiloti tadbirlarida ishtirok etish kabilarni qamrab oladi.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ishda anglash asoslariga hissa qo'shishlari va o'zlarining amaliyot, tadqiqotlar va etikaga oid bilimlari bilan bo'lishishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar kasbga oid adabiyotlarni rivojlantirishga ham o'z hissalarini qo'shishlari va professional uchrashuvlar va konferensiyalarda o'z bilimlari bilan bo'lishishlari lozim.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ishning sifatsiz amaliyotini bartaraf qilish maqsadida harakat qilishlari lozim.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar siyosatni kuzatib borishlari va baholashlari, aralashuv dasturlari va amaliyotini joriy qilishlari lozim.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar kasbga oid bilimlar bazasiga hissa qo'shish maqsadida baholash va tadqiqotlarni ilgari surish va yaxshilashlari zarur.
- ✓ Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ish bo'yicha zamonaviy bilimlarni baholash va kuzatib borish, shuningdek, o'z bilimi, tadqiqotlari, o'z baholarini to'laqonli ravishda qo'llashlari lozim.
- ✓ Baholash va tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy xodimlar o'z faoliyatlari oqibatlariga e'tiborli bo'lishlari va tadqiqotlar ishtirokchilari bilan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish qoidalariga

amal qilishlari lozim. Ular shuningdek, tegishli institutsional kengashlar bilan maslahatlashishlari lozim.

✓ Tadqiqotlar va baholash bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar tadqiqot ishtirokchilarining imkon qadar tadqiqotlardan bosh tortganligi uchun jazolash yoki tadqiqotdan chiqarib yuborish kabi tadbirlarni amalga oshirmagan; ishtirok etishga noto‘g‘ri tarzda inajburlashsiz; ishtirokchining farovonligi, shaxsiy hayoti va nufuzini e’tiborga olgan holda yozma roziligidagi ega bo‘lishlari lozim. Tadqiqotlarda axborotga ega bo‘lgan holda ishtirok etish tadqiqotda ishtirok etishning tabiatni, doiralari va muddati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, tadqiqotda ishtirok etishning xatarli va foydali tomonlarini qamrab olishi lozim.

✓ Ishtirokchilarning tadqiqotda axborotga ega bo‘lgan holda ishtirok etishga rozilik olish imkoniyati mavjud bo‘lmanan hollarda ijtimoiy xodimlar ularga to‘g‘ri izoh berishlari, ishtirokchilarning roziligini olishga erishishlari va tegishli vakillarning yozma roziliklarini olishlari zarur.

✓ Ijtimoiy xodimlar tabiiy kuzatuv, arxiv tadqiqotlari va boshqalar kabi axborotga ega bo‘lgan holda rozilik mavjud bo‘lmanan jarayonlarni baholamasliklari yoki o‘rganmasliklari lozim, tadqiqot ilmiy, ta’limga oid yoki amaliy maqsadlarga erishish lozim bo‘lgan holatlar, shuningdek, tadqiqotning axborotga ega bo‘lgan holda rozilik tartibini buzmasdan tadqiqot olib borishning boshqa usullari mavjud bo‘lmanan vaziyatlar bundan mustasno.

✓ Ijtimoiy xodimlar ishtirokchilarni ularning istalgan vaqtida, hech qanday jazosiz tadqiqotdan chiqish huquqiga ega ekanliklari to‘g‘risida ma’lumot taqdim qilishlari lozim.

✓ Ijtimoiy xodimlar tadqiqot ishtirokchilari xizmatlarning yetarli hajmidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun barcha harakatlarni amalga oshirishlari lozim.

✓ Baholash yoki tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar ishtirokchilarni jismoniy va aqliy bosim, zarar yetkazish, xavf yoki yo‘qotishlardan himoya qilishlari shart.

✓ Xizmatlarni tadqiq qilish yoki baholash bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar o‘zları tomonidan to‘plangan ma’lumotlardan faqtgina kasbiy maqsadlarda va mazkur ma’lumot uchun professional ravishda aloqador bo‘lgan odamlar bilan muhokama qilishlari lozim.

✓ Baholash va tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar ma’lumot taqdim qilayotgan ishtirokchilarga ma’lumotlarning anonimlik yoki maxfiyligini kafolatlashlari lozim. Ijtimoiy xodimlar ishtirokchilarni maxfiylikning barcha cheklovlari, maxfiylikni ta’minalash maqsadida qabul qilingan tadbirlar va yozuvlar qachon yo‘q qilinishi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim qilishlari lozim.

✓ Tadqiqot yoki baholash natijalari haqida ma’ruza qiluvchi ijtimoiy xodimlar ishtirokchilarning maxfiyligini ismlar va boshqa aniqlovchi ma’lumotlarni tushirib qoldirgan holda himoya qilishlari lozim, bu kabi barcha ma’lumotlarni oshkor qilinishiga tegishli rozilik olingan holatlar bundan mustasno.

✓ Tadqiqot yoki baholash natijalari haqida ma’ruza qiluvchi ijtimoiy xodimlar aniq ma’lumotlar taqdim qilishlari lozim. Ular natijalarni qalbakilashtirmasliklari yoki soxtalashtirmasliklari zarur va maqolalarda yo‘l qo‘yilgan har qanday xatolarni tuzatish uchun barcha harakatlarni amalga oshirishlari shart.

✓ Baholash va tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar manfaatlar nizolaridan qochishga tayyorlik bilan yondashishlari lozim. Ular shuningdek, ishtirokchilarni manfaatlarning ortib borayotgan yoki yashirin ixtiloslari to‘g‘risida axborot berishlari shart. Bundan tashqari, ular nizolarni ishtirokchi manfaatlari birinchi o‘rinda bo‘lgan tarzda hal etishlari lozim.

✓ Ijtimoiy xodimlar o‘zları tegishli ta’limga ega bo‘lishlari va o‘z o‘quvchilari hamda hamkasblarini mas’uliyatli tadqiqot amaliyotini olib borishga o‘rgatishlari zarur.

Alovida mijozlar yoki hamjamiyatlar bilan aniqlangan muammolar bo'yicha muloqot olib borish.

Ijtimoiy xodimlar nafaqat ijtimoiy xizmatlarning an'anaviy agentliklarida faoliyat olib boradilar, balki boshlang'ich maktablarda; qurolli kuchlarda; biznesda, fabrika va ofislarda, hukumat, federal, davlat va mahalliy organlar hamda qonunchilik organlarida ham faoliyat olib boradilar. Alovida inson, oilalar kabi xususiy amaliyotda; kasalxona va psixiatrik muassasalarda; sud va axloq tuzatish muassasalarida; uyda tibbiy yordam ko'rsatishda; qariyalarga xizmat ko'rsatishda ham amaliyot o'taydilar. Aslida ijtimoiy xodimlar har yerda topilishi mumkin va hamma yerda ham shaxsiy va ijtimoiy muammolarini hal etishda professionallar yordamiga muhtoj odamlar mavjud (Senator Deniel Inui, X-XII, aprel, 1986).

Professional munosabatlarni yaratish va qo'llab-quvvatlashga quyidagilar yordam beradi:

➤ barcha odamlar uchun muammolarni hal qilish, kurashish va rivojlanish imkoniyatlarini yaxshilash;

➤ aholining turli qatlamlari va turli kattalikdagi guruhlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lish;

➤ inson munosabatlari to'g'risida bilim va ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni tushunish;

➤ xizmatlarni nafaqat shaxsni qo'llab-quvvatlash, balki uning atrof-muhitini o'zgartirishga yo'naltirgan holda taqdim qilish¹.

Ijtimoiy xodimlar nima bilan shug'ullanadilar?

Tibbiyotga oid ijtimoiy ish.

Kasallik yoki qayta tiklanish bilan kechuvchi va reabilitatsiyani sekinlashtiruvchi, iqtisodiy ehtiyoj, nogironlik va uyga javob berilgandan so'ng manbalarning yetishmovchiligi muammolarni hal etib kelayotgan bemorlar va ularning oilalariga yordam ko'rsatish.

Tibbiyot kasbiga mansub boshqa mutaxassislarga bemorlar va ularning oilalarining ehtiyojlarini to'g'ri anglashda yordam berish

¹ The Many Facets of Social Work *The* http://www.socialwork.pitt.edu/downloads/Facets_of_Soc.pdf. - P. 1.

maqsadida ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish. Uyda parvarishlash va uyga javob berilgandan so'ng tegishli vositalar bilan ta'minlash xizmatlarini muvofiqlashtirish.

Reabilitatsiya va parvarishlash vositalarining uzoq muddatli xizmatini ta'minlash.

Ambulator sharoitlarda – ijtimoiy ish sohasining tibbiyot xodimlari psixologik maslahatni qo'llab-quvvatlovchi ma'lumot taqdim qilishga oid xizmatlarni taqdim qiladi, shuningdek, parvarishlash va xizmatlarni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadilar.

Inqirozli vaziyatlarda muvofiq yechimlarni ta'minlash. Fanlararo jamoa doirasidagi vazifalar. Sog'liqni saqlash terminologiyasini, xodimlari va jarayonlarini aniqlashtirish.

Ijtimoiy ish maktabi.

Talabalar va ularning oilalariga ta'lim olishda xalal beruvchi ijtimoiy, xulqiy, hissiy yoki iqtisodiy muammolarni yengib o'tishda yordam ko'rsatish.

Muammolarni baholash maqsadida talabalar va ularning oilalari bilan suhbat o'tkazish. Kasbiy va kommunal xizmatlar uchun tegishli yo'nalishlarni oshib berish.

Xizmatlar va taqdim etilgan sharoitlarning yaxshilanishini ta'minlash maqsadida kuzatuvlarni amalga oshiring. O'qituvchilar va maktab rahbarlari bilan yaqindan hamkorlik qiling. Maktablarda o'spirinlarning o'z joniga qasd qilish, spirtli ichimliklar va giyohvandlik bilan bog'liq zo'ravonlik kabi muammolardan himoya qilishni ta'minlash.

Klinik ijtimoiy ish.

Ruhiy salomatlik sohasida xizmatlarning to'liq doirasini, baholash, tashxislash va davolashni ta'minlash.

Alovida shaxslar, juftliklar, oilalar va guruhlar uchun xizmatlar taqdim qilish.

Davolashni tayinlash maqsadida turli psixoterapevtik nazariyalar va vositalardan foydalanish.

Ishlarni boshqarish bo'yicha xizmatlar uchun tegishli idoralarga murojaat qilish.

Yaqiningizning o'limi, nogironlik, ajrashish yoki ishdan mahrum bo'lish sababli mijozlarga turmush tarzidagi ulkan o'zgarishlarga moslashishda yordam berish. Ko'rsatiladigan yordamni ta'minlash uchun sog'liqni saqlash sug'urtachilari bilan aloqaga kirishish.

Ijtimoiy ish – ma'muriy masalalar va boshqaruv.

Dasturlarni rejalashtirish, ishlab chiqish va baholash. Mablag' toplash va grantlar yozish. Agentlikning moliyaviy ahvoli yaxshilanishini ta'minlash maqsadida budjet va mablag'larni boshqarish. Davlat va ijtimoiy siyosatni kuzatib borish, tahlil qilish va baholash. Agentlikning maqsadlariga erishish bo'yicha tadbirdarni muvofiqlashtirish. Xodimlarni yollash va ularga rahbarlik qilish.

Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish.

O'z muammolarining eng maqbul yechimini topish uchun oilaviy advokatga murojaat qilish. Bolalarni haqoratlash holatlarining oldini olish va bolalar uylariga joylashtirish.

Boshpanasiz oilalarni ish va uy-joy bilan ta'minlash.

Homilador ayollarga, farzand asrab oluvchilarga va asrab olingan bolalarga farzand asrab olish tizimida harakat qilishda yordam berish.

Baholash, qo'llab-quvvatlash, maslahat berish, manbalarni muvofiqlashtirish va targ'ibot faoliyatini ta'minlash.

Institutsional muassasalar faoliyatini monitoring qilish; bolalarni joylashtirish jarayonida bolalar uylarini monitoring qilish.

Oiladagi zo'ravonlik qurbanlariga aylangan ayollar va bolalarga yordam ko'rsatish¹.

Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislarining kasbiy-axloqiy xislatlariga qo'yilgan talablar quyidagilar bilan belgilanadi:

➤ zamonaviy jamiyat madaniyati va uning ijtimoiy ish hamda uning asosiy subyektlari – ijtimoiy xizmatlar xodimlari, uning falsafiy-

¹The Many Facets of Social Work The http://www.socialwork.pitt.edu/downloads/Facets_of_Soc.pdf. - P. 2-3.

axloqiy qarashlari, milliy mentaliteti va ijtimoiy an'analariga munosabati darajasi bilan;

➤ ijtimoiy xodim malakasiga qo'yiladigan, muayyan tarzda Shvetsiyada, Buyuk Britaniyada, AQSHda, Italiyada, Germaniyada, Gollandiyada, Finlandiyada va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan xalqaro talablar;

➤ ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning majmuaviy, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan markazlarining shakllanishi va rivojlanishining obyektiv talablari;

➤ ijtimoiy muammolarni hal qilishning ko'p turliligini tasdiqlash, o'tish davrida ijtimoiy istisnolardan xalos bo'lish, ko'p hollarda insonlar uchun iqtisodiy islohotlar sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy rivojlantirishning samarali usullarini izlash.

Kasb jamiyat tashkiloti tomonidan "hamjamiyat o'z ehtiyojlari yoki maqsadlarini, qarorlarini belgilash jarayonida rivojlanadi va ushbu ehtiyojlarni qondirish yoki maqsadlarga erishish uchun manbalarni (ichki va/yoki tashqi) topadi, ularni hal etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi, shu bilan birga hamjamiyat doirasidagi hamkorlik va amaliyotni rivojlantiradi.

Hamjamiyatda amaliyot o'tash maqsadlari quyidagilardan iborat:

➤ alohida shaxs va guruhlarning tashkilotchilik ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish;

➤ jamiyat doirasida ijtimoiy rejalashtirish jarayonini nisbatan osonlashtirish;

➤ kambag'allarga ijtimoiy va iqtisodiy yordam ko'rsatishni birlashtirish;

➤ hamjamiyat muammolarini hal etishda uyushmalar ittifoqini tashkil etish;

➤ ijtimoiy adolat o'rnatilishiga e'tibor qaratgan holda ijtimoiy rejalashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatish (Nu & Gamble, str. 577).

Bevosita xizmat ko'rsatuvchi (jamoat tashkilotchisi, joriy etuvchi va jamoat yetakchisi) xodimi va klinik xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy

xizmat xodimi ma'lum darakada kelajakda bir-biridan farq qilishi mumkin. Jamiyat tashkilotchisining fikriga ko'ra, agar hamjamiyat o'z tashkilotlari va institutlari bilan nisbatan samarali hamkorlik o'matsa va o'z a'zolariga moslashuvchan ish tartibini joriy qilsa, hamjamiyat a'zolari sog'lomroq va baxtliroq bo'lishlariga erishish mumkin¹.

Ijtimoiy xodimlar kasbiy faoliyatining mohiyati, amalga oshirish usullari, turlari va shakkllari nafaqat mazkur faoliyat tabiatini belgilab beruvchi sohaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki jamiyat, muayyan hudud, qishloqlardagi ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini ham namoyon qiladi. Ijtimoiy xodimlarning kasbiy-axloqiy xislatlariga qo'yiladigan talablar ijtimoiy ish vazifalarini amalga oshirish va aholini ijtimoiy himoya qilish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgarib turishi mumkin.

Qashshoqlik, ishsizlik, boshpanasizlik, daydilik, bolalar va o'smirlarning noijitimoiy harakatlari, kattalarning deviant xulqi, fohishabozlik, yetimlik, ichkililikbozlik, nogironlik va boshqalar kabi ijtimoiy hodisalar shubhasiz mutaxassis faoliyati tabiatiga ta'sir ko'rsatuvchi va zarur kasbiy xislatlarning rivojlanishini belgilab beruvchi omillar hisoblanadi.

Protsessual-samaradorlik ko'rsatkichlari. Samaradorlik ko'rsatkichlari: inson o'z faoliyati davomida zarur natijalarga erisha oladimi? Zamona viy ijtimoiy amaliyatda ishlaydigan mutaxassislar faoliyatini baholashning ikkita asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: bevosita (yoki mehnat natijalarining sifatiga ko'ra) va bilvosita (xodimning faoliyati sifatiga ko'ra). Ikkinchi holatda gap ijtimoiy xodimning o'zini ta'riflovchi va uning o'z vazifasini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati natijalarini aks ettiruvchi omillar haqida boradi. Bu kabi omillar sifatida ijtimoiy xodimning malakasi, kasbiy ko'nikmalari, ishbilarmonlik xususiyatlari nazarda tutiladi. Biroq faoliyatning aniq yakuniy maqsadi mavjud bo'lgan va ijtimoiy xodimning mijozga

¹ David A. Harcastle Patricia R. Powers Stanley Wenocur Community Practice: Theories and Skills for Social Workers, Second Edition. – Oxford New York OXFORD UNIVERSITY PRESS/ 2004. – P 5.

ta'sirini tahlil qilishning aniq miqdoriy usullari mavjud bo'lmagan hollarda ijtimoiy xodim mehnatining samaradorligini bevosita baholash imkonи mayjud emas.

Mijoz bilan samarali faoliyat olib borish sharoitlari. Ijtimoiy ish xodimining kasbiy malakasi ko'rsatkich(mezon)lari quyidagilardan iborat:

✓ kasbiy obyektivlik va xolislik. Bu holatda kasbiy layoqatlilik, nazorat qilinuvchi hissiy muvozanatni amaliyot vaziyatiga qamrab olishda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy soha xodimi mijoz vaziyatiga o'ta kirishib ketishgan holatlarda munosabatlardagi samaradorlik va obyektivlikni yo'qotib qo'yish mumkin. Biroq agar ijtimoiy xodim mijoz muammolarini hal etishga yetarli darajada harakat qilmasa, u holda muvofiq ravishda u mavjud vaziyatni o'zgartirish, hal etish uchun zarur hissiy quvvatni sarflash imkoniyatiga ega bo'lmaydi;

✓ mijozning o'z imkoniyatlarini ko'ra bilish, faollashtirish va qo'llash. Ijtimoiy soha xodimining kasbiy layoqati nafaqat yordamga muhtoj shaxsga yordamni tashqaridan jalb qilishdan, balki mijozning shaxsiy manbalari va imkoniyatlarini vujudga kelgan murakkab hayotiy vaziyatdan chiqish uchun yo'naltirishga yordam berishda ham namoyon bo'ladi;

✓ mijoz bilan o'zaro munosabatlarning sifatga oid-maqbul darajasi. Mijozlar va ijtimoiy soha xodimining o'zaro munosabatlari tabiat maqbul darajada bo'lishi va axloq me'yorlari va prinsiplariga mos bo'lishi lozim. Mazkur holatda nafaqat ko'rsatilgan xizmat sifati to'g'risida, balki mijoz va ijtimoiy xodim o'rtasida shakllanadigan o'zaro munosabatlarning sifat va samaradorlikka oid darajasi to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

"O'zaro ishonchli sheriklik" nuqtayi nazari ijtimoiy soha xodimini "vaziyatni o'z qo'liga olish", "qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik qilish" hamda "tartibga solish va nazorat qilish" rollari o'rtasidagi farqni ko'ra bilishga va muvofiq tarzda o'z xulqining faol tomonini aniqlab olish va namoyon qilishga undaydi.

B.N.Shmelevaning fikriga ko'ra, ijtimoiy ish sohasning quyidagilarga mos bo'lgan xodimi professional, deb hisoblanishi mumkin¹:

- ✓ kasb talablariga mos (shaxsiy va kasbiy imkoniyatlar), alohida shaxs va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy moslashtirish, ularga yordam ko'rsatish, reabilitatsiya qilish bo'yicha o'z faoliyatini amalgalashirgan holda ijtimoiy siyosat va ijtimoiy tajribaga muayyan hissa qo'shadi;
- ✓ shaxsiy-motivatsion tayyorlikka, kasb uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga, malakaga, shuningdek, o'ziga nisbatan o'z mehnati samaradorligiga intiluvchi professional sifatida ijobiy munosabatga ega bo'lgan holda kasbga nisbatan ijobiy qarashlarga ega;
- ✓ odamlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlash, moslashtirish va reabilitatsiya qilish bo'yicha bugungi kunda jamiyat tomonidan ijobiy qabul qilinadigan natijalarga erisha oladi;
- ✓ insonni ijtimoiy himoya qilish maqsadida zamonaviy, maqbul va samarali usullar, tajribalar, texnologiyalardan foydalanadi;
- ✓ kasbning me'yorlari, standartlari, numunalariga amal qiladi, kasbning jamiyatdagi ahamiyatini to'liq anglaydi;
- ✓ o'z shaxsiy va kasbiy individualligini saqlagan holda kasbiy faoliyatga individual-ijodiy, yangilikka oid tarkibiy qismlarni olib kiradi;
- ✓ kasbiy ta'lif, malaka oshirish, mustaqil ta'lif olish, mamlakat va xorijiy tajribalarni o'rganish zarurati va istiqbollarini to'liq anglaydi;
- ✓ bugungi kundayoq yetarli darajadagi kasbiy va shaxsiy xislatlar, bilim va ko'nikinalarga ega;
- ✓ jamiyatda ijtimoiy jihatdan faol, kasb amaliyoti, kasbga, uning maqomiga bo'lgan munosabat masalalarini ilgari suradi va muhokama

¹ Шагалева Н.Б. Формирование и развитие личности социального работника как профессионала. – Москва: Дашиков и К°, 2004, – С. 34.

qiladi; professional ijtimoiy muammolarni hal etishning zaxira usullarini izlaydi.

10.2. Ijtimoiy xodim ko'nikmalari

Ijtimoiy xodim ko'nikmalari ijtimoiy xodim kasbiy layoqatliligining axloqiy qadriyatlar, bilimlar va ijtimoiy ish jarayonlar bilan bir qatorda ajralmas va juda muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko'nikmalarda asosiy axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ish prinsiplari namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ish etikasida ijtimoiy xodim va uning xulqini boshqarishga oid qadriyatlar, qoidalari mavjud. Xulq modelini tuzilmalashtirish (Rimer, 1995, 11-bet). Etika va xulq asoslarining ahamiyati. Ijtimoiy ishning ijtimoiy xodimlarning munosabatlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari bilan bog'liq bo'lgan vazifasining tabiatи bevosa ta'minlanishi ham ta'sir qiladi.

Axloq qoidalari va kasbiy xulqdagi taqiqlar. Etika odob-axloq huquqi, qoidalari bilan bevosa ta'minlanishi bog'liq. Ular ijtimoiy xodimning xatti-harakatlari, o'zini tutishi bilan bog'liq. Etika kasbiy jihatdan ijobiy va salbiy harakatlarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kasb va kasbiy axloq qadriyatlar bilimlarga asoslangan texnik va empirik tadqiqotlar bilan bir qatorda harakatlarni va qaror qabul qilish mezonlarini, intervention usullar va tajribalarni ham ta'minlaydi.

Kasb va tadbirlar kogerent qiymatlar to'plamini, uning axloqiy me'yorlari va xizmatlarni qamrab olgan holda axloqiy me'yorlarni aks ettirishi lozim. Ijtimoiy xodimlar milliy uyushmasining axloq Kodeksi ijtimoiy xodimlar uchun mo'ljallangan axloqiy prinsiplarni qamrab olgan. Ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy ishning huquqiy qoidalari doirasida etika bo'yicha NASW kodi qabul qilingan (Xardkastl, 1990). Ijtimoiy xodimlar boshqalarga xizmat qilishni barcha narsalardan ustun qo'yadilar. Ijtimoiy xodimlar odamlarga yordam berish va ularning ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun o'z bilimlari, qadriyatları va

ko'nikmalariga tayanishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar o'zlarining kasbiy mahoratlarining ma'lum qismini moliyaviy daromad kutmagan holda (beg'araz tarzda) boshqalarga yordam ko'rsatish uchun sarflaydilar (NASW, 2003, «Axloqiy prinsiplar», 4-band).

Ijtimoiy adolatning mohiyati barcha ijtimoiy xodimlar “ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chiqishlari”dan iborat (NASW, 2003, «Axloqiy prinsiplar», «5-band»). Etika va ijtimoiy ish – barcha kasbiy aloqalarning poydevori hisoblanadi (Kutchins, 1991).

Mijozlar ijtimoiy xodimlardan kasbiy malakani kutish huquqiga egalar. Mutaxassislar o'z xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari, faoliyatlari doirasida mavjud bo'lgan cheklov larga amal qilishlari talab etiladi. Nazariya quyidagilarni taqozo qiladi: ayollar va erkaklar qaysi jinsga mansub ekanliklari bilan bog'liq ravishda etikaning odatiy qoidalaridan ozod qilinmaydi.

Professionalning asosiy mas'uliyati 2500 yil avval, Gippokratning “Primum ne nosere” yoki “Ongli ravishda ziyon yetkazmaslik” qasamida aniq yozilgan va u asosiy qoidasi ijtimoiy mas'uliyat bo'lgan kasbiy axloqning asosiy qoidasi hisoblanadi. “Hech bir professional, u haqiqatan ham o'z mijozи uchun yaxshilik qilishini va'da qila olmaydi. U qilishi mumkin bo'lgan barcha narsa – bu urinib ko'rishdir. Biroq u ongli ravishda ziyon yetkazmaslikni va'da qilishi mumkin. Va mijoz ham o'z navbatida, professionallarga ishonishi, ularning ongli ravishda ziyon yetkazmasligiga amin bo'lishi lozim. Aks holda u barcha holatlarda ham unga ishonolmay qoladi”.

Mijoz professional unga yordam ko'rsatish uchun barcha harakatlarni amalga oshirishini kutish huquqiga ega. Va ijtimoiy xodimning aralashuvi natijasida mijozga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday ehtimoliy xavflar ma'lumot taqdim qilgan holda rozilik olish yo'li bilan kafolatlanishi lozim. Ishonchga asoslangan mas'uliyat ijtimoiy xizmat vazifasiga xos va bir butunlik hamda kasbiy layoqat kabi qadriyatlar mohiyatlarida o'z ifodasini topadi. Ushbu

qadriyatlar ijtimoiy xodimlarga “o‘zlarini munosib tutish” uchun asos bo‘lib xizmat qiladi¹.

Ijtimoiy xodimning asosiy ko‘nikmalari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

➤ Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalari: tahlil qilish, boshqarish, mulohaza yuritish (refleksiya) mahorati;

➤ Hissiyotlardan foydalanish ko‘nikmalari: tinglash va gapirish, kuzatish, hissiyotlarni anglash va ifoda qilish mahorati;

➤ Tanqidiy tafakkur va hissiyotlarni ifoda qilishni o‘zaro birlashtiruvchi ko‘nikmalar: konstruktiv aks aloqani taqdim qilish va qabul qilish ko‘nikmasi, suhbat o‘tkazish, yetakchilik, kelishish va muhokama qilish mahorati, yordam ko‘rsatish mahorati.

➤ Ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘nikmalar: yoza olish mahorati, axborot texnologiyalarini bilish, axborotga oid savodlilik².

Boshqaruvchi prinsiplar (ko‘rsatmalar).

Ijtimoiy ishning asosiy qadriyatları, ya’ni shaxsning o‘z huquqini o‘zi belgilashidan tortib, birovlarga qayg‘udosh bo‘lishga qadar jihatlar ijtimoiy ish amaliyotining asosi hisoblanadi. Huquqini ilgari surishdan tortib, shaxsning empatiyasigacha bo‘lgan ijtimoiy ish amaliyotining asosidir. Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmat ko‘rsatishda ikkilanishlar va ehtiyojlar vujudga kelganda, mijozlar yoki ularning ishonchli vakillari bu kabi muammolarga duch kelganlarida ijtimoiy xodimlar mijozning o‘z fikrlarini izhor qilish prinsiplaridan foydalanishlari mumkin (NASW, 2004). Ijtimoiy xodimlar madaniy xabardorlik va madaniy malakaga ega bo‘lib, unda ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislar hurmat bilan javob berishadi va barcha madaniyat, til, sinf, etnik guruh, qobiliyat, din, jinsiy qarashlar va boshqa turli xil vazifalariga

¹ David A. Hardcastle Patricia R. Powers Stanley Wenocur Community Practice: Theories and Skills for Social Workers, Second Edition. – Oxford New York OXFORD UNIVERSITY PRESS/ 2004. – P 19-20.

² Ким Л.Э., Исаева Д.И. Практика социальной работы с детьми и семьями. Учебно-методическое пособие к курсу «Практика социальной работы с детьми и семьями». Проект «Укрепление образования, практики профессии «Социальная работа» в Узбекистане», РЦСЛД – ТГИК – МВССО – МНО – ЮНИСЕФ.Ташкент, 2011г.

qaramasdan barcha odamlarning qadr-qimmati, nufuziga hurmat bilan qaraydilar va buni tasdiqlaydilar (NASW, 2001).

Ijtimoiy xodimlar insonning atrof-muhitini, jumladan, sog‘lijni saqlash umumiyligi xizmatlarini taqdim qilish tajribasiga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni ko‘rib chiqadilar. Ijtimoiy xodimlar sog‘lijni saqlashning makro, mikro darajalarida faoliyat olib boradilar va bu bilan mahalliy, davlat, mintaqalar darajalaridagi sog‘lijni saqlash tizimlaridagi siyosatning o‘zgarishi va rivojlanishiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega. Sog‘lijni saqlash sohasida ijtimoiy ish olib borishni tahlil qilish, u nafaqat shaxslar va oilalarga, balki kasbni rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir o‘tkazishini namoyon qiladi. Mazkur standartlar har qanday sog‘lijni saqlash muassasalarida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy ish xodimlarga yo‘riqnomani taklif qiladi¹.

1. Ijtimoiy xodim kasbiy ko‘nikmalarining asosini kommunikativ ko‘nikmalar yoki muloqot ko‘nikmalar tashkil etadi. Muloqotning verbal (nutqiy) va noverbal (nutqqa oid bo‘lgan) ko‘nikmalari ajratib ko‘rsatiladi. Verbal muloqot refleksiyaning (mijoz hissiyotlarini ifodalash ko‘nikmalari), savol bera olish mahoratini taqozo qiladi. Noverbal muloqot imo-ishoralar, mimika, muloqotda masofa saqlash, atrofdagi vaziyat, nutq ohangi, pauza qilish va hokazolarni qamrab oladi.

2. Ijtimoiy xodimning keyingi muhim ko‘nikmasi qayd qilib borish ko‘nikmasidir. Ijtimoiy ish amaliyotida mijoz bilan muloqotni qurish asosi bo‘lgan shakllar va hujjalarning ulkan miqdori mavjud – vaziyatni ta’riflash, mijoz ehtiyojlari va xavflarni baholash, mijoz bilan ish olib borish rejasini ishlab chiqish, ijtimoiy ish va uning natijalarini kuzatib borish, hisobotlar yozish, taqdim qilishdan iborat. Qayd qilib borish ko‘nikmasi u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘nikmalar – ma’lumotni tahlil qilish ko‘nikmasi, xulosa qilish, asos va faktlarni keltira olish, bir so‘z bilan aytganda, isbotlarga asoslangan amaliyotni

¹ National association of social WORKERS 2005. Professional Development and Practice Competencies in Clinical Social Work a Position Statement of the American Board of Examiners in Clinical Social Work, published March, 2002. Copyright ABECSW 2002, all rights reserved. – P 11.

amalga oshirishni ham qamrab oladi. Ijtimoiy ish jarayoni to‘liqligicha qaydlarning sifatiga bog‘liq bo‘ladi, shu sababli mijozga nisbatan tahqirlash tilidan foydalanmaslikning axloqiy prinsiplarini yodda tutish, uydirma, tekshirilmagan ma’lumot va izohlarga emas, balki faktlarga tayanish lozim.

3. Ijtimoiy xodimning ipotetik modeli o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan sifat va jihatlar tizimining mavjudligini namoyon qiladi. Bu shaxsnинг ijtimoiy soha mutaxassis faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, insonga nisbatan insonparvarlik munosabatlari, odamlar bilan ishlashga moyillik, ijtimoiy xodim faoliyatiga nisbatan chuqur intilish, teran rivojlangan kasbiy ong va shaxsiy tafakkur, ijtimoiy ish olib borishga ruhiy jihatdan tayyorlik kabi asosiy tarkibiy qismlari va xususiyatlari hisoblanadi. Shubhasiz, ijtimoiy ish sohasidagi professionalning nazariy modeli ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksi talablariga mos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy xususiyatlari, rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish va tayyorlik, jamiyatdagи o‘zgarishlarga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish kabi omillarni qamrab oladi.

Ijtimoiy ishning universal qadriyatlari. Ijtimoiy ishning universal bilimlari. Ijtimoiy ishning universal ko‘nikmalari.

Quyida ijtimoiy xodimning ayrim universal ko‘nikmalari va qobiliyatlari keltirilgan:

1. Muloqot qilish ko‘nikmalari:

- mijozlar, bolalar, hamkasblar va boshqa professionallar bilan shaxslararo muloqot;

2. Baholash va rejalashtirish ko‘nikmalari:

- to‘liq baholash maqsadida ma’lumot to‘plash va tahlil qilish;
- baholashga asoslangan aniq reja va bitimlarni ishlab chiqish;
- ishni muntazam ravishda tahlil qilish.

3. Professional aralashuv va ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalari:

- mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish olib borish;

- hamjamiyat bilan ish olib borish;
- hamkasblar va boshqa professionallar bilan hamkorlik qilish;
- zarurat tug‘ilganda rejalarini qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish.

4. Professional qaydlar ko‘nikmasi:

- mijoz ishini olib borish;
- hisobotlar va yozuvlar.

5. Jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalari:

- tashkilotda qabul qilingan siyosat, jarayonlar, maqsad, vazifalarni bilish va tushunish;
- o‘zi faoliyat olib borayotgan tashkilot manfaatlarini himoya qilish.

6. Hamkasblar va boshqa professionallar bilan ishlash qobiliyati:

- faoliyat davomida o‘zaro samarali munosabatlarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash;

- g‘oyalar va ma’lumotlar bilan bo‘lishish ko‘nikmasi.

7. O‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi:

- o‘z vaqt va yuklamasini rejalashtirish;
- o‘zini tushunish va o‘z-o‘zini baholash qobiliyati.

8. Superviziya (kasbiy nazorat va murabbiylilik):

- mas’uliyatlari yondashuv (superviziya tayyorlik, aniqlik va h.k.);
- hamkasblar va rahbarlarning maslahatlariga ochiqlik.

9. Kasbiy qadriyatlarga oid qarashlar va munosabatlar:

- ijtimoiy ish etikasini bilish va tushunish;
- o‘z-o‘zini doimiy rivojlantirib borish va ta’lim olish.

10. Nazariya va amaliyotni qiyoslay olish qobiliyati:

- ijtimoiy ishning nazariy asoslarini bilish va tushunish;
- tajribani yaxshilash uchun tegishli nazariyalardan foydalanish.

Bolalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy layoqatini tashkil etuvchi maxsus qadriyatlar, bilim va ko‘nikmalarga quyidagi larni misol qilib ko‘rsatish mumkin:

Asosiy bilimlar:

➤ Anglash:

- oila, oilaviy muhit tizimi, oila tushunchasi tarix kontekstida, oilaning turli tuzilmalari, oila vakolatlari prinsiplarini;
- bog'lanib qolish yoki birlashish, ajralish, yo'qotishlar va shaxsiy rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratgan holda shaxsiy o'sish va rivojlanishni;
- bolalar ustidan zo'ravonlik qilish va bolalarga nisbatan beparvo munosabatda bo'lish jarayonlarini;
- muayyan aholining madaniy farqlari, xususiyatlarini va aralashuv, baholashni amalgalashish qamrab olishni;
- bolalarni, ko'p bolali oilalarni davlat qaramog'iga olish, bolalarni qarindoshlari tarbiyasiga berish, bolalarni internatlarga joylash-tirishning oldini olish, oila rishtalarini saqlab qolish, oilalarni birlash-tirish va farzandlikka olish bo'yicha xizmatlar taqdim qilishni;
- inqiroz chegarasida turgan oilalar ishiga aralashuv kabi xizmat-larni taqdim qilish, ota-onalik ko'nikmalarini yaxshilash bo'yicha treninglar o'tkazish, nizolarni hal qilish va individual hamda guruhga oid maslahatlarini tashkil etishni va h.k.

➤ Bilish:

- mijoz ishini olib borish usullari va vositalarini (keys-menejment);
- ijtimoiy himoya davlat tizimi va bolalarni himoya qilish tizimini;
- doimiy ravishda bolaga g'amxo'rlik qilish va oiladan tashqaridagi hayotini ta'minlash rejasini tuzish prinsiplari va h.k.

➤ Quyidagilar bilan tanishish;

- kambag'allik, tahqirlash va deprivatsiya muammolarining o'ziga xos xususiyatlari;
- spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish va ularning bolalar rivojlanishi va oila farovonligiga ta'siri;
- jamoada va oilada zo'ravonlik dinamikasi, jumladan oiladagi zo'ravonlik va jarohatlar ta'siri;
- bolalar va oilalar uchun sog'liqni saqlash, ruhiy salomatlik, giyohvandlikni davolash, ta'lif, voyaga yetmaganlar uchun sud, jamoat

- oilalar bilan kasbiy munosabatlarni o‘matish va saqlab qolish;
- tinglay bilish;
- oson moslashish;
- o‘jar mijozlar bilan, ayniqsa dushmanlarcha munosabatda bo‘lgan yoki qarshilik qiluvchi mijozlar bilan ishslash;
- qonunchilik tizimi, jumladan, hujjatlar va sud ko‘rsatmalari bilan ishslash;
- bola va oila daromadlarini qo‘llab-quvvatlash hamda oila va jamoani qo‘llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.

➤ Quyidagilarga layoqatlislik:

- bolalar zo‘ravonligi, bolalarga beparvolik holatlarini aniqlash va baholash hamda bolaning oiladagi xavfsizligini ta’minlash;
- oila bilan muzokaralar olib borish, harakatlar rejasini baholash va amalga oshirish;
- xizmat taqdim qilish to‘g‘risidagi shartnoma maqsadlarini amalga oshirish uchun oilalar va asosiy organlar bilan ish olib borish;
- rivojlanishning turli bosqichlarida bolalar va o‘smlarga nisbatan inson xulqi to‘g‘risidagi bilimlar va aralashuvning muvaffaqiyatli usullarini qo‘llash.

➤ Asosiy qadriyatlar. Quyidagilarga ishonish:

- barcha odamlar vaziyatni o‘zgartirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tiganmas, qayta tiklanuvchi va ortib boruvchi (aqliy, jismoniy, hissiy, ijtimoiy va ma’naviy) qobiliyatlar zaxirasiga ega;
- har bir bola doimiy ravishda oilada yashash huquqiga ega;
- har bir bola va har bir oila a‘zosiga o‘z ehtiyojlarini qondirish va o‘z maqsadlariga erishish uchun kuch to‘plashda yordam ko‘rsatish zarur.

➤ Majburiyatlar:

- faoliyat davomida asosiy e’tibor bolaga, oilaga qaratilgan va ularning qadr-qimmatini aniqlash yondashuvlardan foydalanish;

- bolaning oiladagi xavfsizligini ta'minlash;
- yuqori darajadagi maxfiylikni ta'minlash;
- natijalarga erishish amaliyotining hisobdorligini ta'minlash;
- sifatli kasbiy xizmatlarni taqdim qilish;
- o'z vazifasini amalga oshirish maqsadida doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borish.

➤ Quyidagilarga hurmat ko'rsatish:

- turli irq, din, etnik tegishlilik va madaniy merosga ega bo'lgan odamlarga va xilma-xillikning muhim ekanligiga bo'lgan ishonchga;
- har bir insonning munosib munosabatga, individuallikka va o'z yo'llini o'zi belgilash huquqiga.

➤ Madaniy layoqatlilik.

Ijtimoiy xodimlar mijozlar guruhining tarix, an'analar, qadriyatlar va oila tizimi to'g'risidagi bilimlarini, ularning tibbiy-sanitar yordam va qaror qabul qilishga bo'lgan munosabatlarni rivojlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari lozim. Ijtimoiy ish amaliyotida madaniy layoqatlilikni ta'minlash maqsadida NASW standartlariga rioya qilishda (NASW, 2001) ijtimoiy xodimlar madaniy guruhlardagi xilma-xillikka nisbatan sezgirlik va xabardorlikni namoyon qilishlari va ushbu bilimlarni o'z amaliyotlarida qo'llashlari lozim. Begona madaniyatlar va salomatlikka oid qarashlarning tan olinishi, hurmat qilinishi va tushunilishi mijozlar va ularning oilalari bilan terapeutik muolajalar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy xodimlar o'zlarining madaniy e'tiqodlarining kasbiy va shaxsiy hayotlarining boshqalarga ta'sir ko'rsatishiga shaxsan mas'uldirlar.

Sog'lijni saqlash sohasida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlar har bir mijoz va oilaviy o'zaro munosabatlarga madaniy hurmat va tushunish istiqbollari nuqtayi nazaridan yondashishlari lozim. Ijtimoiy xodimlar etnik, madaniy, ma'naviy va diniy omillar salomatlik va parvarish sxemasiga amal qilishdagi tanlovga ta'sir o'tkazishi mumkinligini tan oladilar. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish salomatlik bilan bog'liq jiddiy muammolari mavjud, hayoti tugashi bilan bog'liq

tashxis qo‘yilgan mijozlar bilan ish olib borishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy xodimlar mijozga ish faoliyatida yordam berish va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribalarni kuzatish davomida oila tizimiga ham e’tibor qaratishga mas’uldirlar¹.

Nazorat savollari:

1. Muloqot o‘zi nima?
2. Muloqotning ijtimoiyligi nimada namoyon bo‘ladi?
3. Ijtimoiy xodim shaxsining rivojlanishida muloqot qanday o‘rin tutadi?
4. Muloqot shaxslararo munosabatlarga qay tarzda ta’sir ko‘rsatadi?

¹ National association of social workers 2005. Национальная ассоциация социальных работников Эльвира Крёйг де Сильва, DCB, ACSW Президент NASW (2005-2008) Элизабет Дж Кларк, доктор философии, ACSW, MPH Исполнительный директор. – Р 19-20.

11-BOB. IJTIMOIY ISH AMALIYOTIDA AXLOQIY IKKILANISHLARNI O'RGANISHDA QAROR QABUL QILISH JARAYONI

- 11.1. Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanishlarning turlari.
- 11.2. Axloqiy qadriyatlar va prinsiplar ixtilofi vaziyatida qaror qabul qilish jarayoni.
- 11.3. Evtanaziya muammosi ikkilanish (dilemma) sifatida.

11.1. Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanishlar turlari

Amaliyot jarayonida ijtimoiy xodimlar ularni shaxsiy qadriyatları va kasb qadriyatları o'rtaсидаги низоларга ўзма-уз келишларини сабаб бо'лувчи vaziyatlarga duch keladilar. Ijtimoiy xodimlar milliy uyushmasining Axloq Kodeksi (NASW, 1999) ijtimoiy xodimlar amal qilishi lozim bo'lgan kasbiy xulqning olti nafar asosiy qadriyatları va axloqiy prinsiplarini ajratib ko'rsatgan. Ushbu axloqiy qadriyatlar va axloqiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

➤ Xizmat ko'rsatish. Ijtimoiy xodimlarning asosiy maqsadi yordamga muhtoj odamlarga yordam ko'rsatish va ularning ijtimoiy muammolarini hal etishda qo'llab-quvvatlash.

➤ Ijtimoiy adolat. Ijtimoiy xodimlar ijtimoiyadolatsizlikka qarshi chiqadilar.

➤ Inson qadri va nufuzi. Ijtimoiy xodimlar insonning tug'ilgandan ega bo'lgan qadri va nufuziga hurmat bilan munosabatda bo'ladilar.

➤ Inson munosabatlarining muhimligi. Ijtimoiy xodimlar inson munosabatlarining markaziy ahamiyatini tan oladilar.

➤ Bir butunlik. Ijtimoiy xodimlar o'zlarini munosib tarzda tutadilar.

➤ Layoqatlilik. Ijtimoiy xodimlar o'z vakolatlari doirasida amaliyot o'taydilar va o'z kasbiy tajribalarini oshiradilar.

Mazkur qadriyatlar va prinsiplar ijtimoiy xodimni mijozning shaxsiy hayot va o‘z-o‘zini namoyon qilish huquqlarini himoya qiluvchi hamda hurmat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishni talab qiluvchi Kodeksga muvofiq faoliyat olib borishi lozim.

Prinsiplar axloqiy jihatdan o‘rganish uchun loyiq, deb hisoblangan mijozlar yoki mijozlar xulqi turlari o‘rtasidagi farqlarni aks ettirmaydi. Kasbning axloqiy standartlari sohasida amaliyot olib borayotgan ijtimoiy xodim mazkur prinsiplarni barcha mijozlarga nisbatan tajribada qo‘llashga majbur. Mazkur jarayon xodimning shaxsiy va kasbiy qadriyatlar o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lgan holda yengilroq kechadi.

Ijtimoiy xodim shaxsiy va kasbiy qadriyatlar kabi raqobatlashuvchi qadriyatlarning to‘qnashuvi sodir bo‘lgan vaziyatga duch kelganda nimalar sodir bo‘ladi? Aslida ideal holatda ular o‘rtasida yuqori darajadagi muvofiqlik bo‘lishi maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Biroq shunga qaramasdan, haqiqiy voqelik ko‘pincha, biz o‘z tajribamizga o‘zimizning hayotiy tajribalarimiz orqali shakllangan shaxsiy, asosiy qadriyatlar, qarashlar va hattoki noto‘g‘ri fikrlarimizdan iborat bo‘ladi. Biz shaxsiy qadriyatlarimiz va hayot tajribamizni bizning ijtimoiy ishga oid qadriyatlarimiz bilan dissonans yaratishi mumkin bo‘lgan muhimlikning yuqori darajasi, deb ta’rif beriladi.

NASW Axloq kodeksi (1999). Ijtimoiy xodimlarning milliy uyushmasi axloqiy Kodeksi (NASW) ijtimoiy xodimlarni mijozlarning ichki qadr-qimmati va qadriyatlarini hurmat qilish va har bir insonga g‘amxo‘rlik qilish hamda hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yo‘naltiradi. Amaliyotga qo‘llagan holda mazkur prinsip shuni anglatadiki, ijtimoiy xodimlar o‘z mijozlarining ichki qadriyatları va qadr-qimmatini hurmat qilishlari, o‘z mijozlari shaxsini boricha qabul qilishlarini namoyon qilishlari shart. Ular mijoz qadrini tahqirlovchi yoki noinsoniy munosabatda bo‘lish imkonini beruvchi subyektiv qarashlardan qochishlari lozim. Biroq shunga qaramasdan, amaliyot jarayonida, biz xulqi yoki munosabatlari bizning shaxsiy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan mijozlar bilan to‘qnashamiz.

Inson harakatlarining noto‘g‘riligi va shaxs qadr-qimmatini farqlashda yordam zarur bo‘lgan hollarda biz qanday harakatlarni amalga oshiramiz? Biz xulqi eng yaxshi holatda nomaqbul bo‘lgan va yomon holatda qabih bo‘lgan shaxslarni muhokama qilmaslikka harakat qilamiz. Agar biz barcha mijozlarning ichki qadriyatlari va qadr-qimmatini hurmat qilishga intilsak, u holda biz inson qadriyati sifatidagi xulqning yaxshi yoki yomon ekanligini qay tarzda ajratib olishimiz mumkin? Xorij olimlaridan Zastrov va Kirst-Ashmanlarning (2007) ta’kidlashicha, ijtimoiy xodimlar kasbiy rivojlanishning turli darajalarida va o‘zining butun karerasi davomida bir-biriga zid bo‘lgan axloqiy prinsiplarning to‘qnashuvি uchun hech qanday ideal yechim bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga duch keladilar. Bu kabi holatlarda biz o‘z kasbimiz qadriyatlari va etikasi bilan to‘qnashmagan tarzda nizolar vositasida faoliyat olib borishni o‘rganishimiz muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy jihatdan qaror qabul qilishning samarali modellari mavjud ekanligiga qaramasdan, ijtimoiy xodimlarga axloqiy ikkilanishlarni hal etishda yordam ko‘rsatish uchun, ijtimoiy xodimning qaror qabul qilish usuliga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muayyan jarayonlar va omillar o‘rganilgan mazkur masalaning murakkab tabiatи tufayli adabiyotlar yetishmovchiligi mavjud (Doyl va boshq., 2009). Mazkur jarayonning natijasi sifatida boshqa holatlarda ochilmay qolishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri fikrlar va subyektiv qarashlarni yanada teranroq anglash namoyon bo‘ladi. Harakatlarning mazkur yo‘nalishi ijtimoiy xodimning shaxsiy va kasbiy o‘sishi va rivojlanishi, samaraliroq faoliyat olib borishida muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy ikkilanish – bu ikki va undan ortiq axloqiy qadriyatlар teng qiymatga ega bo‘lganda, biroq ixtilof holati vujudga kelganligi sababli inson to‘g‘ri qaror qabul qilish vaziyatiga tushib qolganda paydo bo‘lgan vaziyatdir¹.

Qaror qabul qilishning axloqiy jarayoni – bu amaliyotchi uning vositasida yuzaga kelgan axloqiy ikkilanishlarni hal etishga urinuvchi jarayondir. Ijtimoiy ishdagi ko‘plab bayonnomalar axloqiy nazariyalar, tegishli professional adabiyotlar, qoidalar, axloq kodekslari va xulq standartlari, maslahatlarga murojaat qilgan holda to‘g‘ri yondashuvni izlovchi ijtimoiy xodimning qadam-baqadam ta’rifini qamrab oladi.

Axloqiy ikkilanish o‘zi nima? Axloqiy ikkilanishni o‘rganishda mavjud vaziyatda bo‘lishi lozim bo‘lgan uchta shart mavjud. Ijtimoiy ish xodimi eng maqbul yo‘lni tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda vujudga keladi.

Noqulay bo‘lgan, biroq tanlashni talab etmaydigan vaziyatlar axloqiy ikkilanish vaziyati hisoblanmaydi.

Masalan, talabalar dala amaliyotida mutaxassis instruktor rahbarligi ostida bo‘ladilar. Bu masalada hech qanday tanlov mavjud emas, talaba vaziyatni rahbar bilan muhokama qilganda axloqiy og‘ish yoki maxfiylikning buzilishi kuzatilmaydi.

Axloqiy ikkilanishning ikkinchi sharti shundan iboratki, tanlash mumkin bo‘lgan turli harakatlar mayjud.

Uchinchidan, axloqiy ikkilanishda harakatlarning qaysi yo‘nalishi tanlanishidan qat‘i nazar, ayrim axloqiy prinsiplar tahdid ostida qoladi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda ideal yechim mayjud emas.

Axloqiy ikkilanish nimani aks ettirishini ta’riflashda etika, qadriyatlar, axloq, shuningdek, qonunlar va siyosat o‘rtasida farqlarni aniqlab olish lozim. Kasb yoki guruh a’zolari tomonidan qo‘llaniladigan etika standartlari vaziyatdan kelib chiqqan holda harakatlarning to‘g‘ri yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Etika qaror qabul qilish uchun mantiqiy va oqilona jihatlarga, anglash jarayonlariga tayanadi¹. Boshqa tomonidan esa, qiymatlar biz qadrlaydigan g‘oyalarni izohlaydi.

Biz qadrli deb hisoblagan va biz uchun yuqori qiymatga ega bo‘lgan narsalarni qadrlashimiz lozim. Ko‘pincha qiymatlar bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyot yoki affektiv tarkibiy qismlar vujudga keladi.

¹ Конгресс, 1999; Dolgoff, Loewenberg, и Harrington, 2009; Рицер, 1995; Робисон&Рицер, 2002.

Ko'pincha biz erishishga intilgan, tenglik va ijtimoiy adolat kabi g'oyalar qadriyat hisoblanadi. Axloq u taqdim qilingan jismoniy shaxs xulqining xulqiy kodeksini ifodalaydi.

Ko'pincha ijtimoiy ish amaliyotida professionallar sarosimalik, xavotir va qo'rquv, ular qabul qilishlari lozim bo'lgan qarorlar uchun aybdorlikni his qilishlari mumkin. Mazkur vaziyatning sabablari ijtimoiy xodimning haqiqiy, ayrim holatlarda murakkab va ziddiyatli rolini aniq anglamaslik, uni ideallashtirish, qoida va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarning mavjud emasligi yoki oddiygina vaziyatga avvaldan tayyorlanish hamda tajriba o'rganish imkoniyatining mavjud emasligidan iborat. Aynan shu sababli ijtimoiy xodimlarga ta'lim berishning muhim qismi tanqidiy tafakkur va refleksiya ko'nikmalariga o'qitish, ularni shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanishlar ijtimoiy xodim "axloqiy prinsiplar nizosiga olib kelishi va qaysi tanlov to'g'ri bo'lishi aniq bo'lmagan ikkita bir xil alternativ qarorlar" dan birini tanlash zaruratiga duch kelgan holatlarda vujudga keladi. Xorijiy mualliflarning fikriga ko'ra, axloqiy ikkilanishlarni belgilab beruvchi holat shundan iboratki, bu vaziyatda hech qanday yechim yo'qdek bo'lib ko'rindi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy xodim, garchi murakkab yechimga duch kelsada, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qaror to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lgan "axloqiy muammo" nuqtayi nazariga zid.

Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanishlar odatda, uchta asosiy masalalar atrofida mujassamlashadi:

1. Individual huquqlar va farovonlik.
2. Jamiyat farovonligi.
3. Tengsizlik va tuzilmaga oid ravishda tahqirlash.

Biroq shunga qaramasdan, ijtimoiy ishning boshqa ikkita asosiy qadriyatlari va prinsiplari muallif tafakkurida aniq aks etgan, bular: ijtimoiy xodimlarni muhtojlarga yordam ko'rsatishga yo'naltiruvchi xizmatlar narxi va ijtimoiy manfaatlarni o'z manfaatlaridan yuqoriga

olib chiqish, shuningdek, har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilishning ahamiyati (NASW, 1999).

Axloq kodeksi axloqiy me'yorlar va individual javobgarlikka oid natijalar doirasidagi ko'rsatimalarni taqdim qilishi mumkin bo'lsa-da, u axloqiy nizolar va ikkilanishlarni hal etish uchun aniq qadamlar tashlash imkonini bermaydi. Qaror qabul qilishning ayrim axloqiy modellari ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi amaliyotchilar faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo'lgan axloqiy ikkilanishlarni hal etishda yordam ko'rsatish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur sohada faoliyat olib borish uchun juda foydali bo'lgan ushbu modellarning asosiy elementlarining qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Ma'lumotga oid xabarlarni to'plash va muammo tafsilotlarini aniq ta'riflash;
2. O'z shaxsiy qadriyatlarini boshqa kasbiy standartlardan ajratib olish masalasiga oid axloqiy prinsiplarni e'tiborga olish;
3. Jamiki jarayon davomida boshdan kechirgan ichki kabi tashqi nizolar va bosimlarni o'rganish;
4. Ehtimoliy imkoniyatlarni aniqlash va oqibatlarining taxminiy natijalar haqida mulohaza yuritish;
5. Harakatlarni tanlash va afzal hisoblangan harakatni amalga oshirish;
6. Mazkur qaror natijalari va ehtimoliy oqibatlarini baholash.

11.2. Axloqiy qadriyatlar va prinsiplar ixtilofi vaziyatida qaror qabul qilish jarayoni

Axloqiy qarorlarni qabul qilish jarayoni odatda, keskinlik, nizolar va muayyan darajadagi mavhumlikda kechganligi sababli ijtimoiy xodimlar o'zlarining kareralarining dastlabki bosqichlarida ularning faoliyat olib borishlari davomida yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan mutaxassislarga maslahat va nazorat qilishlarini so'rab murojaat

qilishlari lozim. Bu holatda kuzatuvlar, ayniqsa, ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi ayniqsa foydali bo'ladi.

Birinchidan, bu qaror qabul qilishning axloqiy jarayonida shaxsiy va kasbiy qadriyatlar o'rtasida vujudga kelgan ikkilanishlar tufayli paydo bo'lgan keskinlik bilan bog'liq bo'lgan axloqiy prinsiplarni o'rganishga va nizolarni to'laqonli ravishda hal etishga urg'u bergen holda qaror qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kuzatishlar olib borish jinsiy aloqalarga oid jinoyatchilar bilan ishlamaslik istagini alohida ta'kidlab o'tuvchi mulohazalar va hatto munosabat hamda holatlarni tadqiq qilish imkonini beruvchi refreyning jarayonini o'rganish va boshlash imkonini beradi¹.

Axloqiy noaniqlik sharoitida ijtimoiy xodimda paydo bo'lувчи xavotir va qat'iyatsizlikning ayrim sabablari:

- ✓ Yangi, nostandard vaziyatda tayyorgarlik va bilimlarning mavjud emasligi;
- ✓ Ijtimoiy xodimning, masalan, g'amxo'rlikni namoyon qilish yoki nazorat qilish, shuningdek, maxfiylik bilan bog'liq bo'lgan qoidalardagi o'rniga oid aniqlikning mavjud emasligi;
- ✓ Shaxsiy maqomiga ishonchning mavjud emasligi, ayniqsa boshqa kasblarga nisbatan;
- ✓ Vaziyatni to'liq kompleks tahlilini amalga oshirmsandan turib mijozning ehtiyojlari va huquqiga nisbatan tor doiradagi qarashlar;
- ✓ Vaziyatning murakkabligini anglash, uning bosimi ostida qolish.

Axloqiy ikkilanishlar teng qiymatli axloq qadriyatları, prinsipları yoki standartları o'rtasida nizo mavjud bo'lgan vaziyatlarda vujudga kelishi mumkin. Axloqiy ikkilanishlarning kelib chiqishi shuningdek, ijtimoiy xodimning jarayonning turli ishtirokchilarga nisbatan – mijozlarga nisbatan, ijtimoiy xodim a'zosi bo'lgan agentlikka nisbatan,

¹Erin B. Comartin, LMSW Dissonance Between Personal and Professional Values: Resolution of an Ethical Dilemma, A. Antonio González-Prendes, Ph.D. Wayne State University Detroit, Michigan Journal of Social Work Values and Ethics, Volume 8, Number 2 (2011). Copyright 2011, White Hat Communications. – P. 3.

o'zaro munosabatga kirishuvchi tashkilotlar va umuman jamiyatga nisbatan majburiyatlari bilan ham bog'liq. Ayrim hollarda bir tomonning manfaatlariga amal qilgan holda ijtimoiy xodim boshqasiga nisbatan etika qoidalarini buzishi mumkin. Biroq axloqiy kodekslar turli vaziyatlarga oid batatsil ko'rsatmalar va harakat qoidalarini taqdim qilganligiga qaramasdan, ijtimoiy ish amaliyoti shunchalik xilma-xilki, axloqiy kodeks barcha vaziyatlarni ham qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Bu kabi holatlarda faoliyat olib borish jarayonida nafaqat puxta o'ylangan va to'g'ri qaror qabul qilish, balki nisbatan tajribali rahbarlar yordami, jamoadagi hamkasblarning maslahatlari ham talab etiladi. Axloqiy ikkilanish vaziyatida qaror qabul qilish jarayoni tanqidiy tahlil ko'nikmalarini, vaziyatni to'liq tahlil qilishni va tuzilmalashtirilgan tarzda harakat qilishni talab etadi.

Axloqiy ikkilanishlar yuzaga kelgan vaziyatda qaror qabul qilish jarayoni quyidagi algoritmga ko'ra qurilishi mumkin:

- ✓ Mijozning qanday huquqlari haqida gap borayotganligi haqida o'ylab ko'ring.
- ✓ Mijozning eng a'llo manfaatlari nimalardan iborat.
- ✓ Bu jarayonga mijozning o'zidan tashqari yana kimlar qamrab olingan.
- ✓ Mijozlarning mazkur toifasi qonunchilik jihatidan, qaysi professionallar tomonidan qanday himoya qilingan.

❖ **Axloqiy vaziyatga misol**

Quyidagi vaziyatni ko'rib chiqamiz, ijtimoiy xodimlar duch kelgan real hayotiy muammo:

1. Bolaning o'limi.

Syu o'zining besh haftalik o'g'li Jekni cho'miltirdi va ikki kishilik krovatning o'rtafiga yotqazdi. U uch nafar bolalaridan biri bo'lgan Jekni u bilan o'ynab o'tirgan eriga tashlab ketdi. U qaytganida esa Jekni qattiq uxlab qolgan Xolning (Syuning eri) ostida yotgan holda topdi va eslashi mumkin bo'lgan birgina narsa, Jekning ko'karib ketganligi va u hali ham uyg'onmagan erining ostidan tortib olishga harakat qilganligi.

U 911ga qo‘ng‘iroq qildi va so‘ngra mahalliy kasalxonadagi tezkor terapiya amaliyotlari, so‘ngra eng yaqin yirik gospitalning tezkor terapiya bo‘limida uch kun davomida amaliyotlar amalgaga oshirildi. Tibbiyat xodimlari Jekning yurak urishini 10 daqiqaga qaytara oldilar, uchunchi kuni esa uning miyasi o‘lganligi e’lon qilindi.

Shifokor bolada ko‘karishlar yoki singan suyaklar bor-yo‘qligini aniqlash maqsadida dori-darmonlar va tanani skaner qilishga buyurtma berdi. Shu tarzda shifokor bolaning o‘z krovatchasida yotganida, uyqu holatida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan to‘satdan chaqaloq o‘limi tashxisini qo‘yishni xohlagan edi.

Debora ismli ijtimoiy xodim, bu noto‘g‘ri, degan xulosaga keldi. “Biz nima bo‘lganligini bilmaymiz, degan izoh mavjud. Bu yerda ayrim yetishmayotgan parchalar mavjud. Syuning aytishicha, Xol spirli ichimlik iste’mol qilgan. Biroq Jek katta bola bo‘lgan – tug‘ilganida 11 funt va besh haftalik bo‘lganda 13 funt bo‘lgan. Xol Jekning nafas olish uchun kurashganini his qilmagan bo‘lishi mumkin emas. Biroq u Xol o‘z o‘g‘lini atayin bo‘g‘ib o‘ldirganligini hatto xayoliga ham keltirmagan. U chuqur afsus va nadomatni namoyon qildi, kasalxonada qolishni istadi. Uch kundan so‘ng Jek vafot etdi. Ular boshqa bolalarga g‘amxo‘rlik qila boshladilar va oilaning buzilishiga sabab bo‘luvchi holatlardan hech biri sodir bo‘lmadi. Uning ish joyi tayin, oilaning sug‘urtasi mavjud va hokazo.

Debora ikkilanish vaziyati vujudga kelganini his qildi. Agar o‘lim holati Xolning aybi bilan sodir bo‘lgan bo‘lsa, u holda tergov harakati boshlanadi, oila o‘zining boshqa bolalarini ham yo‘qotishi mumkin va oila bundan zarar ko‘radi. Biroq, agar o‘lim baxtsiz hodisa sifatida ro‘yxatga olinsa, bolaning o‘lim holati aniqlanmasdan qoladi. “Shifokor o‘lim beparvolik oqibatida bexosdan sodir etilgan, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Yana bir muhim jihat, u boshqa bolalarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan vaziyatni rag‘batlantirayotganini his qilar edi. Afsuski, o‘lim haqidagi ma’lumotnomha o‘lim tasdiqlangandan so‘ng 48 soat

ichida berilishi lozim, shu sababli Debora nima qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun juda oz vaqt bor edi.

Agar Xol o‘z o‘g‘lini o‘lguncha do‘pposlagan holat bo‘lganda Debora nima qilish to‘g‘risidagi sud qarorini qabul qilish bilan bog‘liq muammoga duch kelmagan bo‘lar edi. Biroq Xol afsus chekar va Jek jonlantirish bo‘limida bo‘lgan vaqt davomida kasalxonada qolgan edi. U o‘z o‘g‘lini qasddan o‘ldirgan kishi sifatida harakat qilmas va oilada uch farzand bo‘lgani bilan oila tarixida shunga o‘xshash biror bir hodisa sodir bo‘limgan. Shu sababli, Debora Xolning ustidan politsiyaga xabar berishi zarurligiga ishonchi komil emas.

Biroq Xol uyg‘onmagan. Biz ham Debora kabi, hushi joyida odam bu kabi vaziyatda xattoki mo‘jiza yaratishi mumkin, deb hisoblaymiz. “Balki u sarhush bo‘lgan. Biroq nima sodir bo‘lganini bilmasdan turib, biz Xolning mas’uliyati haqida axloqiy mulohaza nuqtayi nazaridan qaror chiqarishimiz to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin emas”.

Bu juda og‘ir va murakkab vaziyat. Aslida u hattoki alohida holatda ham mazkur vaziyatning murakkab ekanligini ko‘rsatuvchi barcha uchta muammoni ilgari suradi:

- Axloqiy ikkilanish darajasini oshiradi.
- Bu aslida ham murakkab muammo.
- Bu konseptual jihatdan ham murakkab muammo.

Bunga sabab Debora Xol haqiqatan ham jinoyatchimi u o‘z o‘g‘lining o‘limi uchun javobgartmi, degan savolga aniq javob bera olmaydi va u politsiyaga qo‘ng‘iroq qilish zarurmi yoki ish shundayligicha ketaversinmi, degan axloqiy ikkilanishga duch keladi.

Mazkur jihatlar zarar yetkazishi mumkin. Agar u politsiyani chaqirmsa, u o‘zining hukumat organlariga spiritli ichimliklarni suiste’moli haqida xabar berish kabi huquqiy va axloqiy majburiyatlarini bajara olmaydi va uning bu ishni amalga oshirmasligi Xolning boshqa bolalarga ziyon yetkazishiga sabab bo‘lishi mumkin, biroq u politsiyaga qo‘ng‘iroq qilsa, u oilaga zara yetkazishi mumkin.

Biz axloqiy ikkilanishga duch keldik.

Axloqiy ikkilanishlar biz nima qilishimiz zarurliligi orasida tanlov vujudga kelganda paydo bo‘ladi. Deboraning ikkilanishi axloqqa oid, chunki, u o‘lim vaziyati haqida xabar berishning huquqiy va axloqiy majburiyatiga ega, biroq agar u bu majburiyatni ado etsa, xavflar oilaga zarar yetkazadi.

Ayrim axloqiy ikkilanishlar oson hal etiladi. Deboraning qonunda belgilangan vazifasi tufayli bu ish oson ko‘rinishi mumkin, ammo uning shubhalarini oqlaydigan aniq dalillari yo‘q. U zo‘ravonlik alomatlarini ko‘rmaydi, lekin qanday qilib otasi bilmasdan o‘z farzandining o‘limiga sabab bo‘lishi mumkin, deb o‘yaydi. Unda ma’lumotlar yetarli emas, u nima qilishi to‘g‘ri bo‘lishiga ishonch hosil qilishi lozim. Biz Debora qanday qarorlar qabul qilishi lozim ekanligini aniqlash uchun harakatlar oqibatida yetkaziladigan zararni tadqiq qilishimiz lozim. Ushbu axloqiy ikkilanish juda murakkab bo‘lishi mumkin. Agar u ikki variantga ega bo‘lganida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar jihatidan teng tarzda muvozanatlashtirilishi, yoki biri ikkinchisidan yomon bo‘lmasligi mumkin. Bu holda biz nima qilishni bilmay qolar edik. Biz nimadir qilishimiz mumkin bo‘lgan har qanday holatda ham, biz axloqiy nuqtayi nazardan qoniqarsiz harakatni amalga oshirishimiz aniq. Agar men ikkita turli ishni bir vaqtda amalga oshirishga va’da beradigan bo‘lsam va ayni vaqtda men ularni bajara olmasam, men va’dalarimning birini buzishimga to‘g‘ri keladi.

Axloqiy ikkilanishlar muammosini hal etish tanlovlар о‘rtasida qaror qabul qilishni talab etadi va bu muammo ko‘pincha to‘g‘ri tanlovni amalga oshirish imkoniga ega bo‘limgan holatlarimizda chuqurlashib ketadi. Bu kabi muammolar har qanday kasbdagi kabi ijtimoiy ishni ham qamrab oladi.

Ijtimoiy ishning samaradorligi ko‘p jihatdan ijtimoiy xodimga, uning bilimlari, tajribasi, shaxsga oid xususiyatlariga bog‘liq. Biroq mutaxassisning kasbiy mas’uliyati uning o‘zi tomonidan emas, balki kasbiy tashkilotlar – Ijtimoiy xodimlar uyushmasi tomonidan qabul

qilingan qadriyatlar va axloqiy prinsiplar bilan belgilanadi. Ijtimoiy ish qadriyatlari va axloqiy prinsiplari kasbning amaliy faoliyat uchun aniq yo‘nalish bo‘lib xizmat qiluvchi axloqiy kodekslarida aks ettirilgan.

Kodeks kasb vakillari kasbiy tashkilotning munosib a’zolari bo‘lib qolishlari uchun o‘z harakatlarini qiyoslashi lozim bo‘lgan xulq qoidalari ifodalaydi. Ko‘plab kasblarning axloqiy kodekslari universal qoidalari va prinsiplarga ega, biroq har bir aniq kasbning o‘ziga xos qoidalari mavjud.

Ijtimoiy xodimlarning axloqiy kodeksi nimalarni qamrab oladi?

Buni AQSH Ijtimoiy xodimlari kodeksi misolida ko‘rib chiqamiz.

AQSH ijtimoiy xodimlarining axloqiy kodeksi 1979-yilda AQSH Ijtimoiy xodimlarining milliy uyushmasi delegatlarining Assambleyasida qabul qilingan. Bu ko‘p yillar davomida professionallar tomonidan qabul qilingan bir nechta kodekslarning oxirgisi hisoblanadi. Kodeksda bayon qilingan prinsiplar ko‘rsatmalar kabi taqiqlovchi qoidalari bo‘lib ham xizmat qilishi mumkin. Ular ijtimoiy xodimlarning mas’uliyatlari va majburiyatlarini belgilagan holda kodeksning oltita asosiy qismlarida bayon qilingan.

Kodeksning birinchi qismida ijtimoiy xodim xulqi va uning kasbiy majburiyatlarining umumiy masalalari, jumladan, kasbiy halollik, layoqatlichkeit, tadqiqot ishlarida ishtirok etish kabi masalalar tadqiq qilinadi.

Kodeksning ikkinchi qismi ijtimoiy xodimlarning mijozlar oldidagi axloqiy mas’uliyatlariga bag‘ishlangan, u nisbatan batafsil yoritib berilgan. Unda mijoz manfaatlarining afzalliklari muammolari, mijozdan faqatgina foyda olish uchun foydalanish, tahqirlash, mijozlar bilan jinsiy munosabatlar, mijozlar haqidagi ma’lumotlarni uchinchi shaxsga yetkazilishi, mijozlarning o‘z-o‘zini namoyon qilishi muammolari muhokama qilinadi.

Kodeksning uchinchi qismi ijtimoiy xodimlarning hamkasbleri oldidagi mas’uliyatiga bag‘ishlangan. Unda boshqa professionallar bilan muloqot jarayonida vujudga keluvchi masalalar ilgari surilgan.

Mazkur qism hamkasblar bilan hamkorlik, xushmuomalalik muammolari, hamkasblardan shaxsiy foyda olish, nizolarni hal etish maqsadida foydalanish, hamkasblarni kuzatish va baholash, hamkasblari mijozlariga vaqtincha xizmat ko'rsatish muammolari masalalarini tubdan yoritib beradi.

Kodeksning to'rtinchi qismi ijtimoiy xodimlarning ish beruvchilar va ish taklif qiluvchi tashkilotlar oldidagi axloqiy mas'uliyatlari muammolariga bag'ishlangan. Unda ijtimoiy ishning tegishli agentligi oldidagi o'z majburiyatlarini to'liq bajarish zaruratiga tegishli bo'lgan masalalar, ya'ni unda qabul qilingan jarayonlarga muvofiq tarzda harakat qilish, muassasa siyosatining manfaatlariga amal qilish, uning samaradorligini oshirish, manbalardan oqilona foydalanish masalalari muhokama qilinadi.

Kodeksning beshinchi qismi ijtimoiy xodimlarning o'z kasbi oldidagi axloqiy mas'uliyatlari masalalariga tegishli. Mazkur qismda kasbning qadriyatları va vazifasini saqlab qolish, ijtimoiy ish bo'yicha bilimlarni qo'llash va rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Mazkur qismda xodimlarning o'z kasbi sharifi va nufuzini himoya qilishdagi mas'uliyati; hamkasblarning ishning noqonuniy yoki malakasiz amaliyotini qamrab olgan noaxloqiy xulq namoyon bo'lgan holatlarda mas'uliyat chegaralari belgilanadi.

Kodeksning oltinchi qismi ijtimoiy xodimlarning jamiyatga nisbatan munosabatlari sharhlangan. Unda ijtimoiy xodim quyidagilarga majbur ekanligi yozilgan: har qanday shaxs va guruhlarning tahqirlanishining oldini olish va imkon bermaslik, barcha odamlarga zarur manbalardan foydalanish imkoniyatini kafolatlash, ijtimoiy ko'lamdagagi favqulodda vaziyatlarda xizmat ko'rsatish, siyosat va qonunchilikdagi o'zgarishlarni himoya qilish, jamoatchilikning ijtimoiy siyosat va muassasalarning shakllanishidagi malakali ishtirokini ta'minlashga imkoniyat yaratish.

Kodeksda bayon qilingan prinsiplarning uncha katta bo'limgan ro'yxatidan ham ularning ayrimlari mavhum, ijtimoiy adolat va jamiyat

farovonligiga tegishli bo‘lgan maskuraga oid ekanligini yorqin namoyon bo‘lmoqda. Ular ijtimoiy xodimga, nimaga intilish lozim ekanligini ko‘rsatib beradi. Boshqa prinsiplar ijtimoiy xodimlar o‘z vazifalarini kutilganidek bajarishlari mumkin bo‘lgan o‘ziga xos qoidalarni belgilab beradi, vaholanki mazkur qoidalarning buzilishi rasmiy ravishda shikoyat qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, kodeks ijtimoiy xodimlarni amaliyatda uchrashi mumkin bo‘lgan axloqiy ikkilanishlarni hal etishga yordam beradi. Keyingi yillarda ijtimoiy xodimlar mazkur muammoga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar.

Dilemma so‘zi yunon tilidan mulohaza yoki bittasini tanlash lozim bo‘lgan, o‘zaro bir-birini inkor qiluvchi ikki qoidani qamrab olgan mulohazalar yoki xulosalarni anglatadi. Bizning holatda mazkur so‘zning ikkita imkoniyatdan birini tanlash zaruratini belgilab beruvchi ko‘chma ma’nosи nazarda tutiladi.

Dillema ijtimoiy xodimlarning faoliyatini tang ahvolga solib qo‘yishi mumkin bo‘lgan turli axloqiy ikkilanishlarga duch kelishlariga to‘g‘ri keladi. Qiyinchiliklarning ko‘p qismi ikkita yoki undan ortiq qarama-qarshi majburiyatlar va vazifalar o‘rtasida tanlovnı amalgaloshirish zarurati bilan bog‘liq.

Ko‘pincha xavotirga sabab bo‘luvchi axloqiy ziddiyatlar xabarlarning maxfiyligi va shaxsiy tabiat; rost gapirish majburiyati; paternalizm va o‘z-o‘zini anglash; muassasa qonunlari va qoidalaringa amal qilish; xabar yetkazish; cheklangan manbalarni taqsimlash, shaxsiy va kasbiy qadriyatlar nisbati va boshqalar bilan bog‘liq. Ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Axloqiy ikkilanish o‘zi nima? Bolalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy ta’midot xodimlari o‘z faoliyatları davomida qator ikkilanish(dilemma)larga duch keladilar. Ularning ayrimlari shaxsiy, ayrimlari ijtimoiy, boshqalari esa qonuniy bo‘ladi. Ular muqarrar tarzda axloqiy ikkilanish bo‘lib hisoblanadi. Bu bolalarni ijtimoiy himoya qilish xizmati xodimlari uchun juda muhim jihat, ular bajarayotgan

ishlarni va qonun asosida harakatga keltirayotgan sohalarni hamda ular qancha huquqshunoslar va sud tizimi bilan ish olib borishlarini yodda saqlash va e'tiborga olib qo'yish lozim.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish xodimning ko'p sonli majburiyatlar yoki qonun tomonidan belgilanadi, sud tartibida yuklatiladi.

Albatta, barcha qonunga amal qilishga majbur ekanligini e'tiborga olish lozim. Biroq shunga qaramasdan, qonuniy bo'lgan barcha narsalar ham axloq talablariga mos, degani emas. Xulqning huquqiy jihatdan belgilangan ayrim modellari ularning axloqiy tomoni bilan yaqin joyda joylashishi mumkin emas.

Bir muallif axloqiy ikkilanishning o'ta foydali ta'rifini taqdim qilgan. Uning so'zlariga ko'ra: "Axloqiy ikkilanish ikkita o'zaro eksklyuziv harakatlar yo'nalishi o'rtasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tanlovni aks ettiradi. Bu ikkita mahsulot, yoki foyda, yoki qadriyatlar, yoki ikki turli narsalardan bosh tortish bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxs yoki tashkilotlarning oldida turgan tanlovlар nisbatan teng bo'lgan qadriyatlarga nisbatan bir me'yorda va muvozanatlashtirilgan bo'lishi lozim. Agar tanloving bir tomoni ehtimol boshqa tomoniga nisbatan qadrliroq, to'g'ri, yaxshi yoki istalgan bo'lsa, u holda hech qanday ikkilanish mavjud emas, chunki, tanlov jarayonida ko'proq istalgan tomonga moyillik kuzatiladi".

Mazkur ta'rifda ikkita tanqidiy elementlar mavjud:

✓ Tanlovlар, tadim qilingan dilemmalar o'zaro bir-birini inkor qilishidan iboratligi haqidagi fikrlar (bir o'zi harakatning ikki yo'nalishini amalga oshira olmaydi). Agar ikkala (yoki bir qancha) prinsipga mos keladigan "axloqiy" jihatdan qoniqtiradigan harakatlarni amalga oshirish imkonи mavjud bo'lsa, ikkilanish vujudga kelmaydi. Faqatgina ushbu harakatni amalga oshirish mumkin.

✓ Tanlov nisbatan muvozanatlashtirilgan va nisbatan teng qadrga ega bo'lishi lozim. Agar ushbu variantlardan birini amalga oshirish orqali erishilgan yutuq ikkinchisining foydasidan ustunroq bo'lsa, u

holda ikkilanish mavjud emas (xuddi avvalgisi kabi, bu yovuzlikdan qochish atamalari vositasida ifodalaniши mumkin – agar yovuzlikdan qochish A variant bo'lsa, yovuzlardan qochishning muqobil varianti B bo'lsa, u holda dilemma ham mavjud emas).

Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayrim odamlar uchun bu ularning madaniyati va tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lган ikkilanish (dilemma) bo'lishi mumkin. Ehtimol ularga haqiqatni oshkor qilish yakuniy maqsad va har qanday vaziyatda ham haqiqatni gapirish to'g'ri, deb o'rgatilgan.

Ayrim dilemmalar qonuniy bo'lishi mumkin, ayni vaqtda esa boshqalari kasbiy yoki shaxsiy bo'lish ehtimoli mavjud. Bu ushbu dilemmalar murakkab va mavjud emasligini anglatmaydi. Ular haqiqatan ham mavjud. Axloqiy dilemmalar – bu axloq, to'g'ri va noto'g'ri masalalarga sabab bo'luvchi muammolardir. Agar savollarda "axloqiy jihatdan majburiy" narsa mavjud bo'lmasa, hech kimda axloqiy dilemmaga duch kelmaydi. (Albatta, axloqiy ikkilanishlarda shuningdek, huquqiy, kasbiy va shaxsiy hisoblangan tarkibiy qismlarni ham qamrab olishi mumkin)¹.

Mazkur model xodimni baholash yo'naliishlarining bir nechta mezonlarini taklif etadi.

Model to'rt bosqichni qamrab oladi.

Birinchidan, xodim ayrim tayyorgarlik, aniqlovchi va aks ettiruvchi faoliyatda ishtirop etishi lozim.

Ikkinchidan, xodim "uy vazifasi" bosqichida ishtirop etishi shart.

Uchinchi bosqich dilemmaning o'zida qaror qabul qilishni talab etadi.

Va nihoyat, to'rtinchi bosqich shundan iboratki, amalga oshirilgan harakatlar taxminlarning asosli ekanligini baholash va agar bu harakat kutilmagan oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, dilemmaga nisbatan

¹Child Welfare Ethics and Values. The material in this module was written by Brian Simmons, MSW, PhEd.2003. California Social Work Education Center (CalSWEC) University of California, Berkeley. – P 11.

qo'llanilgan yondashuvni qayta ko'rib chiqishni talab etishini namoyon qilishdan iborat.

Model to'liqligicha quyida keltirilgan.

Definitson ish haqidagi umumiylar ma'lumotlar.

A. Muammo yoki dilemmani aniqlash. Xodim vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida imkon qadar ko'proq ma'lumot to'plashi zarur. Muammo nimada? Mazkur muammo haqiqatan ham axloqqa oidmi yoki bu muammoning qandaydir boshqa turimi (masalan, shaxsiy, shaxslararo, huquqiy yoki kasbiy, shuningdek, bu mazkur muammolarning barchasining birikmasi bo'lishi ham mumkin)? Dilemmadan yana kimlar zarar ko'rghan? Ularning vaziyatlarga bo'lgan qarashlari xodim qarashlaridan nimasi bilan farq qilishi mumkin?

B. Vaziyatdan zarar ko'rGANLARNING huquqlari, majburiyatlari va farovonligi bilan bog'liq bo'lgan ehtimoliy muammolarni aniqlash. Raqobatlashuvchi axloqiy prinsiplar va chuqur ildiz otgan qadriyatlar nimalardan iborat va ijtimoiy xodim ularni qanday ko'radi? (Xodim ularni nafaqat kasb prinsiplarida belgilangan qiymatlar ro'yxatidan, balki o'z tarbiyasi, madaniyati, diniy e'tiqodi va o'z qadriyatlarini namoyon qilgan boshqa manbalarga tayangan holda shakllantirishi lozim). Xodim aniq harakat qilishi lozim. U ularni aniq nomlashi va ular haqida, aslida ular nimani anglatishi va mazkur vaziyatda qanday qo'llanilishi haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishi lozim. Raqobatlashuvchi qadriyatlar nimalardan iborat? Xodim o'zini shaxsiy, ildiz otgan, uning ongli qadriyatli tizimining bir qismi bo'lgan teran qarashlari va taxminlarini shakllantirishi va tan olishi zarur.

Xodim buni o'zi uchun amalga oshirgandan so'ng (buni amalga oshirish uchun mavjud imkon darajasida) mazkur mashqni nizoning bir qismi bo'lgan boshqa odamlarning har biriga nisbatan ham amalga oshirishi lozim. Xodim tegishli fakt va omillarni o'z shaxsiy nuqtayi nazaridan emas, balki odamlarning qarashlaridan kelib chiqqan holda o'rganishi lozim.

Boshqa shaxslar tomonidan qanday qadriyatlar dilemma sifatida ifodalanadi? Ishtirokchilarning qarashlari nuqtayi nazaridan qadriatlarda bilishi mumkin bo‘lgan har qanday madaniy farqlarni ko‘rib chiqing. (Shubhasiz, xodim boshqalarning ikkilanish (dilemma) bilan bog‘liq istiqbollari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Biror kishi imkon qadar ko‘proq harakat qiladi, shu jumladan, aniq ma‘lumot yetishmayotganida empatik yondashuvni qo‘llaydi).

Idealda har bir xodim kodeksning o‘z shaxsiy nusxasiga ega bo‘lishi lozim, biroq agar buning imkonи mavjud bo‘lmasa, har bir xodim zarurat tug‘ilganda quyidagi havola orqali tezkor ravishda nusxa ko‘chirib olish imkonи mavjud ekanligini bilishi lozim.

Bundan tashqari, Illinoys shtati juda foydali bo‘lgan “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha mutaxassislar uchun axloq kodeksi”ni yaratdi. (nusxasi har bir stajyorga beriladi).

Agentlik, odatda, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi bayonot yoki shunga o‘xshash ko‘rsatmalar shaklidagi boshqaruv prinsiplarining shaxsiy to‘plamiga ega. Bundan tashqari, boshqa bir qator prinsiplar to‘plami (masalan, ma‘naviy, diniy, insonparvarlikka oid, ijtimoiy, falsafiy) va ulardan biri yo‘riqnomasi sifatida foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lishi mumkin.

Xodimning qaror qabul qilish jarayoni.

1. Murakkablik. Tahlil o‘ta murakkab bo‘lishi mumkinmi? Agar u juda yuzaki bo‘lsa, ilgari surilgan savollar ularga ajratilishi lozim bo‘lgan e’tiborga sabab bo‘lmasligi mumkin. Tahlilda mavjud g‘oyalari keng ko‘lamli, ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq bo‘lishi zarur. Ayniqsa, chuqur tahlil dilemma va muammolarni izchil ravishda keng ko‘lamda va turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqadi.

2. Ongli ravishda xabardorlik. Xodim aniqlangan dilemmani hal etishda uning shaxsiy qadriyatlari qanday o‘rin tutishini halol va vijdonan belgilab olishini namoyon qilishi mumkinmi? U buni to‘g‘ri amalgalashganmi?

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xodim doimiy ravishda o'z istiqboli, qadriyatları va qarashları yo'nalişlarını aniq bilishini namoyon qiladi, mazkur istiqbollar, qadriyatlar va qarashlarning rolini tan oladi. Mavjud variantlar: ular ko'pincha o'z shaxsiy qarashları, istiqbollari va taxminlarini takroran ko'rib chiqishda ishtirok etadilar.

3. Ongli ravishda xabardorlik. Xodim o'zining shaxsiy qadriyatları hal etilishi lozim bo'lgan ikkilanishlarni hal etishda qanday o'rın tutishini vijdonan va ongli ravishda namoyon qiladimi? Bu tegishli ravishda amalga oshirilganmi?

4. Anglash teranligi. Tahlil qilish kasbning mohiyati va axloqini, ayniqsa, bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha mutaxassislarning harakatlarini to'liq aks ettirish imkoniyatiga egami?

5. Muvofiqlik va mantiq. Tahlil qilish mantiqan to'g'rimi va taxminlar oqibatlar qanchalik mantiqiy?

6. Aks ettirish. Tahlil shaxsiy mulohazalarini aks ettiradimi? Chuqur tahlillarni amalga oshirish izchillik bilan mustaqil ravishda mohiyatni anglash va unga kirib borishni baholaydi. Tahlil qilish va qiyoslash uchun o'zini va boshqalarni tajriba nuqtayi nazaridan tahlil qilish masalalarini ilgari suradi. Ikkilanishlar yoki muammolarni hal etish yondashuvlarini sekin-astalik bilan shubha ostiga oladi va munozaralar jarayonida ishtirok etadi, bu esa o'z navbatida axloqiy qarorlar qabul qilishga sabab bo'ladi.

7. Relatsion hisobdorlik. Axloqiy ikkilanish doimo o'zini va hech bo'lmaganda bir kishini (qaysidir darajada boshqa birovni ham) qamrab oladi. O'z navbatida, ijtimoiy xodim tomonidan dilemmaning tahlil qilinishi faqatgina uning shaxsiy nuqtayi nazaridan kelib chiqmaydi: u ham shuningdek, boshqa tomon oldida qaror qabul qilish uchun (jumladan, qarorni amalga oshirish uchun ham) javobgar bo'ladi. Batafsil tahlil dilemmani mazkur dilemmadan zarar ko'rganlar nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi va dilemmani o'z shaxsiy harakatlari yoki boshqalarning xulqi oqibatlarini tan olgan holda hal etish maqsadida rahm-shafqat va hamdardlik darajalarini muhokama qiladi. Bundan

tashqari, oqibatlar odatda, oqibatlardan zarar ko'rganlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Xodim aynan mazkur bosqichda maslahatlar jarayonida ishtirok etishda foydali bo'ladi. Aslida dilemmaning o'zidan yiroq bo'lgan boshqa odamlarning g'oyalari va fikrlari xodimning faoliyatini baholashni yo'naltirishi uning shaxsiy tahliliy jarayoni uchun har doim foydali bo'ladi. O'z shaxsiy faoliyati to'g'risidagi shaxsiy fikriga tayanmagan holda tahlilni tashkillashtirishda bir butunlikning qo'shma darajasini kiritadi.

O'z-o'zini baholash tahlil jarayonidagi bo'shliqlarni namoyon qilgan holatlarda nima qilish zarur? Chunki inson axloqiy masalaning yaxshiroq yechimini topishga intiladi (aslida, inson buni amalga oshirishi lozim), xodim esa tahliliy jarayonning kuchsiz tomonlari hal etilmasdan turib keyingi qadamni amalga oshirmasligi lozim.

Amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish va harakatlarning eng ma'qul yo'nalishi. Tahlilning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, xodim qanday harakatlarni amalga oshirishi to'g'risida qaror qabul qilishi va muvofiq ravishda uni amalga oshirishi zarur¹.

Ikkinchi vaziyat. Agar uni birinchi misol bilan taqqoslaydigan bo'lsak, aytish mumkinki, bu yerda tamomila o'zgacha masala, boshqa darajadagi muammo ko'rib chiqilgan. Mening bir tanishim bor. Uning kasbi jarroh. Universitetda tahsil olgandan so'ng u amaliyot o'tagan va keyinchalik o'z faoliyatini jarroh sifatida davom ettirgan. Universitetda tahsil olishning ilk davrlaridan boshlab yuqori darajali jarroh bo'lib yetishish, oddiygina istak bo'libgina qolmay, balki, uning asosiy maqsadiga aylandi.

Ta'llim olish uning uchun juda zavqli bo'lgan. U o'z ish faoliyatini boshlaganda esa, unga qarab turib uning ishi – uning hayoti ekanligini darhol tushunish mumkin.

Biroq, qanchalik hayratlanarli bo'lmasin, bugungi kunda u jarrohlik bo'limida ishlamaydi, balki bevosita energetik bo'lgan holda loyiha

¹ Child Welfare Ethics and Values. The material in this module was written by Brian Simmons, MSW, PhEd.2003. California Social Work Education Center (CalSWEC) University of California, Berkeley. – P.12-15.

ishlari bilan shug‘ullanmoqda. Savol tug‘iladi – nima sababdan? U butun vujudi bilan intilgan hayotiy orzusi va maqsadi nima bo‘ldi?

Barchasi faqat birgina kun bilan izohlanadi. Hatto, bir kun emas, soniyalarda sodir bo‘lgan hodisa bilan izohlanadi. U bir necha yildan buyon jarrohlik amaliyoti orqali davolash bilan shug‘ullaniib kelar edi.

U navbatdagi jarrohlik amaliyotini o‘tkazdi va shundan so‘ng shifokorlik kiyimini bir umrga yechdi. Yakuniy natijasini shifokorlar ham avvaldan aytib berish imkoni bo‘lman juda murakkab jarrohlik amaliyoti edi, biroq bu amaliyot insonga hayotini qaytadan sovg‘a qilish imkoni ham edi. Uning jarrohlik stolida inson yuragi to‘xtab qoldi.

Shifokorlar nima ishlarni amalga oshirishi haqida gapirib o‘tirmayman, axir ular nima bilan shug‘ullanishlari shundoq ham ma’lum, shifokorlar – bu hissiyotlar, muhabbat iliqlikka to‘liq bo‘lgan, tashvishlardan holi baxtli kunlar taqdim qilishga yordam ko‘rsatgan holda bizning hayotimiz uchun kurashuvchi insonlardir. Mazkur jarrohlik amaliyotidan so‘ng u o‘z qarashlari doirasidan chetga chiqolmadi.

U o‘zining kelajakdagi taqdirini belgilab bergen tanlovni amalga oshirdi. Inson bu hayotdagi hamma narsalar ham bizga bog‘liq emasligini bilgan holda o‘z imkoniyatidan ortiq darajadagi ishlarni amalga oshira olmaydi, shuningdek, o‘z hayotini ongli ravishda har bir jarrohlik stoliga yotgan inson jarrohlikdan so‘ng ko‘zini ochmaslik ehtimoli yuqori bo‘lgan, doimiy ravishda o‘z yurak urishini his qilib turish murakkab bo‘lgan faoliyat sohasi bilan bog‘lagan – bu kishi jarroh bo‘ldi, biroq o‘z bemorining o‘limini qabul qila olmadi. Bu juda qiyin holat. Bu har bir inson ham ko‘tara olmaydigan ruhiy zo‘riqish hamdir.

O‘z kasbiy mahorat va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish ko‘nikmalariga qaramasdan, u yana qaytadan tibbiyot bilan shug‘ullanish, o‘z kabinetiga kelishi, o‘zi qutqarib qolishi lozim bo‘lgan odamning hayotini yo‘qotayotganligini anglagan lahzasini yodda

saqlagan holda davolash hamda jarrohlik ishlarini amalga oshirish bilan shug‘ullana olmaydi.

Oddiygina mazkur vaziyatni to‘g‘ri baholash va mazkur erkak amal qiladigan shaxsiy tushuncha va qadriyatları mavjud ekanligini tushunish lozim. Bu kabi qarorni qabul qilar ekan, u o‘zi uchun mazkur tanlov to‘g‘riq bo‘lishini anglab yetdi.

Biz deyarli har kuni murakkab vaziyatlarga duch kelamiz va qanday tanlovnı amalga oshirishimiz bizning ongimiz, yuragimizda mavjud bo‘lganlarga bog‘liq ravishda tanlovnı amalga oshiramiz. Axloqiy ikkilanishlar bizni butun hayotimiz davomida ta’qib etib keladi.

Mayda murakkab masalalar, nizoli vaziyatlar, baxslar va qarorlar, biz kimmiz va bizning ortimizda nimalar mavjud.

Axloqiy qarorlar qabul qilishning taxminiy modeli quyidagi qadamlardan iborat:

- ✓ Haqiqiy qadriyatni (ideal qadriyatni) aniqlab olish;
- ✓ Ijtimoiy (jamoat) qadriyatlarini aniqlab olish;
- ✓ Mijozni qaror qabul qilish jarayoniga qamrab olish;
- ✓ Mavjud mexanizmlarning barchasidan foydalanish.

Oddiy bo‘lib ko‘ringan mazkur model ijtimoiy xodimlar amaliyotda duch kelishlari mumkin bo‘lgan “qopqonlar”dan qochish maqsadida nisbatan to‘liqroq izohlanishi shart. Shu bilan birga axloq kodeksi aniq professional mexanizmlardan biri hisoblanadi, qolgan mexanizmalar rivojlantirishni talab etadi.

1. Haqiqiy (ideal) qadriyatlarni belgilab olish:

“Sen o‘ta haqqoniy bo‘lishing lozim. Sen boshqa odamni aldashing mumkin emas” – mazkur maslahat ijtimoiy xodimga amaliyot jarayonida yordam berishi mumkin. Biroq haqiqatgo‘y bo‘lish – bu mazkur haqiqatga ishonish demakdir. Masalan, barcha odamlar tenglikni hurmat qiladilar va qadrlaydilar. Irqiy, etnik, jinsiy, siyosiy, diniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga ko‘ra har qanday tahqirlash hamda birovlarining mehnatidan foydalanishga qarshi bo‘ladilar. Biroq aslida bu kabi tenglikni qanday amalga oshirish mumkin? Bu barcha

tirik mavjudotlarga xosmi yoki faqat insonlarni qilishini? Va abort(bola oldirish)ning afzalligini himoya qiluvchilar ular nimani himoya qilishlarini ochib berish lozim? Qanday holatlarda abortlarga ruxsat etiladi? Abortga ikki oylikdan boshlab ruxsat etilganligini tasdiqlash muayyan kuchga ega bo'lsa, u holda bu nuqsoni mavjud bo'lgan go'dakni o'ldirishga ham ruxsat berilganligi nazarda tutadi. Mazkur masalalar ijtimoiy xodimlar o'zlarini oldilarida rostgo'y bo'lishni xohlasalar o'z qadriyatlarini belgilab olishlari uchun ilgari suriladi.

Mutaxassis bir-biriga zid bo'lgan ikki qadriyatga amal qilgan hollarda, muqarrar ravishda dilemma (ikkilanish) yuzaga keladi. Masalan, mutaxassis homiladorlikni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida qaror qilish huquqiga ega, degan fikrga qo'shilsa-da, amaliyot davomida u abortga qarshi bo'lgan agentlik siyosatiga amal qilishi lozim.

2. Ijtimoiy (jamoat) qadriyatlarini belgilab olish:

Jamiyatda doimiy ravishda qadriyatlarning o'zgarishi sodir bo'ladi. Masalan, bizning bobolarimiz va buvilarimiz davrida qadrlangan narsalar bugungi kunda kulgili yoki tushunarsiz bo'lib ko'rinishi mumkin. Bugungi kunda inson huquqlarini hurmat qilish va tenglik sohasida ko'plab fundamental o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Yaqinda barcha insonlar teng huquqli ekanligi isbotlandi, masalan, keksalar, bolalar, ayollar, qora tanlilar va hokazo. Irqchilik va kamsitishlar jamiyatda mavjud bo'lar ekan, inson huquqlari hurmat va ehtiromni to'liq, deb hisoblash imkonini mavjud emas. Axloqiy xulq – bu ijtimoiy xodim kasbiy bilimlarining eng zarur qismlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ishdagi axloqiy ikkilanishlar ijtimoiy qadriyatlar ishlamaganda paydo bo'ladi. Masalan, totalitar tartib hukm surayotgan jamiyatda amaliyot olib borayotgan ijtimoiy xodim mazkur jamiyatning har qanday siyosiy harakatlarni bostirish kabi harakatlarini qabul qilishi lozimmi yoki u oliv, universal qadriyatlarni yoqlashi zarurmi?

3. Mijozni qaror qabul qilish jarayoniga qamrab olish:

Yuqorida keltirilgan ikki qadam ta’riflar, anglash va bilimlar bilan bog‘liq. Biroq bunda mijozning o‘rni qanday? Axloqiy masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar ko‘pincha ijtimoiy xodim va mijozning o‘zini faoliyatini cheklab qo‘yadi. Bu kabi cheklar mijozning yoshi, ishga layoqatliligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mijoz tomonidan “qabul qilingan qaror” kasbiy axloq qoidalariga zid bo‘lsa, u qanchalik amaliy bo‘lishi mumkin?

❖ Keys. *Masalan, Aziza T. – oilaviy maslahat bo‘yicha ijtimoiy xodim. U Yelenaga – rus millatiga mansub mijozga maslahatchi etib tayinlangan. Ijtimoiy xodim tomonidan o‘tkazilgan mashg‘ulotlар davomida Yelena o‘z muammolarini o‘zbek millatiga mansub muammolarni muhokama qilish unga noqulaylik tug‘dirayotganini aytib, unga boshqa (rus millatiga mansub) ijtimoiy xodimni ajratishlarini iltimos qildi.*

Mazkur holatda mijoz o‘zi mansub etnik guruhdan bo‘lgan mutaxassisni tayinlashlarini so‘rab murojaat qilmoqda. Boshqa mijozlar esa erkak-ijtimoiy xodimni, italiyalik, demokrat va hokazo ijtimoiy xodimlarni tayinlashni so‘rab murojaat qilishlari mumkin. Shunday ekan, mijozlarning istaklariga qanchalik rozi bo‘lish va bo‘lmaslik mumkin? “Istalmagan ijtimoiy xodimning” bilim va tajribasi samarali va kasbiy jihatdan ham yuqoriq bo‘lsa, u holda qanday harakat qilish lozim?

Mijoz rolini kuchaytirish. Ayrim mijozlar o‘zlariga oid masalalarda qaror qabul qilishda ishtirok etish uchun qo‘sishimcha yordam va bilimlarga muhtoj bo‘ladilar. Samarali va foydali texnikalardan biri mijozni ish faoliyatiga jalb qilishdan iborat. Mijoz rolining bu kabi kuchaytirishi shaxslararo muloqot tajribasini rivojlantirishga yordam beruvchi jarayon sifatida belgilanadi. Shuningdek, insonning yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishda ongli ravishda ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi, jumladan, insonga o‘z hayotidagi ijobjiy o‘zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O‘z kuchi va irodasiga ishonsa, u o‘z hayotida ijobjiy

o'zgarishlar sodir etish qobiliyatiga ega bo'ladi.

11.3. Evtanaziya muammosi dilemma (ikkilanish) sifatida

Evtanaziyaning axloqiy muammolari. Euthanasia (yunon tilidan – oson o'lim) – azoblarni yengillashtirish maqsadida hayotdan mahrum qilish. Evtanaziya bilan bog'liq muammolarning dolzarbligi shubhasiz, chunki, ular eng munozarali muammolar hisoblanadi. Foma Akvinskiy va Frencis Bekon kabi turli olimlar mazkur masalalar bilan shug'ullanganlar va aynan ular birinchi bo'lib mazkur atamadan foydalanganlar. F.Bekonning fikriga ko'ra, "shifokorlarning tuzalmaydigan kasallangan bermorlarga nisbatan burchi ularning o'lim azoblarini yengillashtirishdan iborat". Evtanaziya, (yunon tilidan – yaxshi, maqbul va tanatos – o'lim) – oson, xotirjam, og'riqlarsiz o'lim. "Evtanaziya" atamasi F.Bekon tomonidan kiritilgan bo'lib, unga ko'ra "shifokorning vazifasi faqatgina salomatlikni tiklashdan emas, balki kasallik tufayli vujudga keladigan azob va og'riqlarni yengillashtirishdan iborat... hech qanday umid bo'lmagan va faqatgina o'limni osonroq qilish uchun ham evtanaziya zarur va shuning o'zi ham ulkan baxt hisoblanadi". Mazkur so'zning to'rtta ma'nosi mavjud¹:

- ✓ bedavo dardga chalinganlarning o'limini yaqinlashtirish;
- ✓ o'lim to'shagida yotganlarning azobalarini yengillashtirish to'g'risida qayg'urish (Bekon sharhi);
- ✓ insonga o'limni tanlash imkoniyatini taqdim qilish.

Evtanaziya jarayonining o'zi ziddiyatli jarayon hisoblanadi, chunki, quyidagi savol vujudga keladi: bedavo dard kabi patologik holatga tushgan insonga, hattoki, buni o'zi so'rasha ham, o'lish imkoniyatini taqdim qilish mumkinmi?

O'z navbatida quyidagilarni qamrab oluvchi ixtiyoriy evtanaziya tushunchasi ham mavjud:

- ✓ hayotni tugatish maqsadidagi faol harakatlar, ya'ni o'limga olib keluvchi dori vositalarini tayinlash;

¹ Бекон Ф. Соч. в 2 т., т. 2. – Москва, 1978. – С. 269.

✓ passiv evtanaziya, ya’ni hayotni qo’llab turuvchi davolashni to’xtatish yoki uni rad qilish.

Mutaxassislar uchun yo’l qo‘yib bo‘lmaydigan harakat – bu inson (masalan, og‘ir tug‘ma nuqsonlari bo‘lgan bola) o‘z roziligini bera olmaydigan va evtanaziya to‘g‘risida qabul qilingan qaror uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga ololmaydigan holatda majburiy evtanaziya. Mazkur holatda mas‘uliyat jamiyat yoki hukumat vakili sifatida namoyon bo‘luvchi mutaxassis zimmasiga tushadi.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari hayotdan ixtiyoriy ravishda ko‘z yumish imkoniyati to‘g‘risidagi masalani hal etishga urinishlarni amalga oshiradilar. Ayniqsa, gap bedavo dardga chalingan, kuchli jismoniy og‘riqlarni his qilayotgan odamlar haqida borganda. Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari bemorning hayotini uzoq vaqt saqlab turish imkonini beradi va bu bilan qo‘srimcha ma’naviy-axloqiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Agar avvallari bemorlar odatda metastaza bosqichigacha yetib bormaganlar va haddan ortiq hamda zaiflashtiradigan og‘riqlarni his qilmagan bo‘lsalar, hozirgi vaqtda saraton kasalligiga chalingan bemorlarning ko‘p qismi mazkur azoblarni boshdan kechiradilar. Shu bilan birga, bemorning vaziyatni yengillashtirish yoki o‘zgartirish imkoniyati mavjud bo‘limgan yaqinlar va qarindoshlarning azob-uqubatlarini ham yoddan chiqarmaslik lozim. AQSHda amalga oshirilayotgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, amerikaliklarning yarmidan ko‘p qismi (jumladan, shifokorlar ham) chidab bo‘lmas og‘riqlarga sabab bo‘luvchi bedavo dardning oxirgi bosqichida bo‘lgan bemorning evtanaziyasini qo’llab-quvvatlaydilar. Ammo musulmon mamlakatlarida bu narsa qo’llab-quvvatlanmaydi.

Keys. 77 yoshli ayol 10 yil davomida shifokor X.Laanning kuzatuvida bo‘lgan. Unda saraton o’smasi aniqlanganini bilgan ayol darhol o‘z shifokoriga (X.Laanga) unga hayotdan ketish uchun yordam ko‘rsatishni iltimos qilib murojaat qildi. Shifokor unga rad javobini berdi va buni bemorning dardi unchalik og‘ir emasligi va u yana

birmuncha vaqt davomida og'riqlarni his qilmasdan yashashi mumkin ekanligini ta'kidlagan holda izohladi. Biroq birmuncha vaqt o'tganidan so'ng bemorning holati keskin yomonlashdi, ko'ngil aynishi va ich ketishi har soatda takrorlana boshladi. Oxir-oqibat X.Laan evtanaziyaga rozi bo'ldi. Bemor o'z tug'ilgan kunida o'lishga qaror qildi va barcha oila a'zolarini taklif qildi. Ayol shifokor va hamshira uchun uzoq yo'lga ketayotganda yeyiladigan an'anaviy golland pirogini tayyorladi. Barcha bemorning to'shami oldida to'plandi va shifokor unga inyeksiya qildi. (Amstyerdam. Gollandiya. Aprel 2000 y.).

Dunyoda ixtiyoriy evtanaziyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab tashkilotlar mavjud. Oxirgi 20 yil davomida Gollandiyada jamoat fikri hamdardlik sababli qotilliklarga va o'z joniga qasd qilish harakatlariga xotirjam munosabatda bo'la boshladilar. Gollandiya Yevropadagi evtanaziyani legallashtirishga intiluvchi yagona mamlakat emas. Belgiyada mazkur harakatni legallashtirish masalasi bo'yicha turli baxs va munozaralar olib borilmoqda. Shveysariyada esa o'z joniga qasd qilishga yordamlashish qonunni buzish sifatida baholanmagan holatlar ma'lum. Avstraliya hududining bir qismida evtanaziyaga ruxsat berildi. Biroq keyinroq mazkur qonun bekor qilingan. Oregon (AQSH) shtatida ayrim hollarda hayotdan ko'z yumish uchun vositalarni yetkazib berishga ruxsat etilgan. Buyuk Britaniya parlamenti 20 marotaba evtanaziyani legallashtirishni inkor qilgan.

1990-yildan 1995-yilga qadar evtanaziya masalasida amalga oshirilgan tadqiqotlar quyidagilarni namoyon qildi: jinoiy javobgarlikning (Yevropadagi yangi qarorlarga asosan) pasaytirilishi evtanaziyaning rasmiy ravishda qayd qilingan holatlarining ikki barobarga ortishiga olib keldi. Shu bilan birga, mazkur anonim manbalar ma'lumotlariga ko'ra shifokorlar bu kabi holatlarning 60%ni yashirganlar. 1995-yilda 9 ming atrofidagi bemorlar shifokorlarga ularga hayotdan ketishda yordam berishni so'rab murojaat qilganlar va 3600 kishiga bu kabi yordam ko'rsatilgan.

Statistika evtanaziya masalalari nazariy darajadan amaliyot

sohasiga o'tganligini yaqqol ko'rsatmoqda. Niderlandiya tibbiyot uyushmasi evtanaziya sohasida faoliyat olib borish istagini bildirgan shifokorlar uchun ixtisoslashtirilgan kurslarni tashkil etgan. Mazkur kurslarni tugatgan shifokorlarning fikriga ko'ra, ta'lif jarayoni hissiy tabiatga ega. Ularni bemor tomonidan ko'rsatiladigan psixologik bosimga qay tarzda qarshi turishni o'rgatadilar. Og'riqni yengish va bemorlarga chidab bo'lmaydigan sharoitlarda (to'xtovsiz og'riq, yutish imkoniyatining mavjud emasligi, kislorod yetishmoqchiligi va h.k.) yordam berishga o'rgatadilar. Aniq ma'lumotlarni taqdim qilgan holda kasallik tarixini yetkazib berish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, kursni tugatgan shifokorlarning o'zлari evtanaziyani amalga oshirishlari taxmin qilinadi. Ular o'z fikrlarini bayon qilishlari va mazkur muammo bo'yicha masalahatlar berishlari, shuningdek, jarayonni amalga oshiruvchi shifokorlarga to'liq ma'lumot taqdim qilishlari lozim.

Mazkur harakatning Gollandiyada legallashtirilishi qator jiddiy masalalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, qanday azob va og'riqlar nisbatan jiddiy hisoblanishi mumkin – aqliy yoki jismoniy; vasiylik masalalarida yakuniy qarorni qabul qilishga kim haqli; kim bu kabi jarayonni amalga oshirishi lozim?

❖ *Keys. Axborot agentliklari va tarmoq nashrlarining (avgust, 2001-yil) xabarlariga ko'ra Buyuk Britaniya Oliy sudiga ixtiyoriy ravishda hayotdan ketish huquqiga erishish magsadida murojaat qilgan 42 yoshli ingliz ayoli Diana Pretti azobli tanlovni amalga oshirishiga to'g'ri keldi. Ayol 1999-yildan buyon asab tizimi bilan bog'liq bedavo dardga chalingan va endilikda turmush o'rtog'i va ikki nafar voyaga yetgan farzandlariga yuk bo'lishni xohlamaydi. Yaqin qarindoshlar Diananing evtanaziyani amalga oshirish qarorini qo'llab-quvvatladiilar.*

Bu kabi vaziyatlar ko'plab mutaxassislarning (shifokorlar, huquqshunoslar, ijtimoiy xodimlar, psixologlar) eng muhim axloqiy jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Dunyodagi hech bir shifokorning

bemorning azob-uqubatlarini yengillashtirish uchun o'ldiradigan zaharni tayinlashga haqqi yo'q. Evtanaziyaning axloqiy va huquqiy tomonlari shifokorlar faoliyati doirasiga kirmaydi. Evtanaziyaga ruxsat berish, olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni alohida ta'kidlab o'tmaslikning imkonini mavjud emas:

- ✓ tibbiyotning jinoyatlashtirilishi va jamiyatning sog'liqni saqlash institutiga ishonchning yo'qolishi;
- ✓ shifokor nufuzini tushirish va "kasbiy burch" tushunchasining o'zgarishi;
- ✓ kasbiy ko'nikmalarning pasayishi va kasbiy bilimlarning rivojlanish sur'ati;
- ✓ insonparvarlik va ma'naviy-axloqiy me'yorlar darajasining tushishi, "o'ldirma" prinsiplarining inkor qilinishi.

Jamiyatda evtanaziya g'oyasining tarqalishi axloqiy jihatdan qanchalik to'g'ri? Ma'naviy me'yorlar va elementar vijdonlilik ko'nikmalari buzilmayaptimi? Bemorlarning ularning o'limini kutayotgan qarindoshlari tomonidan evtanaziyaga majburlash holatlarini ham ko'p uchratish mumkin. Bemor ayol evtanaziyani amalga oshirishga qaror qilgan holat ma'lum bo'ldi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon sababli uning yaqinlari, jumladan uning xorijdan kelgan qarindoshi Amstyerdamda to'plandilar. Oxirgi daqiqalarda ayol birdaniga ikkilana boshlaganda oila a'zolari: "Axir u shuncha uzoq joydan bekorga kelmadiku", degan fikrni bayon qildilar. Shifokor evtanaziyani amalga oshirdi.

Ayni vaqtda ijtimoiy xodimlar mazkur kasbning axloq kodeksi bilan belgilab berilgan, inson o'z yo'lini o'zi aniqlash huquqiga ega, degan haqiqatni inkor qilishlari mumkin emas. Har bir individ uning harakatlari har doim ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin bo'lsa ham, tanlash huquqiga ega.

XXI asrning oxiriga kelib evtanaziya muammosi deyarli muhokama qilinmagan, chunki, aholining yuqori darajadagi diniy e'tiqodi va mavjud axloqiy me'yorlar inson hayotini Allohning inoyati,

deb hisoblashni taqozo qilgan va o‘z joniga qasd qilish gunoh hisoblangan.

Zamonaviy bosqichda evtanaziya muammosini “shifokor etikasi” va “tibbiyot deontologiyasi” muammolaridan kengroq masalalarni ilgari suruvchi bioetika nuqtayi nazaridan o‘rganish zarur. Birinchi navbatda tibbiyotdagi bu kabi muammolarning “miya o‘limi”, evtanaziya, obro‘-e’tibor bilan o‘lish, abortlar, bepusht qilish, sun’iy urug‘lantirish, organlar va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazish, genetik maslahat va hokazolar kabi axloqiy tomoni o‘rganilgan. Oxirgi vaqlarda SPIDga chalingan bemorlarga bo‘lgan munosabat, inson va hayvonlarni klonlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar ham qo‘sildi.

Nazorat savollari:

1. Axloqiy ikkilanish tushunchasi, axloqiy jihatdan asoslangan qarorlarni qabul qilish, axloqiy ikkilanishlarning vujudga kelish omillari.
2. Ijtimoiy ish paradokslari (aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini moddiy ne’matlar yordamida qo‘llab-quvvatlash, mijoz bilan hamkorlikda faoliyat olib borishning maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ma‘qullangan me’yorlarga amal qilish, mijoz manfaatlari va uning ehtiyojlarini himoya qilish hamda cheklangan manbalar).
3. Axloqiy ikkilanishlar (huquq va manfaatlar nizosi; ijtimoiy xodim va mijoz qadriyatları o‘rtasidagi farqlar; mijoz bilan kasbiy munosabatlar o‘matish zarurati).
4. Refleksiv amaliyot axloqiy ikkilanishlarni yengib o‘tish usuli sifatida.

12-BOB. TURLI MIJOZLAR VA MAQSADLI GURUHLAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH AMALIYOTINING AXLOQIY MASALALARI

12.1. Marginallashtiriluvchi guruhlar tushunchasi.

12.2. Marginallik sabablari. Marginal guruhlarning jamiyatdagi o'rni.

12.1. Marginallashtiruvchi guruhlar tushunchasi

Marginallik (lot. – chegarada turgan) – madaniyatlararo muloqotlar, ijtimoiy yoki texnologik siljishlar va boshqalar ta'siri ostida qolgan me'yoriy-qadriyatga oid tizimlarning zaiflashishi natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy hodisalar ta'rifi. Marginallikning sabablari: turli ijtimoiy guruhlar orasidagi sezilarli ijtimoiy masofa. Mazkur guruhlarning uzoq muddatli va har tomonlama o'zaro munosabatlari.

Marginallik (lotin tilida margo – chegara, sarhad) – ijtimoiy falsafa va sotsiologiyada shaxsnинг ruhiyati hamda turmush tarziga muayyan ta'sir o'tkazuvchi qandaydir ijtimoiy uyushmaga nisbatan chegara holatida ekanligini tahlil qilish maqsadida an'anaviy tarzda qo'llaniluvchi tushuncha¹.

Vaqt o'tishi bilan ijtimoiy fanlarda marginallik muammosini qabul qilish va anglashning bir nechta yo'nalishlari shakllangan. Marginallikni migrantsion va axloqiy jarayonlar doirasida o'rganishni davom ettirib kelayotgan amerika maktabi bunga yorqin misol bo'la olishi mumkin (R.Merton, Xarman, Vuds). Amerikalik olimlar marginallik hodisasini insonning ijobiy referent guruhga, real uyushmaga kirib borishidagi dastlabki ijtimoiylashtirilish bosqichi bilan ifodalanuvchi, qandaydir o'ziga xos, alohida, shaxsiy holat sifatida ta'riflaydilar. Shu

¹ Словопедия. Новейший философский словарь. [Электронный ресурс] – Режим доступа: – URL:<http://www.slovopedia.com/6/204/770756.html> (дата обращения: 4.10.2012).

bilan birga, marginallik hodisasini o'rganishda psixologik yondashuv ustunlikni saqlab qolmoqda, marginallikning o'zi esa insonning ijtimoiy tuzilmaning o'zgarishi va jamiyatning ijtimoiy mobillik darajasining ortishi davrida o'z-o'zi, o'zining ichki "Men"i, boshqa odamlar va jamiyat bilan ittifoqining vaqtinchlik buzilishi sifatida izohlanadi.

Marginalli va marginallashtiriladigan guruhlar muammosini tadqiq qilishning Yevropa an'anasiда shartli ravishda "ingliz-nemischa" va "fransuzcha", deb belgilangan ikkita asosiy yondashuvlari ustunlikka ega. Nemis va ingliz an'analari marginallikni qabul qilishning o'zar o'xshash qarashlarini ilgari suradi. Bu yerda marginallik jamiyatning tuzilmaga oid deformatsiyasi va o'zgarishi va bu bilan bog'liq holda insonning ijtimoylashtirilish jarayoni natijalarining salbiy varianti sifatida tushuniladi (V.Xinriks, K.Raban). Ular uchun marginallashtiriluvchi guruhlar, avvalambor, jamiyatning deklasslangan (parchalab yuborilgan) elementlari, ijtimoiy "tub", andeklass yoki emigrantlar – "uchinchi" dunyo mamlakatidan kelganlardir.

Marginallik muammosini o'rganishning fransuzcha yondashuvi o'ziga xos xususiyatlariiga ega. Bu yerda marginallik jamiyatning an'anaviy qadriyatlari va jamiyat me'yoriariga nisbatan o'ziga xos norozilik, sinfiy kurash mahsuloti sifatida tushuniladi. Marginallashtiriluvchi guruhlarga nisbatan bunday qarashlar 1968-yil bahoridagi hodisalar ta'siri ostida shakllangan.

Marginallik "umum qabul qilingan me'yorlar bilan nizo natijasi, mavjud jamiyat tuzumi bilan o'ziga xos munosabatlar vositasida ifodalash natijasi" sifatida qabul qilinadi. Marginallikka kirish quyidagilarni taqozo qiladi: barcha an'anaviy aloqalarni uzish va shaxsiy, tamomila boshqa dunyoni yaratish; yoki sekin-astalik bilan qonuniylik sarxadlaridan siqib chiqarish (yoki majburi ravishda chiqarib yuborish). "Fransuzcha yondashuv" vaqt o'tishi bilan o'zgardi va tuzatishlarga duch keldi, u tobora "ingliz-nemischa" usulga yaqinlashib bordi. Marginallashtiriluvchi guruhlar toifasiga asosan migrantlar va

ishisizlar “inqirozga uchragan jamiyatning parchalanish mahsuloti”ni kirita boshladilar¹.

Lotin Amerikasi tадqiqotchilar marginallik hodisasiga turli davlatlarning notejis iqtisodiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan yondashadilar va Lotin Amerikasi hamda “uchinchi” dunyo (O.Sunkel, L.Sea, L.Paso) mamlakatlarini anglatuvchi butun bir marginal mintaqalar mavjudligi haqida gapiradilar.

Ular uchun marginal guruhlarga mansub odamlar ijtimoiy izolatsiya qilingan guruhlarning vakillari, shaharning “quyi qatlami”dagi aholisi va viloyatlardan kelgan odamlardir. Bundan tashqari, Lotin Amerikasida faoliyat olib boruvchi mualliflar ko‘pincha lyumpen-proletariat va lyumpen-burjuaziyani marginal guruhlar deb tushunadilar.

Bugungi kunda marginallik hodisasi turli xil yondashuvlar nuqtayi nazaridan o‘rganilmoqda. Rossiyalik tadqiqotchi I.P.Popova tomonidan marginallik prinsipining talqin qilinishini yorqin misollardan biri sifatida ifodalash mumkin. Uning fikriga ko‘ra “marginallik” tushunchasining o‘zi har safar chegara, o‘tish hodisalarini o‘rganish zarurati vujudga kelgan ijtimoiy sharoitlar sarhadlarida hal etiluvchi “ijtimoiy topishmoq”ni anglatadi.

Marginallik tushunchasining turli tarzda qabul qilinishi quyidagi vaziyatlarga bog‘liq:

- mazkur tushuncha turli ilmiy fanlarda (psixologiya, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, falsafa, iqtisodiyot va h.k.) turli ma’nolarda qo’llaniladi yoki turli nuqtayi nazarlar jihatidan o‘rganiladi;

- marginallikning turlariga bog‘liq ravishda mazkur tushuncha turli ma’nolarda qo’llaniladi;

¹ Мельникова Н.Е. Феномен маргинальности в системе культуры: социально-философский анализ: автореф. дисс. ... канд. филос. наук. Москва: 2007. – С.137.

- mazkur tushuncha mazmunining noaniqligi hodisaning o‘zini jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayonlar nuqtayi nazaridan ifodalashni biroz qiyinlashtiradi¹.

Bugungi kunda marginallik ijtimoiy ish sohasida ildiz otib bormoqda. Marginal guruhlarga tegishli bo‘lgan odamlar – jamiyatda hukmron bo‘lgan ijtimoiy an’analar va me’yorlar yoki asosiy tuzilmaga oid bo‘linmalar chegarasidan tashqarida, “chegaralarda”, “chekka qismlarida” bo‘lgan shaxslar va guruhlar deb hisoblanadi. Marginal guruhlarga mansub insonlar va guruhlar ijtimoiy ish sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj. Bu kabi odamlar bilan ijtimoiy ish olib borish haqiqatan ham ularga yordam berish imkoniyatga ega bo‘lgan va mavjud muammoni bartaraf qilishga urinib ko‘rishi mumkin bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan, malakali ijtimoiy xodimlar, volontyorlar, tor soha mutaxassislari (psixologlar, shifokorlar, huquqshunoslar) tomonidan amalga oshirilishi lozim. Biroq, avvalambor, marginal guruhlarga mansub insonlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi ularning yaqinlari va qarindoshlari tomonidan amalga oshirilishi, insonni qo‘llab-quvvatlash, tushunish, inson va uning qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga ishonish zarur.

G‘arbiy Yevropada marginal guruhlarga tegishli bo‘lgan guruhlar va insonlar – bu tarkibiga lyumpen-proletariatlar deb nomlanuvchi an’anaviy guruhlar va yangi marginal guruhlardan tashkil topgan guruhlarning murakkab birikmasi demakdir. Ularning xususiyatlariga yuqori darajadagi bilimlilik va siyosiy faollik, ulkan ijtimoiy umidlar, rivojlangan ehtiyojlar kiradi. Yangi marginal guruhlarning paydo bo‘lishi manbai – jamiyat tomonidan hali rad etilmagan, biroq qarshi qarashlari sababli o‘zining avvalgi maqomini yo‘qota boshlagan guruhlarning quyi qatlamlar tomoni ko‘chishidir.

¹ Акогян Н. Маргинальность как одна из основных характеристик трансформирующегося общества // XXI век. – № 1. – 2005. – С. 7-12.

Ko'plab mamlakatlarda "yangi marginal guruhlar va marginal guruhlarga mansub insonlarning" paydo bo'lishiga jamiyatning yangi ijtimoiy-iqtisodiy modelining shakllanishiga yo'naltirilgan islohotlar va inqiroz natijasida ijtimoiy tuzilmada sodir bo'lган keskin o'zgarishlar sabab bo'ldi. Ijtimoiy-kasbiy tuzilma ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy sohasiga aylandi. Uning o'zgarishi aholi tarkibida ijtimoiy-kasbiy maqomning faol va o'suvchi o'zgarishlari bilan ifodalanuvchi guruhlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ularga quyidagilar kiradi – avvalgi ijtimoiy maqomini yo'qotgan ijtimoiy guruhlar, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ular muhim hayotiy ehtiyojlariغا muvofiq bo'lган, me'yoriy maqomga ega bo'lish imkoniyatiga ega emas, chunki, buning asosida obyektiv holat yotadi: avvalgi ijtimoiy tizim bilan qiyoslaganda yangi maqomga ega bo'luvchi ijtimoiy guruhlar.

Marginal guruh – ularga aholining mehnat bozorida mustaqil ravishda ishga joylashishning eng kam imkoniyatlariga ega bo'lган har qanday guruhlari kiritilishi mumkin (masalan, bolalarini bir o'zları katta qilayotgan yolg'iz onalar; bolalari bo'lган ayollar; vasiysiz qolgan bolalar; xavf guruhiga mansub oilalar farzandlari; malakaga ega bo'lмаган ishchilar; ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan odamlar; muayyan yashash joyiga ega bo'lмаган shaxslar; pensionerlar; nogironligi bo'lган shaxslar; migrantlar; qochoqlar; etnik ozchiliklar; surunkali kasalliklari bo'lган odamlar va h.k.).

Ijtimoiy marginallashtirish o'zi nima? Marginallashtirish nozik va ko'p qatlamlili prinsip hisoblanadi. Butun bir jamiyatlar global darajada marginallashtirilishi mumkin, ayni vaqtda sinflar va hamjamiyatlar ustun ijtimoiy tartibdan izolatsiya qilinishi mumkin. O'xshash tarzda, etnik guruhlar, oilalar yoki alohida shaxslar aholi punktlarida marginallashtirilishi mumkin. Marginallashtirish ma'lum darajada ijtimoiy maqom bilan bog'liq bo'lган, siljib yuruvchi hodisa demakdir.

Masalan, alohida shaxslar yoki alohida guruhlar vaqtning qaysidir oralig'ida yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lishlari, biroq ma'lum

ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lganligi sababli ular mazkur maqomni yo'qotishlari va marginallahtirilishlari mumkin. Xuddi shu kabi, hayot davri bosqichlarining o'zgarishiga mos ravishda odamlarning marginal mavqeい ham o'zgarishi mumkin.

Hayot davriyigining muayyan bosqichlarida marginallashish xavfi ortadi yoki kamayib boradi. Masalan, bolalar va yoshlarning marginallik maqomi pasayishi mumkin, chunki, ularning yoshi kattalashib boradi;

marginal guruhlarga mansub bo'lgan katta yoshlilarning marginallik maqomi ortib borishi mumkin, chunki, ular keksayib boradilar;

yolg'iz onaning marginal maqomi ularning bolalarining o'sishi va hokazolar bilan bog'liq ravishda o'zgarib borishi mumkin. Biroq bunga qaramasdan, marginallashish xavfiga duch kelishi mumkin bo'lgan muayyan ijtimoiy guruhi doirasida turli xavflar vujudga kelishi mumkin.

Biroq bunga qaramasdan, marginallashish xavfiga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan ijtimoiy guruhi doirasida turli xavflar vujudga kelishi mumkin.

Eldering va Knouz (1998), masalan, Yevropadagi immigrant yoshlarning marginallashish xavfi ularning qabul qiliuvchi aniq mamlakatlar yoki madaniyatning o'zgarishidan qat'i nazar, ularning etnik mansubligiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Piter Leonard¹ (1984, 180-bet) ijtimoiy marginallikni "ishlab chiqarish faoliyati yoki ijtimoiy reproduktiv faollikning ustun yo'naliishlardan tashqarida mavjud bo'lish, deb ta'riflaydi. Bu esa o'z navbatida ikki guruhi, birinchidan ijtimoiy tartibning ixtiyoriy marginal odamlarning nisbatan kichik guruhi qamrab oladi".

Masalan, yangi yoshga oid sayohatchilar, ayrim diniy sektalar, jamoalar a'zolari, ayrim rassomlar. Biroq bu holatda biz beixtiyoriy ravishda marginallashgan ikkinchi guruhi o'rganamiz. Leonard bu

¹ Community Psychology: In Pursuit of Liberation and Well-being 2nd Edition, Kindle Edition. 2003.

odamlarni go'yo "kapitalistik ishlab chiqarish va reproduktiv faoliyatning asosiy maydonidan" tashqarida qolgandek va shunday qilib, "beixtiyor ijtimoiy marginallik"ni boshdan kechirayotgandek tavsiflaydi.

Marginallik tajribasi qator holatlarda vujudga kelishi mumkin. Tug'ilishi bilan jiddiy ravishda zaiflashgan ayrim odamlar, jumladan, marginal guruhlarda tug'ilganlar (masalan, muntazam ravishda tahqirlanuvchi etnik guruhlari a'zolari – Avstraliya, Osiyo va Amerika kontinentida yashovchi tub aholi, Britaniyadagi afrikalik va kariblik odamlar) uchun bu marginallik, odatda, butun hayoti davomida va ahamiyatli ravishda ularning hayot tajribasini belgilab beradi. Boshqa odamlar uchun esa marginallik keyinchalik nogironlikka chalinish yoki ijtimoiy va iqtisodiy tizimdagи o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda orttirib olinadi.

Global kapitalizm o'z qamrovini kengaytirib borayotgan ekan, buning natijasida tobora ko'proq odamlarni o'z tizimiga qamrab olmoqda, va ular tobora ko'proq yerlaridan, yashash vositalari manbalaridan, yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidan mahrum bo'imqoda.

12.2. Marginallik sabablari. Marginal guruhlarning jamiyatdagи o'rni

Marginallashtirish individul, shaxslararo va ijtimoiy darajalarda to'laqonli hayot va to'liq ijtimoiy hayotdan chetlashishning asosida yotadi. Nisbatan marginallashgan odamlar o'z hayoti va mavjud resurslari ustidan nazoratni to'liq amalga oshira olmaydilar, ular kansitilishi mumkin va ko'pincha jamoatchilik tomonidan salbiy munosabatlar namoyon qilinishiga sabab bo'ladilar. Ularning jamiyat rivojiga ijtimoiy hissa qo'shish qobiliyati cheklangan bo'lishi mumkin va ularning o'zlariga ishonchi va o'z-o'zini hurmat qilish hissiyotlari past darajada bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy siyosat va tajriba shuni ko'rsatadiki, ular ta'lif olish va tibbiy xizmat, turarjoy, daromad, bo'sh vaqt va ish kabi ijtimoiy manbalardan foydalanish uchun nisbatan cheklangan imkoniyatlarga ega. Marginallashtirishning oqibatlari marginallik jarayonlarning ijtimoiy munosabatlardan (masalan, yomonlashish, shahvoniyparastlik, etnik tegishlilik va h.k.) qat'i nazar, manbalari va jarayonlaridan yoki ijtimoiy vaziyatlardan (masalan, ish o'rinalining yopilishi, arzon turar joylarning mavjud emasligi va hokazo) qat'i nazar, ijtimoiy inkor qilish nuqtayi nazaridan o'xshash bo'ladi. Turli odamlar marginallashtirishga ular uchun foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan o'z shaxsiy va ijtimoiy manbalariga bog'liq ravishda turlicha munosabatda bo'ladi.

Biroq bunga qaramasdan ayrim umumiyligi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

❖ *Ijtimoiy kapital, salomatlik va gender muammolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bag'ishlangan, Sog'lioni saqlash agentligi tomonidan moliyalashtirilgan fanlararo tadqiqot amalgaga oshirilgan. Intervyuda hamjamiyatning 77 nafar a'zosi ishtirok etdilar. Ulardan 39 nafari erkaklar bo'lib, jumladan 18 nafari yoshi katta erkaklar (56 yoshdan 79 gacha) bo'lgan. Mazkur yoshi katta erkaklar uchun haqiqiy erkaklik ko'pincha ularning salomatligi, oilasi va bandlik mavqeい atrofiga qurilgan bo'ladi. Ularning salomatligining yomonlashishi, (salomatlikning yomonlashishi yoki pensiyaga chiqish sababli) hamkorlarni yo'qotish va ishsizlik jamiyat inqirozi nuqtayi nazaridan nisbatan marginallikni qayta tasdqlanishi zaruratinining tug'ilishiga sabab bo'ladi.*

Jinoyatlar va giyohvand moddalar ijtimoiy hayotning umumiyligi jihatlarini qabul qiladi. Demak, insonlar o'zlarini mazkur jamoaning himoyasiz a'zolari, deb his qiladilar va ijtimoiy guruh, tadbirlarda ishtirok etishni istamaydilar. Mazkur istamaslikni tahlil qilish kommunal xo'jaliklarning ijtimoiy maydonini genderlashtirishini namoyon etadi va odamlar tomonidan ayollarning ustunligi sifatida qabul qilinishini, ular mardonavorlik haqidagi tasavvurlar sababli

o'ynash imkoniyati ega bo'lмаган жойларни акс ettiradi. Ijtimoiy kapitalni rivojlantirishda jamoatchilik ishtiroki muhim o'rин tutganligi sababli, bu odamlar, aslida, ko'priksifatida xizmat qiluvchi aloqalarini rivojlantirish va bog'lash imkoniyatiga ega bo'lgan joylardan ijtimoiy ravishda chetlashtirildi. Oxir-oqibat, ushbu "ijtimoiy chetga chiqish" boshqa mahalliy aholining ishonchsizligiga asoslangan huquqsizlik darajasiga, shuningdek, hamjamiyatlarning makonini va uning turmush shakllarini shaxsan himoya qila olmaslikni his qilishga asos bo'ldi¹.

Ijtimoiy ish ijtimoiy o'zgarishlarga, inson munosabatlardagi muammolarni hal etish hamda shaxslarning jamoa farovonligiga erishish uchun huquq va imkoniyatlarni kengaytirishga imkoniyat yaratuvchi kasb demakdir. Ijtimoiy ish odamlarning xulq-atvori va ijtimoiy tizimlari nazariyalaridan shaxslar va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni yaratish maqsadida foydalanadi va ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Jismoniy shaxslarga insonparvarlik yordamini ko'rsatishning asosiy prinsiplari odamlarga o'zlarining real huquqlari va ijtimoiy adolatga erishish imkoniyatini yaratadi.

Marginallashtirishning ikkita asosiy jihatni mavjud: tashqi va ichki. Marginallashtirishning yuza qismi va tashqi ko'rinishi jamoatchilik tomonidan salbiy nuqtayi nazardan o'rganiladi va muhokama qilinadi.

Marginal guruhlarga tegishli bo'lgan odamlar shahar tumanlarida yashash imkoniyatiga ega emas. Buning boshqa sababi jamiyatda o'z o'mini topishdagi to'sqilar hisoblanadi. An'anaviy hududlarning aksariyat qismi mazkur migrantlarni oson qabul qila olmaganchiliklari sababli ular ijtimoiy nazorat va me'yorlarning yuqori darajasi kuzatilgan tumanlarda yashaydilar. Mazkur tumanlar shahar tashqarisida joylashgan.

Biroq marginallashtirishning ichki yuzasi madaniy yoki ijtimoiy tizim, shuningdek, marginallashtirish sharoiti tufayli vujudga kelgan ruhiy vaziyat bilan bog'liq. U o'zini ijtimoiy va madaniy qadriyatlar,

¹ Carolyn Kagan, Diane Burns, Mark Burton, Isabel Crespo, Rob Evans, Kath Knowles, José Luis Lalueza and Judith Sixsmith Working with People who are marginalized by the social system: challenges for community psychological work – P. 2-5.

munosabatlarda beqaror, deb hisoblaydi. Biroq unda boshqa qadriyat va munosabatlар ham to'liq almashtirilmagan. Uning fikriga ko'ra, mazkur muhim sharoitlar shaxsni turli nomaqbul ishlarni amalga oshirishiga sabab bo'ladi. Aksariyat hollarda u madaniyatga qarshi yakkalashni namoyon etadi va qat'iy ishonch bilan harakat qila olmaydi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, inson qadriyatlarga nisbatan qobiliyatsizligi va xiyonati, yangi vaziyatga begonalashishi tufayli tarki dunyo qilgan shaxsga aylanadi va doimiy ravishda shubha-gumonlar ostida yashaydi (Jamshidieh va boshq., 2004).

Ijtimoiy xodim professional ravishda marginal guruhlarga mansub odamlarga, shaxslarga, guruhlarga va jamiyatga shaxsiy mustaqillikka erishish va ijtimoiy, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy foyda va jismoniy salomatlik, ruhiy yordam ko'rsatish va sotsiologik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan muayyan bilim va ko'nikmalar asosida xizmat ko'rsatadilar (Sam-Aram, 1995).

Marginallik marginal shaxslar holati va ularning turmush tarzini e'tiborga olgan holda belgilanishi lozim. Ular shahar iqtisodiyoti chegarasidan tashqarida qolaveradilar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga qiziqish bildirmaydilar. Bunga moyillikning mavjud emasligiga sabab turar joy muammolari va ularning aynan ular kabi daromadga ega, biroq shaharda istiqomat qiluvchi muayyan shaxslarning xulqidir (Zahedezahedani, 1990).

"Marginal" tushunchasi 1928-yildan buyon mavjud. Robert Park marginal inson iborasini o'zining "Insoniyat migratsiyasi va marginal inson" nomli essesida birinchi bo'lib qo'llagan inson hisoblanadi¹.

R.Park E.Berdjess va L.Virt bilan birgalikda Chikago universitetida paydo bo'lgan va "insoniyat ekologiyasi" nomini olgan ijtimoiy yo'nalishning asoschisi bo'lgan. Chikago maktabining ilmiy izlanishlari predmeti sivilizatsion jarayonlar va urbanistik muhit muammolari hisoblanadi. R.Park marginal inson hodisasini – sotsiumning muayyan

¹ Park R.E. Human migration and the marginal man // Amerikan Journal of Sociology. – Chicago, 1928, Vol. 33, № 6. – P.881-893.

rivojlanish bosqichi uchun xos bo'lgan va murakkab ijtimoiy jarayonlarni anglashda, umuman sivilizatsiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodisani aynan shu nuqtayi nazardan o'rgangan.

R.Parkning fikriga ko'ra, marginal guruhlarga mansub inson – bu immigrant, bir vaqtning o'zida ikkita dunyoda yashovchi zoti aniq bo'lmanan insonlardir. Marginal guruhlarga mansub inson tabiatini ifodalovchi asosiy jihat – bu ma'naviy dixotomiya, ikkiga ajralish va ixtilof hissidir, ya'ni eski odatlar uloqtirib yuborilgan, biroq yangilari hali shakllanmagan holat demakdir. Bu holat inqiroz sifatida ifodalanuvchi ko'chib o'tish, boshqa madaniyatga o'tish davri bilan bog'liq holat. "Shubhasiz, - deya ta'kidlaydi R.Park, - bizning ko'pchiligmizning hayotimizdagi o'tish va inqiroz davri hissiyotlarini immigrant begona yurtda o'z baxtini izlash uchun Vatanini tashlab ketganda his qiladigan hissiyotlar bilan qiyoslash mumkin emas"¹. So'ngra u tabiatda marginal guruhlarga mansub odamlar madaniy aloqalarni o'rmatishga sabab bo'luvchi, eng obyektiv shaklda namoyon bo'luvchi "ma'naviy sarosimalarni" his qiladi va biz sivilizatsiya, taraqqiyot jarayonlarini yaxshiroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz, deya ta'kidlagan.

"Marginal guruhlarga mansub inson" ta'rifida R.Park ko'pincha psixologik atamalardan foydalanadi. Amerikalik psixolog T.Shibutani marginal insonning R.Park tomonidan ta'riflangan jihatlari majmuiga e'tibor qaratgan. U quyidagi jihatlarni qamrab oladi: o'z shaxsiy qadriga nisbatan qat'iy shubhalar, do'stlari bilan o'zaro aloqalarining noaniqligi va doimiy ravishda xo'rlnishdan qo'rquvni his qilish, boshqa odamlarning oldidagi og'riqli tortinchoqlik, yolg'izlik va haddan ortiq xayolparastlik, kelajak haqida ortiq darajada xavotirlanish va har qanday tavakkalchilikdan qo'rqish, zavqlana olmaslik va atrofdagilar

¹ Park R.E. Race of culture, Glenc, Free press, 1950 Part 26. Marginal man. Chat 26. Human migration and the marginal man // Amerikan Journal of Sociology. – Chicago, 1928, Vol. 33, № 6. – P.355-356.

unga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘layotganliklariga qat’iy ishonish.

Marginal guruhlarga mansub inson, R.Parkning fikriga ko‘ra, o‘zida global etnoijtimoiy jarayonlar natijasida sivilizatsiyaning yangi darajasida shakllanuvchi madaniy o‘zaro munosabatlarning yangi turini mujassamlashtiradi. “Marginal guruhlarga mansub inson” – bu irq va madaniyatlar nizosi tufayli yangi jamiyatlar, xalqlar, madaniyatlar vujudga kelishini boshlovchi vaqt va makonda namoyon bo‘luvchi shaxs turi hisoblanadi. Taqdir ushbu kishilarni bir vaqtning o‘zida ikkita dunyoda mavjud bo‘lishga mahkum qiladi, ularni har ikki dunyolarga nisbatan kosmopolit va begonalar rolini qabul qilishga majbur qiladi. Bu kabi inson muqarrar ravishda (uni bevosita o‘rab turgan madaniy muhit bilan qiyoslaganda) nisbatan kengroq sarhadli qarashlarga ega bo‘lgan, nozikta‘b, ziyoli, mustaqil va oqilona qarashlarga ega bo‘lgan individga aylanadi. Marginal inson doimo nisbatan sivilizatsion mavjudot hisoblanadi”.

Marginal guruhlarga mansub odamlarning nomuvozanat holati turlarini aniqlashdagi yana bir muammo, uning hayot jarayoniga halal beruvchi ruhiy zo‘riqish yoki og‘ishlar hisoblanadi va u jismoniy shaxslar, guruhlar yoki jamiyatlar talablariga javob beradi (Cooper va boshq., 2002).

➤ Sotsiologik nazariya.

Uchinchi dunyo mamlakatlarining qashshoq tumanlarida infratuzilmaning ijtimoiy va kontekstual tanqisligi va yetarli emaslik holatlarining vujudga kelishi sababli katta shaharlarda marginal tumanlar paydo bo‘la boshlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, migrantlarning ayrimlari shaharga jalb qilinishi mumkin, biroq boshqalari jiddiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy omillar muhim o‘rin tutadi.

➤ Insonparvarlik nazariyasи.

Olimlarning fikriga ko‘ra, agar megopolisning iqtisodiy sharoitlari quyi sinfni o‘zgartirishi va daromadlarini o‘rtta darajaga olib chиqa olsa,

ular turar joylarni optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yerlarni qonuniy egalaridan sotib olish va yo‘llar, maktablar qurish kabi infratuzilma xizmatlarini taqdim qilish imkonini, uchinchi dunyo mamlakatlarining chekka shaharlari hududlarida yashovchi shaxslarga taqdim qiladi. Ayrim mamlakatlarda yuqorida aytib o‘tilgan ayrim qurilish loyihalari yirik shaharlarda aholining qashshoq qatlamlari uchun yopiq seksiylar sifatida amalga oshiriladi. Ko‘plab mutaxassislar va menejerlar marginal rayonlar muammolarini shahar jamiyatni va boshqaruvchi ijro mexanizmlarini iqtisodiy, ijtimoiy sabablar asosida tayyorlash asosida hal etishga intiladilar.

Mazkur nazariya ushbu sohadagi ulkan muammolarning aksariyatining hal qilinishini hamda madaniy-ma’rifiy sohalarning ta’milnishini qamrab oladi.

Nazorat savollari:

1. Marginal guruuh tushunchasi.
2. Marginallik sabablari nimadan iborat.
3. Jamiyatda marginal guruhlarning o‘rni.
4. Turli yoshdagi, moddiy maqomga, madaniyatga, jinsga va hokazolarga ega bo‘lgan odamlar bilan ish olib borishning axloqiy qadriyatlari va prinsiplari.

13-BOB. BOLALAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISHNING AXLOQIY TAMOYILLARI

13.1. Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish: maqsadi, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari.

13.2. Bolani zo'ravonlikdan himoya qilish.

13.1. Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish: maqsadi, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari

Bolani ijtimoiy himoya qilishning birlamchi asosi sifatida me'yoriy-huquqiy baza namoyon bo'ladi. O'zbekistonda u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Xalqaro hujjatlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarida, Qarorlarida va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Farmon va farmoyishlarida, davlat qonunlari va kodekslarida, vazirliklar va idoralar buyruqlari va farmoyishlarida, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Bola huquqlari inson huquqlari bo'yicha universal deklaratsiyalar va konvensiyalarda mustahkamlangan: 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari butunjahon deklaratsiyasida; 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Paktda, 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi paktda; Huquqlar va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan bolalarning xalqaro huquqlarida, jumladan, ularning oiladagi o'miga mansub bo'lgan holatlarini tartibga soluvchi muayyan huquqiy standartlar ishlab chiqilgan.

Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada¹ belgilab qo'yilgan bolaning bazaviy huquqlari quyidagilardan iborat: yashab qolish va

¹ Конвенция о правах ребенка Принята и открыта для подписания, ратификации и присоединения резолюцией 44/25 Генеральной Ассамблеи от 20 ноября 1989 года.

sog‘lom rivojlanishni qamrab oluvchi yashash huquqi (6-modda); tug‘ilgandan so‘ng ro‘yxatga olinish, ism va fuqarolik huquqiga ega bo‘lish, o‘z ota-onasini tanish va ularning parvarishlarida o‘sish huquqi (7-modda); oilaviy aloqalarni qamrab olgan holda individuallikni saqlab qolish huquqi (8-modda); oila birligiga ega bo‘lish huquqi va ota-oan bilan muloqot qilish huquqi, agar bu bola manfaatlariga zid bo‘lmasa (9-modda); oilasi bilan birlashish huquqi va o‘z oilasi bilan mamlakat sarhadlaridan chiqib ketish huquqi (10-modda); o‘z qarashlarini erkin izhor qilish va har qanday sud yoki ma’muriy jarayonlarda tinglanish huquqi (11-modda) va boshq.

Konvensiya “bola” tushunchasining ostida, agar mazkur bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonunga ko‘ra avvalroq voyaga yetmagan bo‘lsa, 18 yoshga yetmagan shaxs tushuniluvchi prinsipial muhim bo‘lgan ta’rifini kiritadi. Konvensiyaning preambulasida, “bola o‘zining jismoniy va aqliy voyaga yetmaganligi sababli maxsus himoya va parvarishga, jumladan, tug‘ilgunga qadar bo‘lgani kabi, tug‘ilgandan so‘ng ham tegishli huquqiy himoyaga muhtoj ekanligi” to‘g‘risida aytib o‘tilgan. Demak, maxsus subyekt sifatidagi bolaning asosiy jihat u mazkur maqomga ega bo‘lishining asosiy sababi bo‘lgan yoshga oid chegaralar hisoblanadi.

Bola manfaatlarini eng maqbul tarzda ta‘minlash prinsipi (Bola huquqlari Konvensiyasining 3-moddasi) davlat organlari yoki xususiy shaxslarning harakatlari bolalar manfaatlariga daxl qilgan barcha holatlarda e’tibor birinchi navbatda bola manfaatlariga qaratilishi lozim ekanligini taqozo qiladi.

Mazkur prinsip birinchi marotaba 1959-yilda qabul qilingan, hamda “bola uchun maxsus himoya ta‘minlanishi va unga jismoniy, aqliy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan sog‘lom bo‘lish imkonini beruvchi imkoniyatlar va maqbul sharoitlar yaratilishi shart”, deb belgilab qo‘yilgan Bola huquqlari Deklaratsiyasida aytib o‘tilgan. Hujjat preambuladan va bola huquqlarini milliy darajadagi kabi xalqaro darajada ham “irq, teri rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa

qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug‘ilishi yoki bolaning o‘zi yoki uning oilasiga oid bo‘lgan boshqa vaziyatlarga ko‘ra hech bir befarqlik yoki tahqirlashlarsiz” himoya va muhofaza qilishga yo‘naltirilgan o‘nta prinsipdan iborat.

“Insoniyat bolaga o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi narsalarni taqdim qilish lozim” ekanligi to‘g‘risidagi qoidaga amal qilgan holda Deklaratsiya o‘z oldiga bolalar uchun baxtli bolalikni ta‘minlash va ularni o‘z farovonliklari hamda huquq va erkinliklariga xos bo‘lgan jami farovonligini ta‘minlashni maqsad qilgan.

Hujjatda bolalar manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosati prinsiplarini belgilab qo‘yilgan:

- bolalarni ularning huquqlarini tan olishning har qanday huquqlari bo‘yicha tahqirlashning mavjud emasligi;
- bolaning tug‘ilishi bilan ism va fuqarolikka bo‘lgan huquqi;
- maxsus himoya va bolaning jismoniy, aqliy, ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni taqdim qilish;
- ijtimoiy ta‘minot ne’matlaridan foydalanish (sog‘lom o‘sish va rivojlanish huquqini amalga oshirish maqsadida – maxsus parvarish va ona va bolani himoya qilish, shuningdek, bolaning munosib ovqatlanish, yashash, o‘yin-kulgu va tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqini himoya qilish);
- bolaning to‘liq va barkamol rivojlanishi uchun uning mehr-muhabbat va tushunishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish (u imkon qadar ota-onasining g‘amxo‘rligi, parvarishi va mas’uliyati ostida va har qanday holatda ham mehr-muhabbat, axloqiy va moddiy xavfsizlik muhitida o‘sishi va tarbiyalanishi zarur; yosh bola onasidan ajratilishi lozim bo‘lgan favqulodda holatlar bundan mustasno);
- ta’lim olish huquqi.

1966-yil 16-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar

to‘g‘risidagi Xalqaro paktni qabul qildi¹. Mazkur hujjatga muvofiq bolalarning ma’naviyati va salomatligi uchun zararli bo‘lgan yoki ularning me’yoriy rivojlanishiga xavf solishi mumkin bo‘lgan sohalarda bolalar mehnatidan foydalanish qonun tomonidan jazolanishi shart.

Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi xalqaro standartlarni qamrab olgan hujjatlar sirasiga “Birlashgan Millatlar Tashkilotining voyaga yetmaganlar uchun odil sudlovnii amalgal oshirish bo‘yicha minimal qoidalari” (Pekin qoidalari), 1985-yil 29-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan Pekin qoidalari sudda ishni ko‘rishning protsessual shaklini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy prinsiplarni ifodalaydi, voyaga yetmagan qonunbuzarlarga ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari tizimini belgilab beradi. Qoidalari voyaga yetmaganlar uchun odil sudlovnii amalgal oshirishning muhim maqsadlarini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va ikki nafar Fakultativ bayonomalarga qo‘shilishi bolalar huquqlarini amalgal oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq ravishda vujudga keluvchi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmini yaratish bo‘yicha joylarda davlat organlari va davlat hokimiyyati organlari faoliyatini izchillik bilan amalgal oshiriluvchi faoliyat hisoblangan, bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat yoshlar siyosatini shakllantirilishiga sabab bo‘ldi.

Umuman O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tartibini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratildi va amal qilib kelmoqda. Qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda davlat organlari zimmasiga mazkur sohani tartibga solish, nazorat qilish va boshqarish vazifalari yuklatilgan. Hukumat tomonidan mazkur yo‘nalishda qator ijobjiy islohotlar amalgal oshirilgan.

¹ Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах. Принят резолюцией 2200 А (XXI) Генеральной Ассамблей от 16 декабря 1966 года.

Mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi yaratilgan, jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishning Milliy dasturi amalga oshiriladi, BMTning konvension organlariga xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha milliy ma'ruzalar, jumladan, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensi qoidalarining bajarilishi bo'yicha Milliy ma'ruzalar taqdim qilingan, PROON, YUNISEF, OBSE, MKKK kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha organlar bilan o'zaro munosabatlar mexanizmi va mazkur sohada majburiyatlarning bajarilishini monitoring qilish mexanizmi yaratildi, inson huquqlari sohasida axborot-ma'rifat faoliyati olib borilmoqda, Konvensiyaning qynoqlarga qarshi qoidalarning bajarilishi bo'yicha maxsus hukumat dasturi qabul qilingan.

Bolalikning zamonaviy tushunchasi uchta prinsipni qamrab oladi. Birinchisi shundan iboratki, katta yoshli insonning shakllanishi bolalikdagi hayotiy tajribaga asoslanadi. Inson bilan bolalikda sodir bo'lganlar uning kelgusidagi butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinci prinsip: bolalarning rivojlanishi qator bosqichlardan o'tadi. Shu bilan birga muayyan bosqichda rivojlanish natijasi bevosita bolaning avvalgi bosqichlardagi rivojlanishi darajasiga bog'liq bo'ladi. Uchinchi prinsip atrof-muhitning bola rivojlanishiga ta'siri bilan bog'liq. Agar genetik soatlar jismoniy o'sishni tartibga solsa, u holda bolalar rivojlanishi imkoniyatlarining to'liq yetilishi va amalga oshirilishi atrof-muhitning ijobjiy yoki salbiy ta'siri ostida bo'ladi.


Ijtimoiy ish va bolalar – "alohida himoya va yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni davolash, yordam ko'rsatish, ularni reabilitatsiya qilish va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish" sifatida ifodalanuvchi, bolalarga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan ijtimoiy ish¹.

Bola rivojlanishining ekologik modeli: xavf omillari va himoya omillari. Bola rivojlanishining ekologik modeli bolaning o'ziga, uning

¹Энциклопедия социальной работы. З тома. Перевод с англ. – Москва: Центр общечеловеческих ценностей, 1994.

ota-onasi va oilasiga, shuningdek, ijtimoiy muhit va atrof-muhitiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf omillari va himoya omillarini tahlil etishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy ishning rivojlanish istiqbollari va amaliyoti: ijtimoiy ishning samarali amaliyoti ekologik modelga asoslangan – rivojlanishning yo'nalishiga doimiy ravishda bolaning shaxsiy yetilishi jarayoni, ota-onalarning mazkur o'zgarishlarga ta'siri, tashqi vaziyatlar, oilaga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi institutsional va madaniy o'zgarishlar hamda bolaning mazkur o'zgarishlarga bo'lgan munosabati ta'sir ko'rsatadi.



Bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyotini ta'minlovchi asosiy hujjatlar – BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari" to'g'risidagi Qonuni.

Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishning usullari avvalambor bolaning yoshiga muvofiq tanlab olinadi. Shartli ravishda quyidagi yoshga oid toifalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Chaqaloqlar – 1 oydan 3 oygacha;

Go'daklar – 1 yoshdan 3 yoshgacha;

Maktabgacha yoshda bo'lgan bola – 3 yoshdan 6 yoshgacha;

Boshlang'ich maktab yoshidagi bola – 7 yoshdan 10 yoshgacha;

O'smir yoshdagagi bola – 11 yoshdan 15 yoshgacha;

O'smir yigit/qiz – 16 – 18 yosh.

Turli yoshdagagi bolalarning, ular ustidan jismoniy zo'ravonlik sodir etilganligini aniqlash imkonini beruvchi ruhiy holatlari va xulqining o'ziga xos xususiyatlari:

0-6 oylikda:

- kam harakatlik
- atrof dunyoga befarqlik
- tashqi rag'batlarga ta'sirning mavjud emasligi yoki juda kam darajadagi ta'sirchanlik
- o'ta kam kulgu (uch oylikdan oshgan bolalar uchun)

Olti oydan 1,5 yoshgacha:

- ota-onasidan qo'rqish
- kattalar bilan har qanday jismoniy bog'liqlikdan qo'rqish
- doimiy ravishda sababsiz xavotir
- yig'loqilik, doimiy ravishda hiqillamoq, odamovilik, qayg'u

1,5 yoshdan 3 yoshgacha:

- kattalardan qo'rqish
- yig'loqilik, kamdan-kam hollarda xursandchilikni namoyon qilish
- boshqa bolalarning yig'isidan cho'chib ketish
- ish buyurganda qarama-qarshi holatlar – o'ta tajovuzkorlikdan befarqlikka qadar.

3 yoshdan-6 yoshgacha:

- ularga nisbatan tajovuzkor munosabat namoyon qilinganda qarshilik qilmaslik
- og'riqqa nisbatan passiv munosabat
- tanqid, tanbehlarga og'riqli munosabat
- tilyog'lomalik, yuqori darajadagi bo'shlilik
- o'zini kattalar kabi tutish (kattalarga yuqori darajada taqlid qilish)
- salbiylik, tajovuzkorlik
- yolg'onchilik, o'g'irlik
- hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik
- o't qo'yishga moyillik

Boshlang'ich maktab yoshi

- o'zining jismoniy shikastlari va jarohatlarini yashirishga urinish
- do'stlarining yo'qligi
- maktabdan so'ng uya borishga qo'rqish
- g'alati narsalarni yenishga moyillik: ohak, yer, kal, qog'oz, shilliqurt, qo'ng'izlar va h.k.

O'smirlit

- uydan qochish
- o'z joniga qasd qilishga urinislari
- qonunga xilof xulq
- spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, toksik moddalar iste'mol qilish.

IXMUning o'smirlar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti standartlari.

Standart 1. O'smirlar rivojlanishini tushunish.

Ijtimoiy xodimlar milliy uyushmasi (IXMU)¹ tomonidan tayyorlangan, o'smirlar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti standartlarida yoshlari bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy qoidalari belgilab berilgan.

Ijtimoiy xodimlar barcha darajalarda – alohida inson, mahalliy jamoat yoki umuman jamiyat darajasida – yoshlariimizga maqbul jismoniy va ruhiy salomatlikka erishishda yordam ko'rsatish uchun kuch va vositalarni sarflash o'z mahsulini beradi. Ijtimoiy xodimlar yoshlari hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy muhit, uyushmalar yoki ijtimoiy tizimlar zarur xizmatlarni taqdim qiladilar. Yoshlarning ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy xodimlar fundamental bilimlarni, o'smirlar rivojlanishini va biopsijtimoiy tizimlarning birlamchi rolini namoyon qilishlari lozim.

¹ National Association of Social Workers (2001). Standards for cultural competence in social work practice. Washington, DC: Author Greene, R. (2002). Resiliency. Washington, DC: NASW Press. National Association of Social workers policy statements. 2003-2006 (6th ed., pp. 144-151). Washington, DC: Author. Van Soest, D. (1997). The global crisis of violence. Washington, DC: NASW Press.

Ijtimoiy xodimlar o'smirlar rivojlanishi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishlari zarur.

Izoh.

O'smirlarning ijobiy rivojlanishini o'rganish va anglashning muhim sohalari:

➤ insonning rivojlanishi va xulqi, jumladan, rivojlanish bosqichlari, ehtiyojlari, bolalar va o'smirlarga xos hissiy-sababiy sohalari, faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, madaniy farqlar;

➤ insonning shaxsga oid, ijtimoiy, jismoniy, hissiy va jinsiy rivojlanishida o'smirlik davrining, o'smirlarning mustaqillikka, erkinlikka, o'ziga xoslikka intilishi, shuningdek, jinsiy rivojlanishining ehtimoliy muammolarining roli;

➤ o'smirlarning sog'lom rivojlanishi davomida ta'limning alohida o'rni va muvaffaqiyatli ta'lim jarayoniga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarning ta'siri;

➤ rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash zarurligi;

➤ o'smirlar rivojlanishi va ularning oilalariga giyohvand, psixotrop moddalarni iste'mol qilish va zo'ravonlikning ta'siri;

➤ o'smirlar tomonidan muayyan erkinlik va mustaqillikka ega bo'lish jarayoniga oila, mакtab, jamoa, madaniy xususiyatlarning ta'siri;

➤ o'smirlar uchun xulqning rolga oid modelini taklif etuvchi (pedagoglar, sport seksiyalaridagi murabbiylar va h.k.) oila a'zolari, tengdoshlari va kattalar bilan o'z hissiyotlari va fikrlarini ochiq ifodalash imkoniyatini taqdim qiluvchi ijobiy munosabatlarni o'matishning muhimligi;

➤ o'smirlarning o'z tengligini mustahkamlash tomonga qo'ygan qadamlari, jumladan, qo'zg'olon qilish va nufuzlilarning kuchlarini inkor qilishning tabiiy ko'rinishlarining muhimligi.

Standart 2. Baholash.

Ijtimoiy xodimlar yoshlari uchun taqdim qilingan xizmatlarni, jumladan, o'smirlar va ularning oilalariga xizmatlar taqdim qiluvchi

uyushmalar manbalari va ijtimoiy muassasalar xizmatidan foydalanish imkoniyatini taqdim qilgan holda baholash ko'nikmalarini namoyon qilishlari, va zarur manbalarning rivojlanishiga har tomonlama imkoniyat yaratishlari lozim.

Izoh.

O'smirlar va ularning oilalari bilan samarali ish olib borish maqsadida ijtimoiy xodimlar quyidagi sohalardagi fundamental bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- ijtimoiy ish tarixi va rivojlanishi va "insonni o'rab turgan muhitdagi" istiqboli;
- ijtimoiy ish nazariyasi, prinsiplari va usullari, jumladan, mijozlar bilan individual ishlash, guruhda ishlash, jamoatni jalg qilish, boshqaruv, rejalashtirish, rahbarlik va tadqiqotchilik faoliyati;
- madaniy qarashlar, o'tmishtagi tajriba, turmush tarzi va etnik tegishlilikning ta'siri;
- individ va uning oilasi, guruhi, yaqin tanishlari, jamoa va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar;
- ijtimoiy ta'minotning davlat va volontyorlik tashkilotlari, bolalarni himoya qilish va yoshlarga xizmat ko'rsatish agentliklarining maqsadi, tuzilmasi, huquqiy vakolatlari va ular tomonidan taqdim qilinadigan xizmatlar; maktablar; tibbiyot muassasalari; psixiatrik xizmatlar; yuvenal adliya; huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati;
- o'z maqsadlarini boshqa mutaxassislar va tashkilotlar faoliyati bilan muvofiqlashtirish va ularning faoliyatini yoshlar manfaatlarini amalga oshirishga jalg qilish qobiliyati;
- o'smirlar, ularning oilalari va ular hayot kechirayotgan uyushmalarga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy va iqtisodiy omillar;
- o'smirlar va yoshlar bilan ish olib borishning fanlararo va jamoaviy yondashuvlari, biotibbiyot va ijtimoiy fanlar, psixologiya, huquqshunoslik, huquqni muhofaza qilish faoliyati va boshqa fanlarning qo'shgan hissasi;

- o'smirlar uchun kasbiy bilim va ko'nikmalar bo'yicha ta'limgosh uchun yaratilgan imkoniyatlar;
- o'smirlar uchun qulay bo'lgan, jumladan, turli noan'anaviy shakllarni qamrab olgan holda ish olib borishning muhimligini to'liq anglash;
- qarorlar qabul qilish va yetakchilik ko'nikmalarini yaxshilash imkonini beruvchi ta'limguruhi bilan o'zaro birgalikda ishlash usullari bilan tanishish;
- o'smirlar va ularning oilalari bilan birgalikda keyslar bo'yicha ish olib borish rejasini ishlab chiqishni to'liq anglash va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- o'smirlar uchun ularning ajralib ketishining oldini olishga qaratilgan kompleks xizmatlarni taqdim qilish dasturlarini qay tarzda ishlab chiqishni anglash;

➤ yoshlар o'smirlarning qator muammolarini (masalan, reproduktiv salomatlik, OITS va jinsiy aloqa yo'li bilan yuqadigan boshqa kasalliklar, zo'ravonlik va shafqatsiz munosabat) hal etishga qaratilgan xizmatlardan foydalanishlari ehtimolini oshiruvchi dasturlarni qay tarzda ishlab chiqish mumkin ekanligini to'g'ri anglash.

3. Oilaviy dinamikani anglash.

Ijtimoiy xodimlar oilaviy dinamika va tizimlar nazariyasini bilishlari va tushunishlarini namoyon qilishlari lozim.

Izoh.

IXMU oilani o'zini "oila", deb hisoblovchi va oilaning sog'lom turmushi uchun zarur bo'lgan majburiyat, vazifalar va mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi ikki va undan ortiq odamlar sifatida ta'riflaydi.

Oilaviy dinamika to'g'risidagi bilimlarning muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalari quyidagilarni qamrab oladi:

➤ an'anaviy va noan'anaviy oilalarda, jumladan, ota-onas yoki ularning bittasidan iborat oilalarda, foster oilalarda oilaviy dinamika, bola asragan oilalar va qarindosh bo'lmagan, biroq oila sifatida birga

yashovchi odamlar, shuningdek, ushbu turli oilaviy konfiguratsiyalarni qabul qilish va anglash;

➤ ota-onalarning o'smirlilik davridagi rivojlanish tajribasining ta'siri, munosabat va xulq, shuningdek, ota-onalarning yordam so'rab murojaat qilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniy o'ziga xos xususiyatlar;

➤ oila hayotiga qanday qilib o'zgartirishlar kiritish mumkin ekanligini to'liq anglash;

➤ oila madaniyati, oilaning o'smirlarning o'zgaruvchi jismoniy, intellektual, ma'naviy va hissiy ehtiyojlarini qondirishdagi roli tushunchasi;

➤ oilaning har bir a'zosining majburiyatlariga nisbatan madaniy qarashlar;

➤ o'smirlar rivojlanishi va oilaviy dinamikaga jismoniy nuqsonlar yoki nogironlikning, hissiy yoki emotsional buzilishlar, giyohvandlik, zo'ravonlik kabilarning ta'siri;

➤ ota-onsa rollarining o'zgarishlari va ularning xilma-xilligini tushunish;

➤ iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharotlarning ota-onalik qobiliyati va oilaviy majburiyatlarni bajarishga ta'siri.

Standart 4. Madaniy layoqatlilik.

Ijtimoiy xodimlar o'z xizmatlarini madaniy jihatdan maqbul tarzda amalga oshirishlari lozim.

Izoh.

➤ AQSHning doimiy ravishda ortib borayotgan aholisining xilma-xilligi ijtimoiy xodimlar doimiy ravishda madaniy farqlardan xabardor bo'lislari va tushunish sohasidagi bilimlarini oshirib borishlarini talab etadi. Ular o'zlarining layoqatlari va shaxsiy tafakkurlari, nuqtayi nazarlari va amaliy ko'nikmalarini 2001-yilda madaniy layoqatlilik amaliyoti sohasida qabul qilingan IXMU standartlariga muvofiq ravishda rivojlantirishlari lozim;

➤ Madaniy layoqatlilikka ega bo'lgan ijtimoiy xodimlar yoshlarning hayotiga irqchilik, genderli tahqirlash, geteroeksizm yoki gomofobiya, antisemitizm, etnosentrizm, sinfga oid qabul qilmaslik va nogironlik jihatiga ko'ra tahqirlash kabi hodisalarning parchalovchi ta'siri; va o'smirlarning mazkur jihatdan himoya qilishga harakat qilishlari lozim ekanliklari to'g'risida bilishlari shart;

➤ Ijtimoiy xodimlar to'siq sifatida tushunilishi mumkin bo'lgan irqiylar, etnik, genderli va madaniy farqlarni belgilashlari va bu kabi to'siqlarni kamaytirish strategiyasi va ko'nikmalarini rivolantirishlari lozim.

Standart 5. O'smirlar tomonidan mustaqillikka erishish.

Ijtimoiy xodimlar yoshlarga mustaqillikka erishishda yordam ko'rsatishlari lozim.

Izoh.

Ijtimoiy xodimlar yoshlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan dasturlar va xizmatlarga oid qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirokini ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishlari lozim. Bu quyidagilarni qamrab oladi:

➤ yoshlar va ularning oilalarini keys bo'yicha rivojlantirish jarayonida va xizmatlar taqdim qilish rejasida faol io'tirok etish uchun rag'batlantirish;

➤ o'smirlar orasida o'z tengdoshlarini qo'llab-quvvatlash va ularning intilishlarini rag'batlantirish uchun yetakchilarni aniqlash;

➤ yoshlarning qarashlarini himoya qilish va ularning agentliklar yoki tegishli qo'mitalarni boshqarishga rag'batlantirish, shuningdek, yoshlarni mavjud xizmatlarni yaxshilash va zarur xizmatlarni yaratishni yaxshilash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga o'rgatish;

➤ yoshlar va ularning oilalari bilan ularga qabul qilingan harakatlar rejasini bajarish hamda tadqim qilingan xizmatlardan foydalanish uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga rag'batlantirish uchun ish olib borish;

➤ hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha treninglarni taqdim qilish va ularda ishtirok etish uchun vositachilik qilish.

Standart 6. O'smirlar ehtiyojlarini anglash.

Ijtimoiy xodimlar o'smirlar ehtiyojlarini anglash va mazkur ehtiyojlarini qondirish uchun mutaxassislar va agentliklar o'rtasidagi hamkorlik va manbalarni yaratish uchun harakat qilishlari lozim.

Izoh.

O'smirlar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy xodimlar ayrim holatlarda nazardan chetda qolgan yoki e'tiborga olinmaydigan turli himoya omillarini e'tiborga olishlari va mustahkamlashlari lozim. O'smirlar bilan tegishli tarzda va samarali ish olib borish rivojlantirish ko'nikmalari va mazkur yoshga xos bo'lgan vazifalarni to'g'ri anglashni, o'smirlik yoshining psixoijsitmoi va hissiy bosqichlarini bilishni, shuningdek, g'ayrioddiy xulq va ruhiy xastaliklar, ruhiy zo'riqish holatlarini to'liq anglashni talab etadi. Ijtimoiy xodimlar o'smirlarning xulqi va munosabati mazkur yoshga oid guruh bilan ish olib boruvchilarning ziddiyatli yoki salbiy hissiyotlariga sabab bo'lishi mumkinligini tushunishlari lozim.

Ijtimoiy xodimlar xizmatlar taqdim qilishda diqqat markazida nima bo'lishidan qat'i nazar, yoshlар hayotining ko'p o'lchamligini anglash va e'tiborga olishlari zarur. Bu yoshlар birga yashashlari mumkin bo'lgan oila, aka-ukalar va opa-singillar, keng oila, tengdoshlar, do'stlar yoki dugonalar guruhini, diniy mansublikni, qochoq maqomini, tahqirlanish tajribasini, jamoa yoki oila zo'ravonlikka duchor bo'lishni, harbiy nizolar hududida bo'lish kabilarni qamrab oladi. O'smirlar manfaatlarini himoya qilish davomida ijtimoiy xodimlar quyidagilarni ta'minlashlari lozim:

➤ o'smirlarga xizmat taqdim qiluvchilar, mutaxassislar va oilalarida ko'nikmalar va bilimlar bazasini rivojlantirish, himoya omillari va bardoshlilik omilini aniqlash, qaror qabul qilish

imkoniyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun uzlusiz ravishda ta'lim olish imkoniyatlari mavjud bo'lishi lozim;

➤ uyushmalar xizmatlari yoshlarning tibbiy, jismoniy, ta'limga oid, kasbiy, o'quv, turar joyga oid va boshqa ehtiyojlarini ularning o'zлари, shuningdek, ularni oilalari belgilagan tarzda munosabatda bo'lishlari va xizmatlarni shu asosda amalga oshirishlari lozim;

➤ agentliklar o'z xodimlariga ularning mijozlari bo'lgan o'smirlar namoyon qiluvchi xulqqa nisbatan shaxsiy qarashlari, qo'rquvlari yoki xush ko'rmasliklarini namoyon qilmaslik maqsadida zarur chora-tadbirlarni aniqlash va amalga oshirish uchun imkoniyat taqdim qilishlari lozim;

➤ amalga oshirilayotgan siyosat va dasturlar yoshlarning turli sharoitlardagi, nogironlik va/yoki ruhiy va jismoniy cheklovlardagi ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilishi, tartibga solinishi yoki o'z ko'rinishini o'zgartirishi lozim;

➤ yoshlarga turli madaniyatlar, odamlar va o'zaro muloqotning o'ziga xosligini muhokama qilish, anglash va qadrlash imkoniyatlari taqdim qilingan;

➤ yoshlarda tibbiy muammolar, giyohvandlik va spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, sog'lom turmush tarzi, intervensiya, giyohvandlikka ruju qo'yishning rivojlanish xavfi bilan bog'liq xulq to'g'risidagi bilimlari yaxshilanadi;

➤ ta'lim olish, davomat, xulq, o'qishga bo'lgan munosabatda muvaffaqiyatga erishish darajasini oshirish uchun mактабдаги aloqalarni mustahkamlash rag'batlantirilgan;

➤ ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi o'zaro munosabatlarga kirishish maqsadida kattalar va tengdoshlar bilan mustahkam o'zaro aloqalarni yaratish uchun imkoniyatlar ochib berilgan;

➤ profilaktika va yordam ko'rsatishga qaratilgan namunaviy dasturlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim qilingan;

➤ spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste'mol qilish, uydagi zo'ravonlik va intim zo'ravonlik, VICH/OITSning

tarqalishining oila va jamoa uchun halokatli oqibatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keng tarqatilgan;

➤ turli madaniyatlarga mansub bo‘lgan, turli daromadga ega bo‘lgan, turli etnik guruhlarga mansub yoshlarga o‘tkaziladigan bosim haqida ma’lumotlar va yangilangan faktlar muntazam ravishda taqdim qilib borilgan;

➤ xavfli xulqni aniqlash va chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun jamoalar va ota-onalar guruhlari, pedagogik jamoalar, yuvenal adliya xodimlari va huquqni muhofaza qilish organlari vakillari darajasida imkoniyatlar yaratilgan;

➤ jamoa va diniy guruhlar, sport seksiyalari va hokazolar o‘rtasida hamkorlik imkoniyatlari yaratilgan;

➤ o‘smlar tomonidan erishilgan yutuqlarni tan olish uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Standart 7. Keys bo‘yicha fanlararo maslahatlar.

Ijtimoiy xodimlar yoshlarga ijtimoiy xizmatlar taqdim qiluvchi tashkilotlar ishtirokida keys bo‘yicha fanlararo maslahatlarda ishtirok etishlari lozim.

Izoh.

Keys bo‘yicha tegishli rejalarni ishlab chiqarish maqsadida ijtimoiy xodimlar o‘smlar bilan ish olib boruvchi boshqa mutaxassislar va tashkilotlar bilan maslahatlashishlari lozim, shu bilan birga maxfiylikni ta’minlashlari talab etiladi.

Bu kabi maslahatchlar quyidagilarni qamrab olishi lozim:

➤ yoshlarning vaziyatini mavjud muammolar, oilaning kuchli tomonlari va xavf omillarini aniqlagan holda o‘zaro hamkorlikda baholash;

➤ mavjud xizmatlar va aralashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj darajasini o‘zaro hamkorlikda aniqlash;

➤ erishilgan taraqqiyotni individual baholash va baholash natijalariga ko‘ra o‘zaro hamkorlikda maslahatlarni amalga oshirish;

➤ keyslar yakunlangandan so'ng erishilgan yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarni birgalikda baholash va faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni baholash;

➤ yoshlar va ularning oilalarini keys bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish jarayoniga qamrab olish.

Standart 8. Maxfiylik.

Ijtimoiy xodimlar yoshlar bilan ish olib borish jarayonida ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarning maxfiyligini va daxlsizligining tegishli kafolatlarini ta'minlashlari lozim.

Izoh.

Ijtimoiy xodim va mijoz munosabatlari mijozni shaxs sifatida hurmat qilishni va uning shaxsiy hayotining maxfiyligi va daxlsizligini ta'minlashni taqozo qiladi. Federal, milliy yoki mahalliy qonunchilik buni talab qilgan holatlardan boshqa vaziyatlarda ijtimoiy xodim maxfiy ma'lumotlarni uchinchi tomonga faqatgina yoshlar va yoki ularning oilalari xabardor qilgan va ularning roziligini olgan holdagina yetkazishi mumkin. Bunda maxfiylikka taqdim qilingan kafolat yoshlarning keys bo'yicha ish rejasini ishlab chiqish va bajarishda ishtirok etishga bo'lgan munosabati va tayyorligi darajasini oshiradi, mijoz muayyan vaziyatlarda maxfiylik buzilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirilishi lozim. Bu quyidagi vaziyatlar bo'lishi mumkin:

➤ darhol tegishli organlarga xabar berilishi lozim bo'lgan, bola bilan shafqatsiz yoki nomunosib munosabatda bo'linayotganligi to'g'risidagi gumonlar;

➤ yoshlar yoki boshqa odamlar uchun tahdid mavjudligi to'g'risidagi gumonlar. Bu kabi barcha holatlarda ijtimoiy xodim mijozni maxfiylikni saqlash qoidasidan chekinishi lozimligi haqida xabar berishi, shuningdek, aynan qanday ma'lumot uchinchi tomonga taqdim qilinishi haqida va zarurat tug'ilganda, mijozda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy hissiyotlarga nisbatan choralar ko'rish zarurati to'g'risida xabar berishi lozim.

Standart 9. Ish muhit.

Ijtimoiy xodimlar o‘z tashkilotining ish muhitini, ichki siyosatini va mijozlar bilan ish olib borish amaliyoti sifatini yaxshilashda faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘zining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib borishi lozim.

Izoh.

Ijtimoiy xodimlarning majburiyatlariga o‘zлari faoliyat olib borayotgan tashkilotlari doirasidagi shaxsiy layoqatini oshirish ham kiradi. Yoshlar va o‘smirlar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy xodimlar agentlikning ajralmas qismi bo‘lgan holda, to‘laqonli ravishda o‘z agentligi vazifalari va maqsadlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Ijtimoiy xodimlar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

- tashkiliy siyosat va amaliyotni ta’minalash, ularga o‘z vazifalarini maksimal darajada samarali tarzda bajarish imkoniyati beruvchi asoslangan natijalarni ongli ravishda belgilash bo‘yicha tadbirlarni tashkillashtirish;
- o‘z ish muhitidagi mijozning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va shu bilan birga, zarur yordamni olish imkonini beruvchi konstruktiv o‘zgarishlar ustida ish olib borish;
- ijtimoiy ish bo‘yicha xizmatlarni kelgusida o‘qishni davom ettirish, trening va malakali boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatlaridan foydalangan holda taqdim qilish bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga doim tayyor bo‘lish;
- o‘z mijozlari bilan kasbiy tajriba va ko‘nikmalar bilan bo‘lishgan holda o‘z hamkasblariga yordam ko‘rsatish;
- tashkiliy siyosat va amaliyotda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni, kelgusida ta’lim olish va treninglarga ehtiyojlarini hujjalashtirish hamda mazkur masalalarni agentlik rahbariyati bilan muhokama qilish.

Standart 10. Advokatlik qilish (himoyalash).

Yoshlarga xizmat taqdim qilish bo‘yicha ijtimoiy ish agentliklari rahbarlari yoshlar va o‘smirlarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga, tashkiliy siyosatni o‘zgartirish va tegishli manbalarni taqdim qilish hamda

ijtimoiy xodimlar o'z mijozlarining ehtiyojlarini tegishli ravishda qondirishlari mumkin bo'lган zarur ish sharoitlarini yaratish uchun harakat qilishlari lozim.

Izoh.

Taxmin qilinishicha, mazkur standartlarni ijro etish uchun ijtimoiy ish sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarlar mas'uldir.

13.2. Bolani nomunosib munosabatdan himoya qilish

Bola ehtiyojlariga besarq (e'tiborsizlik bilan) munosabatda bo'lish – ota-onalar yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar tomonidan bolaga elementar g'amxo'rlikning mavjud emasligi, buning natijasida uning hissiy holati buziladi va uning salomatligi yoki rivojlanishiga xavf tug'ilishi.

Bolaning asosiy ehtiyojlarining qondirilmasligining shakllari:

- bolaning yoshi va ehtiyojlariga mos bo'lган oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, ta'lim, tibbiy yordam, jumladan, uni davolatish kabilarning mavjud emasligi;
- tegishli e'tibor yoki parvarishning mavjud emasligi, buning natijasida bola baxtsiz hodisa qurbaniga aylanishi mumkin;
- shikast yetkazish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, shuningdek, huquqbuzarlik harakatlarini sodir etishga jalb qilish.

Bola to'g'risidagi g'amxo'rlik darajasining yetarli emasligi atayin qilinmagan bo'lishi ham mumkin. U ota-onalarning kasalligi, kambag'alligi, tajribasizligi yoki bilimsizligi, tabiiy ofatlar va ijtimoiy iztiroblar oqibati bo'lishi mumkin. Nafaqat oilalarda yashovchi bolalar, balki davlat qaramog'ida bo'lган bolalar ham qarovsiz qolishi mumkin.

Bolalarga besarq yoki yomon munosabatda bo'lish quyidagilardan iborat: kichik yoshda – ruhiy-nutqiy va jismoniy rivojlanishning kechikishi, rivojlanish qobiliyatining yo'qotilishi; nisbatan kattaroq yoshda – jismoniy shikastlarga, kasalliklarga, baxtsiz hodisalar tufayli zaharlanishga duchor bo'lish.

Psixologik (hissiy) zo'ravonlik.

Psixologik (hissiy) zo'ravonlik – ota-onalar (vasiylar) va boshqa katta yoshlilarning bolada xarakteming patologik jihatlarining shakllanishiga yoki uning shaxs sifatida rivojlanishini sekinlashishiga sabab bo'luvchi davriy, uzoq muddati yoki doimiy ravishdagi ruhiy ta'siri. Psixologik zo'ravonlik psixologik e'tiborsizlik va psixologik shafqatsiz munosabat sababli shakllanadi.

Psixologik beparvolik – bu ota-onा yoki bola paravarishini amalgalashirayotgan shaxsnинг bola uchun zarur yordam, e'tibor, psixologik himoya kabilarni amalgalashirish qobiliyatining, bolaga bog'lanib qolish kabilarning doimiy mavjud emasligi.

Psixologik shafqatsiz munosabat – katta yoshlilar tomonidan bolani xo'rash, uni kamsitish, haqoratlash, ustidan kulish maqsadida amalgalashiriladigan surunkali harakatlar. Zo'ravonlikning bu shakliga quyidagilar kiradi:

- bolani ochiqchasiga yoqtirmaslik va doimiy tanqid;
- bolani haqorat qilish va uning qadr-qimmatini tahqirlash;
- bolaga qaratilgan, hech bir jismoniy zo'ravonliksiz, so'z shaklida namoyon bo'luvchi tahdidlar;
- bolaning atayin qilingan jismoniy yoki ijtimoiy izolatsiyasi;
- bolaga nisbatan uning yoshiga yoki imkoniyatlariga mos bo'limgan, o'ta og'ir talablarni qo'yish;
- kattalar tomonidan yolg'on gapirilishi va va'dalarini bajarmaslik;
- bolada ruhiy jarohatning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi bir marotabalik qo'pol ruhiy ta'sir.

Psixologik zo'ravonlikni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan inqirozlarning oqibatlari, bolalarning rivojlanishi va ularning ijtimoiy moslashuvining buzilishi, shuningdek, alohida hayotiy ssenariylarni shakllantiruvchi bola shaxsini rivojlantiruvchi qadriyatlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ko'pincha bu kabi bolalarning xulqi gipertajovuzkorlik, jizzakilik, mayda-chuydalarga yuqori e'tibor qaratish, hissiy sezuvchanlikning pasayib ketishi va rivojlanmaganlik, bu esa o'z navbatida kelgusidagi hayot davomida bolani jinoiy faoliyatga qamrab olish xavfinining ortishiga olib keladi.

Ular barcha kabi emasliklarini his qilish, ular alohida e'tibor, yordam, qo'llab-quvvatlashga muhtoj ekanliklarini his qilish. Vaholanki ular har qanday odamdan u buni xohlaydimi yoki xohlamaydimi, u bunga qodirmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar talab etadilar.

Yoshi katta bo'lgandan so'ng "qurban-inson" murakkab maqsadlarga erishish, boshqa odam uchun oddiy bo'lgan muammolarni hal etish uchun hech bir harakatni amalga oshirmaydi va o'z navbatida, u professional karerasida muvaffaqiyatga erishish, jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanish qobiliyatiga ega bo'lmaydi.

Bolaga zo'ravonlik qilinganligini ko'rsatuvchi xatti-harakatlar belgilari:

1. Internallashtirilgan xulq (ichki tomonga yo'naltirilgan xulq). Mazkur turdag'i xulq aniqlangan bolalar ko'pincha odamovi va yolg'iz bo'ladi. Ular boshqalar bilan muloqot qilishdan qochadilar. Ular, shuningdek:

- kayfiyatning ruhiy zo'riqishga qadar tushib ketishi jihatlarini namoyon qiladilar;
- betartiblik va o'yinga oid xulqning yetishmovchilagini namoyon qiladilar;
- itoatkor va oson bo'y sunuvchan;
- haddan tashqari sezgir va hurkak (qo'rroq);
- noodatiy ta'sirlardan va yangiliklardan qo'rqa dilar;
- uyqu va uxlashdagi muammolar;
- ko'pincha boshdag'i va qorindagi og'riqlardan, ovqatlanish jarayonining buzilishidan shikoyat qiladilar;
- tobe xulqqa moyil;
- o'z joniga qasd qilish tahdidlarini shakllantiradilar;
- dissipativ buzilishlarga moyil, ya'ni bola boshdan kechirgan vaziyatlardan uzoqlashishni xohlaydi;
- autotajovuzkorlikni, ya'ni o'ziga yo'naltirilgan tajovuzkorlikni namoyon qiladilar (o'z tanalariga o'tkir kesuvchi asboblar yordamida jarohat yetkazadilar, tanalarini kuydiradilar va h.k.).

O'ziga jismoniy zarar yetkazishni o'z joniga qasd qilishga urinishlardan farqlash lozim. O'ziga turli ko'rinishdagi jarohatlar yetkazish, kuydirish qator sabablar bilan belgilanadi, ulardan biri vogelik bilan muloqotga kirishishga (ruhiy zo'riqish va noijtimoiylikdan chiqishga) urinish hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalar shu tarzda kattalarning e'tiborini qozonishga, ularning parvarish va ovutish obyektiga aylanamiz, deb o'ylaydilar. Bu ayniqsa ijtimoiy muassasalarda hayot kechiradigan bolalarga xos. Ayrim bolalarga shuningdek, ular tirik ekanliklarini bilish, ularning tomirida ham oddiy odamlarniki kabi qon oqayotganligiga ishonch hosil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Odatta, bu harakatlar o'smirlarga xos, biroq kichikroq yoshdag'i bolalar ham bu kabi harakatlarni amalga oshirishlari mumkin, ayniqsa ular bu harakatlarni birgalikda amalga oshirsalar, shu bilan birga ularning harakatlari marosimga oid, yashirin tabiatga ega bo'ladi. Agar bu kabi xulq va harakatlar to'xtatilmasa, u mustahkamlanib va katta yoshda ham saqlanib qolishi mumkin.

2. Eksternallashtirilgan xulq (tashqariga yo'naltirilgan).

Eksternallashtirilgan xulqqa ega bo'lgan bolalar o'z hissiyotlari va ichki kechinmalarini boshqa bolalarga, kattalarga, predmetlarga yo'naltiradilar. Odatta, ular quyidagilarni namoyon etadi:

- tajovuzkor, adovatli va buzg'unchilik;
- o'zlarini odamlarni g'ashini keltiradigan tarzda tutishlari, kaltaklash yoki jinsiy tajovuz qilishga majbur qilishlari, o'zlarini boshqalarga tajovuz qilishlari;
- ko'pincha hayvonlarni tahqirlaydilar (hattoki ularni o'ldiradilar);
- shahvoniy harakatlarni yoki xulqni namoyon qilishlari mumkin.

3. Alovida fenomen sifatida xulqning asosiy ikki turi sifatida avvalambor barcha jinsiy zo'ravonlikni boshdan kechirgan barcha bolalarga xos bo'lgan jinsiy xatti-harakatlar ajralib turadi. Ko'p hollarda bu kabi xulq kattalar tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi, ular shuningdek, ko'pincha ayblanadi va bolaga aybdorlik hissi singdiriladi, buning natijasida esa bola zarur yordamni ololmaydi.

Jinsiy xatti-harakatlar jinsiy suiiste'mol oqibati sifatida vujudga keladi, masalan, quyidagilar:

- bola rivojlanishining yoshga oid me'yorlariga mos bo'limgan jinsiy xuqlini rag'batlantirish;
- kattalar tomonidan axloq va jinsiy xulq to'g'risidagi noto'g'ri fikrlarning shakllantirilishi;

Jinsiy xulq namoyon bo'lishining asosiy ko'rinishlari:

- bola bilan jinsiy aloqalar;
- kattalar tomonidan axloq va jinsiy xulq to'g'risidagi noto'g'ri fikrlarning shakllantirilishi;
- bola jinsiy mavzularga ortiq darajada qiziqadi va jinsiy tusga ega bo'lgan xulqni namoyon qiladi;
- bola kichik yoshdan jinsiy faollikni namoyon qila boshlaydi;
- bola tajovuzkor jinsiy harakatlarni sodir etadi;
- bola tartibsiz jinsiy munosabatlarga kirishadi, fohishalik bilan shug'ullanadi.

Jinsiy zo'ravonlikni boshdan kechirgan bolalar, ko'pincha jinsiy faollikka olib keluvchi shahvoniy mavzularga bo'lgan ortiq darajadagi qiziqishni namoyon qiladilar. Bolalarning jinsiy xulqini baholashda jinsiy rivojlanishning me'yoriy bosqichlarini bilish lozim.

Nazorat savollari:

1. Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy maqsad va vazifalari.
2. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro qonunlar va O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
3. Bolaning rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlari.
4. Bolani zo'ravonlikdan himoya qilish.

14-BOB. OILALAR BILAN ISHLASHNING AXLOQIY TAMOYILLARI

14.1. Oila ijtimoiy ish etikasi obyekti sifatida. Oilalar turlari.

14.2. Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish: oilaviy terapiya.

14.1. Oila ijtimoiy ish etikasi obyekti sifatida. Oilalar turlari

Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan Rezolutsiyaning “Bolalarni muqobil parvarish qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar”¹ ning ikkinchi bo‘limida oila tushunchasining ta’rifi keltirilgan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va bolalarning o‘sishi, farovonligi va himoyasini ta’minlovchi tabiiy muhit bo‘lib, asosiy sa‘y-harakatlar birinchi navbatda bola vasiylik ostida qolishi yoki o‘z otanonasi vasiyligiga qaytarilishi, yoki tegishli vaziyatlarda boshqa yaqin oila a‘zolari vasiyligiga qaytarilishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Davlatlar oilalarga ular tomonidan o‘z farzandlarini parvarish qilish bo‘yicha majburiyatları to‘liq bajarilgan holatlarda qo‘llab-quvvatlashning zarur shakllaridan foydalanish imkoniyatini ta’minalashlari lozim. Har bir bola va o‘smir uni qo‘llab-quvvatlovchi, ularni himoya va parvarish qiluvchi hamda ularning qobiliyatlarini to‘laqonli ravishda ochib berishni ta’minlovchi muhitda yashashi lozim.

Ota-onha g‘amxo‘rligi yetarli bo‘limgan yoki umuman bo‘limgan bolalar tarbiyaning bu kabi sharoitlaridan mahrum bo‘lish kabi alohida xavfga duch kelishlari mumkin.

Me’yoriy (uyg‘un) oila – bu o‘zi tomonidan yaratilgan yoki o‘zini o‘rab turgan sotsiumdan o‘zlashtirilgan me’yorlarga muvofiq ravishda faoliyat olib boruvchi oila demakdir.

¹ В Резолюции, принятая Генеральной Ассамблеей [по докладу Третьего комитета (A/64/434)] 64/142. Руководящие указания по альтернативному уходу за детьми. 24 февраля 2010 г.

Oila ta'rifi

Oila – bu nikoh yoki qon-qarindoshlikka asoslangan, turmush birligi va o'zaro mas'uliyatlar bilan bog'langan odamlar uyushmalari demakdir. Oila nikoh tushunchasidan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, bu nafaqat er-xotin munosabatlari, balki bir nechta avlodlarga borib taqaluvchi vertikal aloqalar va gorizontal aloqalar, ya'ni aka-uka va opa-singillar, kelinlar, kuyovlar, jiyanolalar, qudalar o'rtaqidagi munosabatlar.

Oilada inson insoniy muloqotlar me'yordi va qoidalarini belgilaydi. Har bir oila umumiy milliy, diniy, davlatga oid muhit doirasida shaxsiy madaniy muhitini yaratadi. Oila o'z a'zolariga ma'lum o'ziga xoslikni taqdim qiladi, oilaga kirish – bu uning submadaniyatini qabul qilish va o'zlashtirish demakdir¹.

Bu o'rinda me'yor – bu tashqi kuzatuvchi beradigan baho emas, biroq oilaning jamiki hayot faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiruvchi autoxarakteristikasidir. Me'yoriy faoliyat olib boruvchi oilada uning a'zolarining bazaviy ehtiyojlari (xavfsizlik va himoyalanganlik, qabul qilish va ma'qullash, o'sish va o'zgarishlar, o'z-o'zini namoyon qilish kabi ehtiyojlari) qondiriladi.

Bu bir tomondan o'zaro qo'llab-quvvatlashni, boshqa tomondan esa – a'zoarining avtonomiyasini ta'minlaydi. Barcha qarindoshlar bir-biriga iliqlik hissiy aloqalar yordamida bog'langan, ularning oiladagi roli raqobatlashmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Hech kim boshqaning vazifasini tortib olmaydi va o'z majburiyatlarini bepisand qoldira olmaydi. Oila barqaror tarmoq guruhlari, ayrim oila a'zolarining boshqa oila a'zolariga qarshi birlashishi kabi holatlar mavjud emas. Bu kabi sharoitlarda barcha yoshga murakkabliklar, shaxs aksentuatsiyasining turli ko'rinishlarining barcha o'ziga xos xususiyatlari silliqlanib ketadi va ijtimoiy dizadaptatsiyaga sabab bo'lmaydi. O'zaro uyg'unlik

¹ Энциклопедия социальной работы. З тома. Перевод с англ. – Москва: Центр общечеловеческих ценностей, 1994.

hukmron bo‘lgan oila muhitning nomaqbul ta’sirlariga nisbatan o‘ziga xos psixologik immunitetning ishlab chiqilishiga, ruhiy jarohatlarning ta’siriga nisbatan yuqori rezistentlikning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Biroq yolg‘iz oila ichidagi uyg‘unlikning o‘zi yetarli emas. Oilaning o‘zi atrofdagilar bilan ixtilof holatida bo‘lsa, o‘zini jamiyatdan yakkalasa va hattoki unga qarshi chiqsa, u me’yoriy faoliyat olib borayotgan oila, deb tan olinishi mumkin emas.

Disfunktional (uyg‘un bo‘limgan) oila – bu vazifalarning bajarilishi buzilgan, buning natijasida esa gorizontal va vertikal ruhiy zo‘riqishlar uchun asos vujudga keluvchi oila demakdir. Gorizontal (me’yoriy) stressor (ruhiy zo‘riqishlarni uyg‘otuvchi)lar – bu oila tomonidan hayot Davriyligi bosqichlarini bosib o‘tishning keskin nuqtalaridir. Vertikal stressorlar bir avlod vakillaridan boshqa avlod vakillariga hissiy-xulqqa oid ta’sirlanish patternlarining shakllanishi, mustahkamlanishi va yetkazib berilishini taqozo qiladi. Ayrim holatlarda ularning harakati oila faoliyatining o‘zgarishiga imkoniyat yaratadi, boshqa holatlarda esa bu patologik ta’sir ko‘rsatuvchi oilaviy merosni aks ettiradi. Nomaqbul oilalarda gorizontal va vertikal stressorlarning namoyon bo‘lishi, odatda ularning buzilishini kuchaytiradi.

Kuchli disfunksiya turli xil jismoniy yoki psixologik sabablar oqibatida eng past darajadagi ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan oila a’zosi o‘z zimmasiga oluvchi alomat tashuvchisi oilaviy rolini shakllantiradi. Alomat tashuvchisi rolda bu inson ruhiy-asabiy buzilishlarga ega bo‘lgan individ kabi umuman oilaning ham patologik moslashuvining murakkab mexanizmida muhim bo‘g‘in hisoblanadi¹.

Oilalar turlari:

- bolalar soniga ko‘ra: bolasiz, kam bolali, ko‘p bolali (milliy va madaniy xususiyatlariga bog‘liq ravishda);

¹ Эйлемиллер Э. Г., Добряков И. В., Никольская И. М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. Учебное пособие для врачей и психологов. Изд. 2-е, испр. и доп. – СПб.: Речь, 2006. – С. 4.

- tarkibiga ko‘ra: to‘liq bo‘lмаган (bolalar ota-onalarning biri bilan yashaydi), nuklear oddiy (ota-onalar va bolalar), murakkab (kengaytirilgan, bir nechta avlodlardan iborat, ko‘p avlodli);
- yetakchilik tuzilmasi, huquq va majburiyatlarning taqsimlanishiga ko‘ra elitar (demokratik), an’naviy (avtoritar);
- geografik jihatiga ko‘ra: shahar, qishloq;
- oilaviy stajiga ko‘ra: yosh oila, o‘rta yoshdagi oila, uchinchi yoshdagi oila (pensionerlar);
 - daromadlar darajasiga ko‘ra: yuqori darajadagi daromadlarga ega, o‘rtacha ta’minlangan, kam ta’minlangan, daromad darajasi iste’mol minimumidan oshmaydi (bu kabi oilalarda budgetning 85% oziq-ovqatga sarflanadi);
 - oilaviy hayotning alohida sharoitlariga ko‘ra: talabalar hayoti, distant, nikohsiz oilalar;
 - atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarning tabiatiga ko‘ra: ochiq, yopiq¹.

2. Ijtimoiy xavfga moyil oila – qator sabablar, ichki va tashqi vaziyatlar sababli o‘z vazifalarini bajarmayotgan, salbiy ijtimoiy omillar ta’siriga duchor bo‘lgan, ijtimoiy xavf guruhlari bilan chambarchas o‘zaro munosabatlarga kirishgan oila.

Oila va uning a’zolarining ehtiyojlarini aniqlash maqsadida ijtimoiy ishda baholashning maxsus vositalari qo‘llaniladi. Baholashni bolaning kuchli tomonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning muayyan hajmini to‘plash, uning kuchli tomonlari, ehtiyojlarini aniqlash, zarur haarkatlarni belgilab olish (yoki qo‘srimcha yordam zarur emasligini tasdiqlash) maqsadida amalga oshiriladigan tizimli jarayon, deb ta’riflash mumkin.

3. Oilani baholash tizimli yondashuvga asoslangan va bola ehtiyojlari, ota-onalarning bola to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish

¹Дж. Браун, Д. Кристенсен. Теория и практика семейной психотерапии. 3-е международное издание. – Санкт-Петербург, Москва, Харьков, Минск, 2001.

imkoniyatlari va atrof-muhit omillaridan iborat bo‘lgan uch o‘lchamli modelni aks ettiradi.

Tizimli yondashuvning asosiy qoidasi: oila – bu yagona organizm sifatida faoliyat olib boruvchi bazaviy insoniy tizimdir. Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan ijtimoiy ishning mijozи butun oila ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur.

4. Oila bilan ish olib borayotgan ijtimoiy xodim oilaviy faoliyatni izohlovchi asosiy yondashuv va prinsiplarni, oilani baholashni amalga oshirish usullarini bilishi, aralashuv va oila bilan uzoq muddatli ish olib borish rejasini ishlab chiqishi zarur. Bu holatda ijtimoiy ishga oid bilimlar, ko‘nikmalar va axloqiy qadriyatlar alohida e’tiborga molik, chunki oila bilan ish olib borar ekan, ijtimoiy xodim o‘z amaliyotida barcha yoshga oid toifalar bilan duch kelishi mumkin: erkaklar va ayollar, muammo va vazifalarning keng doirasi. Shu sababli, odatda, bu kabi faoliyatni mutaxassislar jamoasi amalga oshiradi.

14.2. Oila bilan ijtimoiy ish olib borish: oilaviy terapiya

M.Richmond o‘zining “Ijtimoiy tashxis” (1917) asarida ijtimoiy ishni individ yoki oila bilan alohida ish olib borish sifatida ta’riflagan. M.Richmond oilani doimiy ravishdagи e’tibor va qo‘llab-quvvatlashni talab etuvchi birlik sifatida ta’riflagan. “Oila, -deb yozadi u, - bizning taqdirlarimiz atrofida aylanuvchi asosiy institut bo‘lib qolishda davom etmoqda”. M.Richmondning ogohlantirishicha, alohida mijoz bilan olib borilgan ish jarayonida erishilgan barcha ijobiy natijalar, agar ijtimoiy xodimlar oilani e’tiborga olmasalar, chipakka chiqishi mumkin.

Ijtimoiy xodim yoki boshqa mutaxassisning oila bilan olib boradigan oilaviy terapiyasi bir butun birlik sifatida ifodalananadi. Oilaning ichki munosabatlарини uyg‘unlashtirishda, oilaviy muam-molarni yengib o‘tish va oilaning ichki nizolarini hal etishda zarur yordam ko‘rsatishga intilar ekan mutaxassis oila a’zolarining guruh

ichidagi rolini, ularning o‘zaro majburiyatlarini ochib berishga, ularni nisbatan egiluvchan xulqqa rag‘batlantirishga intiladi va h.k.

Oilaning vazifalari – oilaning a’zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hayot faoliyati:

- tarbiyaviy;
- xo‘jalik-turmushga oid (iqtisodiy);
- hissiy;
- ma’naviy (madaniy) muloqot;
- birlamchi ijtimoiy nazorat (birlamchi ijtimoiylashtirish);
- jinsiy-erotik.

Oilaviy o‘zaro munosabatlar darajasi.

Nikoh-hamkorlik munosabatlar va ota-onalik munosabatlari.

Keksa avlod: buvilar, bobolar, bolalar.

Oilav vazifalarining buzilishi – hayot faoliyatining, oila tomonidan o‘z vazifalarini bajarishni murakkablashtiruvchi va to‘sqinlik qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlar.

Ijtimoiy terapiyaning asosiy bosqichlari.

1. Mutaxassisning muammo bilan tanishligi, mijozni hamkorlikka taklif qilish. Aynan shu holatda vujudga kelgan muammolarni hal etish bo‘yicha keyingi faoliyatga qat’iy tayyorlanish imkoniyati yaratiladi.

2. Muammoni, uning mijoz uchun ahamiyati, uning hayotida egallagan o‘rnini aniqlash. Mazkur bosqich mijoz, uning aloqalar tizimi va boshqa odamlar bilan munosabatlari haqidagi kelgusidagi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plashni taqozo qiladi.

3. Kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish va o‘zaro majburiyatlarini qabul qilish. Bu holatda mijoz va ijtimoiy xodim muammoni hal etishning jamiki mavjud turlari va usullarini o‘rganadilar, ularning eng samarali va maqbollarini tanlab oladilar, tomonlarning har birining keyingi harkatlari uchun mas’ulligini belgilab beradilar va o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat grafigini tuzadilar.

4. Rejalarshirilgan o'zgarishlarni amalga oshirish. Mijoz va ijtimoiy xodim imkon qadar avvalgi bosqichda o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajaradi, ya'ni ijtimoiy-terapevtik aralashuv jarayoni va ijtimoiy o'zgarishlar amalga oshiriladi.

5. Olingan natijalarni tahlil qilish va ishni yakunlash. Ijtimoiy terapiyaning mazkur bosqichi mijoz va ijtimoiy xodimning qandaydir muammoni hal etishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyatining natijadorligini tahlil qilishni, zarurat tug'ilganda mazkur jarayonga tegishli tuzatishlar kiritish va mijozning kelgusidagi hayot faoliyati uchun tavsiyalarni tuzishni taqozo qiladi. Ijtimoiy terapiya vazifalari mazkur sohada faoliyat olib boruvchi eng mashhur muassasalar va tashkilotlar tomonidan – bandlik xizmatlari, aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limlari, migratsion xizmatlar va ijtimoiy ta'minot bo'limlari, psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlari va bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bo'limlar va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-terapevtik ta'sir ijtimoiy muassasaning tashkiliy tuzilmasi, uning kadrlarga oid imkoniyatlari va xodimlarning shaxsiy ustuvor qarashlariga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, oddiygina turli terapevtik usullar va metodikalarni o'r ganuvchi ijtimoiy xodim emas, balki har bir mijoz bilan chuqur muloqot o'rnatganligi sababli boshqa odamni yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'lgan va o'z kechinmalarining shaxsiy dunyosini boyitgan ijtimoiy xodimlar eng yaxshi ijtimoiy xodim hisoblanadi, chunki boshqa kishini tushunish tadqiqot usuliga emas, balki ijtimoiy xodimning insoniy xislatlariga bog'liq bo'ladi.

Oilaviy terapiya modellari:

1. Strategik. E'tiborni oilaviy munosabatlar tuzilmasini emas, balki mijozning muayyan muammosini hal etishga qaratish lozim.

Mazkur usul asoschisi Milton Erikson aralashuv strategiyasining ko'p turlilagini u qanday muammoga duch kelganligiga bog'liq ravishda ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra bemorlar o'z muammolarini ularga noma'lum faqat bittagina chiqish yo'li mavjud bo'lgan qopqon sifatida

qabul qilishga moyildirlar, aslida esa ularda tanlovlarning keng doirasi mavjud.

Strategik yondashuvning mohiyati – muammoni hal etish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat, chunki, oiladagi o'zgarishlar buzilishlar sabablarini anglashdan ko'ra muhimroqdir.

Interaksiya namunasi(modeli)ning o'zgarishi.

Muammoni qayta ta'riflash (unga boshqa nuqtayi nazardan qarash), qarashlarni o'zgartirish.

2. Tuzilmaga oid. Oila tarkibi va uning a'zolarining soni, shuningdek, ularning o'zaro munosabatlari majmui. Tuzilmani tahlil qilish oila vazifalari qay tarzda amalga oshirilishi; oilada kim rahbarlik qilishi va ijrochi kim ekanligi, huquq hamda majburiyatlar oila a'zolari o'rtasida qay tarzda taqsimlangan ekanligi to'g'risida tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi.

- sessiyani amalga oshirish vaqtida qo'llanilgan faol usullar sababli vujudga kelgan o'zgarishlar;
- tuzilma va rollarga e'tibor qaratish.

3. Tizimli. Tizimli yondashuv oilada barcha narsalar o'zaro bog'liq ekanligini, u yaxlit bir butun ekanligini, yagona psixologik va biologik organizm ekanligini tushunishni anglatadi. Shu sababli, har qanday masalaning o'rganilishi oilaviy hayotning boshqa tomonlari bilan bog'liq holda o'rganiladi hainda tizimlar nazariyasi modeliga asoslanadi: tizim, tarmoq tizim, teskari aloqa, ma'lumot va h.k.

Oila a'zosiga individual psixoterapevtik ta'sir ko'rsatishdan maqsad umuman oilaga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat. Mazkur model oila faoliyatining konstruktiv (tuzilmaga oid) ko'rinishlarini yaratishga qaratilgan.

Oila muammosini o'rganish markazida quyidagi masalalar turadi:

- ✓ aylanma so'rov;
- ✓ terapevtning neytral vaziyati

Mutaxassisning oilaviy terapiya modeli:

- ✓ baholash;

- ✓ muloqotga kirishi;
- ✓ davolash;
- ✓ xulosa qilish.

Dovalash umumiy ko'rinishda taxminan quyidagicha amalga oshiriladi: dastavval terapevt oila a'zolari bilan muloqot o'matgan holda oiladagi psixologik vaziyatni aniqlab oladi. Shuningdek, oila ichida rollarning taqsimlanishi qay tarzda amalga oshirilganligini ham aniqlab olish lozim. Amalga oshirilgan kuzatuvlar va tahlillardan so'ng oilaviy terapevt dastlabki so'rovnomani amalga oshiradi va bevosita oila ichidagi munosabatlarni qayta qurish bilan shug'ullanadi.

Oilaviy terapiya nima uchun zarur? Quyida oilaviy terapiyanin amalga oshirishning ilk seansidan boshlab barcha bosqichlari keltirib o'tilgan. Buni amalga oshirish uchun birinchi navbatda oila haqidagi ayrim ma'lumotlar talab etiladi.

1. Oilaviy terapevt og'riqli munosabatlar shakllangan oila bilan ish olib boradi:

➤ oila a'zolaridan biri kasal bo'lsa, bu esa u yoki bu belgilarda namoyon bo'lsa, oilaning bara a'zolari mazkur kasallikni o'zlarini boshdan kechiradilar;

➤ ko'p terapevtlar kasallik belgisa namoyon bo'layotgan oila a'zosini "identifikatsiyalangan bemor" yoki "IB", deb nomlashni afzal ko'radilar va oilaviy o'zaro munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan "bemor", "delinkvent" yoki "zaif", degan atamalarni qo'llashdan qochadilar;

➤ bu kabi terminologiyaning qo'llanishilishi to'liq asosli. Terapevt "identifikatsiyalangan bemor o'z xulqi bilan mazkur oilada yo'ilga qo'yilgan o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatmagan holda qandaydir vazifani bajarishini to'liq tushunishi lozim.

2. Ko'p sonli tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, oila yagona, mustaqil bir butun sifatida mavjud bo'ladi. Mazkur hodisani ta'riflash uchun Jeksonning (Jekson, 1954) tadqiqotlarida "oilaviy gomeostaz" atamasi kiritilgan.

- mazkur konsepsiyaga muvofiq oilaning barcha harakatlari oilaviy gomeostaz saqlab qolishga yo'naltirilgan;
- oilaning har bir a'zosi ochiq yoki yashirin tarzda oilaviy muvozanatga erishish va uni qo'llab-quvvatlashga imkoniyat yaratadi;
- oilaviy an'analar, qoidalar va o'zaro munosabatlar namunalari – mana har qanday oilaning gomeostatik mavjudligini ta'minlaydi;
- oilaviy gomeomtaz buzilsa, oila a'zolari uni qayta tiklash uchun barcha kuchlarini safarbar qiladilar.

3. Nikoh munosabatlari oilaviy gomeostazning tabiatiga ta'sir qiladi.

- nikoh munosabatlari oiladagi boshqa munosabatlarni shakllantirish uchun o'zak bo'lib xizmat qiladi. Aynan er-xotinlar oila "arxitektorlari" hisoblanali;

➤ er-xotinlik vazifalarining buzilishi disfunktional ota-onalik munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi;

4. Identifikatsiyalangan Bemor – bu ota-onalarning nikoh munosabatlaridagi qiyinchiliklardan boshqalardan ko'ra ko'proq qayg'uruvchi, shuningdek, "bola – ota-on" munosabatlarining buzilishiga ko'proq moyil bo'lgan oila a'zosidir.

➤ uning belgilari ota-onalar bilan munosabatlarning buzilishi to'g'risidagi SOS belgisini aks ettiradi, ular – oilaviy nomuvozanat vaziyatlarning bevosita natijasi hisoblanadi;

➤ uning belgilari – bu o'z ota-onalarining azoblarini kamaytirish va yumshatishga urinishdir.

5. Ko'plab terapeutik usullar "oilaviy terapiya" nomiga ega, biroq mustaqil birlik sifatidagi oilaga emas, balki oilaning asosan bitta a'zosiga qaratilgan ushbu yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniq tasavvur qilish zarur. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) oilaning har bir a'zosining shaxsiy terapevti mavjudligi;
- b) oilaning oila a'zolarining har biri bilan alohida uchrashuvchi aynan bitta terapeutga murojaat qilishi;
- e) bemorning aynan shu uning "foydasi" uchun oilaning boshqa a'zolarini ham kuzatib boruvchi shaxsiy terapeutining mavjudligi.

6. Bugungi kunda klinik tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishi rivojlanmoqda. Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, oilaviy terapiya umuman oilaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu kabi yondashuvga, “shizofreniya” kasalligiga chalingan, deb tan olingan oila a’zosining holati va uning jamiki oilasining faoliyatini kuztishning natijasi hisoblangan qator omillar asos bo‘ladi. Quyidagi holatlar aniqlangan:

➤ Oilaning barcha asoslari “bemor”ning individual davolanishida ishtirok etishga harakat qiladilar, qayg‘uradilar, vaholanki ko‘p holatlarda aynan oila uning “kasalligi”ga manba bo‘lib xizmat qiladi.

➤ Bemorning kasalxonaga yotqizilishi yoki atrofdagilardan ajratilishi ko‘pincha uning holatini yomonlashtirgan, yaxshilanish esa, uning kasallik belgilari aynan oiladagi o‘zaro munosabatlarning buzilishi oqibatida sodir bo‘lganligiga qaramasdan, yaqinlari kelib-ketgandan so‘ng sodir bo‘ladi.

➤ Ko‘pinch oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar aynan bemorning holati yaxshilanganda yomonlashgan, chunki aynan uning kasalligi oilaning asosiy faoliyatiga aylanib qolgan.

7. Mazkur kuzatuvlar ko‘p sonli shaxsni o‘rganishni maqsad qilgan ruhshunoslarning davolash prinsiplarini qayta ko‘rib chiqish va tekshirishlariga sabab bo‘ldi.

➤ ular, bemor oilada qurban sifatida qabul qilingan holatlarda bemorning holatini aniqlash va uning holatini prognoz qilish osonroq bo‘lganligini ta‘kidlab o‘tganlar. Bunga quyidagilar sabab bo‘lgan:

✓ oilaning barcha a’zolari unga qurban sifatida munosabatda bo‘lganlar;

✓ bemor o‘zini kasal, baxtsiz, azob chekayotgan shaxs rolida ko‘rishlariga harakat qilgan.

➤ Ular bemorning holatida ijobji o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga to‘sinqilik qilivchi o‘zgarishlarni yengib o‘tishdagi qiyinchiliklarni alohida ta‘kidlab o‘tgani. Shu bilan birga, bu kabi o‘zgarishlarning aksariyati aslida, bemorning sun‘iy va xavotirli vaziyatlardagi xulqiga munosabati bo‘lgan. Shu bilan birga, terapevtik vaziyat bemorni eski muammolardan

xalos qilish bilan bir qatorda yangilarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan holda, unga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xavf ham mavjud bo‘lgan.

➤ Agar bemorning xulqidagi muayyan o‘zgarishlarni aks ettirsa (ya’ni otasi va onasi bilan bo‘lgan munosabatlarning unga xos tabiatini qayta tiklaydi), u holda, ehtimol, terapevt aynan oilaga murojaat qilgan holda davolashda ko‘proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

➤ Ular terapevt davolash jarayonida ko‘proq bemorning real hayoti bilan emas, balki fantaziyalari dunyosi bilan qiziqishini; u bemor hayoti to‘g‘risida shaxsiy taxminlarni quradi va undan mazkur taxminga mos keluvchi ma’lumotlarni olishga harakat qilishini qayd qilganlar.

➤ Ular terapevt bir bemorning turmush tarzini o‘zgartirishga intilgan holda aslida o‘rnashib ulgirgan oilaviy o‘zaro munosabatlar majmuini o‘zgartirishga intilganlarini qayd qilganlar.

Strategik oilaviy terapiya. Strategik yondashuvlarni amalga oshirishga ruhlantiruvchi manbalardan biri, usullarning boy xilmalligini ishlab chiqqan, va ayrimlari startegik va boshqa usullarning gipnoterapiya (Xeyli, 1973) shakllari sifatida ishlab chiqqan Milton Eriksonning asari bo‘lgan. Erikson ko‘pincha oilalar bilan ish olib borgan, biroq u shuningdek, oilaning qismlari yoki alohida shaxslari bilan ham ish olib borgan. Uning amal qiladigan usullaridan biri shundaki, bitta shaxsning muammolari ko‘pincha oilada vujudga keluvchi muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi, va bu muammolarni bola tug‘ilish, yoki bolalar uydan ketishga qaror qilgan holatlar kabi asosiy o‘tish davrida o‘zgartirish va qayta tashkillashtirish zarur. U o‘z asarida yoshlar bilan ish olib borishda, masalan, asosiy vazifani Ota-onalarni o‘z bolalaridan ajratish sifatida ta’riflagan. Bu holatda u, ota-onalar ko‘pincha farzandlarining ularga muhtojligini his qilgan holda, masalan, ularga o‘z shaxsiy munosabatlardagi nizolardan qochishlari uchun yordam ko‘rsatishga harakat qiladilar. Binobarin, terapevt ba’zida yosh inson bilan alohida ish olib borishi va unga o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada oshirishga va kasallik alomatlaridan xalos bo‘lishga tayyorlanishga yordam berishi mumkin. Biroq, terapevt yoshlar bilan ish olib borganda farzandlar ko‘pincha ota-onalariga “qarshilik” qilishga va davolanishdan bosh

tortishga harakat qiladilar, shu sababli, davolash jarayonida u ota-onalar bilan ishlashiga ham to‘g‘ri keladi.

Faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida oilani baholash, uning madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini, mustahkamligini e’tiborga olgan holda amalga oshirilishi hamda oila bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim. Baholash jarayonini ishlab chiqish ota-onalarga yoki vasiylarga bolalarning o‘z uyidagi xavfsizligiga tahdid soluvchi vaziyatlarni aniqlash va bartaraf qilishda yordam ko‘rsatish uchun ishlab chiqilishi lozim. Oilaga o‘z vaqtida amalga oshirilgan aralashuvga urg‘u qaratgan holda (ASFA), oila uchun xavfsiz, barqaror uy sharoitini yaratishni ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan vaqtini o‘rganib chiqish talab etiladi.

Baholashning madaniy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, ota-ona tajribasi va oilaviy tuzilmalar etnik uyushmalar va oilaviy tushunmovchiliklar sababli farq qilishi tan olinadi va mazkur keng ko‘lamlilik turli oqibatlarga olib kelishi mumkin, biroq bu shuningdek, bolalarni qonun talablari asosida xavfsiz va to‘g‘ri parvarishlashga sabab bo‘lishi mumkin. Har bir oila o‘z shaxsiy tuzilmasiga, o‘rniga, qadriyatlariga, qarashlari va qiyinchiliklarni yengib o‘tish usullariga ega. Mazkur xilma-xillikning hurmat qilinishi va tan olinishi oilaga yo‘naltirilgan baholarning eng muhim hisoblanadi. Baholash jarayoni oilalarning xilma-xilligini tan olishi, hurmat qilishi va unga amal qilishi lozim.

Mustahkamlikni baholash, odamlar o‘z tabiatlarining murakkabligiga qaramasdan o‘sishlari va o‘zgarishlari mumkinligini, tuzalish jarayoni oilaning kuchsiz tomonlari bilan emas, balki kuchli tomonlari bilan ish olib borilganda sodir bo‘lishi, va oilaning o‘zi o‘z o‘zgarishlarining agenti ekanligini tan oladi. Oilani baholash jarayonini rejalashtirish baholashning barcha sohalari qamrab olinganligi, oilani baholash jarayoni individuallashtirilgan bo‘lishi lozimligi ehtimolini oshiradi va har bir shaxsning o‘ziga xos afzalliklari va individual ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda shaxslararo munosabatlarning kompleks manzarasini shakllantirish uchun individuallashtirilgan baholash boshqa xizmat taqdim qiluvchilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Bu kabi majmuaviy yondashuv

mijozlar malakai va atrof- muhitini e'tiborga oladi va atrof-muhitni yechimlar manbai sifatida qabul qiladi. Imkoniyat mavjud bo'lgan holatlarda baholash jarayonini, shuningdek, qarorlar qabul qilish uchun oilaviy uchrashuvlardan va boshqa usullardan foydalangan holda amalgalash oshirish zarur.

Ijtimoiy xodimlarning hisobdorligi va empirik foydaliligi tajribalarini baholash maqsadida xavf va himoya omillarini baholashning standart klinik usullari va baholash vositalarini qo'llash imkoniyatini o'rganib chiqish lozim. Oilaning kuchli tomonlari, ehtiyojlari va manbalarini baholashni qo'llab-quvvatlovchi vositalar quyidagi larni qamrab oladi:

- ✓ oila yordamida tugallangan, oila daraxtiga o'xshash genogramma-sxema;
- ✓ oila daraxtini tashqi tizimlar va manbalar bilan bog'lovchi oila ekoxaritasi;
- ✓ o'z-o'ziga hisob berish-so'rov nomalarini vositalari yoki qarashlar, kuchli tomonlar, xavflar va xulqni aniqlashga mo'lallangan so'rovlar o'tkazish;
- ✓ mutaxassislarga shaxsiy va oilaviy dinamikani o'rganish imkonini beruvchi, kuzatuvga oid vositalar-qurilmalar.

Bu kabi vositalar yordamida aniqlangan ehtiyojlar vaqtini cheklash, ish rejalarini individuallashtirish asosida yotuvchi aralashuvning muayyan natijalariga erishishga aylantiriladi.

Dastlabki baholash oiladagi tashvishlarga sabab bo'luvchi omillarni aniqlaydi, oilani tahlil qilish kuchli tomonlar va xavflar o'rtaqidagi aloqani o'rganadi va bolalarni xavfsizlikda saqlash, kelgusidagi yomon munosabat xavfini pasaytirish, muvozanatni ta'minlash hamda bola va oilaning farovonligini oshirish uchun nimani o'zgartirish zarurligini belgilab beradi. Demak, agar dastlabki tanishuv muammolarni aniqlash imkonini bersa, oilani monitoring qilish muammolarni anglash va aralashuv rejasiga uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Oila darajasida qaror qabul qilish. To'plangan va tahlil qilingan qo'shimcha ma'lumot asosida ijtimoiy xodim baholar to'g'risida xabar qabul qilish maqsadida quyidagi savollarni berishi lozim:

➤ Oilaning xavfsizligi, barqarorligi va farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi xavf va ehtiyojlar omillari nimalardan iborat?

➤ Oilaning xavfsizligi, barqarorligi va farovonligiga yomon munosabatning oqibatlari qanday?

➤ Individual va oilaviy kuchli tomonlar nimalardan iborat?

➤ Oila a'zolari nimalarni o'z muammolari va kuchli tomonlari sifatida qabul qiladilar?

➤ Yomon munosabat oqibatlarini o'zgartirish va yomon munosabat xavfi qisqartirilishi yoki bartaraf qilinishi uchun nimalarni o'zgartirish lozim?

➤ Tarbiyachining o'zgarishlar va ota-onalarning sabablari va qobiliyatlariga yoki xavfsizlik, barqarorlik va farovonlikka nisbatan tayyorlik darajasi qanday?

Oilani baholash jarayonida samarali yechimlarni topish maqsadida ijtimoiy xodim oilani hamkorlikka jalg qilish maqsadida suhbatlarni amalga oshirishning layoqatlilik ko'nikmalaridan foydalanishni; ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirishni; ma'lumotning mohiyatini tahlil qilish va sharhlashni; va baholashga asoslangan aniq baholarni talab etadi.

Oilani baholash jarayoni.

Oilani baholash maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy xodimlar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

➤ dastlabki baholash natijalarini yoki o'rganish natijasidagi ma'lumotlarni o'qish;

➤ oilani baholash rejasini ishlab chiqish;

➤ oilani baholashni oilaning barcha a'zolari va oila bolaning xavfsizligi hamda farovonligidan manfaatdor bo'lgan, deb baholaydigan boshqa shaxslar bilan suhbat o'tkazish yordamida baholashni amalgaga oshirish;

➤ vaziyatlardan kelib chiqqan holda boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashish;

➤ ma'lumotni tahlil qilish va qaror qabul qilish.

Oilani baholash.

Oilani baholash uchun diqqat markazini tanlab olish uchun ijtimoiy xodim dastlabki baholash yoki o'rganish davomida to'plangan va tahlil qilingan ma'lumotni yoritishdan boshlashlari lozim. Mazkur ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ijtimoiy xodim oilani baholash jarayonida javob berishi lozim bo'lgan savollar ro'yxatini ishlab chiqishi lozim. Quyidagi savollar ijtimoiy xodim o'rganishni istashi mumkin bo'lgan sohalarning namunalari hisoblanadi:

➤ Yomon munosabat tabiat (turi, og'irligi, surunkaliligi) qanday?

➤ Yomon munosabatlar mavjud bo'lgan oilani qanday tushunish mumkin?

➤ Dastlabki baholash yoki o'rganish davomida aniqlangan xavf omillari qanday?

➤ Bolaning bugungi kunda yashayotgan vaziyati xavfsizlik va barqarorlik nuqtayi nazaridan qanday?

➤ Xavfsizlikni ta'minlash rejasи ishlab chiqilganmi? Oilaning mazkur rejasiga javobi nima edi?

➤ Bugungi kunda ota-onा yoki tarbiyachilar tarixi to'g'risida nimalar ma'lum? O'tmish haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar ota-onalar yoki tarbiyachining mavjud faoliyatini izohlashga yordam beradi, deb taxmin qilish imkonini beruvchi kalit (yechim)lar mavjudmi?

➤ Oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatalash tarmog'i to'g'risida nima ma'lum? Oilani yana kim qo'llab-quvvatlaydi va kim oila doimiy ravishda tayanishi mumkin bo'lgan inson hisoblanadi?

➤ Bolada kuzatiladigan qanday xulqiy belgilari mavjud? Bola muktabda va ijtimoiy munosabatlarda o'zini qay tarzda tutadi? Yana kim xulqiy yoki hissiy muammolar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin?

➤ Ehtimol qo'shimcha izlanishlar yoki baholash talab etilishi zarur bo'lgan muammolar aniqlanganmi (masalan, giyohvand moddalar yoki

spirtli ichimliklar bilan bog'liq muammolar, ruhiy va psixologik muammolar, shuningdek, sog'lijni saqlash sohasidagi ehtiyojlar bilan bog'liq muammolar)?

➤ Oila haqidagi qo'shimcha ma'lumot xavflarni anglash va kelgusida yomon munosabatning paydo bo'lishi sharoitlari bilan bog'liq himoya omillarini ta'minlash uchun nima beradi?

Oilani baholash bo'yicha rejani ishlab chiqish.

Tadqiqotlar davomida aniqlangan sohalardan kelib chiqib, ijtimoiy xodim baholash jarayoni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarning rejasini ishlab chiqadi. Umuman olganda, tahlil qilishdan avval oila haqida aniq xulosalar qilish maqsadida to'liq "o'rganish" uchun o'rtacha 4-6 hafta yetarli bo'ladi. Baholash rejasini ishlab chiqishda quyidagi masalalr ko'rib chiqilishi lozim:

➤ Oila bilan birinchi uchrashuv qachon sodir bo'ladi?

➤ Oila bilan uchrashuvlar qancha muddatda amalga oshiraladi?

➤ Uchrashuvlar qayerda amalga oshiriladi va ular qay tarzda nazorat qilinadi?

➤ Har bir uchrashuvda kim ishtirok etadi? Oila ehtiyojlarini to'g'risidagi jiddiy ma'lumotlarga ega bo'lgan boshqa shaxslar ham ishtirok etadimi (masalan, do'stlar, uzoq qarindoshlar, boshqa mutaxassislar)? Ular bu jarayonda qay tarzda ishtirok etadilar?

➤ Boshqa mutaxassislarning xizmati zarur bo'ladi (masalan, psixologik testlar yoki spirtli ichimliklar va boshqa, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish uchun)?

➤ Oilaning muayyan a'zosi yoki tizim to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilish uchun qanday hisobotlar taqdim qilinishi mumkin (masalan, muktabdan yoki tibbiyot xizmatlarini taqdim qiluvchilar)?

➤ Ma'lumotlar qachon tahlil qilinadi va oilaning qisqacha monitoringi qachon yakunlanadi?

➤ Ijtimoiy xodim oila bilan mazkur muammolar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qay tarzda bo'lishadi?

Baholash uchun birlamchi rejada ijtimoiy xodim oilaning davolashga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash uchun bola va oila bilan suhbat o‘tkazishi lozim. Uchrashuvlarning to‘rtta turi mavjud:

Oila bilan uchrashuv. Agar imkoniyat mavjud bo‘lsa, va bu oila a’zolarining barchasi uchun xavfsiz bo‘lsa, ijtimoiy xodim jamiki oila bilan ish olib borishlari lozim. Bu esa o‘z navbatida, oilaning har bir a’zosi nimani kutishni avvaldanoq bilishini kafolatlaydi; aloqa ochiq bo‘ladi va oila a’zolari o‘rtasida to‘liq tasdiqlanadi; barchaning ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Mazkur birinchi muloqot davomida ijtimoiy xodim oilaga dastlabki baholash natijalarini muhokama qilish imkoniyatini taqqid qilish, oilani baholashni amalga oshirish rejasiga bilan bo‘lishish va rejalashtirish va ishtirok etish to‘g‘risida bitimga erishishga intilishi lozim. Ijtimoiy xodim oilaga oilani baholashning maqsadi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar berishi va texnik yoki kasbiy terminologiyadan qochishlari lozim. Shuningdek, ijtimoiy xodimning asosiy maqsadi oilaga bolani xavfsizlikda saqlash va aniqlangan muammolarni hal etish, kelajakda bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo‘lish xavfini pasaytirishdan iborat ekanligini alohida ta’kidlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy xodim oilaning fikri va uning ayni vaqtdagi vaziyati to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurga ega bo‘lishga harakat qilishi lozim.

Oila dinamikasini chuqurroq anglash uchun kirish sessiyalarida baholash uchun butun oila bilan kamida bir marotaba yig‘ilish o‘tkazish zarur, bunga sabab, rollar va o‘zaro munosabatlarni kuzatish hamda baholashdan iborat. Ijtimoiy xodimlar shuningdek, muloqot modellari, ittifoqlar, rollar va munosabatlar, o‘zaro munosabatlarning odatiy modellari, shuningdek, oila bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tushunchalari masalalarini ham o‘rganishi lozim.

Oilanning alohida a’zolari bilan uchrashuv.

Oilanning alohida a’zolari, jumladan, bolalar bilan ham uchrashuvlar amalga oshirilishi lozim. Har bir yig‘ilish boshida ijtimoiy xodim suhbatning asosiy maqsadini aniqlashtirib olishi va umumiyligi qiziqishlarni aks ettiruvchi sohalarni belgilab olish usuli yordamida munosabatlar

ortib borishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan, masalan, faqatgina alohida uchrashuvlar jarayonida ochilishi mumkin bo‘lgan maxfiy ma’lumotlarga tegishli holatlarga solib qo‘yishdan qochishi lozim. Zarurat tug‘ilganda yoki iltimosga ko‘ra ijtimoiy xodim shuningdek, xavf omillariga aylanishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga duch kelgan mijozlarga xizmat ko‘rsatish yoki manbalarga oid bo‘lgan maslahatlarni taqdim qilishlari lozim.

Ijtimoiy xodim oilani baholash uchun asosiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan holda ko‘pincha, hamjamiyatning boshqa xizmat taqdim qiluvchilari baholashda yordam ko‘rsatish uchun jalg qilinishi mumkin. Boshqa xizmatlarni taqdim qiluvchilar esa mijozning qo‘sishimcha professional baholashni talab etuvchi muayyan holati yoki xulqidan kelib chiqqan holda maslahatlarni amalgaga oshirish lozim.

Masalan:

➤ bola yoki ota-onan tashxis qo‘yilgan jismoniy muammolarni, salomatlik yoki xulqiy o‘zgarishlarni yoki bolaning hissiyotlari yoshga mos emasligi (masalan, o‘ta faollik, o‘ta g‘amginlik va qayg‘u, surunkali uyqudagi bosinqirashlar, uyquda siydik tuta olmaslik, uyda yoki mакtabda o‘zini tajovuzkor ravishda tutish);

➤ ota-onan nazorat qilish imkonini mavjud bo‘lmagandek xulq yoki hissiyotlarni, masalan, zo‘ravonlik, haddan tashqari apatiya, ruhiy zo‘riqish, yoki kayfiyatning tez-tez o‘zgarib turishini ko‘rsatadi;

➤ bola yoki ota-onan kimyoiy tobeklikka ega.

Oilarning kuchli tomonlari va mavjud xavflar to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun oila to‘g‘risida to‘plangan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish va baholash zarur. Ijtimoiy xodim dastlabki baholash natijalarini qayd qilishda muayyan murakkabliklarni his qiladi, shu sababli u fanlararo jamoa bilan maslahatlarni amalgaga oshirish yoki jamiyatdagи muammolarni ifodalashni baholash maqsadga muvofiqmi yoki yo‘qmi ekanligini aniqlash maqsadida o‘z rahbariga murojaat qilishi lozim

Garchi tahlil aniq baho berish zarurati mavjudligini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, quyidagi yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tilishi lozim:

➤ yo‘nalish sababi, jumladan, baholashning aniq sohalari, chunki ular yomon munosabat xavfiga tegishli;

- ota-onalarni yo‘nalish to‘g‘risidagi bilimlari va ularning munosabatlari;
- baholashning vaqtga oid doiralari, va agentlikka zarur bo‘lganda xizmat taqdim qiluvchidan hisobot talab qilish;
- baholash natijalari bo‘yicha taqdim qilinadigan hisobot turi;
- baholashning maqsad va vazifalari (masalan, ota-onalarning spirtli ichimliklarni iste’mol qilishi va bu holatning ularning ota-onalik qobiliyatiga ta’siri);
- ijtimoiy xodim qaror qabul qilishida yordam ko‘rsatishi uchun javob berishi lozim bo‘lgan aniq savollar;
- maxfiylik to‘g‘risidagi press-relizga bo‘lgan zarurat.

Oilaviy baholash bo‘yicha yo‘riqnomasi.

Yo‘naltirish sabablari. Asosiy sabablarning qisqacha yakuniga ko‘ra mazkur oila bolalarni parvarishlash bo‘yicha xizmatlardan foydalanish hamda va oila bilan birgalikda ishlab chiqilgan xavfsizlikni ta’minlash sharoitlarini belilab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ma’lumotlar manbai. Baholash jarayonida foydalaniladigan ma’lumotlarning barcha manbalarini aniqlash oila va boshqa shaxslar, yoki baholash bo‘yicha ma’lumotlarga daxldor bo‘lgan tizimlar bilan bog‘liq aniq sanalarga tegishli bo‘ladi.

Ma’lumotni ta’riflash. Oilaviy tizimni oilada ifodalangani kabi ta’riflang. Oila a’zolarining isnlari, yoshi va asosiy tarbiyachiga munosabatini, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash manbalari, shuningdek, maktab yoki kasbiy tayyorlash muassasadagi maqomi kabilarni ham qamrab olish lozim. Uy xo‘jaligining ayni vaqtidagi vaziyatini, jumladan, mijozning atrof-muhitini, ayniqsa xavfsizligiga oid bo‘lgan holatlarni ta’riflang.

Oilaning muammolari, ehtiyojlari va kuchli tomonlarini namoyon qilish. Zarurat tug‘ilganda muammoning rivojlanish tarixini va uni hal etishning avvalgi urinishlarini, shuningdek, oila a’zolarining aynan shu vaqtida mazkur muammoni hal etishda ishtirok etishga tayyorlik darajasini izohlashni qamrab oladi. Bundan tashqari, oilaning maqsadlari va ularning har bir muammoga bo‘lgan munosabatlarni aniqlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adam Barnard Values, ethics and professionalization: a social work history. Maidenhead: Open University Press. 2008.
2. Arlene Vetere Structural Family Therapy/ Therapy Matters: Structural Family Therapy. Child Psychology & Psychiatry Review Volume 6, No. 3, 2001 – P. 137-140.
3. Career Skills Library: Professional Ethics and Etiquette, Third Edition Copyright ©1998, 2004, 2009 by InfoBase Publishing.
4. NASW (National Association of Social Workers) (1958) Working definitions of social work practice, Social Work.
5. Reamer, F.G. Social Work Values and Ethics, 2nd edn. New York: Columbia University Press. 2006.
6. General Social Care Council Codes of Practice. London: General Social Care Council. 2004.
7. Хрестоматия «Основы социальной работы». Составители Ганиева М.Х., Карамян М.Х., Проект «Укрепление образования, практики и профессии «Социальная работа» в Узбекистане», РЦСАД – ТГИК – МВССО – МНО – ЮНИСЕФ. – Ташкент, 2011.
8. Эйдемиллер Э. Г., Добряков И. В., Никольская И. М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. Учебное пособие для врачей и психологов. Изд. 2-е, испр, и доп. – СПб.: Речь, 2006,
9. Дж.Браун, Д. Кристенсен. Теория и практика семейной психотерапии. 3-е международное издание. – Санкт-Петербург, Москва, Харьков, Минск. 2001.
10. Прокофьева Г.П. Этика: курс лекций. Хабаровск: ДВГУПС, 2007. – С. 100.
11. Медведева Г.П. Этика социальной работы. – Москва: Владос, 2002. – С. 40.
12. Sarah Banks Professional Ethics in Social Work—What Future? Br. J. Social Wk. (1998) 28, – P.213-231.

13. Code of ethics and Standards of practice handbook second edition – 2008. Includes amendments to the standards of practice, effective October 1, 2010 and February 13, 2011. – P. 1-2.
14. The Code Jf Ethics for Social Work. Statement of Principles. Copyright © British Association of Social Workers.2012. – P. 7
15. Ярская-Смирнова Е. Профессиональная этика социальной работы: Учебник. – Москва, 1998. – С. 42-44.
16. Митрошенков О.А. Философия: учебник. Этические дилеммы и ценностные противоречия в социальной работе. – Москва: Гардарики, 2002. – С.56.
17. Гусейнов, А.А. Античная этика: научное издание / А.А. Гусейнов; Ин-т философии РАН, Филос. фак. МГУ им. М.В. Ломоносова. – Москва: Гардарики, 2004. – С.270.
18. Cynthia Bisman Social Work Values: The Moral Core of the Profession. // British Journal of Social Work (2004).
19. Brian Cronin Value Ethics: A. Lonergan Perspective. – Nairobi, Kenya: Consolata Institute of Philosophy Press. 2006.
20. Consumer Protection – Problems and Prospects.pdf Electronic copy available at: <http://ssrn.com>.
21. Charles Zastrow Introduction to Social Work and Social Welfare, Tenth Edition Charles Zastrow – USA. George Williams College of Aurora University.
22. Мельникова Н.Е. Феномен маргинальности в системе культуры: социально-философский анализ: автореф. дисс. ... канд. филос. наук. М.: 2007.

GLOSSARIY

Ijtimoiy ish aksiologyasi – ijtimoiy ishning kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan, ilmiy-asoslangan qadriyatlari to‘g‘risidagi ta’limot.

Altruizm – boshqa odamlarga xolis xizma qilishdan iborat bo‘lgan ma’naviy prinsip, ularning farovonligi uchun fidokorlik.

Xayriya – yaqiniga hamdardlikni namoyon qilish, yordamning nodavlat shakli.

O‘zaro yordam ko‘rsatish – o‘zaro bir-biriga yordam ko‘rsatish; nisbatan tor ma’noda – ibtidoiy jamoada mehnat va xususiy mulkchilik bo‘yicha taqsimlashning paydo bo‘lishi bilan bo‘lgan almashinuv shakli.

Volontyorlik (ko‘ngillilik) – xolislik asosida ixtiyoriy yordam ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarni ko‘ngilli ravishda qabul qilish.

Gedonizm – asosiy maqsadi rohatlanish, qoniqish prinsiplariga yo‘naltirilgan axloqiy-falsafiy ta’limot.

Genezis – qandaydir hodisaning tug‘ilishi, shakllanishi.

Gumanizm (insonparvarlik) – 1) insonni sevish axloqiy prinsip sifatida; 2) axloqiy-falsafiy yo‘nalish.

Deontologiya – burch haqidagi ta’limot va shaxs(mutaxassis)ning o‘z (kasbiy) majburiyatlarini bajarish jarayonidagi munosib xulqi.

Determinantlar (lotin tilida determinans – aniqlovchi) – belgilovchi bilan bir xil narsa.

Determinizm – barcha hodisalarning sababiy aloqasi va o‘zaro bir-biriga bog‘liq ekanligini tan olish.

Bolalar uylari – yetimlar, tashlab ketilgan va qarovsiz bolalarga vasiylik qilish va tarbiyalash uchun xayriya muassasalari.

Ezgulik – ma’naviy tafakkurning eng umumiy tushunchasi, axloqning eng muhim toifalaridan biri. Ezgulik o‘ziga zid hodisa bo‘lgan yovuzlik bilan birga, mohiyatiga ko‘ra ma’naviylik va uning aksi bo‘lgan hodisalar talablariga javob beruvchi ijobjiy va salbiy

axloqiy qiymatlarga ega bo‘lgan ma’naviylik va ma’naviyatsizlikni ajratish va qarama-qarshi qo‘yishning eng umumiy shakli hisoblanadi.

Dogmatizm – avval boshdanoq qabul qilingan, rad qilib bo‘lmaydigan prinsiplar(aqida)larga asoslangan notanqidiy tafakkur.

Burch – axloqning asosiy toifalaridan biri, ma’naviy ehtiyojlarda muayyan shaxs oldida qay tarzda namoyon bo‘lsa, shu tarzda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy zarurat. Burch toifasi shaxsning axloqiy faoliyatini ifodalovchi mas’uliyat, shaxsiy tafakkur, vijdon, sabab kabi boshqa tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq.

Do’stlik – qarashlar umumiyligi va o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan shaxslararo munosabatlar shakli. Yovuzlik – axloqiy toifa bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra ezgulikka zid hisoblanadi; va axloq talablariga zid, ma’naviyatsiz tasavvurlarni eng umumlashtirilgan ifodasi bo‘lib xizmat qiluvchi axloqiy tafakkur tushunchasi, shuningdek, salbiy axloqiy xususiyatlarning umumiy mavhum xususiyati hisoblanadi.

Idealizm – ma’naviyatni ilohiy, g‘ayritabiyy asoslarini taqozo qiluvchi axloqiy yo‘nalish.

Identifikatsiya (mansublik) – anglab olish, aniqlash.

Imperativ – buyruq berish, muqarrarlikni qamrab olgan axloqiy me’yor.

Indeterminizm – narsalar va hodisalarning sababga bog‘liqligini inkor qilish.

Innovatsiya – kashfiyot, yangilikning paydo bo‘lishi.

Imperativ – buyruq, muqarrarlikni qamrab oluvchi axloqiy me’yor.

Instrumentalizm – ong, tafakkurni real vaziyatni hal etish vositasi sifatida ifodalovchi pragmatizm doirasidagi ta’limot.

Intuitivizm – etikaning ong va oqilona tahlil yordamida anglash imkonи mavjud bo‘lmagan ma’naviy haqiqatlarning shubhasiz ekanligini tasdiqlovchi oqimi.

Irratsionizm – ongning tafakkur, hissiyotlar, tuyg‘ular, oqilona e’tiqodga yo‘naltirilganlik asosi sifatida inkor qilinishi.

Toifa – real voqelik va tafakkurning qonuniy, eng ahamiyatli aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy fundamental tushunchasi.

Konformizm – moslashuvchanlik, mustaqil qaror qabul qilishdan voz kechish.

Mezon – hodisaning haqqoniyligi yoki yolg'onligini tasdiqlovchi xususiyat.

Sevgi – fidokorona va chuqur bog'liqlik, yurakdan intilish hissi.

Mentalitet – fikrlashning muayyan ko'rinishi, tafakkur ko'rinishi, tabiat.

Mizantropiya – odamlarni yomon ko'rish, insoniyatga qarshilik.

Rahmdillik – tanaga oid va ruhiy yaxshiliklar vositasida amalga oshiriladigan eng muhim insoniy fazilatlardan biri.

Negativizm – vogelikka nisbatan salbiy munosabat.

Nigilizm – umum qabul qilingan ma'naviy me'yirlarni inkor qilish.

Qashshoqlik – moddiy va mablag' vositalari, mehnat faoliyati ko'nikmalari mavjud bo'lmaganligi sababli me'yoriy turmush tarzini kechirish imkoniyati qolmagan yoki qiyinchiliklar vujudga kelgan holat.

Optimizm – eng yaxshi kelajakka ishonch.

Ortodoksal – qandaydir ta'limotga so'zsiz amal qilish.

Ostrakizm – ta'qib qilish, ommaviy qoralash.

Yetimlik – jamiyatda ota-onasi vafot etgan bolalar, shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi natijasida qarovsiz qolgan, ota-onasi o'rnatilgan tartibda tan olingen bolalarning mavjudligi bilan bog'liq ijtimoiy hodisa.

Oila – nikoh yoki qon-qarindoshlikka asoslangan, a'zolari o'zaro birgalikda turmush kechirish, o'zaro ma'naviy mas'uliyat va yordam ko'rsatish asosida bog'langan odamlarning kichik guruhi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – aholining vaqtincha murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan mehnatga layoqatli alohida

guruhlariga pul mablag'lar, kreditlar, ma'lumotlar, ta'lif olish va boshqa imtiyozlarning taqdim qilinishi.

Ijtimoiy ish – kasbiy faoliyatning, insonga, oila yoki shaxslar guruhiga uning madaniy, ijtimoiy va moddiy darajasini ta'minlash maqsadida yordam ko'rsatishning davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qaratilgan o'ziga xos ko'rinishi.

Maqsadi odamlarga, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va reabilitatsiya qilish vositasida engib o'tishdan iborat bo'lgan kasbiy faoliyat.

Ijtimoiyadolat – jamiyatni tashkillashtirish prinsiplari va shakllarini odamlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlariga javob beruvchi hodisa sifatida ijtimoiy-psixologik qabul qilish, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni umumlashtirilgan ma'naviy baho sifatida qabul qilish. Bu ijtimoiyadolatning jamiyat va shaxs hayot faoliyatiga oid terminlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy axloq (etika) – jamiyatdagi aloqalar va o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi axloq prinsiplari tizimi. Ijtimoiy ta'minot – fuqarolarni keksalik, nogironlik, kasallik, boquvchisini yo'qtish va boshqa holatlarda moddiy ta'minlash bo'yicha davlat va ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish tizimi.

Safsababozlik – 1) soxta gaplar bilan atayin yo'ldan ozdiruvchi; 2) Qadimgi Yunon falsafiy ta'liloti.

Stoitsizm – 1) hayot sinovlarini matonat bilan yengib o'tish; 2) antik davr falsafiy ta'liloti.

Sxolastika – 1) tajribadan uzilib qolgan rasmiy fikrlar; 2) teologik mulohazalarga ratsionalizm elementlarini qamrab oluvchi nasroniyalar etikasining bir yo'naliishi.

Ssientizm – madaniyat tizimida fanning rolini absolyutlashtirish (o'zgarmasligini ta'minlash).

Teleologiya – barcha narsalarning maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi ta'lilot.

Tomizm – Foma Akvinskiy ta’limoti asosida diniy axloq va falsafa.

Tolerantlik – begona e’tiqod va fikrlarga sabrlilik.

Utilitarizm – u yoki bu harakatni, undan kelib chiquvchi foydani ma’naviy baholash mezoni sifatida ta’riflovchi naturalistik etika.

Filantropiya – insonga nisbatan ezgulikka yo‘g‘rilgan munosabat, individual xayriya.

Fluktuatsiya – ierarxiyada qadriyatlar darajasining o‘zgarishi (miqdoriy o‘zgarishlar, muhimlikdagi o‘zgarishlar).

Qadriyatlar – inson uchun muhim bo‘lgan obyektlar yoki obyektlarning inson uchun ahamiyati.

Qadriyatga oid tranversiyalar – qadriyat ma’nosи va mohiyatining o‘zgarishi, ya’ni sifatga oid o‘zgarishlar, mohiyatlarning o‘zgarishi.

Evdemonizm – baxtni eng oliv qadriyat sifatida tan oluvchi naturalistik ta’limot.

Evtanaziya – azob-uqubatlarni to‘xtatish maqsadida davolab bo‘lmaydigan bemorning o‘limini qasddan tezlashtirish.

Emanatsiya – ma’naviy ibtidoning tasavvufga asoslangan holda moddiy dunyoga kirib borishi.

Emotivizm – ma’naviy iboralarni empirik jihatdan tekshirish imkonи mavjud bo‘lмаган hissiyotlarni ifodalashga tenglashtiruvchi ta’limot.

Empatiya – boshqa insonning g‘amiga sherik bo‘lmoq, hissiy holatini anglamoq, uning kechinmalariga sherik bo‘lmoq.

Empirizm – tajriba va hissiy qabul qilishni anglashning yagona haqiqiy manbai sifatida tan olish.

Ijtimoiy ish etikasi – ijtimoiy ish sohasi mutaxassislarining kasbiy axloqi nazariyasi (ta’limoti), ideallar va qadriyatlar, axloqiy prinsiplar va xulq me’yorlari, talab etiladiganlar haqidagi g‘oyalar tizimi, mutaxassis shaxsiga bo‘lgan talablar.

MUNDARIJA

MUQADDIMA	3
1.Bob. Ijtimoiy ishda etika(axloq)ning ahamiyati.....	6
2.Bob. Ijtimoiy ishda etik prinsiplar va qadriyatlar.....	28
3.Bob. Ijtimoiy ishchining kasbiy etikasi.....	46
4.Bob. Etika axloq to‘g‘risidagi fan. Axloqning kelib chiqishi va asoslanishi masalasi.....	68
5.Bob. Axloqiy ta’limotlar tarixi rivojlanishining asosiy bosqichlari.....	79
6.Bob. Oliy ma’naviy qadriyatlar. Amaliy etika masalalari.	99
7.Bob. Etikaning professional kodekslari: xalqaro amaliyot	134
8.Bob. Ijtimoiy ishning deontologik asoslari.....	168
9.Bob. Iste’molchilar huquqlari va konsyumerizm.....	183
10.Bob. Ijtimoiy ishchining o‘zini tutish standartlari va kasbiy layoqatliligi.....	195
11.Bob. Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanish (dillema)lar o‘rganishda qaror qabul qilish jarayoni.....	229
12.Bob. Turli mijozlar va maqsadli guruhlар bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyotining axloqiy masalalari.....	259
13.Bob. Bolalarga qaratilgan ijtimoiy ishning axloqiy tamoyillari.....	272
14.Bob. Oilalar bilan ishlashning axloqiy tamoyillari.....	295
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	316
GLOSSARIY	318

**N.M.LATIPOVA
Q.N.KAYUMOV**

IJTIMOY ISHNING ETIK PRINSIPLARI VA QADRIYATLARI

DARSLIK

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:

Tex. muharrir: A. Moydinov

Musavvir: A. Shushunov

Musahhih: L. Ibragimov

Kompyuterda

sahifalovchi: M. Zoirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 06.12.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasи.

Offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 21,0. Nashriyot bosma tabog'i 20,25.

Tiraji: 300. Buyurtma № 316

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA
UYI» bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi, 7-uy.**



ISBN 978-9943-7686-2-8

A standard linear barcode is positioned vertically. Below it, the ISBN number "9 789943 768628" is printed in a small, black, sans-serif font.